

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim Vazirligi

Sadibekova Bibisora Djapparovna,

XITOIY IQTISODIYOTI

I qism

5341000 - Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik va

5342400 Xitoyshunoslik ta’lim yo‘nalishlari uchun

Ma’ruza matn

Toshkent-2010

MUNDARIJA

1-Mavzu. Xitoy Xalq Respublikasiga umumiy tasnif

- 1.1. Xitoy davlatining joylashuvi
- 1.2. Xitoy davlatining rivojlanish bosqichlari.
- 1.3. Xitoy Xalq Respublikasini tashkil topishi.
- 1.4. Mamlakat iqtisodiy qurilishidagi xatolar («Katta sakrash», «madaniy inqilob»).

2- Mavzu.Xitoy Xalq Respublikasini demografiyasi

- 2.1 Xitoy aholisining tarkibi.
- 2.2 Xitoy Xalq Respublikasi aholisining tabiiy ko'payish masalalari
- 2.3 Aholining bandlik strukturasi.

3- Mavzu. Xitoy Xalq Respublikasi ma'muriy-hududiy bo'linishi va uning iqtisodiy hududlari

- 3.1. XXR ning ma'muriy-hududiy bo'linishi.
- 3.2. XXR ning iqtisodiy hududlari.
- 3.3. Xitoy G'arbiy hududining umumiy tasnifi va unda islohotlar davridagi o'zgarishlar.

4- Mavzu.Xitoyning mintaqaviy siyosati va ishlab chiqarish kuchlarining joylashtirilishi

- 4.1. Xitoy mintaqaviy siyosatining shakllanish xususiyatlari.
- 4.2. Mamlakat iqtisodiy islohotlar natijasida mintaqaviy siyosatning amalga oshirilishi.
- 4.3.1990-2000 yillarda Xitoyda mintaqaviy siyosatning o'zgarish tendensiyalari.
- 4.4. Xitoyni zamonaviy mintaqaviy siyosatining asosiy yo'nalishlari va uning kelajak istiqbollari.

5- Mavzu. Xitoy Xalq Respublikasida iqtisodiy islohotlar

- 5.1.Xitoyda iqtisodiy islohotlarning boshlanishi.
- 5.2.Iqtisodiy islohotlarning maqsad va vazifalari.
- 5.3.Iqtisodiy islohotlarning bosqichlari.

6- Mavzu.: Xitoy qishloq xo'jaligining rivojlanishi

- 6.1. XXR qishloq xo'jaligining tarkibiy tuzilishi.
- 6.2. Xitoyning agrar islohotlari va uning maqsad va vazifalari.
- 6.4. XXR qishloq xo'jaligida islohotlar jarayonniing taxlili.
- 6.5.Mamlakatda yerga bo'lgan munosabat va undan unumli foydalanish masalalari.

6.6.Xitoy qishloq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlikni oshirish va agrotexnika yutuqlarini amaliyotga joriy qilish masalalari.

7- Mavzu.:Xitoy Xalq Respublikasi sanoatining rivojlanish xususiyatlari

7.1. Xitoyda industrial bazaning yaratilishi.

7.2. Xitoy sanoatining tarkibiy tuzilishi va rivojlanish dinamikasi.

7.3. Xitoyda industriallashtirish jarayonining boshlang'ich bosqichi va "To'rtlik modernizatsiyasi" dasturining qabul qilinish.

7.4. Xitoy korxonalarida xo'jalik tizimi islohotlarini amalga oshirilishi.

7.5. Xitoy sanoatini rivojlantirishning yangi strategiyasini ishlab chiqilishi.

7.6. Xitoy sanoatidagi zamonaviy tarkibiy o'zgarishlar.

8- Mavzu.:Xitoyda sotsialistik bozor iqtisodi va xususiylashtirish jarayonining asosiy yonalishlari

8.1. Xitoy Xalq Respublikasida sotsialistik bozor iqtisodining barpo etilishi hamda undagi yirik va mayda xususiylashtirish jarayoni muammolari.

8.2. Xitoyning yirik sanoat korxonalarini sanatsiya qilish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va uni xususiylashtirish jarayonlari.

8.3. Xitoyda xususiylashtirish jarayonining yutuq va kamchiliklari

9- Mavzu.:XXR da byudjet jarayonining qonuniy boshqarilishi.

9.1. Xitoyning byudjet tizimi va byudjetni boshqarish xuquqi .

9.2. Xitoy davlat byudjetini tarkibi.

9.3. Byudjetni ko'rib chiqish va tasdiqlash jarayoni, uni boshqarilishi va nazorati.

9.4.Xitoy moliyaviy siyosatining xususiyatlari va mamlakat byudjet daromadlarini kopaytirish chora-tadbirlari.

10- Mavzu.Xitoy bank tizimi.

10.1 XXR bank tizimi tarkibiy tuzilishi.

10.2 Xitoy bank tizimidagi islohotlar.

10.3 Xitoyning pul birligi

10.4 Xitoydagi xorijiy banklar va moliyaviy tashkilotlar faoliyati.

11- Mavzu.: Xitoy valyuta bozorini shakllanishi.

11.1. Xitoyda Davlat nazorati boshqarmasini tashkil topishi.

11.2. Valyuta ayirboshlash va boshqarish markazlarini shakllanishi.

11.3. Valyuta ayirboshlash va boshqarish markazlarini maqsad va vazifalari.

12- Mavzu. Xitoyda qimmatbaho qog‘ozlar bozorininng shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari.

12.1 Xitoy moliyaviy bozorining shakllanishi.

12.2 Xitoy fond bozorining rivojlanish bosqichlari va ularning xususiyatlari:

a) birlamchi aksiyalar bozori;

b) ikkilamchi aksiyalar bozori;

12.3 Xitoy fond bozorlarini dunyo fond bozorlari bilan integratsiyalashuvi.

Glossariy

1- Mavzu.: Xitoy Xalq Respublikasiga umumiy tasnif.

Reja:

1.1.Xitoy davlatining joylashuvi.

1.2.Xitoy davlatining rivojlanish bosqichlari.

1.3.XXRning tashkil topishi.

1.4.Mamlakat iqtisodiy qurilishidagi xatolar («Katta sakrash», «Madaniy inqilob»).

Tayanch iboralar:rivohlanish bosqichi, iqtisodiy qurilish, katta sakrash, madaniy inqilob, akvatoriya, yarim feodal, kolonial, repressiya, xalq kommunasi, modernizatsiya.

Darsning maqsadi: Xitoy Xalq Respublikasi bo'yicha umumiy tushunchaga ega bo'lish bilan birga, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish bosqichlarida yuz bergan xato va kamchiliklarni ham chuqurroq bilish.

1.1.Xitoy davlatining joylashuvi.

Xitoy Xalq Respublikasi Osiyo mintaqasining sharqiy qismida, Tinch okeanining g'arbiy qirg'og'ida joylashgan bo'lib, uning maydoni 9,6 mln.kv. km tengdir. Maydonining kattaligi jihatidan u dunyoda Rossiya va Kanada davlatlaridan so'ng 3-o'rinda turadi. Uning quruqlikdagi chegara uzunligi 22,8 ming km.ni tashkil etadi va u 15 ta davlat bilan chegaradoshdir. Xitoy sharqda Koreya Xalq Demokratik Respublikasi bilan, shimolda - Rossiya Federatsiyasi va Mongoliya Xalq Respublikasi bilan, shimoliy-g'arbda - Kozog'iston, Kirg'iziston, va Tojikiston bilan, g'arbda va janubiy-g'arbda Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Nepal, Sikkim va Butan davlatlari bilan, janubda esa, Myanma, Laos va Vetnam davlatlari bilan chegaradoshdir.

Sharqda va janubiy sharqda Xitoy dengiz orqali Koreya, Yaponiya, Filippin, Bruney, Malayziya va Indoneziya davlatlari bilan ham chegaradoshdir. Bundan tashqari, Xitoyni 4 ta dengiz suvlari o'rab turadi, ya'ni: Boxay, Sariq, Sharqiy Xitoy va Janubiy Xitoy dengizlari. Uning umumiy dengiz hududlari maydoni 4,73 mln. kv.km. ni tashkil etadi. Xitoyga tegishli bo'lgan dengiz akvatoriyasida 5400 ta orollar mavjuddir. Ulardan eng yirigi-Tayvan (36 ming kv.km) va Xaynan (34 ming kv. km.) provinsiya-orollari hisoblanadi. Tayvan orolining shimoliy-sharqiy qismida joylashgan

Dyaoyuydao va Chiveyyuy orollari Xitoyning eng sharqiy orollari hisoblanadi. Janubiy Xitoy dengizida joylashgan bir guruh orollar Xitoyning eng janubiy chegarasi Dunshasyundao, Sishasyundao, Chjunshasyudao va Nanshasyundao orollari hisoblanadi.

Xitoy geografik jihatdan rang-barang bo'lib, bu yerda ulug'vor tog'lar, keng past-tekisliklar, qir-adirlar mavjuddir. Agarda, Xitoy hududiga yuqoridan qaralsa, u g'arbdan sharqqa tushib boruvchi to'rt pog'onali zinapoyani eslatadi. Bu zinapoyaning eng baland pog'onasi dengiz sathidan o'rtacha 4 ming m. balandlikdan o'rin olgan Sinxay-Tibet tog' tizmalari joylashgan bo'lib, u «Dunyo tomi» deb ham ataladi. Bu tog' tizmasida Kunlun, Gandiso'shan va Himolay tog' cho'qqilari joylashgandir. Bundan tashqari, u yerda ko'pgina muzliklar hamda balandligi 8848 metrdan iborat Himolayning eng baland cho'qqisi- Jamalungma chuqqisi joylashgandir. Zinapoyaning ikkinchi pog'onasida Ichki Mongoliyaning tog' tizmalari joylashgan bo'lib, unda o'rmonlar, Yunnan-Guychjou tog' tizmasi va Tarim chuqurligi, undan tashqari dengiz sathidan o'rtacha 1-2 ming m. balandlikda joylashgan Djungar va So'chuan pastliklari o'rin olgan. Zinapoyaning uchinchi pog'onasi dengiz sathidan 500-1000 m. balandlikda joylashgan Katta Xingan tog'idan boshlanib, Tayxanshan, Ushan va Syufenshan tog'lari bilan davom yotadi. To'rtinchi zinapoya esa, dengiz sathidan 200 metr chuqurlikda joylashgan kontinental shelfdir.

Xitoy hududida 1500 ta daryolar mavjud bo'lib, ularning umumiy maydoni 1000 kv.km.ni tashkil etadi. Bu daryolardan Xitoy o'zining gidroenergetik resurslarining 680 mln.k.Vt.ini ishlab chiqadi va bu ko'rsatkich bo'yicha u dunyoda birinchi o'rinda turadi. Xitoyning yirik daryolariga Yanszi, Xuanxe, Xeylunshyan, Chjuszhan, Lyaoxe, Xayxe, Xuayxe va boshqalar kiradi.

Yanszi Xitoyning eng yirik daryolaridan biri bo'lib, u o'zining uzunligi bo'yicha Janubiy Amerikadagi Amozonka va Afrikadagi Nil daryolaridan keyin, dunyoda uchinchi o'rinda turadi. Uning uzunligi 6300 km. dan iboratdir.

Xitoy turli xil yer osti qazilmalariga ham boy bo'lib, amaldagi Mendeleyev jadvalidagi deyarli barcha elementlar mavjud bo'lib, ulardan 20 tasi esa, kamyob va bebaxo hisoblanadi. Foydali yer osti qazilmalarining umumiy zaxiralari bo'yicha Xitoy dunyoda 3- o'rinda turadi. Jumladan, mamlakatdagi toshko'mir zaxirasi hozirgi kunda 1 trln.2,49 mlrd tonna deb baholanmoqda va uning eng boy ko'mir konlari Shansi provinsiyasida xamda Ichki Mongoliya avtonom rayonida joylashgandir. Asosiy neft konlari esa, mamlakatning shimoliy-g'arbiy, shimoliy-sharqiy va shimoliy hududlarida hamda sharqiy dengiz oldi kontinental shelflarida joylashgandir. Bundan tashqari, qora metall zaxiralaridan: marganes, temir, vannadiy, titan, konlari ham mavjuddir. Xitoydagi temir rudasining zaxirasi ekspertlarning fikricha, taxminan 46,35 mlrd. tonnani tashkil etadi. Bu temir konlari mamlakatning shimolida, shimoliy-sharqida va janubiy g'arbida joylashgan bo'lib, Xitoyning asosiy temir ruda konlari Anshan-Bensi, Xebey, So'chuanlar hisoblanadi. Shunigdek, Xitoyda bir qator rangli metallar: volfram, qalay, surma, sink, molibden, qurgoshin, simob zaxiralari bo'lib, ular bo'yicha mamlakat dunyoda birinchi o'rinlarni egallaydi.

Xitoy o'zining mavjud yer resurslarining tarkibiy tuzulishi va uning joylashuvi bo'yicha uchta asosiy xususiyatga egadir:

Birinchi, unda turli xildagi yerlar mavjud bo'lib, ular: ekin ekiladigan maydonlar, o'rmonlar, cho'l hududlari va qirg'oqlarga bo'linadi;

Ikkinchi, tog'li rayonlar, tog' tizmalari va pasttekisliklardir;

Uchinchi, mamlakatning g'arbida va shimolida joylashgan qirlar, undagi shimoliy-sharqiy va janubiy g'arbiy qismidagi o'rmonlar kiradi.

Hozirgi kunda (2008 y.) Xitoyda ekin ekiladigan yerlarning umumiy maydoni 108 mln.ga. (gektar)ga teng bo'lib, uning asosiy qismiga dehqonchilik rayonlari xisoblangan mamlakatning shimoliy-sharqiy va shimolida joylashgan tekisliklar hamda Yanszi daryosi bo'ylari kiradi. Mamlakatning shimoliy-sharqiy qismida bug'doy, jo'xori, qand lavlagi, dukkakli ekinlar ekiladi. Shimoliy Xitoy tekisligida esa, paxta, don ekinlari va hosildorligi yuqori bo'lgan jo'xori ekiladi.

Xitoy o'rmonlari 128,63 mln. dan iborat bo'lib, uning eng yirik massivlari kichik va katta Xingan tog' rayonida, Chanbayshan tog'larida joylashgandir. U yerdagi asosiy daraxtlarning turlari kedr, qayin, chinor va boshqalar hisoblanadi.

1.2.Xitoy davlatining rivojlanish bosqichlari.

Shuni ta'kidlash lozimki, 1840-yilda boshlangan opium urushi Xitoy tarixida burilish laxzasi bo'lib koldi. XVII-XVIII asrlarda kuchli Yevropa davlatlari o'zlarining tovarlarini ayriboshlash uchun, yangi hududlarni o'zlashtira boshladilar.Uning natijasida esa, kolonial davlatlar tomonidan talon-taroj qilindilar.

Nihoyat, g'arb mamlakatlari hisobiga «Nankin shartnomasi» tuzilib, Xitoy yarim kolonial, yarim feodal davlatga aylanib qoldi.

1919-yilda Xitoyda burjua-demokratik revolyutsiyasi bo'lib o'tadi. Bu inqilob natijasida Sin dinastiyasi ag'dariladi va shunday qilib, 2000 yildan ko'proq vaqt mobaynidagi feodal imperatorlik dinastiyasiga xotima berildi hamda yangi Burjua hukumati tuzildi.

1919-yilda bo'lib o'tgan antiimperialistik harakatlar Xitoy siyosiy maydoniga yangi kuchlarni olib kirdi, ya'ni Xitoy proletariati Xitoy ijtimoiy hayotida faol ishtirok eta boshladi.

1921-yilda Shanxayda Kommunistik to'garakning Umum Xitoy 1- s'ezdi bo'lib o'tdi. Unda Mao Szedun qatnashdi va kommunistik partiya tashkil etilganligi e'lon qilindi. Xitoy kommunistik partiyasi Xitoy xalqi ozodligi (erkinligi) uchun kurashini quidagi 4 bosqichda olib bordi.

1. Shimoliy yurish - (1921-1927 yy.)
2. Agrar revolyutsion urushi (1927-1937 yy.)
3. Yaponiya bosqinchilariga qarshi urush(1937-1945 yy.)
4. Ozodlik kurashi (1945-1949 yy.)

1949 yilda Gomindan hukumati ag'darilib, natijada yangi demokratik revolyutsiyasi g'alaba qozondi.

Keyinchalik esa, XXR tarixida mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha besh yillik rejalar tuzildi va hozirgi kunda Xitoyda 12- besh yillik rejasi qabul qilinib, uni amalga oshirish ishlari olib borilmoqda.

Quyida mamlakatdagi besh yilliklar davrlarini ko'rsatib o'tamiz:

1-besh yillik–1956-60 yy.:

2- besh yilli–1961-65 yy.:

3- besh yillik–1966-70 yy.:

4- besh yillik-1971-75 yy.;

5-besh yillik-1976-80 yy.:

6- besh yillik-1981-85 yy.:

7- besh yillik-1986-90 yy.:

8- besh yillik-1991-95 yy.:

9- besh yillik-1996-2000 yy.:

10- besh yillik-2001-2005 yy.:

11- besh yillik-2006-2010 yy.;

1.3.Xitoy Xalq Respublikasining tashkil topishi.

XX asr Xitoyning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy yuksalishi uchun juda mashaqqatli tarixiy davr bo'ldi. Uzoq yillik urushlar xitoy iqtisodiyotini qaloqlashuviga sabab bo'luvchi asosiy omillardan biri bo'ldi. XXRsi tashkil topgungacha mamlakatda hukm surgan feodal byurokratik tizim sharoitida iqtisodiyot barqaror rivojlanmadi. Fuqarolar urushi, o'zaro urushlar va Yaponiya agressiyasiga qarshi kurash mamlakat xalq xujaligini izdan chiqardi. 1949 yilning 1-oktyabrida Xitoy Xalq Respublikasining tashkil topganligi e'lon qilinib, mamlakatda boshqa bir tizim hukmron bo'lgan bo'lsada, mamlakat iqtisodiyoti juda qaloq ahvolda edi. Albatta, buning sababi mehnatga yaroqli aholining urushga safarbar qilinishi, mamlakat ijtimoiy hayotida barqarorlikning yoqligi, davlat boshqaruv tizimlarining tez-tez o'zgarib turishi va shunga o'xshash omillar bilan bog'liqdir.

1949 yilda Xitoyda yetishtirilgan don mahsulotlari 113,8 mln.t., paxta ishlab chiqarish 444 ming t ni tashkil etib, bu ko'rsatkich 1936 yilga nisbatan mos ravishda 30% va 48%ga kamayib ketdi. Mamlakatdagi mavjud qoramollar soni 16%ga, umumiy qishloq xo'jaligi esa, 30%ga tushib ketdi. Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi keskin ravishda pasayib ketib, g'alla hosildorligi 10,24 sentnerni, paxta xosildorligi esa- 1,575 s.ni tashkil etdi.

Vaholanki, shu davrda Xitoyning YaMMdagi qishloq xo'jaligini ulushi 80-90% tashkil etardi.

XX asr boshida Xitoy yagona siyosiy davlat bo'lib birlashmaganligi sababli, bunday ahvol asr oxirigacha saqlanib qoldi.

Ma'lumki, Xitoy Xalq Respublikasi "Bitta davlat- ikki tizim siyosati" tamoyili asosida rivojlanayotgan mamlakatdir. Buning sababi, oxirgi yillarda mamlakatda ikki tizimda, ya'ni sotsialistik va bozor munosabatlari tizimida rivojlanayotgan hududlar orasida siyosiy muommolar yuzaga kelishidir. Ularni hal etish va yaxshilash uchun Xitoy Markaziy hukumati jiddiy harakatlar olib bormoqda.

1949 yildan so'ng, XXRda Markaziy davlat boshqaruvi joriy etilib, urushda inqirozga yuz tutgan xalq xo'jaligi tizimi asta- sekinlik bilan izga tushirila boshlandi. Shu yillardan boshlab, mamlakatdagi siyosiy tizim va uning iqtisodiyoti, ijtimoiy hamda madaniy rivojlanish muommolari mamlakatning eng muhim va birinchi navbatda hal qilinishi lozim bo'lgan masalalari sifatida qabul qilindi. Xitoyda ilgari asosiy korxonalar, mahalliy kapitalistlar va gomindan hukumati qo'lida bo'lgan edi. Mamlakatda barpo etilgan yangi hukumat esa, aholi turmush tarzini yaxshilash, iqtisodiyotni rivojlantirish, xalq xo'jaligini yo'lga qo'yish maqsadida, Xitoydagi mavjud byurokratik hukumatga tegishli bo'lgan kapitalistik korxonalarni musodara qildi va ular davlat tasarrufiga o'tdi, ya'ni milliylashtirildi. Sanoat, transport va aloqa tizimidagi to'plangan kapitalning 4/5 qismi davlat tomonidan musodara qilindi.

1949 yilning oxiriga kelib, mamlakatdagi 2850ta korxona davlat sektoriga o'tkazildi va ular mamlakat yalpi mahsulotining 60% ini ishlab chiqara boshladilar. Mamlakatdagi ishlab chiqarilgan elektr energiyasining 58%i, qazib olingan ko'mirning 68%i, cho'yanning 92%i, po'latning 97%i, sementning 68%i, va yetishtirilgan paxtaning 53%i davlat sektori ulushiga to'g'ri keldi. Temir yo'l tarmoqlari va boshqa transport tizimlarining katta qismi, mamlakatdagi banklar, tashqi savdoning asosiy bo'lagi davlat nazorati ostiga o'tkazildi. Lekin, mamlakatdagi yakkahokimlik tizimi davlatni siyosiy, iqtisodiy boshqaruvida qator xatolarga yo'l qo'yishiga olib keldi.

1949 yilning 1-oktyabrida Tyananmen maydonida 300 ming nafar aholi yig'ilib, Xitoy Xalq hukumati raisi Mao Szedun tomonidan Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topganligi e'lon qilindi. Keyinchalik, mamlakatda asosiy e'tibor (1950-52 yy.) xalq xo'jaligini tiklashga qaratildi va 1953-56 yillarda qishloq xo'jaligida sotsialistik o'zgarishlar amalga oshirildi. Mamlakatdagi kustar sanoat va kapitalistik tizimga asoslangan korxonalar o'zgartirilib, ishlab chiqarish vositalariga umumxalq mulki sifatida qarash holati xalq ongiga singdirilib borildi. Shu asnoda, yangi demokratiyadan sotsializmga o'tish yakunlandi.

1.4.Mamlakat iqtisodiy qurilishidagi xatolar («Katta sakrash», «Madaniy inqilob»).

1957-1966 yy. yirik sotsialistik qurilishlar davri bo'ldi. Lekin, bu davrda bir qator kamchilik va xatolar ham bo'ldi. 1956y. XKP VIII-s'ezdida mamlakatdagi industrialashtirish jarayonining birinchi bosqichini tugallash uchun 15 yil muddat belgilandi. Biroq, bu reja "Katta sakrash"ning avantiyuristik dasturi orqali surib chiqarildi. Mazkur «Katta sakrash» dasturi bo'yicha Xitoy, yetti yilda Angliyaga va yana 8 yildan so'ng esa, Amerikaga, hamda 5 yilda Angliyaga yetib olish ko'zda tutilgan edi.

1950-yillarning II- yarmidan va 1970 yillarning II-yarmigacha olib borilgan "Katta sakrash" va "Madaniy inqilob" siyosati aholi o'rtasida ocharchilik, qashshoqlik, qoloqlik va savodsizlikni hamda mamlakatda iqtisodiy tanglik kabi muammolarni yuzaga keltirdi. Mazkur muammolarni hal qilinishi va uning natijasida kelib chiqqan asoratlarni bartaraf etish Xitoy xalqi uchun juda ham qimmatga tushdi. Mamlakat xalq xo'jaliginig keyingi rivojlanishini - amalga oshirilishi lozim bo'lgan iqtisodiy islohotlarga bog'liq bo'lib qoldi.

Xitoy Xalq Respublikasi o'z oldiga mamlakatni industriallashtirishni rejalashtirdi va ushbu yonalishda yangi dastur qabul qilindi. Mamlakatni industriallashtirishning qabul qilingan yangi Xitoy spesifikali kursi bir vaqtning o'zida ham sanoatni, ham qishloq xo'jaligini, kichik va yirik korxonalarni hamda ishlab chiqarishning an'anaviy va zamonaviy turlarini rivojlantirishni ko'zda tutgan edi. Bu dasturga binoan, 1958-1962 yillar

ichida sanoat ishlab chiqarish 6,5 marta, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish esa, 2,5 marotabaga oshirish, po'lat quyishni 100 mln. tonnagacha yetkazish (1950 yillarning 2- yarmida Xitoyda salkam 2 mln. tonna po'lat quyilar edi), alyuminiy ishlab chiqarishni - 33 marotabaga, elektroenergiyani ishlab chiqarishni esa, 20 barobariga oshirish lozim edi. Mamlakatda qabul qilingan «O'z kuchiga tayanish» shiori ostida barcha joylarda kichik korxonalarni tashkil etish va ishlab chiqarish darajasini ahamiyatli tarzda yuqoriga ko'tarish ko'zda tutilgan edi. Hattoki, jamoa korxonalari ham direktiv (yuqoridan buyruq berish asosida) rejalashtirish tartibida ishlar edi. Uning natijasida mamlakat iqtisodiyoti muvozanatining buzilishi, ishlab chiqarish imtizomi va texnik normativlarning buzilishlari yuz berdi. Sanoatning boshqa sohalari orasida qora metallurgiya sohasi ustunroq turar edi. «Katta sakrashning» o'z-o'zini ta'minlash va mahalliy tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlash ko'rsatmalari islohatlardagi boshlang'ich g'oyani buzilishiga olib keldi. Sanoatni boshqarish tizimining hamma bosqichlarida xo'jalik yuritish tashkilotlarida ish olib borish quyidan yuqoriga qarab yo'naltirildi. 1958 yilda 9000 ta korxonadan faqatgina 1000 ta korxona markazga bo'ysunuvchi bo'lib qoldi. Asosiy mahsulotlarni markazlashgan holda taqsimlash sohasi 100 tagacha qisqardi.

«Katta sakrashning» salbiy oqibatlari 1960 yildayoq ko'rina boshladi. Mayda ishlab chiqarishning keng tarqatilishi zamonaviy sanoat ishlab chiqarishni buzilishiga olib keldi. Shu bilan bir qatorda, olib borilgan ishlar mavjud xom ashyoning ulkan miqdorda chiqitga chiqishiga, energiya va mehnat resurslarini keragidan ortiqroq foydalanilishiga olib keldi. Korxonalardagi mavjud texnik nazorat bo'limini bekor qilinishi, kerakli materiallarni yetishmasligi, turli xil past sifatli xom ashyolardan foydalanish natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifati tezlik bilan pasayishiga olib keldi. Agar, ikkinchi besh yilikning birinchi uch yilida ishlab chiqarish 2.5 marotabaga oshgan bo'lsa, keyingi ikki yilda, ya'ni 1961-1962 yillarda, u aksincha, 2 marotabaga qisqardi. Xalq xo'jaligidagi to'liq xo'jalik yuritishdagi anarxiyaning real havfi tug'ilib, uning natijasida «Katta sakrash» kursi bekor qilindi.

1966 yilda yana bir marotaba iqtisodiy rivojlanishda xatoga yo‘l qo‘yildi, ya’ni "Madaniy inqilob» dasturini amalga oshirilishi natijasida, mamlakat yana bir marotaba ulkan talofotga yuz tutdi. Shu yili boshlangan «Madaniy inqilob» partiya va davlat organlarini bir necha yillik faoliyatini barbod qilib, ziyoli va texnik mutaxassislariga nisbatan repressiyalarni kuchaytirish bilan kechdi. Bu esa, xo‘jalik hayotida tartibsizliklarga olib keldi va sanoatni rivojlantirish ishiga juda ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bularni mustahkamlash uchun esa, joylarda markaziy hukumat mintaqalarga o‘z xuquqlarini bir oz kengaytirishga ruxsat berdi va shu yilda ular qo‘l ostiga deyarli hamma kichik korxonalar o‘tkazildi. 1967-1968 yillarda Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topgan so‘nggi yillarga qaraganda sanoat ishlab chiqarilishi 2 marotabaga pasaydi. Bundan ko‘proq metallurgiya, ko‘mir va tekstil sanoatlari talofat ko‘rdi. Xullas, bu “Madaniy inqilob” oqibatida ham mamlakat iqtisodiy jihatdan (600 mlrd yuan miqdorida ziyon kurdi) katta talofotlarga yuz tutdi. 1976 yilda XKPsi MQ keng omma yordamida kontrrevolyutsion guruhlariga qarshi kurashdi va shu bilan yangi tarixiy davrga qadam qo‘yildi.

1978 yil aprel oyi plenumidan keyin, Den Cyaopin boshchiligida olib borilgan iqtisodiy islohotlar va “Ochiq eshiklar” siyosati iqtisodiyot rivojlanishida tub burilishlar yasadi. O‘tgan yillar davomida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklardan saboq oliinib, bilim va tajribalarga asoslangan holda hamda iqtisodiy islohatlar olib borilishi natijasida, Xitoy so‘nggi 10 yilliklarda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishdi. Xitoy o‘zining rivojlanish yo‘lini tanlashda g‘arb mamlakatlari, Sobiq Ittifoq, Yaponiya, Tayvan va Janubiy Koreya davlatlarining rivojlanish modellariga asoslandi. Mamlakat aholisining koplighi, uning madaniy, ilmiy-texnikaviy darajasining pastligi, ekin maydoni, chuchuk suv va energiya resurslarining taqchilligi hamda tabiiy muhitning buzilishi kabi muammolar iqtisodiy rivojlanishda bir qancha iqtisodiy qiyinchiliklarga olib keldi.

Syangan (Gonkong) va Aomen (Makao) larning “alohida ma’muriy rayon” sifatida Xitoy hududiga qaytarilishi mamlakat davlat tuzimini

o'zgartirdi, ya'ni totalitar davlatdan demokratik davlat qurish sari qadam qo'yildi.

2000 yilda birinchi marotaba Xitoyning yuqori organlari yig'ilishida mamlakatni federativ davlatga aylantirish masalasi muhokama qilindi va Butun Xitoy Xalq Vakillari Kengashi doirasida bu jarayon hozirgi kungacha davom ettirilmoqda.

1978 yilning oxirida XKP MK 3 Plenum 11-chaqirigidan so'ng, Xitoy ochiqlik va islohotlar siyosatini amalga oshira borib, sekin-asta "Xitoy spesifikali" sotsialistik modernizatsiya (yangilanish) yo'li tanlab olindi va bu borada qator ishlar amalga oshirila boshlandi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Xitoy yer sharini qaysi kontinentida joylashgan?
2. Xitoy davlati qaysi mamlakatlar bilan chegaradosh?
3. Xitoy davlatini rivojlanish davri necha bosqichni o'z ichiga oladi?
4. Xitoy Xalq Respublikasi qachon tashkil etilgan?
5. Xitoyda birinchi 5 yillik qaysi davrni o'z ichiga oladi?
6. «Katta sakrashning» mohiyati nima?
7. «Madaniy inqilob» nimalarga olib keldi?
8. Xalq ommasi nima sababdan repressiyaga uchradi?
9. 1978 yildagi XKP Markaziy Qo'mitasi 3 plenum 11 chaqirig'i vazifalari nimalardan iborat bo'ldi?
10. Xalq xo'jaligini isloh qilishning boshlanishi nimalarda aks etdi?

Mustaqil ish vazifalari

1. XXR bilan chegaradosh bo'lgan davlatlar va chegara uzunliklari haqida ma'lumot to'plab prezentatsiya tayyorlash.
2. "Gomindan" hukumatiga umumiy tasnif bering.
3. Xitoy kommunistik partiyasining 1949 yillargacha mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish boyicha olib borgan siyosatiga tasnif.

Asosiy adabiyotlar:

1. A. Karimov "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari», T., 2009 y.
2. Китай: факты и цифры, 2008 г. Изд. Синьсин, Пекин, 2009 г.

- 3.Китай: на пути модернизации и реформ, Москва, 2000г. Коллектив авторов.
- 4.Экономика Китая, Ван Менкуй, февраль, 2005 г, Пекин.
- 5.Китайская Народная Республика в 2007 г. Политика, экономика, культура., Ежегодник, /Институт Дальнег Востока РАН.- Москва, «Русская панорама», 2008.- 504 с.

Qo'shimcha adabiyotlar:

- 1.В.К.Ломакин «Мировая экономика»., Москва, 2005 г.
2. «Китай и мир во всем мире» изд.во Синьсинь, Пекин,2004
- 3.ж. «Проблемы Дальнего Востока», 2005-2008 гг.
- 4.ж. «Мировая экономика и международные отношения», М., 2007-2008 гг.

Internet saytlari:

- 1..www.chinapro.ru
- 2.www.chinalist.ru

2- Mavzu.: Xitoy Xalq Respublikasining demografik rivojlanishi»

Reja:

- 2.1.Xitoy Xalq Respublikasi aholisining tabiiy ko'payishi
- 2.2.Xitoy aholisi tarkibi va etnik tuzilishi
- 2.3.Aholining bandlik strukturasi.

Tayanch iboralar: demografiya, tug'ilish koeffisienti, o'lim koeffisienti, aholining tabiiy ko'payishi, demografik portlash, urbanizatsiya, aholi zichligi, kichik millatlar, tug'ilishni rejalashtirish, ishsizlik, bandlik.

Darsning maqsadi: Xitoy Xalq Respublikasi aholisining tabiiy ko'payish masalalarini, uning tarkibi va etnik tuzilishi hamda mamlakatdagi bandlik strukturasi to'g'risida bilimga ega bolishga xizmat qiladi.

2.1.Xitoy Xalq Respublikasi aholisining tabiiy ko'payishi.

Xitoy Xalq Respublikasi aholisining soni bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi. 2009 yil ma'lumotiga ko'ra, Xitoy Xalq Respublikasi aholisi 1,329 mlrd kishini (Syangan MAR va Tayvan provinsiyasi, Aomen rayonidan tashqari) tashkil etdi. U hozirda dunyo aholisining 21% ni tashkil etmoqda.

Xitoy aholisining o'rtacha zichligi 1 kv.km. ga 137 kishini tashkil etadi. Xitoy aholisi uning hududi bo'ylab bir tekisda joylashmagan bo'lib, Sharqiy Xitoyning dengiz oldi rayonlarida aholining zichligi 1 kv.km. ga 410 kishidan ortiq aholi to'g'ri kelsa, Markaziy Xitoyda aholining zichligi 1 kv.km. ga 200 kishidan ortiq to'g'ri kelsa, g'arbiy Xitoyning tog'li hududlarida bu ko'rsatkich 1 kv.km. ga 20 kishidan ham kam kishi to'g'ri keladi.

Xitoyda aholini qayta ro'yxatdan o'tqazish 1953 yilda boshlanib, u har 10-15 yilda amalga oshirilgan, ya'ni: 1964, 1982, 1990 yillar va eng oxirgi aholini ro'xatga olish 2000 yilda amalga oshirildi. Aholining tabiiy o'sish ko'effitsienti 0,6 % ni tashkil etdi. Tug'ulish har bir 1000 kishiga 13,4 kishini, o'lim esa, har bir 1000 kishiga 7 dan to'g'ri keladi. (2007 y.)

XXR tashkil topgan yili, ya'ni 1949 yilda mamlakatning umumiy aholisi 541,67 kishini tashkil etgan bo'lib, ijtimoiy barqarorlik, tibbiy sanitar axvolning yaxshilanishi va davlatning xarbiy sohada «inson resurslari»ning roliga katta ahamiyat berilganligi natijasida, aholining soni juda tez sur'atlar bilan o'sa boshladi. 1969 yilda, ya'ni oradan 20 yil o'tgan vaqt mobaynida Xitoy aholisining soni 806,71 mln. kishiga yetdi.

1970 yillarga kelib, Xitoy hukumati aholining bunday tez sur'atlarda o'sishi mamlakatni iqtisodiy ravnaqqa olib kelmasligini va ijtimoiy sohada bir qator jiddiy muammolar vujudga kelishini tushunib etdi. Undan tashqari, aholini ish va turar joy bilan ta'minlashda, sog'liqni saqlash, transport va xizmat ko'rsatish sohalarida ham qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin edi. Bu davrga kelib, soha mutaxassislari, ya'ni demogroflar, agarda, Xitoy hukumati aholining o'sish sur'atlariga o'zining bu soha bo'yicha ishlab chiqqan chora-tadbirlari orqali ta'sir eta olmasa, bir necha o'n yilliklardan so'ng, nafaqat Xitoy Xalq Respublikasi, balki butun jahonda «demografik portlash» yuz berishi haqida gapira boshladilar. Shu bilan birga ular «Demografik portlash» - ya'ni aholini haddan tashqari ko'p tug'lishi natijasida mamlakat aholisini oziq-ovqat va kiyim-bosh bilan ta'minlashda Xitoy hukumatining moliyaviy resurslari yetishmasligini ham ta'kidladilar.

Xitoy hukumati tug‘ilishni muvofiqlashtirish va rejalashtirish siyosatini amalga oshirishi natijasida aholining o‘sinh sur‘atlari bir muncha pasaydi. Agar, 1969 yilda tug‘ilish ko‘rsatkichi 34,11 promilleni tashkil etgan bo‘lsa, 2005 yilga kelib, bu ko‘rsatkich-14,03 promillega pasaydi. Aholining tabiiy o‘sinh mos ravishda 26,08 promilledan 4,13 promillega pasaydi.

Hozirda ushbu ijtimoiy sohadagi amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida Xitoydagi uning tug‘ilish va o‘lim darajasi hamda hattoki tabiiy o‘sinh darajasi ham pasaymoqda..

2.2.Xitoy aholisi tarkibi va etnik tuzilishi.

2008 yil ma’lumotiga ko‘ra, Xitoy aholisining yoshi va jinsi bo‘yicha tarkibi quyidagicha taqsimlanadi:

0-14 yoshdagilar - aholining 20,8% tashkil etib, undan 145.461.833 kishi o‘g‘il bolalar, 128.445.739 kishi esa qizlardan tashkil topgan.

15-64 yoshdagilar - aholining 71,4 % ni tashkil etib, ulardan 482.439.115 kishi erkaklardan va 455.960.489 kishi ayollardan iboratdir.

65 va undan yuqori yoshdagilar - aholining 7,8 % ni tashkil etib, ulardan 48.562.635 kishi erkaklar, 53.103.902 kishi ayollardan iboratdir.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra Xitoyda 56 ta millat vakillari istiqomat qiladi. Aholining 92 % ni xanlar tashkil etib, qolgan millatlarni rasman ”oz sonli millat” deb yuritiladi. Amalda kichik etno-tillar guruhlar yirik guruhlar bilan birlashtirilgan bo‘lib, ularning real soni ancha ko‘pdir. Etnografiyaga asosan, xitoyda 236 ta til mavjud bo‘lib, ulardan 235 tasi tirik til hisoblanadi va 1 tasi Zhongen tili batamom yo‘q bo‘lib ketgandir. Shuni ta’kidlash lozimki, xitoy janubiy provinsiyalardagi ko‘pchilik aholi rasmiy standartdan ancha farq qiluvchi xitoy dialektlarida gaplashadi.

Asosan Xitoy aholisi quyidagi millat vakillaridan tashkil topgan bolib, ular:

Xanlar, xuyzular, xanilar, lisular, lahular, nasilar, tsianglar, dinolar, dunlar, chjuanlar, gelaolar, lilar, myaolar, yaolar, mug‘ullar, uyg‘urlar, qozoqlar, baylar, tutsyalar, ilar, tibetliklar, manchjurlar, koreyslar.

Tug‘ilishning rejalashtirilishi.

Bizga ma'lumki, tug'ilishni rejalashtirish aholining xohish-irodasiga asosan amalga oshiriladi. Tug'ilishni rejalashtirishning asosiy mezonlari quyidagilardir:

- Kech nikohlarni va kech bola ko'rishni qo'llab-quvvatlash; 1981 yilda Xitoy hukumati yoshlarning turmush qurish yoshini belgilash to'g'risida qonun qabul qildi, unga binoan erkaklar 22 yoshdan, ayollar esa 20 yoshdan kichik bo'lmasligi qat'iy ko'rsatilgandir;
- Oilada farzand ko'rish soni belgilanib, 1 oilaga 1 farzand deb belgilandi;
- Qishloq joylarda agar oilada nogiron farzand tug'ilgan bo'lsa, ularga 2-farzandni ko'rishga va oz sonli millat uchun ham 3 farzand ko'rishga ruxsat berildi.

Xitoy hukumati tug'ilishni rejalashtirish siyosatini birinchi navbatda, mamlakatning aholi zich joylashgan hududlari, shahar va qishloqlarida amalga oshira boshladilar. Ba'zi qishloqlarda, ishchi kuchi yetishmayotgan hududlardagi yosh oilalarda ikkinchi farzand tug'ilishini rag'batlantirishga qaror qilindi. (Lekin birinchi farzand bilan ikkinchi farzand o'rtasida ma'lum bir muddat o'tishi kerak deb belgilandi).

Ko'pgina Milliy Avtonom rayonlarda kichik millatlarning soni va irodasiga muvofiq, tabiiy sharoitlari va iqtisodining holati, madaniy an'analari, ularning urf-odatlaridan kelib chiqqan holda, har bir oilaga ikki, ba'zi bir joylarda esa, uchtdan farzand ko'rish mumkin deb topildi. Juda kam sonli kichik millatlarda tug'ilishni chegaralash siyosatini mutlaqo qo'llash mumkin emasligi kelishilib olindi.

Hozirgi davrda xitoyliklarning «Nikoh» tushunchasida chuqur o'zgarishlar yuz bermoqda. Yoshlar o'z ixtiyorlari bilan hukumat tomonidan belgilangan yoshdan ham kechroq turmush qurishga, o'zlarining moddiy va ma'naviy ahvollarini yaxshilab olishga intilmoqdalar. Har bir oila o'zlarining farzandlarini sog'lom va barkamol bo'lib o'sishini ta'minlashga harakat qilmoqdalar.

Xitoy oilalari. Hozirgi kunda Xitoy jamiyatida 352 mln. oila mavjud bo'lib (2007 y.), har bir 100 oilaga o'rtacha 363 kishi to'g'ri kelmoqda.

Oddiy Xitoy oilalari er-xotin va ularning bolalaridan tashkil topgan bo'lsa, ba'zi bir oilalarda katta avlod kishilari - buva va buvilar ham istiqomat qilishadi. Lekin, ko'pchilik xollarda yosh avlodlarning mustaqil hayot kechirishga intilishlari oqibatida oilalar tobora ixchamlashib bormoqda. Ilgarilari har bir oilada o'zining «bosh rahbari» bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda har bir oila a'zosi o'zaro maslahatlashgan holda hayot kechirib, kelajak rejalarini qurmoqdalar.

Xitoy Xalq Respublikasi ko'p millatli unitar davlatdir. 1990 yil Butun Xitoy aholisini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra, Xan millati umumiy aholining 91,96 foizini, qolgan 55 ta millatlar esa, aholining 8,04 foizini tashkil etdi. Xitoy jamiyatida xan millatidan tashqari barcha millatlarni «kam sonli millatlar» deb hisoblash rasman qabul qilingan.

Xan millati mamlakatning deyarli barcha hududlarida, shu bilan birga, Xuanxe, Yanszi va Chjuszyan daryolarining havzalarida, mamlakatning janubiy sharqiy hududlarida keng tarqalgandir. «Kam sonli millatlar» Xitoy jamiyatida ozchilikni tashkil etsada, ular mamlakat hududining 64,3 foizida istiqomat qiladilar. «Kam sonli millatlar» asosan, Xitoyning Shimoliy-Sharqiy, Shimoliy, Shimoliy-G'arbiy va Janubiy-G'arbiy qismlarida keng tarqalgandir. Yunnan provinsiyasida esa, hozirgi kunda, (janubiy g'arbiy Xitoy) 20 dan ortiq millatlar yashaydilar.

Mamlakatning ko'pgina shahar va uездlarida odatda, millatlar soni kam bo'lib, asosan ularda bitta yoki ikkita millat vakillari yashashadi. Mamlakat aholisini sonida erkaklar salmog'i ustun bo'lib, ular - 50,8% ni, ayollar esa 49,2% ni tashkil etadi. Aholining aksariyat qismini o'rta yoshdagilar tashkil etib, (15-64 yosh) ular - 67,6% ni, bolalar (14 yoshgacha) 25,7 % ni, qariyalar esa (65 yoshdan yuqori) - 6,7 % ni tashkil etadi³.

Xitoy Xalq Respublikasi agrar-industrial davlat hisoblanadi. Uzoq Sharq va Janubiy-Sharqiy Osiyoning boshqa mamlakatlari kabi uning aholi punktlarini hududiy joylashuvida keskin tafovutlar ko'zga tashlanadi: deyarli 90% aholi mamlakat hududining 1/3 qismida to'plangandir. Shunday bo'lsada, aholining 64%i qishloqlarda, qolgan 36%i esa, shaharlarda

³ Демографическое развитие КНР, М., 2000.

yashaydi (2007y.), ya'ni yoqorida ta'kidlanganidek, mamlakatning katta qismida aholi zichligi juda pastdir. Xitoy o'zining urbanizatsiya darajasiga ko'ra, yaqinlashgan sust urbanizatsiyalashgan mamlakatlar qatoriga kirib kelgan. Biroq, shahar aholisining tugilish bo'icha «portlash»i, ja'ni, juda ham tez sur'atlarda o'sishi, uni chetlab o'tmadi. Endilikda shahar aholi punktlarining, yirik shaharlarning (450 ta) va millioner shaharlarning (34ta) umumiy soni jihatidan, shuningdek, shahar aholisining mutloq miqdori bo'yicha Xitoy dunyoda birinchi o'rinni egallamoqda. Xitoy o'zining qishloqlari soniga ko'ra ham dunyoda birinchi o'rindadir: mamlakatda taxminan 700 000 ta qishloq bor.

2.3.Aholining bandlik strukturasi.

Iqtisodiy islohotlar davri mobaynida Xitoy Xalq Respublikasi aholisi 285,5 mln kishiga; mehnat resurslari 359 mln kishiga o'sib, 2007 yilda mehnatga layoqatli aholi soni 901,2 mln. kishini tashkil etdi. Aholining ish bilan bandligi 298 mln. kishiga ko'payib, 2007 yilda qo'shimcha yana 130,6 mln. kishi ish bilan ta'minlandi. Xitoy Xalq Respublikasi aholisining keskin o'sishi va shu bilan birga to'liq bandlikga intilishi islohotlar davomida iqtisodiy o'sishning asosiy omili bo'lib xizmat qildi. Islohotlar davrida ishga yaroqli aholining 95,8% i (1998 yilda bu ko'rsatkich - 82,9% ni tashkil etgan edi.) ish bilan ta'minlandi.

Mamlakatni keng sur'atlarda industrialashtirish siyosati aholini ish bilan ta'minlashda keng imkoniyatlar ochib berdi. Buning natijasida Xitoy jamiyati, boshqa mamlakatlarda bo'lgani singari (Pokiston, Postsotsialistik mamlakatlar va boshqalar) chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqirozlarga tushib qolmadi.

Aholini ish bilan ta'minlash juda sodda texnologiyalar (sifati unchalik yuqori emas) asosida, asosan, ekstensiv yo'nalishda amalga oshirildi. Natijada korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ish joylari tezda to'lib, mehnat resurslaridan foydalanish samarasi pasaya boshladi. Bo'sh ish vaqtini kamaytirish maqsadida 1995 yildan boshlab, davlat korxonalarida xaftasiga «5 kunlik» ish rejimiga o'tildi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, Xitoy shaharlaridagi ishsizlik darajasi islohotlarning dastlabki 10 yilligida 2 karraga qisqardi (1978 y. - 5,3%; 1989 y. - 2,6 %). 1995 yillarda esa ish joylarining sezilarli qisqarishi kuzatildi. Va oxir oqibatda, ishsizlikning o'sish tendensiyasiga olib keldi. Buni 1997-98 yillardagi Osiyo mamlakatlarida yuz bergan moliyaviy inqirozning XXR iqtisodiyotiga salbiy ta'siri natijasida ko'rishimiz mumkin. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda 1998 yilda ishsizlik - 3,1 % ni tashkil etdi.*

2004 yildagi Xitoy ommaviy axborot vositalari tarqatgan ma'lumotlariga ko'ra, ushbu yilda shahar va shahar tipidagi poselkalarda 23,7 mln. kishini qayta ish bilan ta'minlash muammosi yuzaga kelgan. Shulardan 6 mln. ishchilar ishsizlik ro'yxatidan o'tgan, 3 mln. xizmatchilarni esa, muassasalarda qisqartirishga majbur bo'lganlar va natijada qishloqlarda 130 mln.dan ko'proq ortiqcha ishchi kuchi to'planib qolgan.

XXR hukumati mintaqadagi rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rgangan holda, bandlik muammosini hal etishga intilmoqda. Mamlakatda ijtimoiy ta'minotning yangi tizimi ishlab chiqilib, 1990 yillar oxirida «Ishsizlik bo'yicha sug'urtalash» va «Ijtimoiy sug'urta to'lovlarining vaqtinchalik xolatlari» to'g'risida qonun qabul qilindi.

2007 yil ma'lumotiga ko'ra, ish bilan band bo'lganlarning umumiy soni 864,57 mln. kishini tashkil etib, u ishga layoqotlilar sonining 95,8 % tashkil etdi, ulardan qishloq xo'jaligida band bo'lganlar soni - 406,34 mln. kishini (47%), sanoatda band bo'lganlar soni - 216,14 mln. kishini (25%), xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lganlar soni esa - 242,7 mln. kishini (28%) tashkil etdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

- 1.XXR aholisining umumiy soni qancha? (1949 y.da va hozirgi davrda)
2. XXR da aholining zichligi qanday?
3. XXR aholisining urbanizatsiya darajasi qanday?
4. «Demografik portlash» nimani anglatadi, mohiyatini yoritib bering.

* Rasmiy ma'lumlarda ro'yxatdan o'tgan ishsizlik darajasigina aks ettiriladi, real Xitoy ijtimoiy hayotida esa, Xitoy iqtisodchilarining hisob-kitobiga binoan ishsizlik darajasi 8-9% dan kam emasdir. (Bu hisob kitoblarga asosan, shaxarlar va shahar tipidagi qishloq poselkalar aholisiga nisbatan hisoblangan).

5. XXR aholisining tabiiy ko'payish ko'rsatkichlari qay darajada?
6. «Promille» qanday ko'rsatkich?
7. XXR hukumatining «Tug'ilishni rejalashtirish» siyosatini tushuntirib bering.
8. XXR aholisining milliy tarkibi qanday?
9. XXR aholisining yosh bo'yicha tarkibi qanday?
10. XXR hukumati aholining bandlik muammosini qanday hal qilmoqda?.

Mustaqil ish vazifalari:

1. Xitoy va Hindistonning demografik rivojlanishidagi farqlarni solishtirma taxlil asosida amalga oshiring.
2. “Demografik portlash” ning mohiyatini ochib bering.
3. Urbanizatsiya jarayoni va uning Xitoydagi holatini taxlil qiling.

Adabiyotlar:

1. В.К. Ломакин «Мировая экономика», Юнити, Москва, 2005 г.
2. Китай: «Факты и цифры», изд. во: «Синьсин», Пекин, 2005-2009 гг.
3. Китай на пути модернизации и реформ, Москва, 2000 г. коллектив авторов.
5. Демографическое развитие КНР, М., 2000.
4. ж. «Международная жизнь», 2005 г. № 6

Internet saytlari

1. www.chinapro.ru
2. www.chinalist.ru
3. www.china-people.gov.cn.

3- Mavzu.: «Xitoy Xalq Respublikasini ma'muriy-hududiy bo'linishi va uning iqtisodiy hududlari»

Reja

3.1.XXR ning ma'muriy-hududiy bo'linishi.

3.2.XXR ning iqtisodiy hududlari.

Tayanch iboralar: ma'muriy hududiy bo'linish, provinsiya, uezd, volost, milliy avtonom rayonlar, markazga bo'ysinuvchi shahar, iqtisodiy rayon, iqtisodiy salohiyat, iqtisodiy rivojlanish, milliy boyliklar, xorijiy sarmoya, transport kommunikatsiyasi

Darsnin maqsadi: XXR ni ma'muriy-hududiy bo'linishi va uning iqtisodiy hududlari xaqida to'liqroq ma'lumotni egallash

3.1.Xitoy Xalq Respublikasining ma'muriy bo'linishi. Mamlakatda uch pog'onali ma'muriy hududiy bo'linish qabul qilingan bolib, ular quyidagilardan iboratdir: provinsiya, uezd, volost.

Hozirgi kunda Xitoy hududi 23 ta provinsiya, 5 ta avtonom rayon, 4 ta markazga bo'ysinuvchi shaharlarga va 2 ta alohida ma'muriy rayonlarga ajratilgandir.

Provinsiya va avtonom rayonlar - avtonom okruglar, uездlar, avtonom uездlar va shaharlarni o'z ichiga oladi.

Uездlar va avtonom uездlar - volostlar, milliy volostlar va poselkalarni boshqaradilar.

Markazga bo'ysinuvchi shaharlar va yirik shaharlar rayon hamda uездlarga bo'linadi. Avtonom okruglar - uездlar, avtonom uездlar, va shaharlarga bo'linadi.

Avtonom rayonlar, avtonom okruglar va avtonom uездlar - «Milliy avtonomiya» larni tashkil etadilar

Buni biz quyida ko'rsatilgan jadval 3.1.1. orqali ko'rishimiz mumkin.

Xitoyning ma'muriy-hududiy bo'linishi⁴

№	Nomlari	Markazi	Maydoni Ming.km	Aholisi Mln.k.
1.	sh. Pekin	Pekin	16,8	12,59
2.	sh. Tyanszin		11,3	9,48
3.	sh. Shanxay	Shanxay	6,2	14,2
4.	sh. Chunsin	Chunsin	82	30,0
5.	Prov. Xebey	Shiszyachjuan	190	6,48
6.	Prov. Shansi	Tayyuan	156	31,09
7.	Prov. Lyaonin	Shenyan	145,7	41,1
8.	Prov. Szilin	Chanchun	187	26,1
9.	Prov. Xeyluns	Xarbin	469	37,2
10.	Prov. Szyansu	Nankin	102,6	71,1
11.	Prov. Chjenszyan	Xanchjou	101,8	43,4
12.	Prov. An'xoy	Xefey	139	60,7
13.	Prov. Fuszyan	Fuchjou	120	32,6
14.	Prov. Szyans	Nanchan	166,6	41,0
15.	Prov. Shan	Szinan	153	87,4
16.	Prov. Xenan	Chjench jou	167	91,7
17.	Prov. Xubey	Uxan	187,4	58,3
18.	Prov. Xunan	Chansha	210	64,3
19.	Prov. Guandun	Guachjou	186	69,6
20.	Prov. Xaynan	Xayxou	34	7,3
21.	Prov. So'chuan	Chendu	488	84,3
22.	Prov. Guychjou	Guyyan	170	35,5
23.	Prov. Yunnan	Kunmin	394	40,4
24.	Prov. Shansi	Sian	205	35,4
25.	Prov. Gansu	Lanchjou	405	24,7
26.	Prov. Sinxay	Singin	702	4,8

⁴ Китай: факты и цифры, 2008, Пекин, 2009.

27.	Prov. Tayvan	Taybey	36	21,3
Alohida ma'muriy rayonlar				
28.	Syangan alohida ma'muriy r.ni (AMR)	Syangan	1,095	6,3
29.	Aomen (AMR)	Aomen	23,5	0,45
	Avtonom rayonlar			
30.	Ichki Mongoliya avtonom rayon	Xux-Xoto	1183	23,07
30.	Guansi-Chjuanavt.r/ni	Nainin	236,3	45,9
31.	Tibet avt.r.ni	Lxasa	1220	2,44
32.	Ninsyau Xuey avt. R.ni	Inchuan	66,4	5,2
33.	Sinzsyau-Uygur avt.r.ni	Urumchi	1600	16,9

3.2.XXR ning iqtisodiy hududlari.

Xitoy Xalq Respublikasi hukumati 1986-yilda hududiy rejalashtirishni takomillashtirish maqsadida mamlakat hududini uchta iqtisodiy zonaga ajratdi:

- * Sharqiy iqtisodiy zona
- * Markaziy iqtisodiy zona
- * G'arbiy iqtisodiy zona

Sharqiy dengiz bo'yi zonasi iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan bo'lib, unda sanoat markazlari va tugunlarining ko'pchiligi hamda ko'plab qishloq xo'jaligi rayonlari, transport magistrallari, deyarli barcha dengiz portlari joylashgan. Eng yirik shaharlar ham ushbu zonadan joy olgandir.

Sharqiy dengiz bo'yi iqtisodiy zonasiga quyidagi provinsiyalar va shaharlar kiradi:

Provinsiyalar va ularning markazlari:

Xeylunshyan - Xarbin

Szilin - Chanchun

Lyaonin - Shenyau

Xebey - Shiszyachjuan

Pekin*

Tyanszin*

Shanxay*

Shandun – Szinan

Tayvan - Taybey

Szyansu - Nankin

Chjeszyan - Ganchjou

Fuszyan - Fuchjou

Guandun - Guanchjou

Syangan

Aomen-Makao

Xaynan - Xaykou

Bu iqtisodiy rayonlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

1.Ushbu rayon mamlakatning dengiz oldi qismlarida joylashgan bo'lib, barcha portlar shu rayondan o'rin olgan.

2.Mamlakatning poytaxti va markazga bo'ysinuvchi 4 ta shahardan 3 tasi, ya'ni Pekin, Shanxay va Tyanzsin shaharlari shu rayonda joylashgan bo'lib, ular mamlakatning industriya, savdo, bank, turizm va moliya markazlariga aylangan.

3.Iqtisodiy zonaning janubiy qismida iqtisodiy va siyosiy imtiyozlarga ega bo'lgan Syangan va Aomen maxsus iqtisodiy rayonlari hamda Xaynan provinsiyasi (erkin iqtisodiy zona) joylashgandir. Tayvan provinsiyasi bugungi kunda XXR hukumatiga siyosiy jihatdan bo'ysunmasada, Xitoy iqtisodiyotiga juda katta sarmoyalar kiritish orqali mamlakatning yaxlit iqtisodiy negizini ta'minlaydi.

4.Bu iqtisodiy rayon mamlakat umumiy maydonining 14% va umumiy aholining 13% ini tashkil etsada, umumiy sanoat ishlab chiqarishning 70% dan ko'prog'ini beradi⁵.

5.Bu iqtisodiy rayonda mamlakatning aksariyat «ochiq iqtisodiy zonalari joylashgandir».

*Markazga bo'ysinuvchi shaharlar

Lyaonin provinsiyasi mamlakat sanoatining rivojlanishi bo'yicha oldingi o'rinlarni egallaydi. Sanoat ishlab chiqarish tarkibida mashinasozlik va metallurgiya salmog'i boshqa tarmoqlar salmog'idan ancha yuqoridir. Bu rayon ko'mir qazib olishda yetakchilik qiladi. Eng ko'p miqdordagi ko'mir Lyaonin provinsiyasidagi Fushun va Fusin konlaridan qazib olinadi. Undan tashqari, bugungi kunda ko'mir qazib olish Besi, Beynyao, Lyaoyuanda konlarida ham yo'lga qo'yilgan.

Xitoy hukumati 1984 yilda tashqi dunyo uchun dengiz bo'yidagi 14ta shaharlarni ochiq deb e'lon qildi, binobarin, ular bevosita tashqi iqtisodiy aloqalar olib borish huquqiga ega bo'ldilar.

Xitoy Xalq Respublikasining poytaxti Pekin shahrining ham ushbu iqtisodiy hududda joylashganligi muhim ahamiyatga egadir. U Buyuk Xitoy tekisligida dengizdan 170 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, u turli davrlarda turli nomlar bilan atalgan. Hozirda mamlakatning poytaxti bo'lgan Pekin shahri (Bei Jing - Shimoliy poytaxt) sharqiy Osiyoning industriya, bank-moliya va turizm markazlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Xitoyning eng katta shaharlaridan yana biri – bu Shanxay shahridir. Shanxay dengizdan 50 km. uzoqlikda Yanszi daryosiga quyiluvchi Xuanxe daryosi bo'yida joylashgan bo'lib, u dunyodagi eng katta portlardan biri va mamlakatning ko'p minglab sanoat korxonalari hamda moliya muassasalari to'plangan markazdir. 2002 yillardan to hozirgi kunlargacha u yerda XXR ning eng zamonaviy metallurgiya kombinatlari va qudratli atom elektrostansiyalari (AES) qurilib ishga tushirilmoqda. Ular natijada yon-atrofga joylashgan provinsiyalar energiya bilan to'liq ta'minlanmoqda.

Markaziy va g'arbiy iqtisodiy mintaqa mamlakat umumiy maydonining 3/4 qismini, umumiy aholining 2/3 qismini hamda 20 dan ortiq kichik millatlarni birlashtiruvchi, umumiy chegaralari 20 ming km. dan ortiq hududni egallagan mintaqadir.

Markaziy iqtisodiy rayon

Provinsiyalar - Markazlar

Shansi - Tayyuan

⁵ Xitoy Bosh statistika qo'mitasi ma'lumotlari, Pekin, 2007 y.

Xenan - Chjenchjou
Anxoy - Xefey
Xubey - Uxan
Guansi-Chjuan - Nankin
Xunan - Chansha
Szyansi - Nanchan
Ichki Mongoliya* - Xux-Xoto
Ninsya-xuey - Inchuan

Ushbu iqtisodiy hudud mamlakatning ichki hududi hisoblanib, xalq xo‘jaligi asosan, milliy iqtisodiy resurslarga, ya’ni tog‘-kon resurslariga, sersuv daryolarga (mamlakatning eng yirik Yanszi va Xuanxe daryolarining asosiy basseyni ushbu hududni qamrab oladi) boy bo‘lib, bu iqtisodiy rayon sanoat ishlab chiqarishida milliy kapital ustunlik qiladi.

Markaziy iqtisodiy rayon tabiiy boyliklardan ko‘mir, neft, temir va rangli metall ruda konlariga ham boydir

G‘arbiy iqtisodiy hudud:

Provinsiyalar-Markazlar

Yunnan - Kunmin
Gansu - Lanchjou
So‘chuan - Chendu
Guychjou - Guyyan
Tibet - Lxasa
Sinxay - Sinin
Chunsin*
Sinszyan Uygur**

Mazkur Iqtisodiy rayonning o‘ziga xos xususiyatlari:

Ushbu rayon mamlakat umumiy hududining juda katta qismini, ya’ni 56% ni egallagan bo‘lsada, uning YaIM dagi ulushi sezilarli darajada kamdir. Agar bu ko‘rsatkich 1990 yillarda 16,4% ni tashkil etgan bo‘lsa,

* Bu iqtisodiy hududda uchta avtonom rayonlar joylashgan.

* Chunsin markazga buysinuvchi shahardir.

** Iqtisodiy hududda ikkita avtonom rayonlar mavjud.

2000 yillar o'rtalariga kelib, hatto 14% gacha pasayib ketdi, bugungi kunda bu ko'rsatkich ancha o'sib, 17,2 % ni tashkil etmoqda.

Shu bilan birga, bu iqtisodiy hudud tabiiy resurslar, ayniqsa, neft konlariga boy bo'lib, bugungi kunda u mamlakatning deyarli energetik bazasiga aylangandir.

G'arbiy iqtisodiy rayon asosan, dehqonchilik va chorvachilikka ixtisoslashgan bo'lib, undagi Sinszyan Uygur Avtonom rayoni mamlakat yengil sanoatini paxta xom ashyosi bilan, Ichki Mongoliya avtonom rayoni esa, mamlakatni go'sht va sut mahsulotlari bilan ta'minlaydi.

Xitoy Xalq Respublikasining tabiiy boyliklari o'z ichiga 45 turdan ortiq turli minerallarni olib, ularning umumiy qiymati 87 trln. doll.ni tashkil qiladi. O'zining tabiiy resurslar bo'icha mavjud salohiyati bilan Xitoy hozirgi kunda dunyoda 3-o'rinda turadi. Tabiiy boyliklarining 91%i mamlakatning markaziy va g'arbiy qismida joylashgandir. Uning dengiz oldi va ilgari o'zlashtirilgan hududlarida tabiiy boyliklari hozirgi kunda tugab bormoqda. Mutaxassislarning izlanishlariga ko'ra, sharqiy iqtisodiy rayonda energetika va xom ashyoni qayta ishlovchi sanoatning ulushi 10% dan 30% ni tashkil etadi, aksincha, markaziy va g'arbiy rayonlarda bu ko'rsatkich 50% dan oshadi. Masalan, alyuminiy, qo'rg'oshin, sink, vannadiy, magniy, nikel va boshqa noyob metallar, minerallarning ulushi markaziy hamda g'arbiy rayonlarda 33% dan 98% ni tashkil etadi. Ko'mir xavzasi Tyanshan tog'idan to Guychjou provinsiyasiga qadar cho'zilgan. Mazkur mahsulot yana Ichki Mongoliya avtonom rayonida ham mavjuddir. U yerlarda mamlakat ko'mir zahiralarining 60% dan ortig'i joylashgan. Olib borilgan hisob-kitoblarga ko'ra, Sinszyan Uyg'ur avtonom rayonida ko'mirning zahirasi 600 mlrd. tonnadan ortiq bo'lib, mamlakat umumiy ko'mir zahirasining 37% ni tashkil qiladi va bu yonalishda mamlakatda 1- o'rinda turadi.

Markaziy va G'arbiy rayonlarning iqtisodiy rivojlanishining ortda qolish sabablari:

Tabiiy resurslarga boy bo'lgan bu hududlar uzoq vaqt mobaynida o'zining iqtisodiy rivojlanishida ortda qolib kelmoqda. 1979 yildan to 2008

yilgacha ichki ishlab chiqarishning o'rtacha yillik o'sishi sharqiy rayonda 11,3% ni tashkil etgan bo'lsa, markaziy va g'arbiy rayonlarda bu ko'rsatkich atigi 8,7% dan iborat bo'ldi.

Sanoat tarkibiy tuzilishidan kelib chiqib, uning yalpi sanoatdagi ulushi 1985 yildan to 2007 yilgacha sharqiy iqtisodiy rayonda 46,3% dan 66,47% gacha osgan bo'lsa, markaziy va g'arbiy rayonlarda bu ko'rsatkich 12,75% dan 11,33% gacha pasaydi⁶.

Sarmoya quyishda ham bu hududlar bir-biridan keskin farqlanadi. 1992 yilda asosiy fondlarga sarmoya kiritishda 62,1% sharqiy hududga to'g'ri keldi. Agar, xorijiy sarmoyalarning 82% (2007y.) sharqiy hududlarga to'g'ri kelgan bo'lsa, qolgan 18% i markaziy va g'arbiy rayonlarga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, Xitoydagi kambag'al uezdlarning 90%i, mamlakatdagi kambag'al aholining 80%i markaziy va g'arbiy rayonlarga to'g'ri keladi.

Xitoy hukumatining hududlararo iqtisodiy farqlanishlarni kamaytirish maqsadida Xitoyda quyidagi ishlar olib borilmoqda:

1949 yildan to 1978 yilgacha asosiy sanoat qurilishlari markaziy va g'arbiy rayonlarda olib borildi. Masalan, 3- besh yillik rejalariga (1966-1970) ko'ra, barcha sarmoyalarning 66,8% i ushbu hududlarga quyildi. Natijada, 1978 yilga kelib, Xitoy aholisining jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlaridagi farqi 190 yuangacha kamaydi.

Biroq, hukumat markaziy va g'arbiy rayonlarga barcha imtiyozlarni bergan bo'lsada, ularda qazib olinayotgan va ishlab chiqarilayotgan xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlarni pasaytirilgan narxlarda sharqiy hududga yunaltirdi. Oqibatda, markaziy va g'arbiy rayonlar faqatgina xom ashyo bazasi bo'lib qoldi. Ba'zi bir hollarda narxlar jahon bozoridagi narxlardan ham pasaytirilgan holda sharqiy hududlarga direktiva asosida sotildi. Va aksincha, tayyor mahsulotlarni markaziy va g'arbiy hududlar o'z navbatida bozor narxlarida sotib olishga majbur bo'ldilar.

Islohatlar davrida (1978 yildan keyin) iqtisodiy farqlanishni kamaytirishga yunaltirilgan izchil dastur «kambag'al rayonlarga yordam berish» dasturi asosida olib borilmoqda. 1997 yilda «Nankin-Kunmin» temir

yo‘l magistrali (890 km.) ishga tushirildi. Natijada janubiy g‘arbiy rayonlarning dengizga chiqishi ta‘minlandi.

Bugungi kunda g‘arbiy iqtisodiy rayonlarda ham xorijiy investorlarga keng imkoniyatlar ochib berilmoqda. 1992 yildan buyon bosqichma-bosqich chakana savdo, fuqoro aviatsiasi va sug‘urta kabi sohalar xorijiy sarmoyalar uchun ochilmoqda. XXR ning JST ga (Jahon Savdo Tashkiloti) a‘zo bo‘lishi bilan, uning aloqa, transport va turizm kabi sohalar xorijiy investitsiyalar uchun ochildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Mamlakatda necha pog‘onali ma‘muriy - hududiy bo‘linish qabul qilingan?
2. XXR nechta provinsiyaga bo‘lingan?
3. XXR da nechta avtonom rayonlar mavjud?
4. Markazga bo‘ysunuvchi shaharlar nima maqsadda tashkil etilgan?
5. Keng miqyosdagi avtonomiya qaysi hududlarga berilgan?
6. Nechanchi yilda XXR iqtisodiy zonalarga bo‘lindi?
7. Sharqiy iqtisodiy rayon o‘z ichiga nechta provinsiyani oladi.
8. Sharqiy iqtisodiy rayonning boshqa iqtisodiy hududlardan ustun tomonlari nimalarda ko‘rinadi?
9. Markaziy va g‘arbiy rayonlarning iqtisodiy salohiyatlari qanfay?
10. Iqtisodiy hududlarning iqtisodiy rivojlanishlaridagi farqi?

Mustaqil ish vazifalari:

- 1.XXR ni mintaqaviy siyosatini kavchiliklarini aniqlang?
- 2.Xitoy ma‘muriy-hududiy bo‘linishini jihatidan biron-bir mamlakatga o‘xshash tomonlarini topib, esse yozing.

Adabiyotlar:

- 1.В.К.Ломакин «Мировая экономика», Юнити,Москва,2005 г.
- 2.Китай: «Факты и цифры», изд.во: «Синьсин», Пекин, 2004-2009гг.
- 3.Китай на пути модернизации и реформ, Москва, 2000 г.коллектив авторов.

5«Центральные и западные регионы Китая: новый инвестиционный бум» Синьсинь, Пекин, 2002.

4- Mavzu.. Xitoyning mintaqaviy siyosati va ishlab chiqarish kuchlarining joylashtirilishi

Reja:

- 4.1. Xitoy mintaqaviy siyosatining shakllanish xususiyatlari.
- 4.2. Mamlakat iqtisodiy islohotlar natijasida mintaqaviy siyosatning amalga oshirilishi.
- 4.3. 1990-2000 yillardagi Xitoy mintaqaviy siyosatining asosiy yo‘nalishlari va uning zamonaviy o‘zgarish tendensiyalari.

Tayanch iboralar: mintaqaviy siyosat, Pareto optimalligi, ishchi kuchi, bandlik, tarmoqlararo dinamika, kooperatsiya, barqaror rivojlanish strategiyasi,

Darsning maqsadi: Xitoy mintaqaviy siyosatining shakllanish va uning amaliyotga tadbiq etish xususiyatlari hamda mazkur siyosatning zamonaviy o‘zgarish tendensiyalari to‘g‘risida chuqurroq bilibga ege bo‘lish.

4.1. Xitoy mintaqaviy siyosatining shakllanish xususiyatlari.

Mintaqaviy siyosat - bu umumdavlat mintaqaviy, mahalliy manfaatlarni ma'muriy, iqtisodiy, milliy, madaniy va boshqa sohalarda optimal tarzda mutanosibligini ta'minlovchi chora–tadbirlar majmuasidir. Mintaqaviy siyosatning asosiy qismlaridan biri - ishlab chiqarish kuchlarini, iqtisodiy salohiyatni, zamonaviy ilm fan va texnika markazlarini, ishlab-chiqarish infratuzilmasini optimal ravishda joylashtirishdan iboratdir.

XXR si tashkil topgan kunga qadar ham qoloq bo‘lib kelgan iqtisodiyot undan keyin ham vayrona holatga tushib qoldi. Ishlab – chiqarish kuchlarini taqsimlashda bir tomonlama yondashish o‘z ta’sirini o‘tqazdi. Butun sanoat quvvatining yarmidan ko‘pi 5 ta shaharda: Shanxay, Tyanszin, Guanchjou, Chanchun va Sindouda jamlangan bo‘lib, ular orasida, birinchidan, Xitoyning markazga bo‘ysungan 4 ta yirik shaharlari bo‘lsa, ikkinchidan, aynan mana shu shaharlarga chet el investisiyalari eng ko‘p hajmda kiritilgandir.

Mamlakatning shimoliy–g‘arbiy territoriyasiga, ya’ni mamlakat territoriyasini 1/3 qismiga yalpi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning atigi 2% gina to‘g‘ri kelar edi. I - besh: yillikdan boshlab, sharqdagi eski sanoat rayonlarini faol ishlatish kursi qabul qilindi. Shular bilan birgalikda chet va qoloq joylarda yangi industrial markazlar barpo etila boshladi. Shu 5 yillikda sanoatning asosiy fondlariga kiritilayotgan investitsiyalarning

55,9%i endi ichki rayonlarga to'g'ri keldi. U yerda 68% yangi yirik ob'ektlar qurildi. Sekin–asta dengizdan uzoq joylashgan shaharlar ham sanoat markazlariga aylana bordi.

Agar, 1956-1966 yillarda, Xitoyda “katta sakrash” va 1966-1976 yillarda “madaniy inqilob” xatolari yuz bermaganida edi, sanoat ishlab chiqarishini boshqa tarmoqlarini geografik tekis joylashtirish jarayoni yanayam samarali bo'lgan bo'lar edi. O'sha davrda mamlakatning har bir rayonida, har bir provinsiyasida, uezdida ”o'z-o'zini ta'minlovchi” majmua yaratish konsepsiyasi ustunlik qilar edi. Kichik, yarim kustar ishlab chiqarishga yo'naltirish esa, to'plangan mablag'ni sochilishiga, bo'sh rivojlangan umummilliy bozorni yo'q bo'lishiga olib kelishi mumkin edi. Mamlakatda bir necha yillarga mo'ljallangan halq xo'jaligini tartibga solish rejasi ishlab chiqilib, bunda sanoat qurilishlarini konservatsiya qilish ham mavjud bo'lib, bu choralar qoloq rayonlarda ham olib borildi. Natijada umumiy ishlab chiqarishni joylashtirishda disproporsiyalarni (nomutanosibliklar) yechish jarayonini ko'p yillarga kechiktirdi.

Uning ustiga 1960-1970 yillarda sobiq SSSR bilan munosabatlarni keskinlashuvi. XXR si rahbariyatini “urushga tayyorgarlik ko'rishga, okoplarni chuqurroq qazishga va don bilan ehtiyot shart ta'minlashga” undadi. Buning natijasida, yuzlab korxonalar, birinchi navbatda harbiy korxonalar mamlakat ichkarisiga zudlik bilan ko'chirishni amalga oshirilishi, bu bema'no “strategik” operatsiya, mamlakatga yana ulkan zarar keltirdi

Mana shu yuqorida ta'kidlangan xususiyatlar Xitoy hukumatini mintaqaviy siyosatini shakllanishida va ishlab chiqarish kuchlarini ratsional joylashtirishda ulkan rol o'ynadi.

1978 yil oxirida XKP si MK sining 3 – Plenum, 11 - Chaqirig'ida mamlakatda iqtisodiy islohotlarni va “ochiq eshiklar” siyosatini olib borish, ya'ni mamlakatni janubiy-sharqiy hududini chet el investisiyalari uchun dunyo davlatlariga ochib berish lozimligi ta'kidlandi va bu islohotlarni amalga oshirish uchun esa, mamlakatda 1980 yilda «to'rtlik modernizatsiyasi» dasturi qabul qilindi. Bunda ustuvor sohalar aniqlab olinib, ularni rivojlantirish birinchi darajali vazifa qilib belgilandi. Bu sohalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: qishloq xo'jaligi; sanoat; xizmat ko'rsatish; harbiy himoya sohalaridir.

Ular orasida nafaqat, qishloq xo'jaligiga, balki sanoatga ham katta e'tibor qaratilgan bo'lishiga qaramasdan, mamlakat xalq xo'jaligida uning rivojlanishi notekis bo'lib, ular o'z navbatida, ancha muammolarni tugdirib kelar edi

4.2. Mamlakat iqtisodiy islohotlar natijasida mintaqaviy siyosatning amalga oshirilishi.

Xitoydagi iqtisodiy islohotlar jarayoni asosiy ikki davrni o'z ichiga olib, ular quyidagilardan iboratdir:

1 davr – 1979-1991 yillardan iborat bo'lib, bu yillarda sanoat ishlab chiqarishi miqyosini o'stirishni davom ettirish va uni boshqarishni isloh etishda birinchi qadamlar qo'yildi. Mamlakatning qishloq joylaridagi agrosanoat qurilishlari shu davrga xos bo'lgan hodisalardan biri edi. Boshqarishdagi o'zgarishlar «quyi qatlamga huquq berish» konsepsiyasi asosida olib borildi. Asosan, mazkur xarakatlar mamlakat territoriyasining janubiy-sharqiy va markaziy hududlarida amalga oshirila boshlandi.

1984 yildan boshlab, eksperiment (tajriba) tariqasida, turli xildagi yangi mulk shakllari joriy etila boshladi, ya'ni: oilaviy pudrat, ijara, hissadorlik, pay kabilar. 1987 yildan boshlab esa, sekin-asta deyarli hamma o'rta va yirik davlat korxonalari yuqori tashkilot bilan o'zlarining aniq ishlab chiqarish hajmi va davlat byudjetiga muayyan mablag' ajratish to'g'risida bitimlar tuzib – xo'jalik yuritishning pudrat turiga o'tqazildi.

1988 yilda davlat sektorini isloh etishni faollashtirish bo'yicha bir qator tadbirlar olib borish bilan kechdi. Ushbu yilda korxonalar to'g'risida qonun qabul qilindi, hissadorlik bo'yicha tajribalar amalga oshirilib, mamlakatda Davlat mulk qo'mitasi tashkil etildi.

Xitoyda yangi tizimiy siyosat shakllana borib, u qishloq xo'jaligi, og'ir va yengil sanoat orasidagi mutanosiblikni hamda infrastrukturaviy ta'minotni yaxshilashga yo'naltirildi. 1980 yillar o'rtalariga kelib, yengil sanoatdagi sezilarli orqada qolish bartaraf etildi. Yengil sanoat shu yilda o'zining o'sish sur'ati bo'yicha 11,7% ni tashkil etdi, og'ir sanoat esa, atigi 6,6% dan iborat bo'ldi. Yengil sanoatning umumiy sanoat o'sishiga qo'shgan hissasi 59,2% ni tashkil etdi.

1985-1990 yillarda og'ir sanoatning o'sish sur'atlari yanayam ko'tarildi va u qayta ishlab chiqarish tarmog'i foydasiga hal bo'ldi. Agar, 1978 yilda xom asheviy va qayta ishlovchi sohalar nisbati 1: 0,96 ga teng bo'lgan bo'lsa, 1988 yilga kelib, ularning nisbati 1:1,67 ni tashkil etdi. Bu yo'nalishda yuqori texnologik soha ortda qola boshladi. Yengil sanoat ichida qishloq xo'jalik xom ashyosida ishlaydigan tarmoqlar juda ham tez sur'atlarda o'sib bordi, natijada ushbu tarmoqlar, nisbatan past sur'atlarda rivojlanayotgan qishloq xo'jaligiga qarama-qarshi turib, unda raqobat muhitini keltirib chiqardi.

II davr – bu 1992-1998 yillar hisoblanib, unda islohotlarning birinchi 10 yili natijalaridan iborat bo'lgan o'tish davri xo'jalik mexanizmi bozor qonunlari va direktiv

rejalashtirish tamoyillari birligiga asoslandi. Uning natijasida korxonalar ikki, bir-biriga o'xshamagan manbalar yordamida boshqarila boshladi, ya'ni, ma'muriy boshqaruv va bozor orqali.

Davlat reglamentatsiya va dotatsiyalariga (pul mablag'lari yordami) o'rganib qolgan va amalda zarar emas, balki faqatgina daromad (foyda) olish uchun javobgar bo'lgan korxonalar «bozor sharoitiga» uncha xush bermasdan kira boshladilar yoki kirsalar ham, qisqa muddatli maqsadlarni ko'zlagan holda unga qatnashdilar.

Mavjud gorizontal aloqalarning va makroiqtisodiy nazoratning bo'shligi natijasida, turli darajadagi xo'jalik boshqaruvidagi korxonalar uchun vazifalarni taqsimlash markaz darajasida amalga oshirilar edi. Bunda eng katta yutuqqa quyi tashkilotlar emas, balki ular orasidagi mintaqaviy boshqaruv tashkilotlari erishdilar.

XXR sidagi mintaqaviy bo'linish uning 7- besh yillik (1986-1990y) rejasini tuzish bilan bevosita bog'lik bo'ldi. U siyosiy ma'noga ega bo'lib, mintaqaviy siyosat tamayillaridan va yangi vazifalardan kelib chiqdi. Bu yerda gap iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi maqsadlariga yaqinlashish to'g'risida, XXRsini faol ravishda jahon xo'jaligi aloqalari tizimiga qo'shilishiga va bu jarayonga Xitoyni ichki rayonlarini sekin-asta qo'shilishi to'g'risidadir. Shunday qilib, g'arbiy hududlarni keng miqyosli o'zlashtirilishi natijasida, iqtisodiy qurilish markazini sharqiy rayonlardan g'arbiy rayonlarga olib o'tish ko'zda tutildi

4.3. 1990-2000 yillardagi Xitoy mintaqaviy siyosatining asosiy yo'nalishlari va uning zamonaviy o'zgarish tendensiyalari.

1992 yilda XKP sini XIV s'ezdi qarorlarida iqtisodiy islohotlarni radikallashtirish va xo'jalik yuritishni rivojlantirishni tezlashtirish muammolari o'z aksini topdi. Unda davlatning makroiqtisodiy boshqarish jarayonidagi rolini ko'rib chiqish va sezilarli darajada uning keyingi vazifalarini bajarishi hamda o'zgartirishlar kiritish masalalari ham ko'rildi.

1994 yilda mamlakatda qabul qilingan yangi soliqlar tizimi katta ahamiyatga ega bo'lib, u mintaqaviy siyosatni samarali amalga oshirish uchun yordam berdi. Bir tomonidan, mahalliy darajada moliyaviy barqarorlik ta'minlanayotgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan esa, mana shu bavrda markaziy byudjetga kelib tushayotgan soliqlar ulushi 29,% dan 57% ga ko'paydi⁷.

⁷ Xitoy davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari, Pekin, 2000 y/

Davlat byudjetining bir qismi joylarga maqsadli yo‘naltirish orqali, investisiyalar shaklida asosiy qurilish ob’ektlariga, sanoat infratuzilmasiga, gidromelioratsiyaga, o‘rmon xo‘jaligiga qaytadan taqsimlandi. Bunday soliqlar siyosati mintaqalararo mutanosibliklarni tekislashda, ichki provinsiyalarda aholini yashash darajasini yaxshilashga va iqtisodiyotni yuksaltirishdagi belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishga yordam beradi hamda qashshoq rayonlarni yuksaltirish ishlarini jadallashtiradi.

Mamlakat territoriyasinihg 3ta zonaga bo‘linishi, bizga ularning ko‘p ko‘rsatkichlar bo‘yicha rivojlanish darajasini bilishga, ular tomonidan YaIM ga qo‘shgan hissalarini aniqlashga, ularga xorijiy sarmoyalarni jalb qilish miqdorini aniqlashga va aholi daromadlarini o‘rishini bir-biri bilan qiyoslashga yordam beradi. Quyida mazkur hududlar bo‘yicha 1980-2008 yillar davomida ularning mamlakat YaIM dagi salmoqlarini jadval 4.3.1.dan ko‘rishimiz mumkindir.

Ushbu jadval 4.3.1 dan ko‘rinib turganidek, Xitoy hukumatining 1990 yillarda mamlakatdagi Markaziy va G‘arbiy zonalarini rivojlantirish bo‘yicha olib borgan uzluksiz va izchil sayi-xarakatlariga qaramasdan, ularning umumdavlat ishlab chiqarishdagi ulushlarini nafaqat, oshganligini, balki, bir oz pasayganligini kuzatishimiz mumkindir.

Jadval 4.3.1.

Xitoydagi 3 ta iqtisodiy zonalarining YaIMdagi salmog‘i, % da.⁸

	1980	1985	1990	1995	1999	2002	2006	2008
Mamlakat bo‘yicha jami	100	100	100	100	100	100	100	100
Sharqiy	52,5	52,7	53,9	53,7	51,9	51,2	50,8	50,3
Markaziy	31,5	30,9	29,7	28,3	30,9	30,4	29,2	29,0
G‘arbiy	16,4	16,4	16,4	14,0	17,2	19,4	20,0	20,7

Jadval 4.3.2.

Real kapital quyilmalarining zonalar bo‘yicha salmog‘i, % da 1999-2008 yillarda.⁹

	1999 y.	2002 y.	2006 y.	2008
Sharqiy hudud	87,6	82,8	77,6	74,7
Markaziy hudud	9,9	10,5	11,9	12,3
G‘arbiy hudud	2,5	6, 7	10,5	13,0
hammasi	100	100	100	100

⁸ Да Туаочжен, Чжунго Цзинцзи Цзегоу Туаочжон де луи да венте, Пекин 2007, 198 с.

⁹ Да Туаочжен Чжунго, Цзинцзи, Цзегоу Туаочжен де луи да венте, Пекин 2007, с 191.

Amalda mana shu zonalardagi iqtisodiy ko'rsatkichlarning sezilarli darajada o'zgarmasligi davlat tomonidan ularni rivojlanishi uchun yetarli darajada mablag'larning ajratilmayotganligini ko'rsatadi. Yuqoridagi jadval 4.3.2.dan ko'rinib turganidek, mamlakatning ichki hududlarida iqtisodiy islohotlarini juda ham sekin qadamlar bilan amalga oshirilayotganini guvohi bo'lamiz.

Xitoy hukumatini mamlakatdagi mintaqaviy ustuvorlik holatlari, ya'ni, Xitoyning sharqiy provinsiyalariga berilgan ustuvorlik va ularni ko'p yillar mobaynida pasaymayotganligi, bir muncha tashvishga solib qo'ydi hamda mazkur holat normal emasligi tan olinib, bu yo'nalishda jiddiy o'zgartirishlarni amalga oshirish lozimligi belgilandi.

Ulardagi sanoat industriyasining notekis joylashtirilganligi, ular ma'muriy-xo'jalik yuritilishining takomillashtirilmaganligi, birinchi navbatda, ularning umumiy ishlab chiqarishdagi samarasini oshishiga, nafaqat yordam bermay, balki, o'zlarida iqtisodiy va siyosiy nobarqarorlikni keltirib chiqarish havf-xatari mavjudligini ko'rsatar edi.

Mamlakatda oxirgi paytlarda bo'lib o'tayotgan turli anjuman va kengashlarda, ilmiy doiralardagi seminarlarda, ommaviy axborot vositalarida Xitoydagi mintaqalar orasidagi diskriminatsiya (tengsizlik) va ularni moliyaviy ta'minlashda adolatli taqsimlanishdan to'g'ri foydalanmaslik to'g'risidagi norozilik masalalari haqida so'z yuritilib, ular orasidagi eng kuchli noroziliklar, mamlakatning, nisbatan qoloq va kam ta'minlangan ichki hududlarida yashovchi aholi tomonidan bildirildi.

Haqiqatdan ham, mamlakatga kirib kelayotgan xorijiy investisiyalar, ko'p hollarda mamlakatning janubiy-sharqiy qismiga jalb etilib, uning natijasida Xitoyning boshqa hududlarida istiqomat qiluvchi aholi ziyon ko'ra boshladi. Ushbu holatlar, qolgan hududlardagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdan ancha orqada qolayotgan aholining turmush tarzida yaqqol ko'rina boshladi.

1994 yilda sanoat korxonalarida amalga oshirilgan islohotlarda «chuqurlashuv» fazasi boshlandi. U ilgari qabul qilingan bir qator qarorlardan kelib chiqib amalga oshirildi. 1992 yildagi mamlakatbagi «Umumxalq mulki bo'lgan sanoat korxonalarida xo'jalik mexanizmini almashtirish holati» ularning keng masalalar doirasidagi avtonomiyasini mustahkamladi, jumladan: investisiyalash, narx-navo, ishchi kuchini yollash, eksport-import operatsiyalari masalalar hisoblanadi.

1993 yildagi hukumatning «Sotsialistik bozor iqtisodiyoti tizimidagi ba'zi masalalarni tashkil etish» qarori zamonaviy korxonalar tizimini tashkil etishga qaratilgan bo'lib, u 1994 yil 1- yanvardan boshlab rasmiy ravishda ishga tushirildi, xususan, uning soliqqa tortish bo'icha yangi tizimi ham. Unda daromad solig'i stavkasi pasaytirilib, qo'shimcha qiymat solig'i unifikatsiyalandi.

Garchi, o'sish sur'atlari mamlakat hududlarida bir maromda bo'lmasada, (ya'ni, ba'zi hududlarda, 1993 yilda eng baland o'sish sur'ati – 27,3% ni tashkil etgan bo'lsa, 1981 yildagi eng past o'sish sur'ati – 4,3% ni tashkil etdi), amalda esa, biron bir marotaba ham ishlab chiqarish pastga tushmadi, ya'ni to'liqsimonlik amplitudasi 10% dan oshgan emas edi.

Sanoatni to'liqsimon o'sishi, butun bir iqtisodiyot singari bo'lmadi. Undagi har bir miqyosli kapital quyilmalari uni yuqori sur'atlarda o'sishiga olib kelib, uning investisiya samarasi pasayib turdi. Shu noxushliklarni yengish uchun hukumat o'z investitsion siyosatini kuchaytirdi, oqibatda uning o'sish dinamikasi pasaydi. Keyingi sikl esa, yana kapital quyilmalarini ko'paytirishdan boshlandi.

O'sish sur'atlari bo'yicha, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish boshqa barcha sohalarni ortda qoldirdi, bu esa xalq xo'jaligida progressiv tizimiy (strukturaviy) o'zgarishlarga olib keldi. Sanoatning YaIM (yalpi ichki mahsulot) dagi ulushi 1996 yilda, 49% ni tashkil etdi. Xitoy iqtisodiyotida uning qayta ishlash sanoati muhim o'rinni egallamoqda. Mazkur sohaning 30% atrofida ishlab chiqargan mahsulotlari mashinasozlik sanoatiga to'g'ri keladi. Og'ir sanoatdagi qayta ishlash tarmog'ining ulushi 1978 yildagi 52,5% dan 1996 yilda 60% ga yetdi.¹⁰

Hozirgi kunda sanoat ishlab chiqarishidagi ustuvorlik - texnika sig'imi katta bo'lgan ishlab chiqarishga berilmoqda. An'anaviy tarmoqlar, ya'ni, ko'mir qazib olish, tekstil, yog'ochni qayta ishlash, oziq-ovqat, oddiy mashinasozlik tarmoqlarini ulushi esa, aksincha, kamaymoqda. Ulardan farqli o'laroq, neftni qayta ishlash, elektronika, kimyo, metallurgiya, transport va elektroenergetik uskunalarni ishlab chiqarish tarmoqlari salmog'I sezilarli tarzda ortib bordi. Ba'zi bir mashinasozlik tarmog'i mahsulotlarini ishlab chiqish kundan kunga o'z salohiyatini oshirib borishmoqda.

Xitoy kemasozlik sanoati dunyoda uchinchi o'rinni egallab, uning umumiy jahon kemasozligidagi ulushi 5% ni tashkil etadi.

¹⁰ Чжунго нуанцзуан, 1997, 840 с.

1990 yillar boshidan elektron uskunalar ishlab chiqarish yiliga 30% ga o'sib bordi. Bu tarmoqni sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 1990 yildagi 3,4% dan, 1997 yilga kelib – 4,6%ga o'sdi.¹¹

Garchi, davlat sektori yalpi mahsulot ishlab chiqarishda o'zining ustuvorligini asta-sekin yo'qotayotgan bo'lsa ham, u boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha ustunligini saqlab kelmoqda. Undagi asosiy fondlarning, kapital quyilmalarining va davlat xazinasiga quyayotgan mablag'larining umumiy hajmi bo'yicha, Xitoy o'zining pozitsiyasini saqlamoqdadir.

Mamlakatda 1990 – yillarda ikki sektorli model yuzaga keldi. U yirik va mayda ishlab chiqarishga asoslangan bo'lib, sanoatni qayta ro'yxatga olish ma'lumotiga ko'ra, unda sanoat korxonalarining 0,3% i, ya'ni, ularning 23007 tasi «yirik va o'rta» korxonalar kategoriyasiga kiritilgan edi. Ulardan, 6201 tasi «yirik» va 215 ta ob'ekt «juda ham yirik» deb tan olindi.

Bu sektorda 25% ishchi va xizmatchilar band bo'lib, ularda 60% dan ortiqroq sanoatning asosiy fondlari joylashgandir. Ular davlat byudjetiga sanoat solig'ining 60% ni beradi. Mayda ishlab chiqarish esa, asosan, qishloq korxonalarida olib borilib, ular islohotlar davrida ancha o'sdi. Ammo, lekin, ushbu ob'ektlar soni hozirda ancha kamayib, ularning faoliyatlari qishloq xo'jalik ehtiyojini qondirish va aholiga xizmat ko'rsatishga moslashgandir.

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar ishlab chiqarish kuchlarini ratsional joylashtirish siyosatini ham tubdan o'zgartirib yubordi. Mamlakatda bozor munosabatlarini xalq xo'jaligiga moslashtirish kursi e'lon qilindi.

Ishlab chiqarishni ratsional-hududiy tashkil etilishining yangi konsepsiyasi dengiz oldi, shahar oldi, va chegara oldi rayonlari salohiyatini va eski sanoat bazalarini yuqori sur'atlarda o'sishini o'z ichiga oladi va mamlakat markaziy hamda g'arbiy rayonlarida joylashgan «yangi sanoat regionlarini» o'zlashtirishni ko'zlaydi.

Mamlakat dengiz oldi rayonlarining gurkirab rivojlanishida turli omillarning hissasi kattadir. Jumladan, Janubiy provinsiyalarga va erkin iqtisodiy zonalarga xorijiy kapital quyilmalarini kirib kelishi, dengiz oldi rayonlarida yuqori malakali ishchi kuchini mavjudligi, bu mintaqalarda iqtisodiy islohotlarning jadal sur'atlarda olib borilishi, xom

¹¹ Ли Цзинцзи. Структурные изменения в народном хозяйстве Китая и тенденции развития. Дандай цейцзиню, 1998. №5, 18

ashyolarning mavjudligidandir. Janubiy zonaning umumiy sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 1985 yildagi 60,3% dan 1998 yilga kelib, - 68,1% ga oshdi. Bunga e'tiboran, markaziy regionning umumiy sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 1985 yildagi 27,2% dan, 1998 yilga kelib, -21,6% ga, g'arbiy regionning ulushi esa, 1985 yildagi 12,5% dan, 1998 yilga kelib -10,3 % ga qisqardi.

Hozirgi kunda xitoy sanoat tarmoqlari bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida ishlamoqda. Markaziy rejalashtirish tizimidagi 300 mingta davlat korxonalaridan, atigi 10 mingtasigina real, amalda faoliyat ko'rsatmoqda. 1990 yillar oxiriga kelib, direktiv ko'rsatmalar soni 1980 yillardagi 120 tadan, 33 taga qisqartirildi.

Direktiv rejalashtirish chegarasida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotni ulushi 40% dan, 4,5 % ga qisqardi. Agar, islohotlar boshida markaziy taqsimlanishga 256 ta mahsulot turi kirgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning turi 11 taga qisqardi. 14 mingdan ortiqroq, yoki, yirik va o'rta davlat korxonalarining 1/3 qismi korporativ xo'jalik tizimiga o'tkazildi. Mayda korxonalarning 50% dan —70% gachasi isloh qilindi¹²

Mamlakatda iqtisodiy islohotlarni keskinlashtirish va uning xo'jalik tizimi rivojlanishini tezlashtirish muammolarini hal etishdagi strategik yondashuvlarni ishlab chiqish, 1992 yilda bo'lib o'tgan XKP ning XIY s'ezdida o'zining yaqqol aksini topdi. Unda makroiqtisodiy darajada davlatning boshqarish jarayonlarini qayta ko'rib chiqish zarurati mavjudligi va uni amalda o'zgartirish lozimligi to'g'risida gap yurgizildi.

Davlat sektoridagi faoliyatni sekin-asta kamaytirib, ya'ni, uning bevosita xo'jalik yuritishdagi taqsimotchilik faoliyatini bo'shashtirish ko'zda tutilib, boshqarishdagi qayta markazlashuvni davom ettirishni amalga oshirish, ular ustidan nazoratni, asosan iqtisodiy usullar orqali olib borish lozimligi ta'kidlandi. Bunda davlatning vazifasiga mintaqalararo aloqalarni keyinchalik ham mustahkamlash uchun uning samarali ta'sir etish imkoniyati doirasi qoldirildi. Bu yo'nalishda davlatning va uning xo'jalik organlarining iqtisodiy faolliigini sekin-astalik bilan mamlakatning Markaziy va G'arbiy provinsiyalariga yo'naltirish lozimligi tan olindi.

XKP ning XIY s'ezdi hujjatlarida ta'kidlanganidek, umummilliy vazifa sifatida, mintaqaviy iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlarini jadallashtirishda mahalliy ustuvorliklardan to'liq foydalanish zarurligi tan olindi. Mazkur s'ezdning belgilangan prinsipial vazifalaridan biri – bu uning tomonidan mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini

¹² Чжунго щиган цзинцибас.09.02.1998.

joylashtirish bo'yicha alohida aniq sxemasining ishlab chiqilganligi bo'ldi va u Xitoyning 9-besh yillik hamda istiqbol rejalariga kiritildi. Bu quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi:

- Mamlakat hududining Sharqiy dengiz oldi rayonlarida tashqi bozorga mo'ljallangan tarmoq mahsulotlari hajmini ko'paytirish, unda urg'u, yuqori darajada qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirish va umuman, ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratildi, bu esa, mamlakatga xorijiy valyuta oqimini ta'minladi. Bunda ilmiy sig'imi katta bo'lgan va energiya va xom ashyo xarajatlari sig'imi kam bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga alohida ahamiyat btrilib, unga ahamiyatli tarzda xorijiy investisiyalarni jalb qilish lozim edi;
- Xom ashyo, mineral va mehnat resurslariga boy bo'lgan Xitoyning Markaziy va G'arbiy zonalarida davlat yordamida mahalliy ustunliklarga ega bo'lgan tarmoqlarni va transport infratuzilmasini rivojlantirish choralari ishlab chiqish; Asosiy e'tiborni, qazib olinadigan boyliklarni o'zlashtirishga va ular bazasida zamonaviy ishlab chiqarishni barpo etishga qaratish; Ichki rayonlarning iqtisodiy rivojlanishiga kompleks yondashish; Mamlakatning barcha hududlarida o'zaro hamkorlik va o'zaro almashuvni kengaytirish, ushbu prinsiplar asosida mamlakatda yagona milliy bozorni shakllantirish vazifalari qo'yildi.

Mana shu 3ta zonadagi ixtisoslashtirishni differensiyatsiyalab (taqsimlab), ularning real mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqib, Xitoyning mintaqaviy siyosati umummilliy muammolarni hal etishda jamiyatni va davlatning xarakterlarini birlashtiradi. Xitoy davlati oldiga qo'yilgan "to'rtlik modernizatsiyasi" dasturi vazifalarini amalga oshirish uchun, mamlakatdagi barcha tabiiy, inson va boshqa resurslarni ushbu jarayonga jalb qilishi lozim bo'lib, bunda qay tarzda mazkur ishlarni to'g'ri amalga oshira olinsa, unga olib boradigan yo'l ham shunchalik qisqarib borishi belgilandi.

XKP ning XIY s'ezdi qarorlarida ta'kidlanganidek, ayniqsa, Xitoyning kam millat vakillari istiqomat qiladigan rayonlarida iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, favqulotda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, hozirda mamlakatda mamlakatning tub millat vakili xanlardan tashqari, 55 ta turli millat vakillari bo'lgan 100 mln.dan ortiq aholi ham yashaydi. Shulardan kelib chiqib, mazkur rayonlarga bugungi kunda davlat tomonidan har tomonlama kompleks yordam ko'rsatilmoqda.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan 3ta zonani "ixtisoslashtirish" tamoyillari hozirgi kunda, yetarli darajada ilmiy asoslangan va amaliy tarzda ratsional holatda deb tan olindi. Ular

orasida, eng ko‘p real yordamni, amalda uning Sharqiy zonasi oldi. U boshqa zonalarga nisbatan, tor yerda, ya’ni, dengiz oldiga joylashgan bo‘lishiga va mamlakat territoriyasining atigi 13,5% ni egallashiga qaramay, unda 500 mln.kishidan ko‘proq (41%) aholi yashaydi va Sharqiy Xitoyning mamlakat YaIM dagi salmog‘i esa, 50% dan ortiqroqdir.

Ushbu mintaqa XXR si tashkil etilgan kundan keyingi hamma davrda “eng ko‘p qulay sharoit ” tartibida faoliyat ko‘rsatdi. Uning sabablari:

- birinchidan, uning qulay geografik joylashganligi bo‘lsa,
- ikkinchidan, revolyutsiyadan oldingi davrda ham unda muayyan sanoat salohiyatining mavjudligi;
- uchinchidan, nisbatan, rivojlangan infratuzilmaning mavjudligi;
- to‘rtinchidan, undagi qulay tabiiy-iqlim sharoitlarining mavjudligi;
- beshinchidan, katta miqdorda kishilik resurslarining mavjudligi;
- oltinchidan, u yerda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga sharoitning yaxshiligidir.

Ulardan tashqari, mazkur mintaqada XXR si poytaxti – Pekin, Shanxay, Tyanszin va Guanchjou shaharlarining joylashganligi ham katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda Sharqiy Xitoy mamlakatning bosh “industrial sexi” rolini o‘ynamoqda. Uning nisbatan, kamroq foydali qazilmalariga ega ekanligiga qaramasdan, uning dengiz oldi provinsiyalarida asosiy sanoat tarmoqlarining muhim markazlari faoliyat ko‘rsatmoqdadir. Ulardan, sanoat tarmoqlarining metallurgiya, neft qazib olish va neft kimyosi etakchi o‘einlarni egallaydi.

Masalan, Shanxay, Shenyan, Dalian, Sindao va boshqa shaharlarda katta quvvatlarga ega bo‘lgan og‘ir sanoat korxonalari, transport mashinosozligi va stanoksozlik korxonalari joylashgandir. Uning kemasozlik sohasi mamlakatni dunyoda 3-o‘ringa olib chiqdi.

Shular bilan birga, ushbu rayonlar o‘zining xilma-xil va rang-barang tekstil sanoati mahsulotlarini va murakkab maishiy xizmat ko‘rsatish texnikalarini ishlab chiqarish bilan dunyoga tanilmoqdadir. Mamlakatda kundan-kunga yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish tarmoqlari o‘zlarining: elektronika, aerokosmik, turli markalardagi kompyuterlar, aloqa va axborot texnologiyalarining eng takomillashgan turlarini ishlab chiqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sharqiy Xitoy iqtisodiyotida Shanxayning alohida o'z o'rni bo'lib, u Yanszi daryosi quyi oqimida joylashgandir. Unda 16 mln. kishidan ortiq aholi istiqomat qiladi. U nafaqat ko'p qirrali sanoat salohiyatiga ega, balki, asosiy daryo porti vazifasini, transportlar shaxobchasini, savdo va bank markazi vazifalarini ham bajarmoqda. U yerda Xitoy fond birjalaridan biri Shenchjen faoliyat ko'rsatadi. Undan tashqari, shaharning chegarasida tez sur'atlarda Pudun xalqaro sanoat-savdo hamda moliya majmuasi qad ko'tardi.

Bugungi kunda Xitoy jamiyati mintaqalararo disproporsiyani yaqqol anglamoqdalar va uning oqibati yaxshi tugamasligini ham tushunib yetdilar. Shuning uchun mamlakatning mintaqaviy siyosatining strategik yo'nalishi sifatida ushbu Sharqiy Xitoyga davlatning iqtisodiy qurilishida "lokomotiv" vazifasini ajratib, u Markaziy va G'arbiy Xitoyni rivojlantirishda haqiqiy plasdarmga aylanishi lozim edi.

Mana shu Markaziy va G'arbiy hududlarni rivojlantirish sari qadamlar qilishda ma'muriy-tashkiliy tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular iqtisodiy dastaklardan ko'proq foydalanishni ko'zda tutadi. Ya'ni, ushbu hududlarga xorijiy sarmoyalarni jalb qilishda va ularga kreditlar ajratishda keng imtiyozli sharoitlar yaratib berishdan iboratdir.

Markaziy zona provinsiyalarida, ya'ni Szyansi, Xunan, Guychjou, Yunnanlarda nafaqat Xitoyda, balki dunyoda yirik hisoblangan volfram, surma, qalaylarning konlari joylashgan bo'lib, ular hozirda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi va uning eksport saloxiyatini oshirish uchun xizmat qilmoqdadir.

Ma'lumki, bozor mexanizmi ishlab chiqarish jamg'armasini qo'llab-quvvatlaydi. Oxirgi 30 yil ichida xorijiy investisiyalarning asosiy kapitalga quyilmasi asosan, mamlakatning Sharqiy dengiz oldi rayonlariga va uning yangi sanoat rayonlariga to'g'ri keldi. Ulardagi yuqori xo'jalik faoliyati ularga jamg'arish uchun yaxshi imkoniyatlarni yaratib berdi. Ushbu hududlarda iqtisodiy islohotlar jarayoni jadal sur'atlarda olib borildi. Uning sabablari esa, mazkur hududda joylashgan institusional va texnologik innovatsiyalarning mavjudligi hisoblanadi. Janubi-Sharqiy hududlarda jamoa va xususiy mulk turlaridan imkon qadar samarali foydalanilgan, ularga ahamiyatli tarzda xorijiy sarmoyalar oqimi jalb etilgan, ulardagi erkin iqtisodiy zonalarining mavjudligi, ulardagi bozorga yo'naltirilgan makroiqtisodiy boshqarishning mavjudligi va boshqa omillarni mavjudligi bilan ajralib turadi.

- Xitoyning asosiy davlat siyosati – mamlakatning barqaror rivojlanish strategiyasi hisoblanadi;

- Xitoy iqtisodiyotining yutuqlari uning mintaqaviy farqlanishini ular qarama-qarshilikka o‘tib ketmasdan yetarlicha disproporsional chegarasi doirasida ushlab turishidadir;
- Markaziy hukumatning boshqarish vazifasi - iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va ularni birlashtirishdan, qoloq mintaqalarning yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlashdan, izchillik bilan mintaqalar notekis rivojlanishini yengishdan iboratdir.

Xitoy xalq xo‘jaligi mintaqalarning o‘zaro bog‘liqlari va o‘zaro xarakatlari asosida va ular orqali tizim sifatida amalga oshiriladi. Mana shu ular orasidagi mavjud farqlarni yetarli darajada disproporsional chegaradan chiqmasdan va iqtisodiy rivojlanishga to‘sqinlik qilmasdan hal etish mamlakatni boshqarishning muhim vazifalari hisoblanadi. Aynan mintaqaviy nomutanosiblik milliy iqtisodiyotning samarasini oshirishga turtki bo‘ladi, chunki:

- birinchidan, Sharqiy dengiz oldi hududlaridagi yuqori o‘shish sur‘atlari unda ichki rayonlarga investisiya hajmini kiritishni kengaytirgan holda kapitalning ahamiyatli tarzda jamg‘arilishiga olib keladi;
- ikkinchidan, Markaziy va G‘arbiy hududdagi ishchi kuchi resursining cheksizligi uning Sharqiy qismini barqaror rivojlanishi uchun foydalanishi mumkin;
- uchinchidan, Sharqiy qismdagi samarali tashqi aloqalar umumiy iqtisodiy rivojlanishni va iqtisodiy islohlarni qo‘llab-quvvatlaydi;
- to‘rtinchidan, Sharqiy zonalaridagi erkin iqtisodiy hududlar mamlakatning boshqa hududlari uchun va ularda iqtisodiy islohotlarni ijobiy tarzda amalga oshirish uchun tajriba maydoni bo‘lib xizmat qiladi, hamda mintaqalar iqtisodiyoti ustuvorliklarini to‘liq ochib berish uchun qulay sharoitlar yaratadi.

Mamlakatda ko‘pgina hollarda bir vaqtning o‘zida ham mintaqaviy ham umumiy iqtisodiy masalalarni hal etish juda murakkabdir. Xitoyda esa, uning uchun hali yetarlicha sharoitlar va ularni amalga oshirishning aniq rejasi tuzilgan emas. Uning notekis mintaqaviy rivojlanishining ob‘ektiv sabablarini tan olgan holda mamlakatni muvozanatli rivojlanish usullari chegaralarini ko‘rib chiqamiz.

Umumiy holda mintaqaviy nomutanosiblikning uchta shakli mavjud bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- birinchidan, resurslarni taqsimlanishi, geografik holati, iqlim sharoitlari, madaniy ahvoli, tarixi va boshqalar bilan asoslangandir;
- ikkinchidan, u bozor mexanizmlari orqali shakllanmoqda. Bunda, agar muammolarni hal etish kishilarni hotirjamlik chegarasidan chiqib ketsa, mamlakatda ijtimoiy nobarqororlik vujudga kelishi mumkin, bunday holatda nomutanosiblikning uchinchi shakli vujudga keladi;
- uchinchidan esa, unda ijtimoiy adolatga ziyon keltiruvchi nomutanosiblik yuz berib, u bozor orqali tartibga solinmaydi va davlat tomonidan boshqarishni talab qiladi. Aynan, mana shu bilan asosan chegaraviy nomutanosiblik muammosi bog‘liq bo‘lib, uning mohiyatini quyidagi sifat mezonlarini ochib beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Mamlakatda mintaqaviy siyosat qanday amalgam oshirilmoqda?
2. XXR da ishlab chiqarish kuchlari qanday joylashtirilgan?
3. Xitoy hukumati mintaqalararo iqtisodiy rivojlanishni tenglashtirish uchun qanday choralarni qo‘llamoqda?
4. Xitoyni zamonaviy mintaqaviy siyosatining asosiy yo‘nalishlari nimalar?
5. Mintaqaviy siyosat tushunchasiga ta’rif bering?

Mustaqil ish vazifalari

1. 1990-2000 yillarda Xitoyda mintaqaviy siyosatning o‘zgarish tendensiyalari nimalarni ko‘zda tutishini aniqlang.
2. Xitoyning zamonaviy mintaqaviy siyosatida diskriminatsion elementlarni aniqlang.

Adabiyotlar:

1. В.К. Ломакин «Мировая экономика», Юнити, Москва, 2002 г.
2. Китай: «Факты и цифры», изд. во: «Синьсин», Пекин, 2004 г.
3. Китай на пути модернизации и реформ, Москва, 2000 г. коллектив авторов.
4. Китайская Народная республика 2007 г.: политика экономика, культура., Российская академия наук, институт Дальнего Востока, Москва, 2008 г.
5. Мировая экономика: прогноз до 2020 г., под ред. акад. Дынкина А.А., Москва, 2007 г.
6. Да Туаочжен Чжунго, Цзинцзи, Цзегоу Туаочжен де луи да венте, Пекин 2007, с 191.

5- Mavzu.: Xitoy Xalq Respublikasida iqtisodiy islohotlar

Reja:

5.1.Xitoyda iqtisodiy islohotlarning boshlanishi.

5.2.Iqtisodiy islohotlarning maqsad va vazifalari.

5.3.Iqtisodiy islohotlarning bosqichlari.

Tayanch iboralar: iqtisodiy islohot, bozor iqtisodiyoti, iqtisodiy o'sish, «To'rtlik modernizatsiyasi» dasturi, investision iqlim, xorijiy sarmoyalar, makro iqtisodiy ko'rsatkichlar, 3 ta industriya dasturi, ilmiy texnikaviy jarayon, moliyaviy iqtisodiy markaz.

Darsning maqsadi: Xitoyda iqtisodiy islohotlar jarayoni, iqtisodiy islohotlarning maqsad va vazifalari hamda ularni amalga oshirish bosqichlari to'g'risida chuqurroq ma'lumotlarni bilish.

5.1.Xitoyda iqtisodiy islohotlarning boshlanishi.

1979-yildan boshlab, Xitoy iqtisodiy islohotlar tizimiga qadam qo'ydi va faqat 1992-yildagina sotsialistik bozor iqtisodiyoti modeli rasmiy tarzda tasdiqlandi. O'tgan 10 yilliklarda Xitoy iqtisodiyotidagi bozorning roli va uning tashqi dunyo uchun ochiqlik darajasi bir muncha oshdi. Uning iqtisodiy rivojlanish sur'atlari sezilarli ravishda tezlashdi. 1979-2004 yillarda YaMM ning o'rtacha yillik o'sishi 9,9%ni tashkil etdi. Natijada, aholining yashash darajasi o'sib bordi.

1978 yil dekabr oyida XKP MK ning 11 chaqiriq3- plenumi bo'lib o'tib, unda mamlakatda olib boriladigan iqtisodiy qurilishlarning bosh liniyasi tasdiqlandi, hamda siyosiy ochiqlik va islohotlarga yo'l ochib berildi. Iqtisodiy islohotlar maqsadi qadam-baqadam rejali iqtisodiyotdan, bozor iqtisodiyotiga o'tish bo'lib, unda quyidagi tamoyillarga tayanildi.

«Sotsializmning mazmuni ishlab chiqarish kuchlariga mustaqillik berish, uning umumiy maqsadi esa,- «barcha mamlakatda yashayotgan aholining farovonligi»ga erishishda ekspluatatsiyaga barham berish va farqlanishni yo'qotishdir».

Islohotlarning boshida quyidagi vazifalarni hal etish belgilab olindi:

1.Oziq - ovqat muammosini hal etish;

2.Aholini ish bilan to'liq ta'minlash;

3.Barqaror iqtisodiy o'sishga erishish vazifalari bo'ldi.

Bu vazifalarni echish uchun «**To'rtlik modernizatsiyasi**» dasturi qabul qilindi. Ushbu dasturga binoan, quyidagi sohalarni modernizatsiyalash (yangilash) zarurligi belgilab olindi:

1.Sanoatni rivojlantirish;

2.Harbiy kuchlarni mustaxkamlash;

3.Qishloq xo'jaligini rivojlantirish;

4.Fan va texnika yutuqlarini yangilash;

«To'rtlik modernizatsiyasi» dasturi orqali Xitoy xalq xo'jaligini tiklash hamda uni rivojlantirishni ishlari 1978-yil dekabr oyida bo'lib o'tgan XKP MK ning 11 chaqiriq 3- plenumida o'z ifodasini topib, uni amalga oshirish bosqichlari aniqlandi.

5.2.Iqtisodiy islohotlarning maqsad va vazifalari.

Iqtisodiy islohotlarning maqsadi – Xitoy davlatini iqtisodiy jihatdan rivojlanishini va aholi farovonligini oshirishni ta'minlashdan iborat bo'lib, uning asisiiy vazifalari mamlakat iqtisodiyotining hamma jabhalarida uni bosqichma-bosqich amalga oshirish hisoblanadi.

Mamlakat aholisi va hududining ma'lum bir qismining boyib borishi, bu umumiy maqsad yo'lidagi qo'yilgan birinchi qadamlar edi. Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish tajribasidan kelib chiqqan holda, iqtisodiy islohotlarning boshlang'ich davrida turli xil rayonlarning iqtisodiy o'sishida farqlarning yuzaga kelishi tabiiy holdir.

«To'rtlik modernizatsiyasi» dasturi orqali qishloq xo'jaligini tiklash va uni ko'tarish ko'zda tutilar ekan, avvalo 2 daryo oralig'idagi serhosil hududlarni isloh qilish maqsad qilib qo'yilganligini qayd qilish lozimdir. Qishloq xo'jaligida yerlarning dehqonlarga ijaraga berilishi, davlat buyurtmalarining qisqartirilishi va unga sifat jihatdan yangicha qaralishi natijasida, dehqonlarning ishlab chiqarishga bo'lgan munosabati sekin-asta o'zgara bordi. Hosildorlik yildan-yilga oshib borib, 2000-yillar boshida mamlakatdagi oziq-ovqat muammosi deyarli hal etildi. Qishloq xo'jaligini isloh qilish mobaynida yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlari-2,2 marotabaga,

shu jumladan, don yetishtirish-42,8% ga, paxta yetishtirish -2,6 marotabaga, qand lavlagi yetishtirish-3,5 marotabaga, go'sht yetishtirish esa - 3,7 marotabaga oshdi.

Xitoy sanoatining isloh qilinishi. 1949-yilda, ya'ni, XXR tashkil qilingan davrda, xitoy sanoatining rivojlanganlik darajasi juda past edi. Asosiy fondlar 12,4 mlrd. yuani tashkil etib, sanoatning tovarlarni ishlab chiqarishdagi ulushi ham juda past bo'lgan. Masalan, tekstil sanoatida ishlab chiqarilgan ip-tolasi yiliga 3327 ming tonnani, ko'mir kazib chiqarish esa - 32 mln. tonnani tashkil etib, asosiy sanoat uchun xom ashyo va tayyor mahsulotlar xorijdan keltirilar edi. 1949-1978 yillar davomida Xitoy sanoati bir tomonlama rivojlangan bo'lib, asosan harbiy sanoatni o'z ichiga olar edi. 1980 yilda XXR Hukumat Kengashi «xo'jalik birlashmalarini qo'llab-quvvatlashning chora va tadbirlari haqida»gi maxsus qarorini chiqardi. Gorizontaal xo'jalik birlashmalariga turli xil soha korxonalari kirgan bo'lib, uning natijasida yirik korxonalar guruhi, (ya'ni - YKG lar) tashkil etildi.

Bu davrda xo'jalik sub'ektlarining faoliyatida boshqaruv munosabatlari, mulkchilik shakllari va soliqlarning turlari o'zgarishsiz saqlanib qolindi.

Xitoy sanoatini isloh qilish asosan, 1984-yildan boshlandi. Dastlab tajriba sifatida xo'jalik korxonalarida soliq imtiyozlari berilib, o'z-o'zini ta'minlash tizimiga o'tila boshlandi. 1986-yilda Xitoy hukumati «Xo'jalik korxonalarini gorizontaal birlashtirishning ba'zi bir jihatlari to'g'risida»gi qarorini qabul qildi va uni e'lon qildi. Bu qarorda davlat korxonalarini qayta tashkil etish modellari ko'rib chiqildi.

Shu bilan birga, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga keng imtiyozlar berildi. Energetika, elektronika, mashinasozlik, aviasozlik, ximiya, oziq-ovqat sanoatlari juda yuqori sur'atlar bilan rivojlandi. Xorijiy texnologiyalar asosida maishiy texnika (televizorlar, sovutgichlar, audio-apparaturalar) ishlab chiqarila boshlandi. Bu qilingan ishlar esa, aholining turmush sharoitini yaxshilanishiga olib keldi. 1978-2004 yillarda yalpi sanoat ishlab chiqarishning o'rtacha yillik o'sishi 12%ni tashkil etdi.

1988-1990 yillar Xitoy iqtisodiy islohotlarida tub burilishlar davri bo'ldi. Bu davrga kelib, Xitoy qishloq xo'jaligi, sanoati va xizmat ko'rsatish

sohasidagi olib borilgan islohotlar o'z natijalarini berayotgan bo'lib, Xitoy xalqi esa, bozor iqtisodiyoti tushunchalari va qonun-qoidalariga o'z munosabatlarini bildirayotgan edi. 1988-1989 yillarda XXR poytaxti Pekin shaxrida bo'lib o'tgan ommaviy namoyishlar (Pekin shaxrining Tyananmin maydonida talabalar va ziyolilar o'zlarining ijtimoiy huquqlarini himoya qilib chiqishdi) mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar yo'nalishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Qisqa vaqt ichida jamiyat 3 ga bo'linib ketdi: bir guruh odamlar, yuqori davlat amaldorlari sof sotsialistik tuzum va mafkurani saqlab qolishga intilgan bo'lsalar, jamiyatning aksariyat faollari bozor iqtisodiyotiga to'liq o'tishni talab qilib chiqdilar. Xitoy iqtisodiy islohotlar bosh arxitektori hisoblangan Den Syaopin Xitoy Xalq Respublikasining keyingi rivojlanish yo'lini belgilab berib, quyidagi ijtimoiy rivojlanish tamoyilini e'lon qildi:

1. Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga to'sqinlik qilmaslik.

2. Reja sotsializmga ekvivalent emas, shuningdek bozor ham kapitalizmga ekvivalent emas. Reja va bozor iqtisodiyotidan ikkala tizimda ham foydalanish mumkindir.

3. Insonning ongini o'stirib, ularning moddiy boyliklarini ko'paytirishda ko'maklashish.

1990-yillar boshlarida "xitoycha sotsialistik bozor iqtisodiyoti" tizimi to'liq shakllandi va qaror topdi. 1992-yil 12-oktyabrda bo'lib o'tgan XKP ning 14-Umum Xitoy s'ezdida 1990-2000 yillarda Xitoy jamiyatining qurilish yo'nalishlari va isloh qilishning asosiy maqsad xamda vazifalari belgilab olindi.

Birinchiidan, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning sur'atlarini tezlashtirishi lozimligi:

a) Davlat korxonalarida xo'jalik yuritishning mexanizmlarini qayta shakllantirish, ayniqsa, yirik va o'rta davlat korxonalarini bozor talablariga yaqinlashtirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish;

b) Bozor tizimi infrastrukturasini takomillashtirish, iste'mol tovarlari bozorlarini, ishlab chiqarish vositalari bozorlarini, moliya bozorlarini isloh qilish va narh siyosatini qayta ko'rib chiqish;

c) Ijtimoiy ta'minot va taqsimot tizimi islohotlarini chuqurlashtirish. Davlat, jamoa va xususiy manfaatlarini inobatga olgan holda, milliy iqtisodiyotdagi taqsimotni amalga oshirish, ya'ni davlat va jamoa korxonalari, markaz va joylardagi daromadlar taqsimotini muvofiqlashtirib borish. Ish haqini to'lashni tartibga solib turish. Shu bilan birga, ijtimoiy ta'minot tizimini intensiv ravishda takomillashtirib borish, aholini ish bilan ta'minlash, pension va tibbiy ta'minotni yaxshilash, shahar va qishloqlarda uy-joy qurilishini muvofiqlashtirib borish.

Ikkinchidan, xorijiy hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy sarmoyalardan, tabiiy resurslardan, texnika va texnologiyalardan va boshqaruv tajribasidan samarali foydalanish. Xitoy erkin iqtisodiy zonalarining tashqi dunyoga ochiqligini kengaytirish, Pudun iqtisodiy zonasini rivojlantirish, Shanxay shahrini mintaqadagi Xalqaro moliyaviy iqtisodiy markazga aylantirish lozimligi. Undan tashqari, Yanszi xavzasi shaharlarini, Guandun, Fuszhan, Xaynan va Boxay zonasidagi shaharlarni tashqi dunyoga kengroq ochish mezonlari belgilab olindi.

Uchinchidan, ishlab chiqarish strukturasi sifat jihatdan tartibga solish va uning samaradorligini oshirish, «3 ta industriya»ni rivojlantirish (ya'ni, qishloq xo'jaligi industriyasi; ustuvor sanoat tarmoklari industriyasi va xizmat ko'rsatish industriyasi rivojlantirish);

To'rtinchidan, ilmiy texnikaviy taraqqiyotni rivojlantirish, ta'lim va ma'rifatni mamlakat hududi bo'ylab baravar rivojlantirish. Markaziy va g'arbiy rayonlardagi ishchilarning ishlab chiqarish malakasini oshirish va ilmiy texnikaviy taraqqiyot yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish yo'llari belgilab olindi.

Mamlakatda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida, Xitoy davlatining makroiqtisodiy ko'rsatkichi bo'lgan uning Yalpi ichki mahsuloti ko'rsatkichi yildan-yilga ortib bordi. Bu holatni biz quyidagi keltirilgan jadval 2 dan ko'rishimiz mumkin.

Xitoy yalpi ichki mahsulotining o'sish dinamikasi¹³:

1978 yil - 362,41 mlrd. yuan

¹³ Китай: факты и цифры, 2008, Пекин, 2009.

1985 yil - 896,44 mldr. yuan
1990 yil - 1854,79 mlrd. yuan
1995 yil - 5847, 81 mlrd. yuan
1998 yil - 7955,28 mlrd yuan
1999 yil - 8459,8 mlrd yuan
2000 yil - 8940,4 mlrd. yuan
2004 yil - 12789,6 mlrd. yuan
2005 yil - 14287,8 mlrd.yuan
2007 yil - 17425,2 mlrd.yuan
2008 yil – 30,602,1 mlrd.yuan
2009 yil – 33,004,2 mlrd.yuan

5.3.Iqtisodiy islohotlarning bosqichlari.

I–bosqichda Xitoy o‘z oldiga mamlakat YaMM ni 1985-yillarga kelib, 1978-yilga nisbatan ikki baravar ko‘paytirish va aholini oziq -ovqat va kiyim-bosh bilan ta‘minlash muammolarini hal etish vazifalari belgilangan edi. Amalda bu bosqich, 1980-yillarga kelib muddatidan oldin yakunlandi.

II-bosqichda Xitoy hukumati mamlakat YaMMini 2000-yilga kadar, 1980-yilga nisbatan to‘rt baravar ko‘paytirish belgilangan edi, amalda esa, 1990 - 1995 yillarda iqtisodiy o‘sinh juda yuqori bo‘lganligi sababli, bu reja ham muddatidan oldin bajarildi.

1995-yilda **III- bosqich** (1996-2000 yillar) maqsad va vazifalari belgilab olindi. Unda ikkinchi bosqichning strategik vazifalarini to‘liq amalga oshirish, 2000- yilga qadar aholini 300 mln.kishiga ko‘payishini inobatga olgan xolda, 1978-yilga nisbatan YaMMning aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishini to‘rt baravarga oshirish va aholining turmush sharoitini yaxshilab o‘rta rivojlangan industrial mamlakatlar qatoriga yetkazish maqsad qilib qo‘yildi.

IV-bosqich 2000-2010 yillarda milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, mamlakatni Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishini ta‘minlash, hamda XXRni rivojlangan industrial mamlakatlar qatoriga olib chiqish belgilangan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xitoyda iqtisodiy islohotlar qachon boshlandi?

2. Iqtisodiy islohotlarning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

3. Iqtisodiy islohotning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?

4. Iqtisodiy islohotlar Xitoyda necha bosqichda amalga oshirilmoqda?

5. «To‘rtlik modernizatsiyasi» dasturining mohiyati nimadan iborat?

6. Yaqin kelajakda Xitoyning iqtisodiy islohotlar dasturi nimalarni o‘z ichiga oladi? Nechanchi yillardan boshlab islohotlarda sifat jihatdan tub o‘zgarishlar yuz berdi va uning asosiy sabablari nimalarda?

7. XXR iqtisodiy islohotlar yutug‘i nimada?

8. Nechanchi yillardan boshlab islohotlarda sifat jihatdan tub o‘zgarishlar yuz berdi va uning asosiy sabablari nimalarda?

9. XXR iqtisodiy islohotlar yutug‘i nimada?

Mustaqil ish vazifalari:

1. Iqtisodiy islohotlar mobaynida Xitoyning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarining o‘zgarganligini tahlil qiling.

2. Iqtisodiy islohotlar boshlang‘ich davrida qaysi iqtisodiy qonunlar asosida amalga oshirilganligini tahlil eting.

Adabiyotlar:

1. Китайская Народная Республика: политика, экономика, культура в 2007 г., под ред Титоренко М.Л. М., 2008 г.

2. Китай: факты и цифры , 2005, изд. Синьсинь, Пекин.

3. ж. «Проблемы Дальнего Востока», 2005 г. №5,

4. ж. «МЭ и МО»: 2005г, №8.

5. Главные задачи реформ и строительства Китая в 90-х годах, изд. Синьсинь, Пекин, 2000 г.

6- Mavzu.: Xitoy qishloq xo‘jaligining tarkibiy tuzilishi va rivojlanishi

Reja

6.1. XXR qishloq xo‘jaligining tarkibiy tuzilishi.

6.2. Xitoy agrar islohotlari.

6.3. XXR agrar islohotlarining maqsad va vazifalari.

6.4. XXR qishloq xo‘jaligida islohotlar jarayonining taxlili.

6.5.Mamlakatda yerga bo'lgan munosabat va undan unumli foydalanish masalalari.

6.6.Xitoy qishloq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlikni oshirish va agrotexnika yutuqlarini amaliyotga joriy qilish masalalari.

Tayanch iboralar: agrar islohotlar, oilaviy pudrat, markazlashgan sotib olish tizimi, oldi-sotdi shartnomalari, bitim-kontrakt, rejalashtirish dasturi, prodrazverstka, talab va taklif, bozor narxi.

Darsning maqsadi: XXR qishloq xo'jaligining tarkibiy tuzilishi, undagi agrar islohotlarining maqsad va vazifalari, mamlakatda yerga bo'lgan munosabat va undan unumli foydalanish masalalari hamda qishloq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, agrotexnika yutuqlarini amaliyotga joriy qilish masalalari xaqida muayyan bilimga ege bo'lish.

6.1.XXR qishloq xo'jaligining tarkibiy tuzilishi

Xitoy Xalq Respublikasi rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kirib, u agrar-industrial mamlakat hisoblanadi. Uning agrar sohasi esa, mamlakat iqtisodiyotining muhim va ajralmas qismidir. Ushbu soha mamlakat aholisining iste'moli uchun asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini yetqazib beradi. Bugungi kunda agrar sohada mamlakat mehnat resurslarining 45% i jamlangan bo'lib, u mamlakat yengil sanoati uchun xom ashyo yetqazib beruvchi asosiy tarmoq hisoblanadi.

Oxirgi 30 yil ichida aholining qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasi yaxshilanib, u ham miqdoran, ham sifat jixatdan sezilarli darajada oshdi. Mamlakat aholisining bunday o'zgarishlarga yuz tutishiga sabab, undagi olib borilgan agrar islohotlar natijasi bo'ldi.

1978-yil oxirida Xitoyda mamlakatni inqiroz xolatdan chiqarish yo'llari intensiv tarzda izlana boshlandi. Shu yilning dekabr oyida Xitoy Kommunistik Partiyasining 11-Chaqiriq, 3-Plenumi bo'lib o'tdi. Unda mamlakatda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun yo'llanma berildi.

Qishloq xo'jaligidagi islohotlar, avvalambor, undagi mavjud ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga halaqit beruvchi to'siqlarni yo'qotishdan boshlandi. Bu sohani boshqarishda markazlashgan buyruqbozlikdan voz kechishga va mamlakatdagi mavjud xalq kommunalari tizimini takkomillashtirishga hamda mamlakat iste'mol fondini taqsimlashda barobarlikga yo'l qo'ymaslikka qaror qilindi. Uning oqibatida, Xitoy

qishloqlarida istiqomat qilayotgan aholining tashabbuskorlik va bunyodkorlik hislari ham ortib bordi.

Islohotlargacha bo'lgan davrda Xitoydagi umumiy ekin ekish maydonlarining hajmi 145 mln.ga dan iborat bo'lib, ularning 30,6% i sug'oriladigan yerlar bo'lgan. Bu esa, dunyo ekin ekish maydonining 7% ni tashkil etadi va mana shu yerlarning faqatgina 21% i yuqori xosil beradigan yerlar hisoblanadi. Hozirgi kunda mamlakatdagi ekin ekish maydonlari turli sabablarga ko'ra, yil sayin qisqarib bormoqda. Xususan, yerning erroziyasi, pestisidlar bilan zaxarlanishi, suv toshqinlari va h.k. Bugungi kunga kelib, uning ekin ekish maydoni 130 mln. ga ga tengdir.

Hozirda Xitoy, nafaqat o'zini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlab qolmasdan, balki boshqa davlatlarga ham bu mahsulotlarni eksport qilmoqda. Xitoyda 50 turdan ortiq poliz ekinlari, 100 ga yaqin xilma-xil sabzavotlar, 60 turdan ortiq mevalar, 700 ga yaqin qo'ziqorin va giyohvand o'tlar mavjuddir. Undan tashqari, mamlakatdagi qulay tabiiy sharoitlar, yerning yetarli darajada namligi, unda qishloq xo'jalik ekinlaridan yiliga ikki va hattoki uch marotaba hosil olish imkonini beradi. Takror ekin ekishning o'rtacha koeffisienti 1,4 ni, asosiy ekin ekiladigan joylarda esa, 3,3 ni tashkil etadi.

Hozirda, mamlakat bir qator qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda, yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Jumladan, g'alla, paxta, turli xil o'simlik moyi, choy, guruch, go'sht, tuxum va h.k. Mamlakat qishloq xo'jalik mahsulotlarining aholi jon boshiga to'g'ri kelishi bo'yicha, dunyodagi belgilangan o'rtacha darajadan oshib ketdi. Uning qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasi esa, unga bo'lgan umumiy talab va taklif muvozanatiga mosdir va hattoki, mamlakatda hosildorlik yuqori bo'lgan yillarda, umumiy taklifning ortib ketganligini ko'rish mumkin.

Xitoy qishloq xo'jaligi o'simlikshunoslik, o'rmonchilik, chorvachilik va suv mahsulotlari xo'jaligini o'z ichiga olib, odatda ular ham o'z navbatida, quyidagilarga taqsimlanadi, ya'ni:

Xitoy qishloq xo'jaligining tarkibi

O'simlikshunoslk:	Chorvachilik:
g'allachlik	cho'chqachilik
sholikorlik;	qoramolchilik;
paxtachilik;	yilqichilik;
mevasozlik;	echkichilik
sabzavotchilik	parrandachilik.

Shuni ta'kidlash joizki, Xitoy Xalq Respublikasining qishloq xo'jalik resurslari albatta cheksiz emas. Uning ustiga aholisining yildan-yilga ko'payib borishini hisobga oladigan bo'lsak, ushbu resurslarning chegaralanganligini yana bir karra guvohi bo'lamiz.

Hozirgi kunda (2007 y.) Xitoy qishloq aholisining soni 802 million kishidan iborat bo'lib, u mamlakat aholisining deyarli 60% ni tashkil etadi. Ulardan 498 mln. kishi mehnatga layoqatli kishilarni tashkil etib, u mamlakat ishga layoqatli kishilarning deyarli 70% ni tashkil qilmoqda.

Xitoy ekin ekish maydonlarining yalpi hajmi ham yil sayin qisqarib bormoqda va hozirgi kunda uning yalpi xajmi 130 mln. ni tashkil etmoqda. Ekin ekish maydonining Xitoy aholisi jon boshiga to'g'ri kelishi 0,1 ga ni, mamlakat mehnatga layoqatli qishloq aholisining jon boshiga to'g'ri kelishi esa, 0,26 ga ni tashkil etadi.

Don mahsulotlaridan Xitoyda asosan, bug'doy, guruch, makkajo'xori, batat va soyali no'xotlilar yetishtiriladi. Ularning ichida sholi – asosiy don mahsuloti bo'lib, uning mamlakat don mahsulotlarini yetkazib berishdagi salmog'i 38,7% ga tengdir. Xitoyning asosiy sholikorlik rayonlari Yanszi daryosi havzasi, Janubiy Xitoy va Yunnan-Guyjou tog' yon bag'irlari hisoblanadi.

Don mahsulotlarini yetqazib berishda bug'doyning ham ahamiyati kattadir. Uning don mahsulotlarini yetqazib berishdagi salmog'i 22% ni tashkil etadi. Bug'doy mamlakatning barcha hududlarida yetishtiriladi. Uni yetishtirish rayonlari, asosan, Xenan, Shandun, Anxoy, Shensi, Szyansu, Xubey, Sichuan profinsiyalari hisoblanadi.

Undan keyingi o'rinni makkajo'xori egallab, uning don mahsulotlaridagi salmog'i 25,7% ni tashkil etadi. Makkajo'xori mamlakatning Shimoliy-Sharqiy, Shimoliy va Janubiy-G'arbiy rayonlarida yetishtiriladi.

Mana shu yuqorida ta'kidlagan muammolarga qaramasdan, Xitoy o'z aholisini nafaqat don mahsulotlariga bo'lgan iste'molini, balki oziq-ovqat mahsulotlari bilan ham to'la qondirib kelmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda texnik jihatdan muhim omillar sifatida irrigatsiya, mineral o'g'itlardan foydalanish va urug'lik

fondining yangilanishi katta rol o'ynadi. Hozirgi kunda mamlakat agrar sohasida irrigatsiya inshootlaridan foydalanish koeffisienti o'rtacha 40% ni tashkil qilmoqda, bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarga qaraganda 25-30% ga past daraja hisoblanadi.

Undan tashqari, ekin ekish maydonlarini suv bilan ta'minlash ham yildan-yilga muammo bo'lib qolmoqda. Shuning uchun Xitoy hozirda suvni tejaydigan texnologiyalardan foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqmoqda.

Xitoyda g'allachilik uchun ekin ekish maydonlari qisqarib, uning o'rniga texnik ekinlarni ekish maydoni ko'payib bormoqda. Ular jumlasiga paxta, yer yong'oq, raps, kunjut, shakar qamish, choy, tamaki, shoyi va turli xildagi mevali mahsulotlar kiradi. Xitoyning asosiy paxtachilik rayonlari Xuanxe xavzasi, Yanszi daryosining o'rta va quyi oqimi rayonlari va Sinszyan-Uyg'ur avtonom rayonidagi Manas havzasi hisoblanadi. Xitoy paxta yetishtirishda dunyoda yetakchi o'rinni egallaydi.

Yer yong'oq yetishtiriladigan maydonlar Xitoyning Shandun provinsiyasida, Guandunda, Guansida va Lyaoninda joylashgandir. Raps esa, Xitoyning Yanszi xavzasida va Sichuanda yetishtiriladi. Shakar qamish Janubiy Xitoyda, qand lavlagi esa, Xeylunszyanda, Szilinda va Ichki Mongoliyada yetishtiriladi.

Xitoyda o'rmonlar 128,63 mln. ni tashkil etib, uning yirik massivlari mamlakatning Shimoliy-Sharqida, Kichik a Katta Xingan rayonlarida va Chanbayshin tog'larida joylashgandir. U yerlarda kedr, barglilar, chinor, teraklar, qayrag'och va sada daraxtlari o'sadi. Undan tashqari, ikkinchi darajali hajmdagi o'rmon massivlari Xitoyning Janubiy G'arbiy qismida joylashgandir. Bu yerlarda yunnan qarag'ayzorlari, archa va paxtazorlar mavjuddir. Shu bilan birga, qimmatli daraxtlar hisoblangan greypfrut, pterokarpus, santalinus, kamfora, febe nanmu va qizil daraxtlar ham mavjuddir. Ushbu o'rmonzorlardan olingan yog'ochlardan Xitoy o'zining ichki iste'moli uchun, ya'ni qurilish ishlarida va mebelsozlikda foydalanib kelmoqda.

Xitoyning muhim qishloq xo'jalik tarmoqlaridan biri hisoblangan chorvachilik sohasi asosan, uning Ichki Mongoliyada, TyanShan va Oltoy tog' yon bag'irlarida, Sinszyanda va Sinxay-Tibet tog' yon bag'irlarida rivojlangandir. Mamlakatda 313,33

mln. ga teng qoramol va qo'ylarni boqishga mo'ljallangan cho'lu-biyobonlar va qiradirlar mavjuddir.

Undan tashqari, Xitoyda 400 turdan ortiq uy hayvonlari mavjud bo'lib, ular jumlasiga cho'chqalar, yirik va mayda qoramollar, yilqilar, eshak va mollar, tuyalar, tovuqlar, g'ozlar, o'rdaklar, quyonlar va boshqalar kiradi. Bu soha 1979-yildan so'ng, ya'ni agrar islohotlar boshlangandan keyin, tez sur'atlarda rivojlana boshladi.

Xitoyning suv mahsulotlari xo'jaligi iqtisodiy islohotlargacha bo'lgan davrda, faqatgina o'zining ichki ko'llari va dengiz oldi tabiiy baliqchiligi bilan shug'ullanib kelgan. Uning chuchuk suv mahsulotlari va dengiz baliq mahsulotlari hajmi uncha katta bo'lmagan. 1978-yildan keyin esa, mamlakatda baliqchilik mahsulotlariga ahamiyat ortib bordi va bunda hovuzlarda baliqlarni ko'paytirishga urg'u berildi. Shular bilan bir qatorda, dengiz va okeanlarda baliqlarni ovlash ishlari ham avj ola boshladi. Ushbu mahsulotlarning o'rtacha yillik ovlash hajmi 2 mln. tonnadan oshib ketdi. Hozirgi kunda mamlakatda 20 dan ortiq okean baliqchilik xo'jaligi kompaniyalari va baliqchilik bo'yicha xorijiy va Xitoy qo'shma korxonalari mavjuddir.

Umuman olganda, Xitoy qishloq xo'jaligi sohasi orasidagi nisbat bir-biridan ancha farqlanadi. Ya'ni, umumiy qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida o'simlikshunoslikning salmog'i ancha katta bo'lib, u 47% ni tashkil etadi. Shu bilan birga, undagi chorvachilikning hissasi 17,4% ni, yordamchi xo'jaliklarning hissasi 29,8% ni, baliqchilikning salmog'i 3,1% ni va o'rmon xo'jaligi hissasi- 2,5% ni tashkil etadi.

6.2.Xitoy agrar islohotlari.

1978-yil oxirida Xitoyda XKP MQ sining 3-Plenumi 11-Chaqirig'i bo'lib o'tadi va unda mamlakatda amalga oshirilayotgan ishlarning og'irlik markazini sotsialistik modernizatsiyalash va iqtisodiy islohotlar hamda ochiqlik siyosatini olib borishga yo'naltirildi. Bunda islohotlar Xitoy qishloqlaridan boshlandi. Qishloqlarda oilaviy pudrat tizimi va xo'jalik yuritishning yangi mexanizmi joriy qilina boshlandi. Xitoy qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ko'p ukladlilik tan olindi. Mamlakatdagi mavjud sotsialistik uklad bilan birgalikda, yakka, xususiy, jamoa xo'jadiklari ham qaror topa

boshladi. Kichik va o'rta korxonalarda ishchi kuchini yollashga ruxsat berila boshlandi. Mamlakatdagi mavjud davlat qaramog'idagi bekor yotgan yerlar dehqonlarga bo'lib berildi. Undan tashqari, qishloqlardagi dehqon hovlisi (tomorqasi) ham joylardagi asosiy ishlab chiqarishning xo'jalik hisobidagi birlik o'lchovi bo'lib qoldi.

Xitoydagi agrar isloxotlar Anxoy provinsiyasining Ru uezdidan eksperiment sifatida boshlandi.

1979-yili Den Syaopin islohotlar jarayonining uchta nazariy asosini va uning uchta tamoyillarini e'lon qildi:

1. Ishlab chiqarish kuchlari rivojiga halaqit bermaslik;
2. Reja sotsializmga ekvivalent emas, chunki bozor iqtisodiyotida ham reja kerakli element hisoblanadi ;
3. Insonlar ongiga erkinlik berish va ular farovonligini oshirishga yordam berish.

Islohotlar avval alohida provinsiyalarda va uezdlarda, keyinchalik esa, ya'ni, kishilar islohotlarning samarali ekanligiga ishonch hosil qilgach, ular Xitoyning boshqa mintaqalarga ham keng tarqala boshladi.

Xitoy qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarning asosi - bu oilaviy pudrat bo'lib, u ijaraning (arendaning) bir shakliga kiradi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun 5 yil (vaqt) kerak bo'ldi. Yer ko'pchilik hollalarda dehqon oilalariga, uning soniga qarab, bo'lib berildi, ba'zi provinsiyalarda esa, uning mehnatga layoqatli a'zolariga qarab taqsimlab berildi. Dehqon oilalariga islohotlarning birinchi yillariyoq, pudrat asosida bitim bilan 1 yildan 3 yilgacha vaqt mobaynida yer uchastkalari bo'lib berildi. Bitim muddati tugagach, oilalararo yerni taqsimlash tartibi qayta ko'rib chiqilishi lozim deb topildi. Dehqon oilasi bitimga binoan, ishlab chiqarish va mahsulot yetishtirish uchun o'ziga yuklatilgan vazifalarini zimmalariga oladi. Bu esa, davlatga muayyan aniq bir muddat va miqdorda qishloq xo'jalik mahsulotlarini muayyan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan yetqazib berishni ko'zlaydi. Bundan tashqari, oila yana qishloq tashkilotlari boshqarmasiga, jamoa fondiga va qishloq xo'jaligiga soliqlar to'laydi. Bu soliq miqdori bir necha yillardagi ishlab chiqarish darajasi bilan aniqlanadi. O'z navbatida, qishloq tashkilotlari dehqonlarga

yordamlashadi. Ular bitimga binoan, urugʻ, ekin koʻchatlari, oʻgʻitlar bilan dehqonlarni taʼminlaydi.

Bitimda koʻrsatilgan soliqdardan va yetishtirilgan mahsulot miqdoridan ortib qolgan qismi esa, dehqon oilasi qaramogʻida qoladi. Dehqonlar bu ortiqcha mahsulotlarni oʻzlarining hohishlariga qarab bozorlarda sotish yoki davlatga yuqori narxlarda (yaʼni sotib olish miqdoridan 50% yuqori narxda) sotishi mumkin.

Qishloqda xoʻjalik tizimi islohotlariga, asosan, shaxsiy yordamchi xoʻjalikning rivojiga katta ahamiyat berilmoqda. Shaxsiy foydalanish uchun Shanxay, Nankin shaharlarida 0,7 mu dan (1 mu =0,067 ga) yer ajratilib berilib, unda har bir oilaga 10 tagacha choʻchqa va 100 tagacha tovuq-xoʻroz boqishga ruxsat berildi. Bunday shaxsiy xoʻjaliklarda yetishtirilgan mahsulotning bir qismi ichki bozorlarga kelib tushadi.

6.3.XXR agrar islohotlarining maqsad va vazifalari.

Xitoy Xalq Respublikasi agrar islohotlarining asosiy maqsadi va xususiyatlari yuqorida taʼkidlaganimizdek, 1978-yil oxirida UXXVK (Umumxitoy Xalq Vakillarining Kengashi) Markaziy Kumitasining P-chaqiriq. 3-plenumida qabul qilingan iqtisodiy islohotlar olib borish dasturiga koʻra, Xitoyda islohotlar aynan uning qishloqlaridan boshlandi. U oʻz ichiga oilaviy pudratni joriy qilishda uning turlicha shakllarini tadbiq etishni, umumiy xizmat koʻrsatish tizimini yaratishni, asta - sekinlik bilan davlatga qishloq xoʻjalik mahsulotlarini rejali va markazlashgan tarzda yetqazib berishdan voz kechish vazifasini, hamda davlat qishloq xoʻjalik mahsulotlarining va yordamchi xoʻjaliklarda yetishtirilgan mahsulotlarning ahamiyatli qismining narxini erkinlashtirish vazifasini, qishloq xoʻjaligi ichki strukturasi tartibga solish vazifasini, koʻp tarmoqli xoʻjaliklarni va poselka-volostlardagi korxonalarni rivojlantirish vazifasini oʻz oldiga maqsad qilib qoʻydi.

Ulardan eng asosiysi boʻlib, davlatni iqtisodiy rivojlantirishga yordam berish va birinchi navbatda, qishloq xoʻjaligiga hamda mehnatkashlar yashash darajasini oshirishga qaratilgan vazifalar qoʻyildi.

Dehqonlarga mustaqillik berilishi, ya'ni shaxsiy moddiy manfaatdorlikning davlat iqtisodiy manfaatlari bilan qo'shilishi, qishloq xo'jaligini tez yuksalishiga turtki berdi. Undan tashqari, qayta ishlash sanoatini xom ashyo bilan to'liq ta'minlash ishlari natijasida, natural xo'jalikdan tovar xo'jaligiga o'tish imkoniyati yaratildi. Buning yaqqol dalili sifatida raqamlarga murojaat qilamiz, ya'ni, 1978-1988 yillardagi qishloq xo'jaligidagi yetishtirilgan yalpi mahsulotlarning o'rtacha o'sish sur'atlarini olib qaraydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich mana shu 9-10 yillar ichida o'rtacha 6,5 % ni tashkil etgan.

Agrar islohotlarning yana bir ahamiyatli tomoni shundan iboratki, unda qishloqlarda sanoat ishlab chiqarish faoliyatini olib borishga ruxsat berilganligidir. Shuni aytish kerakki, Xitoyda qayta ishlash korxonalariga, yordamchi sanoat ishlab chiqarilishiga va hunarmandchilikdagi kasb-hunarning rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga muayyan sharoitlar yaratildi. Ishlab chiqarishni rivojlantirishga va birinchi navbatda, ichki va tashqi bozor uchun, xalq xo'jalik iste'moli mollarini yetqazib berishga, asosiy e'tibor qaratildi.

Xitoy qishloqlaridagi qishloq xo'jalik va sanoat ishlab chiqarishdagi integrasion jarayoni hamda sanoat va savdo korxonalarini qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi bilan qo'shilishi, agrar islohotlarda ko'zda tutilgan ko'pgina muammolarni hal yetishni tezlashtirdi:

Birinchi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarilishini moliyalashtirish uchun kerakli kuchli manba topildi. Sanoat ishlab chiqarilishi faoliyatidan tushgan mablag'ning anchagina qismi, qishloqlarda ijtimoiy muammolarni yechishga, hamda yerga ishlov berishni va chorvachilikni rivojlantirishga yo'naltirildi.

Ikkinchidan, sanoatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar ichki va tashqi bozorni xalq iste'moli tovarlari bilan to'ldirish imkonini berdi.

Uchinchi esa, qishloq territorial sanoat ishlab chiqarish faoliyati qishloqda aholining bo'sh qismini ish bilan ta'minlash imkonini berdi va shu bilan birga, aholini shaharlarga ketishini (migratsiyasini) to'xtatdi, natijada esa, mamlakatda ishsizlik darajasi 2 baravarga kamaydi.

Islahotlar xorijiy firmalar bilan qo'shma korxonalar tuzish imkoniyatini yaratdi, ya'ni qishloq iqtisodiyoti yuksalishi uchun chet el sarmoyalarini jalb qilishga ruxsat etildi. Bu esa, o'z navbatida, nafaqat xorijiy mutaxassislarni Xitoyga jalb etishga, balki bir vaqtning o'zida zamonaviy texnologiyalarni qishloq fabrika va zavodlariga jalb qilish imkonini berdi. Natijada, kooperativlar va turli hajmdagi firmalarning pul hisoblarida chet el valyutasi paydo bo'ldi.

Mana shu iqtisodiy islohotlar natijasida, Xitoydagi asosiy muammo - 1 milliard 300 millionlik aholini oziq-ovqat va qayta ishlash sanoati tovarlari bilan ta'minlashga erishildi. Oziq-ovqatni iste'mol qilish darajasi esa, 2 marotabaga ko'paydi, ammo, lekin, qishloqlardagi dehqon xonadonlarining salmog'i, aksincha, 8 marotabaga kamaydi. Hozirgi kunda Xitoy aholisining yashash darajasi islohotlarga bo'lgan davrdga qaraganda, ancha yaxshilandi.

6.4.XXR qishloq xo'jaligida islohotlar jarayonniing taxlili.

Xitoyda agrar islohotlarni olib borishning asosiy mexanizmlari nimalardan iboratligini tahlil qilganimizda, quyidagilar amalga oshirilganini ko'rishimiz mumkin:

Birinchi bosqichda, qishloq xo'jalik ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash maqsadida, davlat tomonidan qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotib olish narxlari 18 ta asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlariga narxlar bir muncha oshirildi. Bir vaqtning o'zida, qishloq xo'jalik mahsulotlari va yordamchi xo'jalik mahsulotlarining 65 %, bozor narxlarida sotila boshlandi. Qishloqdarda oilaviy pudrat va ijara munosabatlari aktiv joriy etila boshlandi. Shu bilan birga, taqsimlash tamoyillari ham o'zgardi. Bu degani, mehnatga haq to'lashda barobarlikka barham berilganligidir. Ma'muriy taqsimlanishdan nihoyat, iqtisodiy taqsimlanish usuliga o'tish amalga oshirildi.

Ikkinchi bosqichda esa, (bu 1985-yil boshi) davlat tomonidan qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotib olish tizimida prinsipial o'zgarishlar amalga oshirildi. Markazlashgan sotib olish tizimi oldi-sotdi shartnomalari bilan o'zgartirildi.

Prodrazverstka bo'yicha, 39 turdagi mahsulot o'rniga, hohlagan mahsulotni erkin tarzda ekib, uning xosili davlatga topshirildi, asosiy qishloq xo'jalik mahsulot turlari bo'yicha ya'ni: guruch, don, makkajo'xori, soya, moyli o'simliklar, paxta va boshqalar shular qatoriga kiradi. Shu tariqa Xitoyda davlatga qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetqazib berish shartnomalari tuzila boshlandi. Davlat ekin ekish maydonlari hajmini va ishlab chiqarish hajmlarini rejalashtirishdan voz kechdi. Rejalashtirish asosi bo'lib, ikki va ko'p yoqlama shartnoma - bitimlar hisoblandi. Natijada, raqobatlashish uchun sharoit tug'ildi. Dehqon xovlisi yoki kooperativlar, erkin xolda, davlat tayyorlash tashkilotlari bilan qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish uchun, belgilangan qattiq narxlarda, shartnomalar tuza boshladi. Bu ishlarning xarakterli tomoni shundan iboratki, shartnoma tuzishga o'tishda, bo'g'doy sotib olish hajmi kamaydi. Agar, 1980-yillarda u 70 million tonnani tashkil etgan bo'lsa, 1987-yillarga kelib, u 50 million tonnaga kamaygan. Bir vaqtning o'zida, dehqonlar tomonidan bozorda sotilgan donning ulushi 40% ga ko'tarildi. 1987-yilda shartnoma bo'yicha bozor narxida sotilgan don, umumiy tovar xajmining 65 % ni tashkil etdi. Bozorlarda erkin tarzda poliz ekinlari, meva-sabzovotlar, go'sht, tuxum, balik va dengiz mahsulotlari sotila boshlandi. Ularning narxi talab va taklifdan kelib chiqib, shakllandi.

Umuman, xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, Xitoy agrar islohtlarining xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Islohotlar yuqoridan turib kuch va buyruq bilan joriy qilinishi emas, balki ularni qishloq xo'jaligini quyi qatlamlaridan boshlanganligidadir;
- Islohotlar jamiyat tizimini o'zgartirishni ko'zlamaydi, balki, aksincha, ular kamchiliklar va salbiy xodisalarni yo'qotish yo'li bilan jamiyatni yanayam rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirilgandir.

6.5.Mamlakatda yerga bo'lgan munosabat va undan unumli foydalanish masalalari.

Xitoyda agrar islohotlarning eng asosiy va dolzarb muammosi – bu yerga bo'lgan mulkchilik huquqi va undan unumli foydalanish huquqi hisoblanadi. Agrar islohotlarning asosiy maqsadi mavjud yerlarni xususiylashtirish yoki ularni xususiy

mulk shakliga aylantirish emas, balki aksincha, Xitoy Xalk Respublikasi qonuni bo'yicha yer sotsialistik ijtimoiy mulk shaklida saqlanib qoldirilgandir. Binobarin, dehqon jamoa xo'jaligidagi yerlar ularning jamoa mulki, shahar va poselkalardagi uy-joylar joylashgan yerlar esa, davlat mulki xisoblanadi.

Xitoy qonunchiligi bo'yicha, yerga bo'lgan mulkchilik huquqi 3 xil turdagi mulkchilik sub'ektlariga qarashlidir:

1. Qishloqlarda yashaydigan dehqonlarning kollektiv mulki;
2. Volost-poselkalarda yashaydigan dehqonlarning kollektiv mulki;
3. Qishloq darajasidagi yoki undan past bo'lgan birlamchi birlashmalarning xo'jalik tashkilotlaridagi dehqonlarning kollektiv mulkidan iboratdir.

Xitoyda mahalliy darajada yerni ijaraga berish shartnomalari uzoq muddatga 15-30 yillarga va qisqa muddatga 3-5 yillarga tuziladi. Qishloqlardagi soliqlarning asosiy qismini yer solig'i tashkil etadi. Uning miqdori hukumat tomonidan, ekin ekish maydonlariga va ekin turlariga qarab alohida belgilanadi. Islohotlar davrida qishloq xo'jaligidagi eng asosiy muammo – bu yerga bo'lgan kollektiv mulkchilikning huquqiy normalarini belgilash edi. Mavjud qonunchilik bazasi juda ham bo'sh bo'lib, u har qadamda, uni buzishga olib kelar edi.

Xitoyning soha mutaxassislarning fikricha, qishloq joylarida dehqonlarning yerga bo'lgan xususiy mulkchilik turiga o'tishi, juda ham mayda bo'lgan qishloq xo'jalik tizimini vujudga keltiradi, bu esa, o'z navbatida, dehqonlarga yangi agrotexnik muammolarni hal etishga va qishloq xo'jalik mashinalaridan foydalanishda ularni chegaralab qo'yadi hamda joylardagi ishlab chiqarish kuchlarini rivojiga xalaqit beradi.

Shu bilan birga, xususiy mulkchilik yer egalari oldiga ko'pgina muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ya'ni, ular ishlov berishi lozim bo'lgan ekin ekish maydonlarini kengaytirishda bir qator murakkab iqtisodiy muammolarni tug'dirishi mumkin. Aynan shuning uchun ham, Xitoyda yerga bo'lgan mulkchilik huquqi umumiydir. Chunki, birinchidan, u sotsialistik tizim prinsipidan kelib chiqqan bo'lsa, ikkinchidan, u butun jamiyat farovonligini yuksalishiga va qishloqlarning

rivojlanishiga sharoit yaratadi, hamda mamlakatdagi tovar-pul munosabatlarining kengayishida xo‘jalik faoliyatini samarali olib borishga yordam ko‘rsatadi.

Oxirgi yillarda mamlakatda yerdan foydalanish huquqini davlat tomonidan berilish miqyosi birdaniga o‘tib ketdi, bunga asosiy sabab, esa, Xitoyda yerlarning dehqonlarga foydalanish uchun bo‘lib berilishidir. Ushbu voqea esa, o‘z navbatida, mamlakatda aholi sonining ortishiga va uning bandlik tarkibining o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatdi.

Xitoy qishloqlarida uzoq vaqt mobaynida “xalq kommunasi” tizimi mavjud bo‘lib, unda yer va boshqa asosiy qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish vositalari umumiy mulk, ya’ni barcha kommuna a’zolari mulki hisoblanar edi. Ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar taqsimoti, qisman, kommuna a’zolarining qilgan mehnatlariga qarab, qisman esa, dehqonlarning oila a’zolari soniga qarab taqsimlanar edi. Undan tashqari, dehqonlar ekin ekishda tanlash huquqiga va yetishtirilgan mahsulotlarni boshqa mahsulotlarga almashtirish huquqiga ega emas edilar.

Mamlakatda boshlangan agrar islohotlar mana shu cheklovlarni kamayishiga olib keldi. Dehqonlar o‘zlari yetishtirgan mahsulotlarini faqatgina bozorga mo‘ljallab tashkil eta boshladilar. Davlat tomonidan esa, faqatgina 5 xil mahsulot bo‘yicha, ya’ni, paxta, g‘alla, tamaki, sholi va jun mahsulotlari buyurtmasi saqlanib qoldi. Mana shu mahsulotlarga va yana sotib olish rejasiga tushgan mahsulotlar bo‘yicha narxlarni davlat o‘zi belgilamoqda. Qolgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari esa, bozor talabiga binoan sotilmoqda. Shuni ta’kidlash joizki, davlat tomonidan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotib olish uchun belgilangan narxlar bozor narxlaridan katta farq qilgani yo‘q. Islohotlar jarayonida masalan, don mahsulotlariga narx atigi 1,5 martaga, paxtaga 1,7 martaga, go’shtga 3,8 martaga, baliq va baliq mahsulotlariga 3,8 martaga narxlar ko‘tarildi va aksincha xolat bo‘lgan - moyli o‘simliklarga o‘rnatilgan narx - 8,1 martaga oshganligi bundan istisnodir.

Endi Xitoy qishloqlaridagi ishlab chiqarish sharoitlari va qishloq xo‘jalik resurslari xolatini taxliliga e’tibor qaratib, undagi hozirgi davr xolati bilan bog‘liq bo‘lgan mavjud sharoitlar ni jadval 6.5.1. orqali ko‘rib chiqish mumkin.

Jadval 6.5.1.

**Xitoy qishloqlaridagi ishlab chiqarish sharoitlari va qishloq xo‘jalik
resurslari xolati (2008 y.)¹⁴**

Xitoy Xalq Respublikasida aholining soni (10 mln.kishi)	1 320 080
Xitoy qishloq aholisini soni (10 ming.k.)	79623
Xitoy qishloq xonadonlarining soni (10 ming k.)	24912
Xitoy qishloqlaridagi mehnatga layoqatlilar soni (10 ming k.)	51132
XXR ning ekin ekish maydonining hajmi (1000 ga.)	130037
Suv resurslari (100 mln.kub/m.)	28128
Sug‘oriladigan maydon hajmi (1000 ga.)	54014
Qishloq xo‘jalik texnikasining quvvati (10 ming kvv.)	60329

Asosiy qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishdagi Xitoyning dunyodagi o‘rniga kelsak, ular quyidagicha bo‘lib, uni biz Jadval 6.5.2.dan ko‘rishimiz mumkin.

Jadval 6.5.2.

Xitoyni asosiy qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishda dunyodagi o‘rni¹⁵

O‘rni	Mahsulot nomi
1-o‘rinda	Paxta, guruch, raps, go‘sht, tuxum
2-o‘rinda	Choy, g‘alla
3-o‘rinda	Soya
4-o‘rinda	Qand-shakar

1998 yilda Xitoy tarixida birinchi marotaba g‘alla yetishtirish bo‘yicha xosildorlik eng yuqori darajaga yetib, u 500 mln. tonnani tashkil etdi. Uning oqibatida, bozordagi g‘alla taklifi uning talabidan oshib ketdi.

¹⁴ Китай: факты и цифры, 2008 г., Пекин, 2009, с/12

¹⁵ Китай: фвкты и цифры 2008 г. Пекин, 2009.,с.17

G'allaning narxi esa, uzoq yillar davomida eng past narxlarda bo'lib keldi. Bu borada davlat tomonidan ushbu mahsulotlarni ekish maydonlarini qisqartirish choralari ishlab chiqildi va ularning xajmi qisqardi. Shular bilan bir qatorda, uning ustiga yana, keyingi 1999 yil tabiiy ofatlarga to'la yil bo'ldi. Ularning natijasida esa, mamlakatda g'alla yetishtirish hajmi qisqardi. 2004 yilga kelib, g'alla yetishtirishning hajmi uning bozor ta'minotiga o'z ta'sirini ko'rsata boshladi va oqibatda bug'doyning narxi 20% ga ko'tarildi.

Shunga yarasha, Xitoy Qishloq xo'jaligi vazirligi g'alla hajmini oshirish bo'yicha reja ishlab chiqib, uni bajarish bo'yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirdi va 2007-yilda mamlakatda 501 mln. tonna g'alla yetishtirildi.¹⁶

Shuni ta'kidlash joizki, 1979-2006 yillarda agrar sektorda Yalpi ichki mahsulotning o'rtacha o'sishi 6,8 % ni tashkil etdi, bu ko'rsatkich esa, uning dunyo darajasidan ancha yuqoridir.

Xitoyda agrar ishlab chiqarishning yalpi ichki mahsulotdagi qiymati 16,4% ni, undagi qishloq mehnat resurslarining salmog'i esa, 50% ni tashkil qiladi. Mana shu ko'rsatkichlarni boshqa mamlakatlar bilan taqqoslasak, masalan, AQSh da ular 1,6% ni va 2,6% ni, Yaponiyada esa, 1,7% va 4,8 % ni tashkil qilmoqda. Ammo, shunga qaramay, Xitoy davlati bugungi kunda, o'z kuch va qudratiga tayangan xolda, mamlakat aholisini, ya'ni 1 mlrd. 320 mln. kishining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini asosan qondirmoqda.

Xitoy bugungi kunga kelib, yerning unumdorligini oshirish bo'yicha katta yutuqlarga erishdi. Jumladan, bug'doy, sholi va makkajo'xori yetishtirishda, u dunyo o'rtacha darajadagi mamlakatlardan yuqori turadi. Shu bilan birga, Xitoy qishloq xo'jaligidagi optimal holat omillarni ham sanab o'tish joizdir:

1.Oziq-ovqat ta'minoti bilan narxlarning uzviy bog'liqligi. Bunda g'allaning yetishmasligi, bir zumda narxlarning oshib ketishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, g'alla yetishtirish uchun manfaatdorlikni keltirib chiqaradi. Bunga misol qilib, 2004-yildagi g'allaga narxning oshishi bilan bog'liq bo'lgan ekin ekish maydonlarining g'allani ekish uchun kengaytirilganligini olsak bo'ladi;

¹⁶ Китай: фвкты и цифры 2008 г. Пекин, 2009.с.19.

2. Xitoy qishloq xo'jaligida ilmiy texnik jarayondan hali to'liq foydalanilmayotganligini ko'rish mumkin. Hozirgi kunda, mamlakat qishloq xo'jaligida ilg'or agrotexnika usullarining atigi 30% gina amaliyotga tadbiiq etildi xolos. Yaqin kelajakda bu ko'rsatkichni 50% ga yetqazish ko'zda tutilmoqda;

3. Xitoyning 60% ekin ekish maydonlari past va o'rta darajadagi xosildorlik olinadigan maydonlar hisoblanadi. Bu yo'nalishda yer qatlamlarini meliorativ usullar orqali yaxshilash ko'zda tutilmoqda;

4. Xitoy o'rmon resurslariga juda boy bo'lib, ularni yetishtirish va sotish evaziga g'allani o'rnini bosadigan mahsulotlarni sotib olish mumkin.

Soha mutaxassislarining fikricha, 2030-yilga kelib, Xitoy aholisining soni 1,6 mlrd. kishiga yetadi. Mana shu aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun esa, 681,8 mln.tonna don mahsulotlari kerak bo'ladi. Bu esa, mamlakatda g'alla o'stirishni 1,20% ga ko'paytirishni talab qiladi. Mana shularni e'tiborga olgan xolda, Xitoy hukumati bu yo'nalishda ko'pgina chora-tadbirlarni ishlab chiqmoqda. Xususan, oxirgi 30 yil ichida mamlakatda qishloq xo'jalik mahsulotlarini zahirasi va ular bilan muomola qilish sharoitlari yaxshilandi. Mamlakatda 1990-yildan boshlab, oziq-ovqat zahirasi tizimini tuzdi va uning hajmi hozirgi kunda 40 mln. tonnani tashkil etmoqda. Maxalliy don rezervlari esa, 10 mln. tonnadan iboratdir. Undan tashqari, xitoy dehqon xonadonlari zahiralarida 120 mln. tonna g'alla mavjuddir. BMT ning (FAO) Oziq-ovqat va qishloq xo'jalik tashkiloti xulosasiga ko'ra, mamlakatning oziq-ovqat ta'minoti xavfsizligi rezervi, uning mamlakat iste'mol darajasining 17-18% ni tashkil qilishi lozim. Xitoyda oziq-ovqat iste'molining yillik miqdori 480 mln. tonna bo'lsa, FAO tashkilotining ko'rsatmasiga binoan, mamlakatning don zahirasi 81,6 - 86,4 mln. tonnani tashkil etishi lozim. Bu ishlarni amalga oshirish uchun esa, Xitoy hukumati, qishloq xo'jaligida agrotexnikaning ilmiy-texnikaviy yutuqlaridan foydalanishni, bu sohaga ko'proq turli xil pul vositalarini jalb qilishni (assignatsiya) va agrar sektorga xizmat ko'rsatish hamda uni tashkil etishning turli shakllarini joriy qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Quyida biz Jadval 6.5.3.dan Xitoyning asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmining 1985-2006 yillarda o'sish dinamikasi bilan tanishamiz.

Xitoyning asosiy qishloq xo‘jalik mahsulotlari hajmining o‘shish dinamikasi¹⁷
(1985-2006 yy.)

	1985y.	1990y.	1995y.	2000y.	2005y.	2006y.
O‘simlikshunoslik, c horvachilik, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining yalpi mahsuloti (100 mln.yu.) da.	3619	7662	20341	24926	29692	31467
Don (10.ming.t.)	37901,8	44624,0	46661,7	46217,5	48391	49746
Paxta (10 ming.t.)	414,7	450,8	476,5	441,7	571	673
Moyli o‘simliklar (10 ming t.)	1578,4	1613,2	2250,3	2954,8	2897,2	2867,9
Go‘sh t mahsulotlari (10 ming t.)				6125,4	6932,9	7079,5
Dengiz mahsulotlari (10 ming.t.)	705,2	1237,0	2517,2	4278,5	5107,1	5250

Xitoyda uzoq yillar davomida iqtisodiyotni reja asosida olib borish yolga qo‘yilgan bo‘lib, faqatgina XX asrning 70-yillar oxirida rejali iqtisodiyot bilan birgalikda uni bozor orqali ham tartibga solishga o‘tila boshlandi. Bunga Xitoy qishloqlarida amalga oshirilayotgan agrar islohotlar sabab bo‘ldi. Uning natijasida, hozirgi kunda, mamlakatdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotish asosan, bozor orqali tartibga solinmoqda. Shu bilan birga, iste‘mol va ishlab chiqarish omillarining ta‘minotida ham bozor mexanizmlari ustunlik qilmoqda. Aynan shu qishloqlarda olib borilgan islohotlar mamlakat qishloq xo‘jaligini rivojlanishini qo‘llab quvvatlamogda.

Mamlakatda 1985 yillarda, Qishloq xo‘jalik Vazirligi tizimida yerlarga ishlov berishga mo‘ljallangan maxsus mashina-traktor stansiyalari, shirkatlar tuzilgan bo‘lib, ular mayda dexqon shirkatlariga xizmat qila boshladilar. Bu davrda, Xitoyda mexanizatsiya yordamida ekin ekish maydonlarining atigi 25% gina xaydalanar va

¹⁷ Экономика Китая, Ван Менкуй и др. Межконтинентальное издательство Китая, феврал, 2005, с.90; Китай: факты и цифры 2007 г. Пекин, 2007.

yetishtirilgan hosilni ular orqali yig'ib terib olish esa, atigi 7-9% ni tashkil etar edi. Asosan, sholi, sabzavot, mevalar va boshqa ko'pgina mahsulotlar amalda qo'l kuchi mehnatiga asoslangandir. Chorvachilikda ham, ko'p hollarda, qo'l kuchi mehnatiga tayanib, ishlar olib borilar va bu xolatlar hattoki, hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Mana shu xolatlarni tushungan holda, Xitoy hukumati qishloq xo'jaligini ekstensiv tarzda rivojlantirish bilan birgalikda, uni intensiv, ya'ni ilmiy-texnikaviy jarayon yutuqlarini amaliyotga tadbiq etish orqali rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Xitoy qishloq xo'jaligidagi amalga oshirilgan o'zgarishlarni quyidagi jadval 8.4.dan ko'rishimiz mumkin.

6.6.Xitoy qishloq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlikni oshirish va agrotexnika yutuqlarini amaliyotga joriy qilish masalalari

1980 yillardan so'ng, asta-sekinlik bilan mamlakatda oziq-ovqat bozori erkinlashtirila boshlandi va dexqonlar o'zlari yetishtirgan mazsulotlarning bir qismini bozorlarda sotish xuquqiga ega bo'ldilar. Xitoyda g'alla sotadigan xususiy do'konlar paydo bo'ldi.

Davlat tomonidan dexqonlarning mehnat qilishdan manfaatdorligini oshirish uchun bir qator tadbirlar ishlab chiqildi. Xususan, g'allaga kafolatli narxni belgilash siyosati ishlab chiqildi. Bu esa, o'z navbatida, g'allaning narxini juda ham past tushib ketishini oldini oladi. Undan tashqari, davlat tomonidan yana oziq-ovqat rezervi tizimi ishlab chiqilib, bunda omborlardagi saqlangan g'alla rezervi bozorlardagi g'alla narxini muvozanatini barqarorlashtirishga va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi.

Jadval 6.6.1.

Xitoy qishloqlaridagi sohalar tarkibining o'zgarishi, % da (1978-2006 yillarda)¹⁸

Yillar	Iqtisodiyot tarkibi				Bandlik tarkibi		
	1-industriya		2-industriya	3-industriya	1-industriya	2-industriya	3-industriya
	Qishloq	Jumlad	Sanoat	Xizmat	q/x	sanoat	Xizm.ko

¹⁸ Развитие и реформы сельской экономики, Экономика Китая, Ван Менкуй и др, с. 95., 2005 va Xitoy Qishloq xo'jalik Vazirligining 2007 y. ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

	xo'jaligi	an, o'simli kshunoslik.		ko'rsatish			'rsatish
1978	68,6	-	26,0	5,4	92	7,1	1,1
1980	68,9	-	25,9	5,2	91,8	6,3	1,9
1985	57,1	69,2	35,7	4,2	85,9	10,5	3,5
1990	42,9	64,7	49,5	7,9	78,7	14,8	6,5
1995	26,5	58,4	62,5	11,0	72,9	17,0	10,1
1997	24,4	58,2	62,9	12,7	70,4	18,1	11,5
2004	27,3	-	49,2	23,5	56,0	22,3	21,7
2006	11,8	-	48,7	39,5	50,9	24,8	24,3

Xitoy hukumati qishloqlarda soliq solish sohasida ham islohotlarni amalga oshira boshladi. 2004 yilda qishloq xo'jalik solig'ini 5 yilgacha to'lash bekor qilindi. Bu esa, davlat byudjetidagi daromadning yiliga 4% ga qisqarishi demakdir. Ammo, hukumat bu qarorni, atayin bila turib, ishlab chiqdi, chunki bu bilan davlat , qishloq xo'jaligini qullab-quvvatlashini ko'rsatdi.

Xitoy qishloq xo'jaligida ilmiy-texnikaviy jarayon, asosan, quyidagi yo'nalishlarda olib borildi:

1. Qishloq xo'jalik fondini yig'ish va tasniflashda, ya'ni o'simlikshunoslik va chorvachilikda, ularning miqdorida hamda xilma-xilligida muhim rivojlanish va ilgarilash yuz berdi;

2. Mamlakatga chorva mollarining yangi nasllari va katta miqdorda o'simliklarning yangi turlari olib kelindi hamda keng miqyosda ishlab chiqarishga joriy etildi. Undan tashqari, Xitoyning o'zida ham katta miqdorda o'simliklarning va chorva mollarining yangi turlari yaratildi. 1949 yildan keyin, mamlakatda 5 marotaba asosiy qishloq xo'jalik ekinlarining urug'lik fondi yangilandi. Gibridli

guruch 227 mln. mu maydonga ekildi. (1 mu = 0,0667 ga). Bu ko'rsatkich bo'yicha Xitoy dunyoda oldingi qatorlardan joy olmoqda.

Shular bilan bir qatorda, mamlakatda hosildorligi va sifati yuqori bo'lgan sholi, bug'doy, proteinli makkajo'xori, moyli makka, rapsning yangi turlari, transgenli gibridli paxta va boshqalarning oliy navlari ekish uchun joriy qilindi. Ayniqsa, transgenli xashoratga chidamli paxtaning ikkivalentli navi ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq etila boshlandi. Ushbu navli paxta, mamlakat paxta ekish maydonlarining 40% ga ekildi va oxirgi 5 yil ichida aynan mana shu navni yetishtirish natijasida dexqonlarning olgan daromadlari 5 mlrd.yu. ga ko'paydi.

3. Ekin ekish maydonlarini kapital aqrotexnik ko'rikdan o'tqazish sohasida ham mamlakat katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. O'simliklarni kultivatsiya qilish va chorvani boqishning standart usullari keng tarqala boshladi. Ayniqsa, qizil va sariq yerlarni yaxshilash hamda yer qatlamlarining erroziyalanishini nazorat qilish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilindi. Bug'doy va sholini ekish texnikasi takomillashtirildi. O'simliklarni muvozanatli mineral o'g'itlar bilan to'yintirish texnikasi joriy etila boshlandi. Undan tashqari, 100 mln. mu maydonda, 40 dan ortiq ekin turlarini ekishda va yetishtirishda plastik qoplamalar bilan ishlash texnikasi qo'llanilmoqda.

Biroq, qishloq xo'jaligida ilmiy-texnikaviy jarayon natijalarini qo'llashda Xitoy va rivojlangan mamlakatlar orasida xali ham katta farq mavjuddir. Xitoy qishloq xo'jaligida ilmiy-texnikaviy omillar salmog'i 40% ni tashkil etadi. Bu esa, rivojlangan mamlakatlardagidan 30% ga kamdir. Xitoyning yalpi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidan ilmiy izlanuvlarga ketgan sarf xarajati 0,53% ni tashkil etadi. Bu nisbat rivojlangan mamlakatlardagi o'rtacha darajadan, ya'ni 2,3% dan ancha pastdir. Mamlakatda har 10 ming dexqonlarga atigi 15 ta agrotexnik mutaxassisi to'g'ri keladi. Bu esa, Xitoyda qishloq xo'jaligini ilmi-texnik darajasini ko'tarishda juda ham katta foydalanilmagan imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Xitoyda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish – bu qishloq iqtisodiyotining bir bo'lagi hisoblanadi. Uning boshqa bir sohasi – bu volost va poselkalardagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardir. (VPK). Ularning sub'ektlari dexqonlar va

kollektiv xo‘jalik tashkilotlari hisoblanadi. 2002 yilda mamlakatda 21 milliondan ortiq volost-poselka korxonalari mavjud bo‘lib, ularda yaratilgan qo‘shimcha qiymat 3660 mlrd.yuanni tashkil etdi. Ular tomondan amalga oshirilgan eksport operatsiyalarning qiymati esa, 1156,3 mlrd. yu.ga teng bo‘lib, ular 130 mln. mehnatga layoqatli dexqonlarni ish bilan ta‘minladi¹⁹.

Hozirgi kunda, mamlakatdagi noagrar ishlab chiqarishning miqyosi, uning qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishidan oshib ketdi. 2003 yilda ko‘pchilik dexqon oilalari o‘zining daromadlarini mana shu noagrar ishlab chiqarishdan olishdi. Ushbu yilda mamlakatdagi uchta industriyaning salmog‘i quyidagi nisbatda bo‘ldi, ya‘ni 30,5%, 52,9 % va 16,6% da. Bu sohalardagi ishchi kuchining salmog‘i esa, 65%, 16,3% va 18,7% dan iborat bo‘ldi. 2003 yil ma‘lumotiga ko‘ra, ish bilan ta‘minlanmagan qishloq aholisidan 90 mln. kishi shaharlarga ish izlab ketdilar. Mana shu xolatlar bo‘lmasligi uchun Xitoy hukumati qishloq aholisini ish joylari bilan ta‘minlash harakatini qilmoqdalar. Xususan, qishloqlarga ichki investisiyalarni kiritib, ular asosida qishloqlarda mayda va o‘rta hajmdagi qayta ishlash korxonalarini tashkil qilmoqdalar.

2004 yilda oziq-ovqat mahsulotlariga belgilanlangan narxning oshishi natijasida, hukumatning qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga bo‘lgan e‘tibori yanada ortdi. Hozirgi kunga kelib, Xitoy bu yo‘nalishlarda islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqdi. Ular, ayniqsa, qishloq iqtisodiyotini doimiy ravishda rivojlantirishga va ularning xo‘jalik mexanizmini o‘zgartirishga qaratilgandir.

Qishloq iqtisodiyotini tartibga solishda xitoy hukumati “ko‘proq berish, kamroq olish va katta erkinlik berish” tamoyillarini ishlab chiqdi. Ushbu tartibga solish kursi dexqonlarni ish bilan ta‘minlash sohasini kengaytirishga, ilmiy-texnikaviy jarayonni tezlashtirishga, qishloqlarda islohotlarni chuqurlashtirishga, sarmoyalarni ko‘paytirishga, qishloq xo‘jaligiga kafolatlar berish va uni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgandir.

¹⁹ Xitoy Qishloq xo‘jalik Vazirligining 2007 y. ma‘lumotlari

Ushbu olib borilayotgan kursning maqsadi, avvalambor, qishloq va shahar orasidagi tafovutlarni kamaytirish, dexqonlar va shahar aholisini daromadlari orasidagi farqni yo'qotishdan iboratdir. Bunga misol tariqasida, 2003 yilda Xitoy shahar va qishloq aholisini daromadlari orasidagi farqni taxlil qilsak bo'ladi. Ushbu farq 3,23:1 ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich ko'p hollarda kamaytirib ko'rsatiladi. Chunki, Xitoy davlati iqtisodiy jihatdan bir tekis rivojlangan hudud emasdir. Uning ko'pgina qishloq joylarida dexqonlar oladigan daromadlari hali ham juda pastdir.

Mana shu oradagi farqni kamaytirish yoxud uni yo'qotish uchun, hukumat quyidagi vazifalarni o'z oldiga qo'ydi:

Birinchidan, 20 yil ichida qishloqlarda aholi daromadini o'rtacha jon boshiga 8000 yuanga yetqazishga erishish. Oxirgi 20 yil ichida, ya'ni 1980 yildan to 2000 yillargacha dexqon oilasining aholi jon boshi to'g'ri keladigan daromadi 4,5 baravarga oshdi va u 2000 yilda 2253 yuanni, 2005 yilda 3255 yuanni, 2007 yilda esa 4140 yuanni tashkil qildi²⁰;

Ikkinchidan, butun kuch-g'ayratni to'plagan holda, g'alla yetishtiradigan rayonlarga uni yetishtirishda yordam ko'rsatish va uning natijasida qishloqlardagi dexqonlar daromadining o'sishiga ta'sir ko'rsatish. Mamlakatda, 2004 yildan boshlab, bir qator davlat bazalarini tao'kil etish loyihasi tuzildi. Ushbu loyiha bo'yicha, Xitoyda yirik g'alla yetishtiruvchi uezdlar va davlat fermalari tanlab olinib, ularda yuqori navli bug'doy va don mahsulotlari yetishtirilmoqda. Bu yerlarni sotib olish uchun davlat tomonidan maxsus fondlar tuzilgan bo'lib, ular yuqori hosil beruvchi, barqaror hosilli maydonlarga aylanmoqda. Bu esa, mamlakat g'alla yetishtirish salohiyatini oshirishga yordam beradi;

Uchinchidan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sifatini oshirish bo'yicha har tomonlama chora-tadbirlar qabul qilindi. G'alla yetishtirish salohiyatini saqlash va uni oshirish uchun qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini yuqori mehnat unumdorligi talabiga asoslanib, kengaytirish va chuqurlashtirish lozim. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligida industrial va intensiv uslublarni qo'llash va uning samaradorligini

²⁰ www.stats.gov.cn

oshirishda va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini rentabelligini oshirishda tolmay yangi imkoniyatlarni ishga solish kerakdir;

To‘rtinchidan, qishloq xo‘jaligini rivojlanishini industrial yo‘lga qo‘yish, qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarni va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash. Xitoy hukumati qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini industriallashtirish borasidagi loyihalarni qo‘llab-quvvatlab, bosh korxonalarga jalb qilinayotgan sarmoyalarni ko‘paytirishni mo‘ljallamoqda;

Beshinchidan, qishloq xo‘jaligi bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni kuchaytirish va ilg‘or agrotexnikani joriy qilish lozim. Buning uchun, davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan ilmiy izlanishlar ehtiyojiga ketadigan assignatsiyalarni sezilarli darajada ko‘paytirish va agrotexnika yutuqlarini ishlab chiqarish kuchlariga aylantirish uchun sarflanadigan pul vositalarini ko‘paytirish ko‘zda tutilmoqda;

Oltinchidan, urbanizatsiya sur‘atlarini tezlashtirish, ortiqcha qishloq ishchi kuchi oqimini shaharlar xo‘jalik strukturasiga joylashishini qo‘llab-quvvatlash lozimdir;

Ettinchidan, mamlakat ekin ekish maydonlarini saqlab qolish, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini tarkibini tartibga solishni qo‘llab-quvvatlash, qashshoq qishloqlarga maqsadli yordam ko‘rsatishdan iboratdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Agrar islohotlarning boshlangich davri qanday kechdi?
2. Qaysi provinsiyadan agrar islohotlar tajriba sifatida boshlandi?
3. Xitoy xalq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarning asosi sifatida xo‘jalik yuritishning qaysi tipi belgilangan?
4. Xitoy qishloqlarini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?
5. Qishloq xo‘jaligida olib borilgan islohotning asosi nimalardan iborat?
6. Xitoy qishloq xo‘jaligidagi islohotlari necha bosqichlarda amalga oshirildi?

7.Xitoy qishloq xo‘jaligini tez rivojlanishiga qaysi omillar turtki bo‘ldi?

8.Islohotlar natijasida qishloq xo‘jaligidagi qaysi muammolar o‘z yechimini topdi?

Mustaqil ish vazifalari

1. Xitoyda amalga oshirilgan agrar islohotlarning qaysi jihatlarini O‘zbekiston sharoitida qo‘llash mumkinligi to‘g‘risida analitik ma’ruza tayyorlang.

2.O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida ilm-fanni rivojlantirish orqali hozirgi kunda qanday yutuqlarga erishilauotgani haqida ma’lumot tayyorlang.

Adabiyotlar:

1.В.П.Ломакин Мировая экономика, Москва, 2005 г.

2.Подъем сельского хозяйства за счет развития науки и образования, (Белая книга Китая, апрель, 2005 г.)

3. Китайская Народная Республика в 2007 г.: политика, экономика, культура, под ред. Титоренко, Москва, 2008 г.

4.Хитой иқтисодиёти, Саттаров Т.С., Садибекова Б.Д. Ўқув қўлланма, Тошкент. 2006 й.

5. Развитие и реформы сельской экономики, Экономика Китая, Ван Менкуй и др, с. 95., 2005

Internet saytlari:

1. [http: || europa. Eu. Int.](http://europa.eu.int)

2. [http: || tw.jahoo.com.](http://tw.yahoo.com)

3. [www. xinhua.org.](http://www.xinhua.org)

4. [http://www.rian.ru.](http://www.rian.ru)

7- Mavzu.: Xitoy Xalq respublikasi sanoatining rivojlanishi.

Reja:

7.1. Xitoyda industrial bazaning yaratilishi.

7.2. Xitoy sanoatining tarkibiy tuzilishi va rivojlanish dinamikasi.

7.3. Xitoyda industriallashtirish jarayonining boshlang'ich bosqichi va "To'rtlik modernizatsiyasi" dasturining qabul qilinish.

7.4. Xitoy korxonalarida xo'jalik tizimi islohotlarini amalga oshirilishi.

7.5. Xitoy sanoatini rivojlantirishning yangi strategiyasini ishlab chiqilishi.

7.6. Xitoy sanoatidagi zamonaviy tarkibiy o'zgarishlar

Tayanch iboralar: to'rtlik modernizatsiyasi, industriallashtirish jarayonini, dinamik rivojlanish, manufaktura, yirik mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarish, yengil sanoat, og'ir sanoat, mashinasozlik, metallurgiya, kemasozlik, kosmonavtika.

Darsning maqsad: Xitoy sanoatining tarkibiy tuzilishi va uning rivojlanish dinamikasi, "To'rtlik modernizatsiyasi" dasturining mohiyati, Xitoy korxonalaridagi xo'jalik tizimi islohotlarini amalga oshirilishi, sanoatning yangi strategiyasini ishlab chiqilishi va undagi zamonaviy tarkibiy o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish.

7.1 Xitoyda industrial bazaning yaratilishi.

Xitoy xalq revolyusiyasi g'alabasi arafasida mamlakat agrar tipdagi davlat bo'lib, uning iqtisodiyoti tushkunlik holatida bo'lgandir. Uning sanoatini asosi esa, juda ham bo'sh ahvolda edi. Mamlakat aholisining deyarli savodsizligi va qashshoqligi, undagi natural ishlab chiqarishning mavjudligi hamda xalq xo'jaligidagi qo'l mehnatining ustunligi, jahon bozorida mamlakat mavqeining to'g'ri aks etmaganligi, bularning hammasi Xitoy iqtisodiyotining o'sha davrda naqadar qoloq ekanligidan dalolat berar edi. Buning sababi, birinchidan, chet el intervensiyasi bo'lsa, ikkinchidan, undagi grajdan urushi Xitoy xalq xo'jaligini jar yoqasiga olib bordi. Uning natijasida, ilgari davrga qaraganda, mamlakat sanoat ishlab chiqarishi deyarli 50% ga qisqarib ketdi.

Xitoy davlatidagi sotsialistik industriallashtirishni olsak, bu davr jahon industriallashtirish jarayonining «uchinchi to'lqini» ga kiradi va rivojlangan

kapitalistik davlatlar boshidan kechirgan «sanoat toʻntarilishi» dan farqli oʻlaroq, quyidagicha kechdi:

- birinchidan, klassik rivojlanish bosqichlarini buzish bilan (manufakturadan yirik mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarishga, yengil sanoatdan ogʻir sanoatni rivojlantirishga oʻtish bilan) bogʻliq boʻldi;

- ikkinchidan, u davr importni oʻrnini qoplash yoʻnalishi bilan ajralib turadi va u ogʻir sanoatning soha tarmoqlari boʻyicha keng diversifikatsiyalanganligida kechdi. Bularning hammasi mehnatni intensivlashtirishga va kapital quyilmalarini miqyosiga boʻlgan talabni oshirdi. Bunda mamlakatlarga kerakli investisiyalarni jalb qiliish uchun maʼmuriy boʻysundirish va tovar-pul munosabatlaridan foydalanish juda ham chegaralangan, qattiq markazlashgan uslublar orqali mazkur sohaning talabi taʼminlanar edi.

Industrialashtirishning «toʻrtinchi toʻlqini» esa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, oʻz ichiga Sharqiy Osiyo, Janubiy Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi davlatlarini qamrab oladi. Ilgʻor kapitalistik rivojlangan davlatlarda esa, asosan, bu davrda «toʻrtinchi texnologik ukld»ni shakllanishi tugatilgan edi. Kundan-kunga oʻsib borayotgan olamshumul jarayonning surʼati alohida millatlarni tashqi bozordan holi qilishni bekor qiladi va yangi industrial davlatlarni kuchli xalqaro raqobat maydoniga jalb qiladi.

Sotsialistik industrialashtirish tajribasidan Xitoy davlati ham oʻzi uchun strategik koʻrsatma sifatida foydalanishni belgiladi. Uning strategiyasi ichki jamgʻarma manbalariga, ishlab chiqarish ustunligiga, mamlakatdagi umumiy mulk turining ustunligiga va boshqarishni rejali – direktiv uslublariga tayangan edi.

Biroq, taʼkidlash joizki, Xitoy sanoatining yuksalishiga ayniqsa, ikki muhim omillar sabab boʻldi:

- birinchidan, Xitoy davlati tanlagan sotsialistik rivojlanish yoʻlidagi davlatning roli uning sanoat ishlab chiqarish surʼatlarini tezlashtirishga va unga zarur boʻlgan mablagʻlarni jalb etishga yordam berdi;

- ikkinchidan, jahonda sotsialistik tizimining mavjudligi, Xitoyga uning tajribasidan foydalanish imkonini berdi. Sobiq Sovet Ittifoqi yordamida XXRda 1-

besh yillikda mamlakat og'ir sanoatiga asos solindi. Boshqa sotsialistik davlatlar Xitoyning industriallashtirish jarayonida faol qatnashuvi jahon savdo sharoitini yomonlashuviga olib kelmasligini guvohi bo'ldi.

Agar, XXRning 1-besh yillik natijalariga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, 1953-1957 yillarda mamlakatning sanoat ishlab chiqarish hajmi 2,28 marotabaga o'sganligini, o'rtacha yillik o'sish sur'ati esa, 18% ni tashkil etganligini guvohi bo'lamiz. Mana shu 5 yil mobaynida mamlakat sanoat qurilishiga 45,5% umumiy kapital quyilmalari ajratildi. Xitoy og'ir sanoati esa, hamma sanoatdagi investitsiyalarni 85% ni qabul qildi.²¹

Mana shu davr mobaynida, mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'ati bo'yicha sanoatning kimyo sanoati tarmog'I 1-o'rinni egalladi. Uning salmog'i yiliga 37% ni tashkil etar edi. Ikkinchi va uchinchi o'rinlarda og'ir sanoatning metallurgiya va mashinasozlik tarmoqlari (ular yiliga 30% ga o'sishi bilan) egalladi. O'sha davrda Xitoyning yengil sanoati qoloq tarmoqlar qatoridan joy olgan edi.

Industriallashtirish jarayonining boshlang'ich bosqichida Xitoyda yirik mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarish davlatga qarashli bo'lib, u boshqarishning direktiv uslublariga tayangan edi. Shunga qaramay, avval boshda, kollektiv va xususiy mulk turlarini birgalikda olib borilishi inkor etilmadi.

Mamlakatda 1954 yilgacha ko'pukladlilik saqlanib qoldi. Davlatni iqtisodiy boshqarish esa, yirik ma'muriy rayonlarda olib borilar edi. Tezkorlikda olib borilgan o'zgarishlardan so'ng va bu yirik ma'muriy rayonlar yo'q qilingandan so'ng, mamlakatda qattiq markazlashgan xo'jalik yuritish tizimi joriy qilindi. 1957 yilga kelib, deyarli hamma korxonalar davlatningg qo'li ostiga olindi va to'liq davlat byudjeti ta'minotida bo'lib keldi. Ular butun korxonadan olingan foydani va hattoki, to'liq amortizatsiya to'lovlarini ham byudjetga topshirib kelishar va u orqali kerakli pul mablag'larini olishar edi. Byudjetning 90% kapital quyilmalari va mamlakatdagi 500 dan ortiq sanoat mahsulotlari markazlashgan tartibda taqsimlanar edi. Agar, sanoatning uncha katta bo'lmagan miqdori avval boshda markazlashgan boshqaruv

²¹ Бейдади шинуан (Великое десятилетие) , Пекин, 1959, с.;48, 52.

vazifasini yuqori darajada amalga oshirish imkoniga ega bo'lgan bo'lsa, bunday holatni keyinchalik ham davom ettirish mamlakat uchun uncha qulay bo'lmadi.

XXRsi Davlat Kengashi qarori bilan iqtisodiy islohotlarni boshlash lozim deb topildi va hukumat mahalliy organilariga hamda korxonalarga kengroq mustaqillik berish asosiy maqsad qilib belgilandi.

1956 yil XKPning navbatdagi s'ezdida mamlakatdagi industriallashtirish jarayonining 1-bosqichini tugallash uchun 15 yillik muhlat belgilandi. Biroq, bu reja mamlakatdagi yuz bergan avantyuristik «katta sakrash» dasturining salbiy oqibatlari natijasida, uzoqroq muddatga surilib chiqarildi. Ushbu «katta sakrash» dasturi bo'yicha, Xitoy 7 yilda Angliyaga va yana 8 yildan so'ng Amerikaga yetib olishni ko'zlagan edi.

Hukumat tomonidan yangi qabul qilingan industriallashtirishning «xitoy spetsifikasi» kursi bir vaqtning o'zida ham sanoatni, ham qishloq xo'jaligini va kichik hamda yirik korxonalardagi ishlab chiqarishning an'anaviy va zamonaviy turlarini rivojlantirishni ko'zda tutgan edi. Shu bilan birga, «o'z kuchiga tayanish» shiori ostida hamma joyda kichik korxonalarni tashkil etish va ishlab chiqarishni umumlashtirish darajasini ahamiyatli tarzda yuqori ko'tarish ishlari amalga oshirilishi kerak bo'lib, hattoki, kollektiv korxonalar ham direktiv rejalashtirish tartibida ishlar edi. Sanoatni tezkorlik bilan yuksalishiga esa, quyidagi omillar xizmat qilishi lozim edi:

- kapital quyilmalarining keskin ko'payishi va sanoat sohasiga ommaviy tarzda qo'shimcha ishchi kuchlarini jalb qilish;
- mehnatga haq to'lashni muzlatib qo'yish yoki qisqartirish bilan bir vaqtda uning intensivligini oshirish;
- og'ir sanoatga yanayam ko'proq e'tiborni qaratish;
- Sobiq Sovet Ittifoqidan va boshqa sotsialistik davlatlardan komplekt uskunalarni olib kelishni ko'paytirish.

Mana shu davrda mamlakat iqtisodiyotning muvozanatini buzilishi, ishlab chiqarish intizomini va texnik normativlardagi buzilishlar bilib turib atayin buzilar

edi. Sanoatning boshqa sohalari orasida qora metallurgiya sohasi ustuvor pozitsiyada edi.

«Katta sakrash» dasturining o‘z-o‘zini ta’minlash va mahalliy tashabbuskorlikni qo‘llab-quvvatlash kabi ko‘rsatmalari islohotlardagi boshlang‘ich g‘oyaning buzilishiga olib keldi. Sanoatning hamma boshqarish tizimlari bosqichlarida xo‘jalik tashkilotlarini markazga bo‘ysunish darajasining pasayishi yuzaga keldi.

1958 yilda 9000ta korxonalardan faqatgina 1000 tasigina markazga bo‘ysunuvchi korxona bo‘lib qoldi. Asosiy sanoat mahsulotlarini markaziy taqsimlanish sohasi 100 tagacha qisqardi. Mehnat, moddiy va moliyaviy resurslariga egalik qilish sezilarli tarzda mahalliy hukumat organlariga ishonib topshirilgan edi. Jumladan, ular nazoratiga byudjet quyilmalarining 1/5 qismi berilgan edi. Undan tashqari, korxonalarining boshqa sohalardagi daromadlaridan foydalanish huquqi kengaytirilgan edi.

«Katta sakrash» ning salbiy oqibatlari 1960 yildayoq ko‘zga tashlana boshladi. Mayda ishlab chiqarishni keng tarqalishi zamonaviy sanoat ishining buzilishiga olib keldi hamda xom ashyoni ulkan miqdorda chiqitga chiqib ketishiga, energiya va mehnat resurslarini keragidan ortiqroq ishlatilishiga olib keldi. Korxonalardagi texnik nazorat bo‘limining bekor qilinishi, kerakli materiallarning defitsiti, sifati past bo‘lgan turli xil o‘rin qoplovchi materiallardan foydalanish natijasida, tez sur‘atlarda mahsulot sifatining pasayib ketishiga olib keldi.

Agar, 2-besh yillikning birinchi uch yilida ishlab chiqarish 2,5 marotabaga oshgan bo‘lsa, keyingi 2 yil ichida, ya’ni 1961-1962 yillarda u aksincha, 2 marotabaga qisqardi. Xalq xo‘jaligidagi to‘liq xo‘jalik qilish anarxiyasini real havfi mavjudligi «katta sakrash» kursini yo‘q qilish chorasiga va amalda, 1958 yildagi boshlangan islohotlarni bekor qilinishiga olib keldi. «qishloq xo‘jaligi – asosiy baza» deb olingan kurs, sanoatni qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirdi. Ammo, bir oz vaqtdan so‘ng, mamlakatda qabul qilingan harbiy dastur natijasida yana og‘ir sanoatning rivojlanishiga e’tibor qaratildi.

Mamlakatda qabul qilingan «tartibga solish» siyosatining keng yoyilishi, yana qattiq iqtisodiy markazlashuv tizimiga va sanoat ishlab chiqarishidagi boshqaruv

uslublariga qaytishni taqozo etar edi. 1963 yilga kelib, markazga bo'ysunuvchi sanoat korxonalarining soni 10 mingga yaqinlashdi. Asosiy fondlarni taqsimlash tizimi natijasida, undagi ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini soni 500 taga kengaydi.

1963-1965 yillarga kelib, ya'ni «tartibga solish» siyosati davrining yakunida, sanoat ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish yo'llari izlana boshlandi. Tajriba tarzida, trest tipidagi ishlab chiqarish ob'ektlari tuzila boshladi. Bu xarakatlar Xitoy hukumatining «so'l qanoti» dagilarning, ya'ni oppozitsiyaning kuchli qarshiligiga uchradi. Ular iqtisodiyotga bozor kuchlarini jalb etish havfiga va moddiy rag'batlantirishlarga keragidan ortiqroq e'tibor berilishiga qarshi chiqdilar.

1966 yildagi Xitoyda olib borilgan «Madaniy inqilob» siyosati partiya va davlat organlarini barbod qilish, ziyoli va texnik mutaxassislarga nisbatan qatag'on uyushtirish bilan kechdi. Bu esa, xo'jalik hayotini izdan chiqishiga olib kelar va sanoat ishlab chiqarishiga juda katta va salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Bu buzilishlarni to'g'rilash uchun markaziy hukumat joylarda mintaqalar uchun o'z xuquqlarini biroz kengaytirishga ruxsat berildi. 1966 yilda mahalliy, ya'ni mintaqalar qo'l ostiga deyarli u yerlardagi hamma kichik korxonalar o'tkazildi.

1967-1968 yillarda mamlakat sanoat ishlab chiqarishining 1949 yilga nisbatan, 2 marotabaga qisqarganligi kuzatildi. Bu iqtisodiyotdagi buzilishlar oqibatida hammadan ham ko'proq ko'mir qazib olish, metallurgiya va tekstil sanoatlari zarar ko'rdi.

1969-1971 yillarga kelib, Xitoy «Madaniy inqilob» ni yengib, mamlakatda chinakkam «yangi katta sakrash» holati shakllana boshladi. Ushbu yillarda sanoatning o'sishi yiliga 34,3% va 30,7% larni tashkil etdi. Bu esa qisman, «madaniy inqilob», «katta sakrash» va «tartibga solish» siyosatlari natijasida yuz bergan holatlarni tiklash jarayoni bilan aniqlanadi.

«Yangi sakrash» konsepsiyasiga quyidagi tashkiliy chora-tadbirlar ham kiritildi. 1970 yil mart oyida XXR sini Davlat Kengashining navbatdagi «Asosiy sanoat-transport vazirligiga qarashli korxonalarini joylarda boshqarishga berish» to'g'risidagi qarori chiqdi. Mamlakatda olib borilgan «desentralizatsiya», ya'ni qayta markazlashtirish, natijasida, harbiy yo'nalish bo'yicha atigi 500 ta markazga

bo'ysunuvchi korxona qoldi. To'rtinchi besh yillik rejasining loyihasi bo'yicha (1971-1975 yy) mintaqada «bir butun sanoat tizimi»ni tashkil etish rejalashtirilgan bo'lib, unda asosiy sanoat mahsulotlariga bo'lgan talab mahalliy iste'molni qondirishga qaratilgan bo'lishi lozim edi. Shu qo'yilgan talab bo'yicha, sanoat mahalliy ehtiyojini qondirishga qaratilgan va faqatgina ichki ehtiyojdan ortib qolgandagina markaziy ta'minot organlariga uzatilishi ko'zda tutilgan edi.

Mamlakatni yana «Yangi sakrash» larga yo'naltirish avantyurasi XKP sining eng sog'lom va real fikr yurituvchi rahbarlari Chjou Enlay va Den Syaopinlar tomonidan kuchli qarshiliklarga uchradi. Ular 1970 yillardagi mamlakatda boshlangan islohotlarni keng yoyilishiga xalaqit berayotgan tomonlarni bekor qilish bo'yicha bir qator choralar ishlab chiqdilar.

1975 yilda qabul qilingan rasmiy xujjatlar rejali iqtisodiyot uslublari va xo'jalik hisobi yordamida mamlakat iqtisodiy hayotini sog'lomlashtirish yo'llarini belgilab berdi.

Demak, Xitoy Xalk Respublikasida industrial bazani yaratish ancha murakkab kechgan bo'lishiga qaramay, ushbu yo'nalishning fundamenti 1950 yillarda og'ir sanoatni rivojlantirish orqali o'rnatildi.

XXRsining industriallashtirish jarayonini boshlang'ich davrini retrospektiv tahlili uning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi:

1.Undagi o'sish sur'atini unikal tarzda nobarqarorligi va industriallashtirish siyosatini ikki variantda, bir-birini o'rnini bosishi, ya'ni «sakrash» va «tartibga solish» orqali amalga oshirilishi bilan ajralib turadi

Xitoy sanoati ham, uning butun iqtisodiyoti kabi ishlab chiqarishni bir necha «siklini» o'z boshidan kechirdi. Ushbu sikllar «sakrash», «inqiroz» va «tartibga solish» fazalarini o'z ichiga oladi. Sanoatning notekis tarzda dinamik o'sishi 5 ta «pik» da (yukori cho'kkida) ko'rinib turadi, ya'ni: 1950-53 yy.; 1956 y.; 1958 -1959 yy.; 1965-1966 yy.; 1969-1971 yy. Ulardan eng kuchli urinishlar 1958-1959 yy. va 1969-1971 yillarga to'g'ri keladi. Birinchi «pik»dan so'ng chuqur tushkunlik, ikkinchidan keyin esa, o'sish sur'atlarining pasayishi yuz berdi.

Xitoydagi hamma «sakrash»lar bir xil sxemada kechgan bo'lib, unda ekstensiv omillar aktivlashishi bilan bir vaqtda, xo'jalik mexanizmida yirik qayta qurishlar yuz berdi. Ular, birinchi navbatda, mahalliy hukumat organilarining o'z huquqlarini kengaytirishi va mayda ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liqdir. Har bir shunday iqtisodiyotning «qizib ketishi» ortidan inqiroz yillari va «tartibga solish» uslubini joriy qilish orqali, ushbu noxush ahvolni yo'qotish imkoniyati tug'ilar edi.

Iqtisodiyotni «tartibga solish» yillari intensiv o'sish omillarni ishga solish va mehnat taqsimotidan ko'proq foydalanish orqali iqtisodiy o'sishning barqaror muvozanatli yo'nalishi talab qilinar edi. «Sakrash» lar oralig'i 3-5 yillarga teng bo'lib, unda radikalizmning portlashi va murakkab sotsialistik kurashlar yuz berar edi.

Xitoyda 1949-1977 yillar mobaynida sanoatning o'sish sur'ati 11 marotaba - 20% dan yuqori darajada ko'tarildi, jumladan:

- 8 marotaba 30% dan yuqori ko'tarildi;
- ishlab chiqarish - 4 marotaba - 40% gacha pasaydi;
- sanoat ko'rsatkichi amalda 2 yil o'zining oxirgi nuqtasidan o'zg'armay turib qoldi va shu davr mobaynida faqatgina 13 yil o'zining normal 5-15% o'sish sur'ati bilan farqlandi.

Iqtisodiy o'sishdagi notekislik o'tgan yillar mobaynida 3 marotaba 40% ni, va 15 marotaba 10% ni tashkil etdi. Hozirgi bozor sharoitida bunday industrial rivojlanish aritmiyasi juda ham kam uchraydigan holdir. Xitoy o'zining 5 yillik rejalaridagi o'rtacha ko'rsatkichlarni olsak, bunda uning iqtisodiy o'sishdagi eng yuqori darajalarini yo'qqa chiqarib hamda sanoatdagi o'sish sur'atlari umumiy tendensiyasini sekinlashtiradi: ya'ni 1953-57 yy. – 18%; 1958-1962 yy. – 3,8%; 1963-1965 yy. – 17,9%; 1966-1970 yy. – 11,7%; 1971-1975 yy – 9,1% larni tashkil etgandir.

2.Xalq xo'jaligini direktiv uslublarda boshqarishga va umumiy mulk formasini hukmronligi qoidalariga boysunish.

Xitoyda xususiy va davlat kapitalistik mulk formasidan foydalanish batamom bekor qilinib, hamma punktlar bo'yicha ustunlik ishlab chiqarishni naturallashtirishga

berila boshlandi. Ko'pchilik korxonalar mahalliy hukumatga bo'ysungan bo'lib, har bir ma'muriy rayonda nisbatan «butun sanoat tizimi»ni tashkil etishdan iborat edi. Bu esa, joylarda ishlab chiqarishni takrorlanishiga (dublirovanie), moliya va moddiy vositalarni talon-taroj bo'lishiga va kapital qurilishni haddan tashqari kengayib ketishiga olib keldi.

Shu bilan birga, joylarda mustaqillik ko'p hollarda xom hayolga yoki tushga, ya'ni illyuziyaga aylangan edi. Bunda mahalliy hukumat bir qator masalalarni, hattoki, mayda masalalarni yechishda ham markaz bilan maslahatlashishi shart edi. Oxir oqibatda, mahalliy hukumat bir vaqtning o'zida na xo'jalik mustaqilligiga va na aniq bir rejaviy yo'nalishlarga ega emas edi.

3.Kichik kollektiv (jamo) korxonalarni ishga tushirish bilan ko'p bosqichli sanoat strukturasini shakllanishiga olib keldi. Ammo, bu jarayon ularni davlat tasarufidan chiqishiga unchalik katta ta'sir ko'rsatmadi. Amalda uch yarusli qurilma xaqida so'z yuritiladi:

- Ustki qatlam (yarus) – harbiy kompleks bilan bog'liq eng yirik va ahamiyatli korxonalar (ular bir necha yuzta);
- o'rta qatlam – zamonaviy ishlab chiqarishning asosini tashkil etuvchi o'rta va yirik korxonalar (ular 350 mingta umumiy sanoat korxonalarining - 10 mingtasidir);
- quyi qatlam – jamoa mulkiga asoslangan 260 mingta mayda korxonalardir.

1978 yil ma'lumotiga ko'ra yalpi sanoat mahsulotlarini yarmidan ko'prog'i, asosan qishloq korxonalari orqali olingan. Ushbu «manufaktura» turidagi ishlab chiqarish, an'anaviy sektor bo'lib, asosan qishloq ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan jamg'arma manbai sifatida xizmat qilishi lozim edi. Bu uch qatlamlar orasidagi kundan-kunga o'sib borayotgan farqlar (texnologiya, mehnat unumdorligi va boshqalar) kichik korxonalardagi ishchi kuchi va asbob-uskunalarining sifatini pastligi, sanoat umumiy ko'rsatkichlari samarasiga juda ham salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi.

4.Sanoat o'sishi sifatii ko'rsatkichlarning pasayishi ekstensiv xarakterga ega bo'ldi, ya'ni:

- 1952 yilda sanoatdagi ishchi va xizmatchilar soni 5,33 mln. kishini,
- 1978 yilga kelib esa, - 43,54 mln.kishini tashkil etdi, bunda o'sish 8,2 marotaba ko'paygan bo'lib, shu yillarda umumiy kapital quyilmalaridagi sanoatning ulushi 44,6% dan 66,9% gacha ko'paydi.²²

1970 yillar oxirida fondlar buyicha rentabellik 1-besh yillikka qaraganda 2 marotaba kamaygan. Yildan-yilga prokat omborlarida elektr energiyasi uskunalari , mashinasozlikdagi turli xil sifatsiz mahsulotlar zahiralari ko'payib bordi.

5.Og'ir sanoatni ustuvorligi jiddiy ichki tarmoqlar va tarmoqlararo nomutanosiblikni keltirib chiqardi.

1953-1979 yillarda og'ir sanoatning o'sish sur'ati yengil sanoatning o'sish sur'atidan 3 marotaba oshib ketdi. Yengil va og'ir sanoatlarga qo'yilayotgan kapital quyilmalarining quyilish nisbati 1958 yildan to 1978 yilgacha 1:10,5 ni tashkil etdi. Sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning umumiy mahsulotida og'ir sanoatning ulushi 1949 yildagi 7,9% dan 1978 yilda 42,6%ga oshdi, bunda u yiliga o'rtacha 1,2% ga oshib turgan.

Sanoat tarkibida esa, bu ko'rsatkichlar 26,6% dan 57,9% gacha oshgan. Sanoatning tiklanishi amalda «ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarishga» olib keldi. Uzoq yillar davomida yengil sanoatning kamsitilishi, uskunalarini judayam eskirib ketishiga va bu sohani kadrlar bilan ta'minlanishining yomonlashuviga, energiya va xom ashyoning yetishmasligiga ham olib keldi. Bu tarmoq shu ahvolda ham «donor» xarakteriga ega edi, chunki davlat kapital quyilmalarida yengil sanoatning ulushi 4% ga va elektrni iste'mol qilishda - 13% ga ega bo'lishi bilan bir vaqtda, u umumiy sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini 1/3 qismini va davlat moliya daromadlarini 35% ni berar edi.²³

Iqtisodiyotdagi nomutanosiblik xitoy og'ir sanoatiga ham xos edi. Mamlakat iqtisodiyotining eng bo'sh bo'g'ini (zvenosi) – energetika sanoati bo'lib qoldi. Ko'mir sanoatidagi yangi qurilishlar juda katta qiyinchiliklar bilan kechar edi. Undan tashqari, yoqilg'i balansidagi neftning salmog'i ham anchagina past bo'lib, aksincha

²² Чжунго гунге цзинцзи тунцзи нуанцзуан.2000,.с.12, 27.

²³ Чжунго гунге цзинцзи тунцзи нуанцзуан. 2000.с.32, 37.

uning iste'moli esa baland bo'lishi bilan birga u kam samarali ham edi. Elektr energiyasini yetishmovchiligi oqibatida ishlab chiqarish quvvati 20-30% gacha foydalanilmas edi.

Xitoy metallurgiya sanoati ham o'zini xalq xo'jaligidagi «ustuvor» yo'nalishda bo'lishiga qaramasdan, mavjud ehtiyojni na hajm jihatidan va na mahsulot sorti va sifati jihatidan qondira olmas edi. Xom ashyo bazasining torligi metallurgiya quvvatini to'liq ishlatish imkoniyatini bermas edi. Tarmoq ichkarisida mustahkam nomutanosiblik mavjud bo'lib, ular orasida prokat ishlab chiqarish ancha orqada edi. Xitoy mashinasozligining eng nozik tomoni – undagi ixtisoslashtirish (spetsializatsiya) va birlashtirish (kooperatsiya) jarayonining ancha pastligi bo'lib, u o'z navbatida mahsulot tannarxini qimmatlashishiga olib kelardi.

1978 yilda Xitoydagi ixtisoslashtirilmagan mashinasozlik korxonalari bu sohadagi umumiy korxonalarining 80% ni tashkil etar edi.

6. Sanoat korxonalarining noratsional joylashuvi. Iqtisodiy islohotlarga bo'lgan davrda sanoat hududiy tuzilishi jihatidan iqtisodiy siyosatning umumiy ko'rsatmalariga amal qilar edi, ya'ni turli darajadagi ma'muriy rayonlar chegarasida butun sanoat tizimini tashkil etish; ishlab chiqarish kuchlarini baravar taqsimlash; janubiy-garbiy mintaqalar ichkarisida «harbiy himoyaning uchinchi liniya»sini shakllantirish; sanoatni mahalliy xom ashyoga va energiya manbalariga yonaltirish; sanoat va qishloq xo'jaligi orasidagi, shahar va qishloq o'rtasidagi farqlarni mayda ishlab chiqarishni joriy etish orqali yo'q qilish.

7. Iqtisodiyotning yarim ochiqligi. Iqtisodiy islohotlarga bo'lgan davrda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy strategiyasiga xos narsalar bu – ichki ekstensiv iqtisodiy o'sish omillariga va xalqaro mehnat taqsimotidan chegaralangan miqdorda foydalanishga tayanishdir. «O'z kuchiga tayanish» shiori mamlakatni avtarkizm yo'liga, xorijiy quyilmalardan foydalanmaslikka va tashqi bozorga kamdan-kam chiqishga yo'naltirdi. Industriallashtirish jarayoni – importni o'rnini qoplash yo'nalishi bo'yicha olib borildi.

Biroq, sanoatning yangi tarmoqlari xorijiy uskunalarsiz ishlay olmas edi, shuning uchun ularni importi 1970 yillar oxirida ahamiyatli tarzda ko‘paydi.

Umuman, industriallashtirish jarayoni XXR si iqtisodiyotida muhim rolni o‘ynadi. Xitoy Xalq Kompartiyasi 1978 yil boshida «to‘rtlik modernizatsiyasi» dasturini ishlab chiqdi. Unda mamlakat og‘ir sanoatini rivojlantirish asosida rejali industriallashtirishni; sanoat infrakurilmasini shakllantirishni; korxonalar texnik darajasi va mehnat unumdorligini oshirish hamda qishloq xo‘jaligini yuksaltirish; transport, ichki va tashqi savdoni rivojlantirish; xalqni yashash darajasini asta-sekin yaxshilab borish ko‘zda tutilgan edi.

XKP MK sining 3-Plenumi 11 – Chaqirig‘i iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish kursini e‘lon qildi.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy strategiya mamlakatda kuchayib borayotgan inqirozni oldini olishga qaratilgan bo‘lib, bir vaqtning o‘zida tezlik bilan muvozanatli iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash, ilmiy-texnikaviy revolyusiya talablariga mos ravishda xo‘jalik yuritish mexanizmlari darajasini ko‘tarish belgilab olingan edi.

Modernizatsiya shiori ostida o‘tgan industriallashtirish bosqichini quyidagi asosiy jihatlar orqali farqlash mumkindir:

- oldingi ideologik dogmalardan voz kechish va ko‘p ukladli iqtisodiyotga burilish va tovar-pul munosabatlaridan ratsional foydalanish;

- umumjahon tendensiyalari asosida rivojlanish bosqichini ekstensiv turidan intensiv turiga o‘tish ehtiyojining paydo bo‘lishi;

- strukturaviy muvozanatga erishish;

- ochiq tashqi iqtisodiy siyosat olib borish;

- importni o‘rnini qoplash siyosatini eksportga yo‘naltirish varianti bilan almashtirishdan iboratdir.

Xitoy davlati dunyoning qadimiy davlatlaridan biri bo‘lib, u iqtisodiy rivojlanish yo‘liga boshqa rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan ancha erta kirgandir. Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, ma‘lumki, eramizdan 2-3 ming ilgari, Shin imperiyasi davrida Xitoyda bronzadan turli taqinchoqlar yasash texnologiyasini, chinni va

keramikadan idishlar tayyorlash, shoyi matolar to'qish texnologiyasi mavjud bo'lganligini ko'ramiz.

Oradan bir oz vaqt o'tgandan keyin, eramizdan avval 770-476 yillarda po'lat quyish texnologiyasi mavjudligini, eramizdan avval 475-221 yillarda esa, sug'orish gidrouskunalarini yaratilganligini bilamiz. 1953-1957 yillarda – mamlakatda birinchi 5 yillik rejalar tuzilib, unda ayniqsa, og'ir sanoatni rivojlantirish masalasi ko'rildi va ushbu sohani keyinchalik rivojlantirish uchun asos yaratildi.

1-besh yillik davrida yuqorida ta'kidlaganimizdek, sanoat ishlab chiqarilish hajmi 2,28 marotabaga oshdi, uning o'rtacha yillik o'sish sur'ati esa, 18% ni tashkil etdi. Mana shu 5 yil mobaynida sanoat qurilishiga xalq xo'jaligidagi kapital fuyilmalarining 45,5%i yo'naltirildi. Mamlakatni og'ir sanoat tarmog'i esa, hamma sanoatga jalb etilgan investisiyalarning 85% ni o'zida jamladi. Shu yillarda, ya'ni 1953-1957 yillarda tarmoqlardagi iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha 1-o'rinni kimyo sanoati (yiliga 37% o'sish) va 2-o'rinni metallurgiya va 3-o'rinni mashinasozlik sanoatlari egalladi. Ularning o'rtacha yillik o'sishi 30% ni tashkil etdi.

1957-1966 yillarda mamlakatda keng miqyosli sotsialistik qurilishlar davri bo'lib, bu davrda ham mamlakatda o'ziga yarasha jiddiy xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lishiga qaramasdan, mamlakat iqtisodiyotida o'sish ro'y berdi. Ya'ni, 1966 yilda sanoatdagi asosiy fondlar qiymati 1956 yilga qaraganda, 4 marotabaga ortdi. Mamlakatning milliy daromadi esa, 58% ga o'sdi. Ayrim sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, ya'ni, po'lat quyish, toshko'mir qazib olish, neft va elektroenergiyani, metall kesuvchi stanoklarni ishlab chiqarish miqdoran bir necha marotabaga o'sdi. Mamlakatda bir qator yangi sanoat ishlab chiqarish tarmoqlari yuzaga keldi. Elektronika, neft kimyosi va boshqalar shular jumlasidandir.

Xitoy sanoatini industriallashtirishning boshlang'ich bosqichida yirik mexanizatsiyalashtirilgan ishlab chiqarish davlat sektoriga tegishli bo'lib, ular yuqoridan belgilangan direktiv usullar orqali boshqarilishiga qaramasdan, jamoa va xususiy mulkchilik turlarini ham inkor etmadilar. Bu holat 1954 yilgacha davom etib, 1957 yilda hamma sanoat korxonalari milliylashtirildi va ular to'liq davlat byudjeti

ta'minotiga olindi. Davlat byudjetidagi kapital quyilmalarning 90% i markazlashgan holda taqsimlanib turildi.

1967-1968 yillarda XXR si tashkil topgandan keyingi davrdagi 2-marotaba sanoat ishlab chiqarishini pasayishi kuzatildi va u 20% ni tashkil etdi. Uning natijasida mamlakat og'ir sanoati eng katta zarar ko'rdi, ya'ni ayniqsa, uning ko'mir qazib olish va metallurgiya tarmoqlariga ziyon etqazildi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay, 1969-1971 yillarda mamlakatda "Madaniy inqilob" e'lon qilinib, uning avj olish bosqichida, Xitoyda yana "katta sakrash" ning yangi holati yuzaga keldi. Ya'ni, 1969-1970 yillarda mamlakatdagi sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari 34,3% va 30,7% larni tashkil etdi. Buning sababi, Xitoyda yangi sanoat ob'ektlarining ishga tushirilishi; mayda ishlab chiqaruvchilar sonining ortishi; ushbu sohaga sarmoyalarning keng jalb etilishi bo'ldi.

1970 yilda mamlakat iqtisodiyotida "o'z kuchiga tayanish" shiori e'lon qilinib, ko'pgina korxonalar mahalliy boshqaruv tizimiga berila boshladilar (desentralizatsiya). U sekin-asta barcha Xitoy mintaqalariga yoyila boshladi. Markaz qo'l ostida esa, atigi 500 ta harbiy yo'nalishlardagi korxonalar qoldi.

1971-1975 yillarda mamlakatda 4-besh yillik boshlanib, unda barcha Xitoy hududlaridagi sanoat korxonalari "bir butun sanoat tizimiga" olindi. Shular qatorida unda sanoat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlar to'laroq qondirilishiga e'tibor qaratildi.

O'rnatilgan tartibga ko'ra, sanoat ishlab chiqarishi faqat mahalliy ehtiyojlarni qondirish ("importni o'rnini qoplash" siyosati) va ortib qolgan mahsulotlarnigina markaziy ta'minot tashkilotlariga uzatish mumkin bo'ldi.

Mamlakatni yana "yangi sakrash" avantyurasiga itarish holatlari yuz berdi. Unga qarshi chiqqan XKP ning rahbari Chjou Enlay va Den Syaopinlar bu yo'nalishlar bo'yicha bir necha qarorlarni qabul qilib, 1975 yilda mamlakatda rasmiy hujjatlar ishlab chiqildi va mazkur hujjatlar mamlakat iqtisodiyotini keyinchalik sog'lomlashtirish yo'lida rejali iqtisod uslublari va xo'jalik hisobidan foydalanishga barcha mavjud sanoat korxonalarini chaqirdilar va uning natijasida mamlakatda sanoat ishlab chiqarishining o'sishi yuz berdi. Bu o'sish yoki "sakrash" mamlakatga import mahsulotlarini jalb etish va neftni qayta ishlab chiqarish kompleksini

shakllantirdi va rivojlantirdi hamda ular natijasida mamlakatdagi sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarini soni ortdi.

7.2 Xitoy sanoatining tarkibiy tuzilishi va rivojlanish dinamikasi.

Xitoy sanoati 2 ta asosiy sanoat tarmoqlarini, yani, og'ir va yengil sanoat tarmoqlarini o'z ichiga olib, Xitoyda og'ir sanoat asosan, quyidagi tarmoqlarni qamrab oladi: elektroenergetika; metallurgiya (qora va rangli); kimyo sanoati; mashinasozlik; aviakosmik; neft-gaz, neft- kimyosi; avtomobilsozlik; kemasozlik va boshqalar (ularninn soni hozirgi kunda 110 tadan iboratdir).

Xitoy **yoqilg'i-energetika** kompleksining asosiy yo'nalishlari bu: ko'mir, neft va gaz qazib olish hamda elektr energiyasini ishlab chiqarish bo'lib, ular orasida yetakchi o'rinda asosiy energiyani tashuvchi energiya rolini ko'mir egallaydi. Bu mahsulotni qazib olish bo'yicha Xitoy dunyoda 1-o'rinda turadi.

Uning **ko'mirni** qazib olish konlari asosan, mamlakatning Shansi provinsiyasidagi Datsin shaxtasi, Xebeydagi - Xayluan, Xenandagi - Pindinman, Anxoydagi - Xuaybey, Shandundagi - Yanbichjou, Szyanchudagi - Syuychjou, Xeylunszyandagi - Szyasi, Lyaonindagi - Tefa shaxtalari bo'lib, ular 16 ta yirik ko'mir qazib olish markazlaridan iboratdir.

Yirik miqyosda ko'mir qazib olish mamlakatda 2 ming yil ilgari boshlangan bo'lib, uni qazib olish hajmining kengayishi faqatgina 1949 yildan boshlandi. 1949 yilda uni qazib olish 32,4 mln.tonnani tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich bo'yicha mamlakat dunyoda 9-o'rinni egallagan. 1985 yillargacha ko'mir qazib olish hajmining yillik o'sishi 9,6% ni tashkil etgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib, uning yillik o'sish sur'ati 2 baravarga ortdi va u 20,8 % ni tashkil etmoqdadir.

Sanoatni turli xil ehtiyojlarini qondirish uchun mamlakatda yirik donali va kukunli ko'mir turlari ishlab chiqarila boshladi. Ko'mirni qayta ishlab chiqarish jarayonlari, ya'ni, uni gazlashtirish, tozalash ishlari rivojlantirildi

Xitoy og'ir sanoatining ikkinchi yo'nalishi bu - **neftni qazib olish** sanoati bo'lib, u XX asrning boshlarida vujudga kelgan, uning rivojlanishi esa, ancha sust kechgandir. Sababi, ushbu sanoatni rivojlantirish uchun moddiy-texnik baza uncha rivojlanmagan edi.

1950 yillarda uni qazib olish yiliga atigi 120 ming tonnani tashkil etar edi. Mamlakat iste'moli uchun yetmaydigan qismi esa, chetdan import qilinardi. Eski Xitoyda atigi 3 ta uncha katta bo'lmagan neft konlari mavjud bo'lgan, ular asosan, Gansu provinsiyasidagi Yuyminda, Shansidagi - Yanchanda va Sinszyandagi - Dshanszida joylashgan edi. Undan tashqari, 2 ta gaz qazib olish konlari ham mavjud bo'lib, ular Sichuandagi - Shiyugou va Shendeman konlari hamda Shimoliy-Sharqiy Xitoyda joylashgan sun'iy suyultirilgan yoqilg'i ishlab chiqaruvchi bir necha zavodlardan iborat edi.

1950 yillarda neft qazib olish ishlariga e'tibor ancha kuchayib, Sinszyandagi Qoramay yangi neft koni, Sinxaydagi - Denxu, Yuymindagi - Yursya konlari ham ishga tushirildi.

Xitoyda neftni qazib olish sanoati ikkiga bo'linadi, ular quruqlikda va dengizdan neftni qazib olishdan iboratdir. Quruqlikda neft qazib olish Xitoyning 20 ta provinsiyasida, avtonom rayonlar va markazga bo'ysunuvchi shaharlarda amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda mamlakatda 16 ta yangi neft konlari ochilgan bo'lib, ular Datsin, Dagan, Shenli, Tszilin, Lyaoxe, Shimoliy Xitoy, Chjunguan, Xenan, Tsyaxan, Tszyansu, Sinszyan, Sinxay, Yuyming, Chansin, Yanchan va Sichuanda joylashgandir.

Dengizdan neft qazib olish esa, 1960 yillardan boshlangan bo'lib, u konlar asosan, Boxay ko'rfazi, Xitoy daryosi, Janubiy Xitoy daryosi va Sariq dengiz atroflariga joylashgandir.

Xitoyda neft qazib olish 1978 yilga kelib, - 100 mln. tonnani tashkil etdi, 1998 yilda - 125 mln.tonnani va hozirgi kunda 181 mln.tonnani tashkil etmoqdadir va bu ko'rsatkich bo'yicha Xitoy dunyoda 6-o'rinni egallamoqda. Neft va gazdan foydalanish hisobiga mamlakatdagi 23% energiya ular orqali ishlab chiqilmoqdadir. Xitoying neftni qayta ishlab chiqarish sanoati ancha bo'sh rivojlangan bo'lib, ular asosan, Yuyming, Dalian va Fushundagi mayda zavodlarda qayti ishlanar edi. Ularning umumiy quvvati yiliga 200 ming tonnani tashkil etar edi.

Hozirda Xitoyning neftni qayta ishlash korxonalari Dasin neftni qayta ishlash bosh kompaniyasi, "Dunfanxun" zavodi, "Yanshan" Pekin neftni qayta ishlash

kompaniyasi, Shanxaydagi “Gaotsyao”, Lanchjou, Nankin, Yanlin, Silyuy neftni qayta ishlash kompaniyalaridan iboratdir.

Elektroenegetika sanoati – gidrolelektrostansiyalar (suv), issiqlik va atom elektrostansiyalari orqali energiya ishlab chiqarilmoqda. Mamlakatda 1940 yildan boshlab, katta quvvatga ega bo‘lgan minglab gidro, issiqlik stansiyalari ishga tushirildi. O‘zining gidroenergetika resurslari bo‘yicha, Xitoy dunyoda 1-o‘rinni egallamoqda, uning quvvati 676 mln.kvt.t.ni tashkil etadi. 92% gidroenergetik resurslar Xitoyning Janubiy-G‘arbida, Markazida va Shimoliy-Sharqida joylashgandir. Shular bilan bir qatorda, mamlakatda yangi atom energostansiyalari ham qurilib ishga tushirilmoqda.

Xitoyning Yantszi daryosiga va uning oqimlariga mamlakat gidroresurslarining 53,3% i to‘hri keladi. Undan keyin Sangpo daryosi, Nutszyan va Lantszyan daryolari turadi. Issiqlik energiyasini ishlab chiqarishda asosan, ko‘mir va neftdan foydalanilmoqda. Issiqlik elektrostansiyalari 1950 yillardan buyon ishlab, ilgari ularning quvvati uncha katta bo‘lmagan. 1970 yillarda Pekinda birinchi 200 ming kvt.t. quvvatga ega bo‘lgan GES ishga tushirildi.

1975 yillarda Shanxay GESi (quvvati 300 ming kvt.s.), Baoshan va Yanbaoshan GES lari ishga tushirildi. Undan tashqari, mamlakatda uran konlari mavjud bo‘lib, ular asosida Guandun proqinsiyasida, Shimoliy Sharq va Sharqiy Xitoy rayonlarida atom elektrostansiyalari ishga tushirildi. Xitoyda energiya yana shamol, geotermal energiya va to‘lqinlar kelib ketishi natijasida ham ishlab chiqariladi.

Mamlakatda energiyani ishlab chiqarish tizimi mavjud bo‘lib, unda asosan, 220 va 110 ming voltlardan foydalaniladi. Shu bilan birga, 330 va 500 voltli elektruzatgichlar ham mavjuddir.

Metallurgiya - Xitoyda bronza asri, ya’ni, u 3 ming yil ilgari, temir ishlab chiqarish esa, 2,5 ming yil ilgari ishlab chiqarila boshlangandir. 1890 yilda Xanyan metallugiya zavodi ishga tushirilib, uning mahsuloti 7 mln. tonnani tashkl etgandir

Sekin-asta Xitoyda mis, volfram, qo‘rg‘oshin, simob va boshqa metallar ishlab chiqarika boshlandi. 1949 yilda Xitoy po‘lat ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda 26-o‘rinni (158 ming t.), 1985 yilga kelib esa u, dunyodagi 4-o‘ringa chiqib oldi.

Xitoy dengiz oldi shaharlarida :Anshan, Dalyan, Tanshan, Tyanszin, Shanxaydagi metallurgiya kombinatlariga qatoriga yana ichki rayonlarda joylashgan Baotou, Tayyuan, Uxan, Chendu, Chunsin va Panchjixua shaharlarida qurilgan metallurgiya kombinatlariga kelib qo'shildi va ularning umumiy quvvati 40 mln. tonnaga yetqazildi.

Qora metallurgiya asosini Xitoydagi yiliga 1 mln. tonna ko'mir ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan 14 ta kombinat tashkil etadi.

Hozirgi kunda Xitoy, po'latning 1000 dan ortiq sortini va prokatning 20 000 dan ortiq turini ishlab chiqarmoqda.

Xitoyda metall ishlab chiqaruvchi bir qator zavodlar ham qurilib ishga tushirildi. Bular alyuminiy ishlab chiqaruvchi zavodlar bo'lib, ular Lyaonin, Xeylunshyan, Shandun, Xenan, Sichuan, Guychjou va Gansida joylashgandir. Mis ishlab chiqaruvchi markazlar Dayoda, Tullinda, Bayinda, Dunchunsida va Desinda tashkil etildi.

Qo'rg'oshin ishlab chiqaruvchi yirik markaz esa, Yunnan provinsiyasidagi Geszyu hisoblanadi. Szinchuan va Gansu – nikel ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi shaharlar, Szyansi esa, volfram ishlab chiqarish, Guychjou- simob ishlab chiqaruvchi markazlar ga aylandi.

Mashinasozlik – 1865 yilda Tsin hukumati davrida mamlakatda mashinasozlik byurosi mavjud bo'lib, 1949 yilgacha ular faqatgina mayda ta'mirlash ishlari bilan shug'ullanib kelishgan. XXR tashkil topgandan so'ng, mamlakatda 110 mingdan ortiq korxonalar, stanok parklari qurildi va ishga tushirildi. Bu tarmoq bugun mamlakatni ehtiyojini 4/5 qismini qondirib kelmoqda. Ushbu tarmoq quyidagi mahsulotlarni ishlab chiqarmoqda: tog'-kon qazib olish uskunalari; metallurgiya uskunalari; neft qazib olish uskunalari; kimyo sanoati uskunalari, metall kesuvchi stanoklar; temir presslovchi stanoklar, energetika uskunalari; traktorlar; fuqaro kemalari; ichki yonilg'i dvigatellari; qishloq xo'jalik mashinasozligi; elektromashinasozligi; o'lchov uskunalari va vositalari va h.k. lardir

Hozirgi kunda Xitoy 130 tadan ortiq turdagi mashina va uskunalarni dunyoning 40 ta davlatiga eksport qilmoqda.

Avtomobilsozlik – 1950 yilda Xitoyning Chanchun shahrida 1- avtomobil zavodi ishga tushirildi. Undan so‘ng Nankinda, Pekinda, Tszinanda va Shanxayda avtomobil zavodlari ishga tushdi va 1975 yilda Xubeyda avtomobil dvigatellari zavodi ham ochildi. Hozirda mamlakatda yuk avtomobillari, avtobuslar, djiplar, samosvallar va treylerlar ishlab chiqarilmoqda. Ular 6ta kategoriyali, 82 ta turdagi va 200 dan ortiq modifikatsiyalangan avtomobillardir.

Kemasozlik. Xitoyda bu sohaga XV asrda asos solingan bo‘lib, ular asosan, Chjen Xe tomonidan 7 marta Janubiy Xitoy dengiziga katta flotni jo‘natish bilan boshlangan. XXR tashkil topgandan so‘ng, mamlakatda kemalarni ta‘mirlovchi va yig‘ish ishlari bilan shug‘ullanuvchi bir necha kemasozlik korxonalari mavjud bo‘lib, ular Shanxay, Tyanszin, Guanchjou va Dalyanda joylashgan edi. Keyinchalik, ushbu korxonalar rivojlantirilib, ularning soni 520 taga yetqazildi. Hozirda bu sanoat Xitoy flotini turli shakldagi harbiy kemalar bilan ta‘minlab, hattoki, eksportga ham mahsulot chiqarmoqda.

Elektronika sanoati – bu sanoatga 1980-yillarda davlat tomonidan ahamiyat kuchaytirildi, 1985- yillarga kelib esa, Xitoyda 2600 ta korxona tashkil topdi. Ushbu soha dengiz oldi va ichki rayonlarda ham rivojlandi. Ular asosan, Shanxay, Pekin, Tyanszin, Chzyansu, Guandun, Chjenszyan, Lyaonin, Shandun, Fuchzyan va Xubeyda joylashgandir. Bu sohaning asosiy mahsulotlari:

- radarlar va boshqaruv jihozlari, raketa, samolyotlar, dengiz kemalari va turli qurollar uchun elektron uskunalar;
- navigatsiya va aloqa uskunlari;
- kompyuterlar, raqamli mashinalar, ahborot protsessorlari;
- televizion va radioni uzatish uskunlari, magnitofonlar, videokameralar, fotoapparatlar, radiodatchiklar va h.k.;
- 800 turdagi mahsulotlar;
- 700 turdagi elektron lampalari;
- 600 turdagi yarim o‘tkazuvchan dissektorlar
- 400 turdagi integral sxemalar;
- 500 turdagi o‘lchov jihozlari va h.k.

Kimyo sanoati – 1949 yilda mamlakatda bir necha kimyo zavodlari va bir qator sulfat kislotasi va soda, o'g'itlar ishlab chiqaruvchi ustaxonalar va sexlar mavjud edi. Ko'pgina kimyo mahsulotlari tashqaridan import qilinardi. XXR si tashkil topgandan so'ng, bu sanoatga katta ahamiyat berilib, mamlakatda sekin – asta bir butun qudratli kimyo industriyasi tashkil topdi.

Ushbu tarmoq 30 mingdan ortiq turdagi mahsulotlarni ishlab chiqara boshladi. Bu sohaning yalpi mahsuloti hajmining o'rtacha yillik o'sishi 1952-1985 yillar mobaynida 15,1% ni, 2000-2007 yillardagi o'rtacha yillik o'sishi 12% ni tashkil etdi. Xitoy kimyo sanoatining eng yirik markazlari Shanxay, Pekin, Tyanszin, Sindao, Dalyan va Shenyanlar hisoblanadi.

Qurilish materiallari sanoati. Bu sanoat asosan g'isht, cherepitsa, sement, oyna va yangi qurilish materiallarini ishlab chiqaradi. Sement ishlab chiqarish bo'yicha Xitoy hozirgi kunda dunyoda 1-o'rinni egallamoqda.

Mamlakatning deyarli hamma hududlarida Tibet va Ninsya –Xuey avtonom rayonlaridan tashqari katta yoki o'rta hajmli sement zavodlari mavjud bo'lib, ular 3 ta turdagi silikatli, fosfatli va loyli sement ishlab chiqaradi. Xitoyning sementga bo'lgan ehtiyojini kundan-kunga oshib borgani bilan, u faqat kishi boshiga 140 kg. ni tashkil etmoqda, dunyo bo'yicha esa, bu ko'rsatkich o'rtacha 210 kg. ni tashkil etmoqda. Qolgan yetishmovchilikni Xitoy uni import qilish bilan to'ldirmoqda.

Undan tashqari, mamlakatda g'isht va pishirilgan loydan tayyorlanadigan cherepitsalar ham ishlab chiqariladi va ular devor va uy tomlarini yopishda ishlatiladigan materiallarning 90% ini tashkil etadi. 1985 yilda Xitoyda 294,2 mlrd.dona g'isht va 30,51 mlrd.dona cherepitsalar ishlab chiqarildi. Mamlakatda g'isht va cherepitsalarni ishlab chiqaradigan 20 mingdan ortiq korxonalar faoliyat ko'rsatib, ularning $\frac{3}{4}$ qismi jamoa korxonalari hisoblanadi.

Aviatsiya va kosmik sanoat. Bu tarmoqning yuzaga kelishi 1950 yillardan boshlangan bo'lib, bugungi kunda u, harbiy va grajdan samoletlari, qiruvchi samoletlar, shturm qiluvchi, razvedkachi, passajir va transport samoletlarini ishlab chiqarmoqda. Ulardan tashqari, bu sanoat yana, o'quv mashg'ulotlari samoletlari va vertoletlarini ham yetkazib bermoqda. Passajir "Yun -7" samoleti Sian avia qurilish

kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, u hamma Xitoy aviakompaniyalarida asosiy samoletlar turi sifatida shuxrat qozongandir.

1979 yildan boshlab, Xitoy o'zining aviatsiya sanoati mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqa boshladi. Xitoy aviakompaniyasi dunyoning 70 dan ortiq davlatlari bilan texnik - iqtisodiy va savdo aloqalarini o'rnatgandir. Grajdani aviatsiyasi samoletlari dunyoning 10 dan ortiq davlatlariga eksport qilinmoqda. Bu sanoat AQSh ning "Boing" aviakompaniyasining, Germaniya, yevropa passajir aviakompaniyalari va fransuz kosmik kompaniyasining buyurtmalarini bajarmoqdadir.

7.3.Xitoyda industrialashtirish jarayonining boshlang'ich bosqichi va "To'rtlik modernizatsiyasi" dasturining qabul qilinishi.

Yoqorida ta'kidlaganimizdek, Xitoyda «**To'rtlik modernizatsiyasi**» dasturi 1978 yilda ishlab chiqilib, 1980 yilda amaliyotga talbiq etildi.

Ushbu dasturga binoan, quyidagi sohalarni modernizatsiyalash (yangilash) zarurligi belgilab olindi:

- 1.Sanoatni rivojlantirish;
- 2.Harbiy kuchlarni mustahkamlash;
- 3.Qishloq xo'jaligini rivojlantirish;
- 4.Fan va texnika yutuqlarini yangilash;

«To'rtlik modernizatsiyasi» dasturi orqali Xitoy xalq xo'jaligini tiklash hamda uni rivojlantirishni ishlari 1978-yil dekabr oyida bo'lib o'tgan XKP MK ning 11 chaqiriq 3- plenumida o'z ifodasini topib, uni amalga oshirish bosqichlari aniqlandi.

Xitoydagi iqtisodiy islohotlar jarayoni asosiy ikki davrni o'z ichiga olib, ular quyidagilardan iborat edi:

1 davr – 1979-1991 yillardan iborat bo'lib, bu yillarda sanoat ishlab chiqarish miqyosini o'stirishni davom ettirish va uni boshqarishni isloh etishda birinchi qadamlar qo'yildi. Mamlakatning qishloq joylaridagi agrosanoat qurilishi shu davrga xos bo'lgan hodisalar edi. Boshqarishdagi o'zgarishlar «quyi qatlamga huquq berish» konsepsiyasi asosida olib borildi, bu esa davlatning mulkka bo'lgan huquqini va

xo'jalik huquqlarini saqlab qolgan holda, korxonalar mustaqilligini ancha kengaytrishga qaratilgan edi.

1984 yildan boshlab, eksperiment tariqasida, turli xildagi yangi mulk shakllari amaliyotga joriy etila boshlandi, ya'ni: pudrat, ijara, hissadorlik, pay kabilar. 1987 yildan boshlab esa, sekin-astalik bilan, deyarli mamlakatdagi barcha o'rta va yirik davlat korxonalari yuqori tashkilot bilan ishlab chiqarish hajmi va davlat byudjetiga aniq mablag' ajratish to'g'risida bitim tuzib – xo'jalik yuritishning pudrat turiga o'tqazildi.

1988 yilda davlat sektorini isloh etishni faollashtirish bo'yicha bir qator tadbirlar olib borish bilan kechdi. Ushbu yilda korxonalar to'g'risida qonun qabul qilindi, hissadorlik bo'yicha tajribalar amalga oshirilib, mamlakatda Davlat mulk qo'mitasi tashkil etildi.

Xitoyda yangi tizimiy siyosat shakllana borib, u qishloq xo'jaligi, og'ir va yengil sanoat orasidagi mutanosiblikni hamda infrastrukturaviy ta'minotni yaxshilashga yo'naltirildi.

1980 yillar o'rtalariga kelib, yengil sanoatdagi sezilarli orqada qolish holatlari bartaraf etildi. O'sish sur'ati bo'yicha yengil sanoat 11,7% ni tashkil etdi, og'ir sanoat esa, atigi 6,6% dan iborat bo'ldi. Yengil sanoatning umumiy sanoat o'sishiga qo'shgan hissasi 59,2% ni tashkil etdi.

1985-1990 yillarda og'ir sanoatning o'sish sur'atlari yanayam ko'tarildi va u qayta ishlab chiqarish tarmog'i faydasiga hal bo'ldi. Agar, 1978 yilda xom asheviy va qayta ishlovchi sohalar nisbati 1: 0,96 ga teng bo'lgan bo'lsa, 1988 yilga kelib, ularning nisbati 1:1,67 tashkil etdi. Bu yo'nalishda yuqori texnologik soha ortda qola boshladi. Yengil sanoat ichida qishloq xo'jalik xom ashyosida ishlaydigan tarmoqlar juda ham tez sur'atlarda o'sib bordi, natijada ushbu tarmoqlar, nisbatan past sur'atlarda rivojlanayotgan qishloq xo'jaligiga qarama-qarshi turib, unda raqobat muhitini keltirib chiqardi.

II davr – 1992-1998 yillar hisoblanib, unda islohotlarning birinchi 10 yili natijalaridan iborat bo'lgan o'tish davri xo'jalik mexanizmi bozor qonunlari va direktiv rejalashtirish tamoyillari birligiga asoslangan edi. Uning natijasida

korxonalar ikki, bir-biriga o'xshamagan manbalar yordamida boshqarila boshlandi, ya'ni, ma'muriy boshqaruv va bozor orqali.

Davlat reglamentatsiya va dotatsiyalariga (pul mablag'lari yordami) o'rganib qolgan va amalda zarar emas, balki faqatgina daromad (foyda) olish uchun javobgar bo'lgan korxonalar «bozor sharoitiga» uncha xush bermasdan kira boshladilar yoki kirsalar ham, qisqa muddatli maqsadlarni ko'zlagan holda unga qatnashdilar.

Mavjud gorizontal aloqalarning bo'shligi va makroiqtisodiy nazoratning past darajasi natijasida, turli darajadagi xo'jalik boshqaruvidagi korxonalarga vazifalarni taqsimlash markaz darajasida amalga oshirilar edi. Bunda eng katta yutuqqa quyi tashkilotlar emas, balki ular orasidagi mintaqaviy boshqaruv tashkilotlari erishdilar.

1989 yildagi ijtimoiy «portlash» va undan keyingi «xalq xo'jaligini tartibga solish» kursi davlat sanoat sektorida tub (radikal) islohotlar olib borishda uch yillik dam olishga, ya'ni, –«pauza» ga olib keldi. 1991 yilga kelib, navbatdagi reformistik faollashuv belgilari paydo bo'la boshladi va mamlakatda iqtisodiy o'sishning yangi davri boshlandi. 1992 yilda mamlakatning kapital quyilmalari 58,6% ga o'sdi. Sanoatda ham o'sish yuz berib, u 21,7% ni tashkil etdi. Keyingi 1993 yilda ham bu sohada 22,2% o'sish yuz berib, u yana ikki yil mobaynida 20% darajasida saqlanib turdi.

1993-1994 yillarda hukumat tomonidan olib borilgan «narx-navo»ning o'sishi va kapital quyilmalari hajmining noratsionalligi borasidagi unga qarshi kurash siyosati, ya'ni, «yumshoq qo'nish» nomini olgan siyosat amalga oshirildi.

1996-1997 yillarga kelib, sanoatning o'sish sur'atlari 10% dan ortiqroqqa sekinlashdi. 1998 yilda esa, u yanayam sezilarli darajada pasaya bordi, uning sababi, birinchidan, Osiyodagi moliyaviy inqiroz bo'lsa, ikkinchidan, mamlakatdagi iste'mol talabining pasayishi hamda aholii iste'molining belgilangan darajadan ortib ketishi, ya'ni, ichki talabning to'yinganligidir.

7.4 Xitoy korxonalarida xo'jalik tizimi islohotlarini amalga oshirilishi.

1994 yilda sanoat korxonalarida amalga oshirilgan islohotlarda «chuqurlashuv» fazasi boshlandi. U ilgari qabul qilingan bir qator qarorlardan kelib chiqib amalga oshiriladi. 1992 yildagi «Umumxalq mulki bo'lgan sanoat korxonalarida xo'jalik

mexanizmini almashtirish holati» ularning keng masalalar doirasidagi avtonomiyasini mustahkamladi, jumladan: investisiyalash, narx-navo, ishchi kuchini yollash, eksport-import operatsiyalari kabilardir.

1993 yildagi hukumatning «Sotsialistik bozor iqtisodiyoti tizimi ba'zi masalalarini tashkil etish» qarori zamonaviy korxonalar tizimini tashkil etishga qaratilgan bo'lib, 1994 yil 1 yanvaridan boshlab, uning soliqqa tortishning yangi tizimi rasmiy ravishda ishga tushirildi. Unda daromad solig'i stavkasi pasaytirilib, qo'shimcha qiymat solig'i unifikatsiyalandi.

Umuman, sanoatni o'sish sur'atlari sezilarli tezlashdi. Agar, 1953-1978 yillarda sanoat yalpi mahsulotini o'rtacha yillik o'sishi 6,1% ni tashkil etgan bo'lsa, 1979-1998 yillarda u- 9,7% ga yetdi. Ushbu 20 yil ichidagi o'sish sur'atlari yiliga 6 marotaba - 20% dan ortiq bo'ldi, 9 marotaba esa, – 10-15% lar atrofida bo'ldi.

Garchi, o'sish sur'atlari bir maromda bo'lmasada, (ya'ni, 1993 yilda eng baland o'sish sur'ati – 27,3% ni tashkil etgan bo'lsa, 1981 yilda esa, eng past o'sish sur'ati – 4,3% ni tashkil etdi), amalda esa, biron bir marotaba ham ishlab chiqarish pastga tushmadi, ya'ni to'liqsimonlik amplitudasi 10% dan oshgan emas edi.

Sanoatni to'liqsimon o'sishi, butun bir iqtisodiyot singari bo'lmadi. Undagi har bir miqyosli kapital quyilmalar uni yuqori sur'atlarda o'sishga olib kelib, undagi investitsiya samarasi pasayib turdi. Shu noxushliklarni yengish uchun hukumat investitsion siyosatni kuchaytirdi, oqibatda uning o'sish dinamikasi pasaydi. Keyingi sikl esa, yana kapital quyilmalarini ko'paytirishdan boshlandi.

Hozirgi kunda sanoat ishlab chiqarilishidagi ustuvorlik texnika sig'imi katta bo'lgan ishlab chiqarilishga berilmoqda. An'anaviy tarmoqlar, ya'ni, ko'mir qazib olish, tekstil, yog'ochni qayta ishlash, oziq-ovqat, oddiy mashinasozlik tarmoqlarini ulushi esa, aksincha, kamaymoqda. Ulardan farqli o'laroq, neftni qayta ishlash, elektronika, kimyo, metallurgiya, transport va elektroenergetik uskunalari ishlab chiqarish sezilarli tarzda ortib bordi. Ba'zi bir mashinasozlik tarmoqlari kundan kunga o'z salohiyatlarini oshirib borishmoqda.

Hozirda, xitoyni kemasozlik sanoati dunyoda uchinchi o'rinni egallamoqda. Uning ulushi – umumiy jahon kemasozligi ulushining 5% ni tashkil etmoqda. 1990

yillar boshidan elektron uskunalar ishlab chiqarish yiliga 30% ga o'sib bordi. Bu tarmoqni sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 1990 yildagi 3,4% dan, 1997 yilga kelib – 4,6:%ga o'sdi.²⁴

Garchi, davlat sektori yalpi mahsulot ishlab chiqarishda o'zining ustuvorligini asta-sekin yo'qotayotgan bo'lsa ham, u boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha, ya'ni, asosiy fondlar, kapital quyilmalarning umumiy hajmi va davlat xazinasiga mablag' keltirish bo'yicha, u o'zining ustunligini saqlab kelmoqda. Mamlakatda ikki sektorli model yuzaga keldi. U yirik va mayda ishlab chiqarishga asoslangan bo'lib, sanoatni qayta ro'yxatga olish ma'lumotiga ko'ra, sanoat korxonalarining, ya'ni, 23007 tasi «yirik va o'rta» korxonalar kategoriyasiga kiritilgan edi. Ulardan, 6201 tasi «yirik» va 215 ta ob'ekt «juda ham yirik» deb tan olindi.

Bu sektorda 25% ishchi va xizmatchilar band bo'lib, ularda 60% dan ortiqroq sanoatning asosiy fondlari joylashgandir. Ular davlat byudjetiga sanoat solig'ining 60% ni beradi. Mayda ishlab chiqarish esa, asosan, qishloq korxonalarida olib borilib, ular islohotlar mobaynida ancha o'sdi. Ammo, leknn, ushbu ob'ektlar soni hozirda ancha kamayib, ularning faoliyati qishloq xo'jalik ehtiyojini qondirish va aholiga xizmat ko'rsatishga moslashgandir.

Ishlab chiqarishni ratsional hududiy tashkil etilishining yangi konsepsiyasi dengiz oldi, shahar oldi, va chegara oldi rayonlari salohiyatini va eski sanoat bazalarini yuqori iqtisodiy o'sishini o'z ichiga oladi va mamlakat markaziy va g'arbiy rayonlarida joylashgan «yangi sanoat regionlarini» o'zlashtirishni ko'zlaydi.

Islohotlar mobaynida mamlakatda keng miqyosda sanoatni texnik rekonstruksiya o'tkazildi. Sanoatni qayta ro'yxatdan o'tkazish asosida 1995 yildagi umumiy sanoat uskunalarining barchasi 1980 yildan so'ng, ishlab chiqarilganligi ma'lum bo'ldi. Yirik va o'rta korxonalarda 26% uskunalar ilg'or xalqaro standartlar darajasiga yetqazildi. 3200 turdagi sanoat uskunalaridan – 47,1%i import qilindi, ularning 52,9% i mahalliy, ya'ni, xitoyning o'zi ishlab chiqargan sanoat uskunalaridan shakllandi.

²⁴ Ли Цзинцзи. Структурные изменения в народном хозяйстве Китая и тенденции развития. Дандай цейцзинуу, 1998, №5, 18

Ishlab chiqarishdagi iqtisodiy samaradorlik katta muammolarni keltirib chiqardi. 30% gina davlat korxonalarini mustahkam rentabelli korxonalar qatoriga kiritish mumkin bo'lib, 40% korxonalar esa, zarar keltiruvchilar qatoriga kirar edi.

Xitoy sanoatini isloh qilish 1984 yildan boshlanib, dastlab tajriba sifatida xo'jalik yurituvchi sanoat korxonalariga muayyan soliq imtiyozlari berilib, o'z-o'zini mustaqil ravishda ta'minlash tizimiga o'tildi. 1986 yilda Xitoy hukumati "Xo'jalik korxonalarini gorizontal birlashtirishning ba'zi bir jihatlari" to'g'risidagi qarorini ishlab chiqdi va e'lon qildi. Unga asosan, davlat korxonalarini qayta tashkil etish modellari ko'rib chiqildi.

Demak, **1984-1991** yy.- Xitoy og'ir sanoatini rivojlanishidagi 1-bosqich hisoblanib, unda asosan, mamlakat korxonalaridagi mavjud asosiy fondlar (asbob-uskunalar, jihozlar) qayta baholanib, ularning moddiy va ma'naviy eskirish muddatlari tekshirib chiqildi. Uning natijasida, xitoy og'ir sanoatining yetakchi tarmoqlariga xorijiy kapitalni va yangi texnika va texnologiyalarni kiritish masalalari ko'rib chiqildi hamda yangi paydo bo'lgan tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

Shular bilan bir qatorda, sanoat sohasida mamlakatda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga keng imtiyozlar berildi. Yirik korxonalar qoshida kichik sexlar va firmalar tashkil etila boshlandi.

Xitoyda ko'pukladli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish kursi xususiy mulk formasidagi korxonalarning ko'payib borishiga va davlat mulkining qisqarib borishiga olib keldi.

Mamlakatda asosan, davlat mulki uning og'ir sanoati tarmoqlarida saqlanib qolmoqda. 1990 yillar oxiriga kelib, mamlakat og'ir sanoatning ishlab chiqarish qiymati 1,106 trln. yuanga yetdi, bu esa, Xitoyda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar o'z samarasini berayotganligidan dalolat beradi. Islohotlarning dastlabki bosqichida Xitoydagi katta korxonalarda g'arb davlatlari texnologiyalari tajriba sifatida qo'llanilib ko'rildi. Bu tajriba o'z samarasini bergandan so'ng, uni keng ko'lamda qo'llashga kirishildi. Mamlakatning sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish sektori o'zining miqdor jihatdan maksimal miqyosi darajasiga 1994 yilga kelib

erishdi. Aynan o'sha yillarda sanoat ob'ektlari soni 10,01 mln. ga yetdi, oradan bir oz vaqt o'tgandan so'ng esa, ya'ni, 1997 yilga kelib, ular 7,2 mln.ga qisqardi.

Katta korxonalar hissadorlik jamiyatiga aylantirilib, uning natijasida korxonalar 1998 yildagi "XXRning sanoat korxonalari to'g'risidagi" qonuniga muvofiq, o'z egalariга ega bo'ldilar. Ushbu hujjatga ko'ra, ular o'z mahsulotlarini ishlab chiqarish, unga erkin narx qo'yish va olingan foydani o'z hohishlariga ko'ra ishlatish hamda xom ashyo sotib olishda vujudga keladigan to'siqlarni yengish huquqiga ega bo'ldilar. Sanoat korxonalarining islohoti 1989 – 1992 yillarda o'z yo'liga tushib oldi. Ular korxonalarga kelgan foydaning 40 % ni davlat hisobiga o'tqazib keldilar. 1992 yilga kelib, sanoat korxonalarini modernizatsiyalash bo'yicha qonun qabul qilingandan so'ng, korxonalar endilikda, olingan foydaning 10% nigina soliq sifatida davlat hisobiga to'lay boshladilar. 1993 yilda bo'lib o'tgan Umum Xitoy Xalq qurultoyida sanoat korxonalari to'g'risidagi qonunga o'zgartirishlar kiritildi. Unga muvofiq, davlat monopoliyasidagi korxonalar davlat tasarrufida qoldirildi, boshqalari esa, xususiylashtirildi.

7.5. Xitoy sanoatini rivojlantirishning yangi strategiyasini ishlab chiqilishi.

Sanoatdagi olib borilgan ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilgandan so'ng, zamonaviy makroboshkaruv tizimi o'rnatildi. Unga ko'ra, soliqqa tortish, sarmoyalarni jalb qilish, ijtimoiy himoya tizimlari davlatni qo'lida qoldi. 1994 yilda mamlakatda yangi moliya, soliq, bank, valyuta va narxlar tizimi ishlab chiqildi hamda zamonaviy sanoat korxonalari uchun mana shu yangi tizim qo'llanila boshlandi.

Yangi tizim bo'yicha yalpi foydadan 33% i soliqqa tortildi. Undan tashqari, ayrim korxonalarga muayyan imtiyozlar ham yaratib berildi. Davlat sanoat korxonalarini isloh qilishdan asosiy maqsad - zamonaviy korxonalar tizimini yaratishdan iborat bo'lib, unda asosiy diqqat e'tibor mahsulotning sifatiga qaratildi. Olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, sanoat korxonalarida olib borilgan ishlar faqatgina xo'jalik ob'ektlarida emas, balki xususiy korxonalarda ham amalga oshirildi .

Islohotlar xo'jalik sub'ektlaridan, ya'ni sarmoyadorlar va mulk egalari o'z mulklariga bo'lgan huquqlarini bilishni talab qilardi. 1993 yilda XXR da

«Kompaniyalar to'g'risida» gi qonun ishlab chiqdi. Keyinchalik esa, ushbu qonun amalda tadbqiq qilinib, u sanoat korxonalarini ochiq turdagi hissadorlik jamiyatlariga aylantirish va investorlar ni milliy iqtisodiyotga jalb qilishda juda qulay iqlimni yaratdi.

Shunday qilib, davlat o'z ishini korxonalarga xom ashyo yetkazib berishdan boshladi. Ayrim korxonalar esa, yuridik shaxslar qo'liga o'tib, bu ular kompaniya foyda bilan ishlashi uchun javob beradigan bo'ldi.

1992-1998 yy.- ikkinchi bosqichda sanoatning o'sish sur'atlari eng baland darajani, ya'ni, 27,3% ni ko'rsatdi. Shu bilan bir qatorda, xalq xo'jaligida progressiv tarzda tarkibiy o'zgarishlar ro'y berdi. Unda ustuvorlik texnika va texnologiyalar sig'imi katta bo'lgan ishlab chiqarishga berilib, an'anaviy tarmoqlar, ya'ni, ko'mir qazib olish, yog'ochni qayta ishlash tarmoqlarining ulushi kamaytirildi.

Ulardan farqli o'laroq, neftni qayta ishlash, elektronika, kimyo, metallurgiya va aviakosmik sanoatlarining salmog'i kundan-kunga ortib bordi. Mana shu tarmoqlar qatorida xitoy kemasozligi ham rivojlanib bordi va u dunyoda 3-o'ringa chiqdi.

Xitoy og'ir va yengil sanoati orasidagi nisbat 1949 yilda 73,6:26,4 ni tashkil etgan bo'lsa, hozirda bu nisbat 49,7:51,3 ni tashkil etmoqdadir. Sanoat mamlakat milliy iqtisodiyotida hukmronlik holatini egallab, uning mamlakat YaMM dagi ulushi 1949 yildagi 25,2% dan, hozirgi kunga kelib, - 52,3% ga yetdi. Sanoat tarkibida ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. Agar, eski Xitoyda sanoatni yengil sanoat tarmoqlari yetakchi o'rinda bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ular o'z o'rinlarini mashinasozlik, metallurgiya, aviakosmik energetika va kimyo sanoatlariga bo'shatib bermoqda.

Mamlakatning industrial qudrati ortgani sari, sohalar tarkibida ham sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. **1999-2007** – yillar og'ir sanoatni rivojlantirishdagi 3-bosqich hisoblanib, unda ham turli o'zgarishlar yuz bergandir.

Quyida 1990-2007 yillar mobaynida Xitoy sanoati sohaları orasidagi nisbatni o'zgarib borishini tahlil qilamiz va ularni jadval 7.5.1.dan kuzatamiz.

Mamlakatda muayyan sanoatni rivojlantirish siyosatini amalga oshirish natijasida, ya'ni, sanoatga xorijiy sarmoyalarni jalb etish va dunyodagi 500 Trans milliy korporatsiyalarning 400 tasi o'zining filiallari va vakolatxonalarini Xitoyga

joylashtirishi natijasida, mamlakatning energetika, elektronika, mashinasozlik, aviasozlik, kimyo, oziq-ovqat sanoatlari tez sur'atlarda rivojlandi.

Oxirgi yillarda Xitoyda kosmonavtika sohasiga katta e'tibor qaratilib, yerning sun'iy yo'ldoshlarini uchirish texnologiyalari o'zlashtirildi. Shular bilan bir qatorda, ushbu yo'nalishda yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlari orta boshladi.

Sanoat tarkibiy o'zgarishlarining yana bir yo'nalishi - bu harbiy ishlab chiqarishni konversiya qilish bo'lib, 1996 yilda harbiy korxonalardagi sanoat mahsulotlarining ulushi 1979 yildagi 8% dan 75% ga ko'paydi.

Hozirgi kunda mashinasozlik mahsulotlarini turlari 53 mingtadan ortib, ular mamlakat ichki iste'molini to'la qondirmoqdadir.

Jadval 7.5.1.

Xitoyda 1990-2007 yillardagi sohalar tarkibidagi o'zgarishlar²⁵

Ishlab chiqarish hajmi (100 mln.yuan)				3 ta soha industriyaning salmog'i, % da		
yillar	1 soha	2 soha	3 soha	1 soha	2 soha	3 soha
1990	4228	7278	5403	25,0	43,0	32,0
1997	14211	37223	23029	19,1	50,0	30,9
2003	17092	61131	38675	14,6	52,3	33,1
2007	22356	89077	43251	14,9	49,7	33,4

Undan tashqari, xom ashyo zahiralarining katta qismiga ega bo'lgan Xitoy davlati o'zining metallugiya tarmog'ini kelajak rivojiga mustahkam asos yaratdi. Mamlakatda oxirgi yillarda olib borilgan keng miqyosli geologik ishlar shuni ko'rsatdiki, yani, unda oxirgi yillarda, yangi temir, magniy, ruda, ko'mir, neft va ko'pgina boshqa xom ashyo konlari ochilmoqda. Xitoy temir rudasining zahirasi bo'yicha dunyda 3-o'rinni, tekshirilgan magniy rudalari zahirasi bo'yicha esa, 2-o'rinni egallamoqdadir.

²⁵ Китайская Народная Республика в 2007 г.: политика, экономика, культура., под ред. Титоренко М.И, Москва, 2008.

Umuman olganda, mamlakatdagi qora metallurgiya korxonalarining soni hozirda 1500 taga yetqazilgan bo'lib, bu sohanig o'ziga xos muammolari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- metallurgiya sanoatining umumiy texnik darajasi uncha yuqori bo'lmay, uni zamonaviy uskunalar bilan ta'minlash qisman import evaziga ro'y bermoqda;
- Mamlakatdagi 70% korxonalarda atrof muhitni zararli unsurlardan tozalash uskunalari yaxshi ishlamaydi, yoki umuman mavjud emasdir.

Yuqorida ta'kidlaganidek, Xitoyda 1000 dan ortiq sotrda po'lat ishlab chiqarilib, ular jumlasiga aviatsiya sanoati uchun o'tga chidamli eritmalar, yadro bo'laklari tezlatkichlari uchun yuqori darajali po'latlarni ishlab chiqarish kiradi.

Mamlakatda volfram, qo'rg'oshin, surma, simob va molibden konsentratsiyalari katta hajmda ishlab chiqarilishiga qaramay, unga bo'lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Shu bilan birga, Xitoy o'zida alyuminiy, qo'rg'oshin va sinkni ham ishlab chiqaradi, lekin unga bo'lgan ichki talabni to'litq qondirolmaydi va yetishmagan hajmini chetdan import qiladi.

Hozirgi kunda (2008 y.)Xitoy industrial majmuasining rivojlanish miqyosini quyidagi raqamlar orqali ko'rish mumkindir:

- Xitoyda 1 kunda 2,1 mlrd. yuanlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi;
- kuniga 2,3 mln.tonna ko'mir qazib olinadi;
- 1 kunda 360 tonna neft ishlab chiqariladi;
- kuniga 140 mln.tonna po'lat va 455 ming tonna sement ishlab chiqariladi²⁶.

Sanoatning asosiy mahsulot turlari bo'yicha yetishmovchiligi (defisiti) muammosini hal etish bilan birga, mamlakat ishlab chiqarish kuvvatining norasional ortikchaligi muammosiga yuz tutdi. Ya'ni, bunda metallurgiya sohasida 1/3 kismni, tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarishda – 40% ni, avtomobillarni ishlab chiqarish bo'yicha – 50% ni, rangli televizorlarni ishlab chiqarish bo'yicha – 60% ni tashkil etdi.

Kir yuvish mashinalari bo'yicha ishlab chiqarish quvvati 43,4% ga, muzlatgichlar bo'yicha – 50,4% ga, velosipedlar ishlab chiqarish bo'yicha – 56,5%

ga, kondensierlar bo'yicha – 33,5% gagina foydalanilmoqda. Davlat korxonalari omborlaridagi tovarlar – 400 mlrd.yu. ni tashkil etdi. 1990 yillar oxiriga kelib, 12 mln.dona soatlar, 23 mln. velosipedlar va 128 ming avtomobillar sotilmay qoldi.

Buning asosiy sababi, o'sha davrdagi korxonalarning tarqoqlik darajasini yuqoriligi, mayda korxonalarning ko'pligi va eng asosiy sabab esa, bu ishlab chiqarish samaradorligining pastligi edi.

Hozirgi paytda Xitoyda metallurgiya sanoati bo'yicha 1700 ta korxona mavjud bo'lib, ulardan faqat 60% gina 200 ming tonna po'lat eritish quvvatiga egadir. Avtomobil ishlab chiqarish esa, 122 ta ob'ektlarga bo'lingandir.

Mamlakatga jalb etilgan xorijiy texnologiyalar asosida maishiy texnika (televizorlar, sovutgichlar, audioapparaturalar, komp'yuterlar) jihoz va uskunalari ishlab chiqarila boshlandi. 1978-2007 yillardagi yalpi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning o'rtacha yillik o'sishi 14% ni tashkil etdi.

Hozirgi kunda Xitoy o'zining yuqori texnologik tovarlarni ishlab chiqarishi bilan ko'pchilik ilg'or davlatlarga, xususan, Yaponiya, AQSh, Janubiy Koreya, Singapur va boshqa mamlakatlar uchun raqobat muhitini yaratmoqda.

Ushbu sohani rivojlantirish uchun Xitoyda davlat dasturlari ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu dasturlar orqali, innovatsioon texnologiyali korxonalarga muayyan aniq sharoitlar yaratilgandir. Mana shu dasturlarda ko'rsatilganidek, Xitoyni ushbu soha bo'yicha dunyo ishlab chiqaruvchilari qatorining birinchi 10 ligiga kirishida quyidagi omillar katta rolni o'ynadi:

- mamlakatda yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi milliy korxonalarga va qo'shma korxonalarga maxsus imtiyozlar beriladi (yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar maqomi 5 yilga, texnologiyalarni uzoq o'zlashtirish muddati bilan 7 yilga beriladi);
- ushbu yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun daromad solig'i 15% ni, o'z mahsulotining 70% ini eksportga chiqaruvchi korxonalar uchun – 10% stavkada soliq belgilangandir;

²⁶ Китай: Факты и цифры 2008 г.. Пнкин, 2009.

- milliy korxonalar uchun 1 yilga, qo'shma korxonalar uchun - 2 yilga "imtiyozli soliq ta'tillari" belgilangandir;
- mamlakatda ilmiy-texnikaviy va tajriba konstruktorlik ishlarni amalga oshirish uchun uskunalar va jihozlar importiga va eksport mahsulotlari uchun materiallarga boj to'lovlari bekor qilingandir.

Mana shu qilingan ishlar natijasida, hozirda mamlakat televizorlar va telefon apparatlarini ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 1-o'rinni, kompyuter mahsulotlarini ishlab chiqishda esa, oldingi pozitsiyalarni egallashga muvaffaq bo'ldi.

Bugun Xitoyning eksportida yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarishi, uning an'anaviy sohalarini siqib chiqarmoqda. Agar, 2004 yilda yuqori texnologik mahsulotlarni eksport qilish natijasida mamlakatga 200 mlrd. AQSh doll. yoki eksport umumiy hajmining - 34% ini tashkil etib, 2005 yilda esa, ushbu ko'rsatkich 240 mlrd.doll. ni tashkil etdi. O'tgan yillar mobaynida mamlakatda 32 ta erkin – savdo rivojlanish, 53 ta yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish zonalari tashkil etildi va ular orqali 600 ta Xitoy olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy-texnik yutuqlar sotuvi amalga oshirildi. 1997-2003 yillar mobaynida innovasion ishlab chiqarish korxonalarining o'rtacha o'sish miqdori 80% ni tashkil etdi.

Xitoyda oxirgi yillarda, ya'ni 2007 yilda sanoat ishlab chiqarishi har doimgidek 18% atrofida o'sdi. Sanoatning 1 yil ichidagi qo'shimcha qiymati 9,65 mlrd.yuanni tashkil etib, u 2006 yilga nisbatan 17,1% ga o'sdi.

Shu bilan birga, yuqorida ta'kidlaganimizdek, sanoatdagi yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqish sur'atlari ham tez o'sib bordi va undagi yaratilgan qo'shimcha qiymat ham 20,9% ga o'sdi.

Mamlakatda birlamchi energiyani ishlab chiqishning umumiy miqdori, ya'ni standart ko'mir ishlab chiqarish - 1,603 mlrd.tonnani tashkil etdi. Elektr energiyasini ishlab chiqarish esa, 2006 yilda 2,10 trln.kvt.s.ni tashkil qilib, u o'tgan yilga nisbatan 15,5% ga o'sdi. Toshko'mir qazib olish esa, 1,943 mlrd.tonnadan iborat bo'lib, u 13% ga oshdi. Neft qazib olish 2006 yilda 178 mln. tonnani tashkil qildi.

Shular bilan birga, mamlakatda 2006 yilda temir rudasini qayta ishlash 521,5 mln.tonnani tashkil etib, u 2005 yilga nisbatan - 41,1 % ga oshdi, yani, o'tgan 2005

yilga qaraganda 55,5 mln.tonnaga ko‘payib, Xitoy milliy statistika byurosining ma’lumoti²⁷ga ko‘ra, bu ko‘rsatkich – soha tarixida eng yuqori bo‘lgan ko‘rsatkich boldi. Temir rudasini ishlab chiqarishni tez sur’atlarda o‘sishi, xitoy po‘lat erituvchi zavodlarining xorijiy xom ashyo yetqazib beruvchilardan asta-sekin mustaqil bo‘layotganliklarini ko‘rsatmoqdadir.

Mamlakatda alyuminiy ishlab chiqarilishi ham yuqori sur’atlarda bo‘lib, 2006 yilda u 8,28 mln.tonnani tashkil etib, - 19,1% ga oshgandir. Nikel ishlab chiqarish 2006 yilda 17,6% ga o‘tdi. Xitoyda qalay ishlab chiqarish 2006 yilda 131,9 ming tonnani tashkil etib, u o‘tgan yilga nisbatan 24,2% ga oshgandir. Qo‘rg‘oshin ishlab chiqarish - 2,47 mln.tonnani tashkil etib, u - 15,5% ga, sink ishlab chiqarish esa, 2,84 mln.tonn. – 15,2% ga oshdi.

Xitoyda po‘lat ishlab chiqarish 2006 yilda 381,5 mln.tonnani tashkil etgan bo‘lib, u o‘tgan yilga nisbatan 24% ga o‘sgandir. Chugun ishlab chiqarish esa, 2006 yilda - 367,4 mln.tonnani tashkil etib, u o‘tgan yilga nisbatan 18,3% ga o‘sgandir

Undan tashqari Xitoyda qayta ishlanmagan po‘lat 2006 yilda 430 mln.tonnani tashkil etib, 2005 yildagiga qaraganda 100 mln.tonnaga ko‘pdir. 2006 yilda mis ishlab chiqarish 5 mln.tonnadan oshib ketdi, uning yillik o‘rtacha o‘sishi 18,2 % ni tashkil etgandir.²⁸

Quyida xitoyning og‘ir sanoatining asosiy mahsulotlarini yillik o‘shish ko‘rsatkichlarini tahlil qilamiz. (jadval 7.5.2.)

Jadval 7.5.2.

XXR og‘ir sanoatida ishlab chiqarilgan asosiy mahsulotlarning yillik ko‘rsatkichlari²⁹ (1978-2006 yy.)

Mahsulotlar	o‘lchov birligi	1978 y.	1990 y.	1997 y	2003 y	2006y.
Ko‘mir	mlrd.ton.	0,618	1,08	1,39	1,66	1,82
Neft	mln.t.	104,0	138,3	158	170	178

²⁷ Xitoy milliy statistika byurosining 2006 y. ma’lumoti.

²⁸ Xitoy milliy statistika byurosining 2007 y. ma’lumoti.

²⁹ Мировая экономика: прогноз до 2020 года.М., “Магистр”, 2007 ., 425 с.

Elektroenergiya	mlrd.kvt.s	256,6	621,2	1132	1910	2009
po'lat	mln.t.	31,78	66,3	59,9	222,3	381,5
sement	mln.t.	65,2	209,7	380,1	862,0	889,3
Yirik va o'rta shaklli traktorlar	ming dona	113	319	1490	488	5075
Avtomobillar	ming dona	149	514	264	444	495
Rangli televizorlar	ming dona	3,8	10,386	22,165	65,4240	68,5430
Kimyoviy o'g'itlar	mln.tonn	8,6	18,7	28,5	42,0	53,9

Jadval 7.5.3.

Xitoy yirik sanoat korxonalaridagi 2003-2006 yillardagi yaratilgan qo'shimcha qiymati³⁰

	2003 yilda.		2006 yilda	
	nisbiy qiymat (100 mln.yu.)	o'tgan yilga nisbatan % da	nisbiy qiymat (100 mln.yu.)	o'tgan yilga nisbatan % da
Sanoatdagi qo'shimcha qiymat	41045	17,0	96538	17,1
Jumladan: kontrol paket aksiyalari davlatga tegishli bo'lgan davlat korxonalari	19408	14,3	21850	11,3
Hissador tizimdagi korxonalar	16878	18,3	17860	13,5
Chet el kapitali qatnashuvidagi va Gonkong, Aomen va Tayvan tadbirkorlari kapitali	11174	20,0	16809	12,8
Jumladan yengil sanoat korxonalari	4650	14,6	6200	12,6
Og'ir sanoat korxonalari	6524	15,1	8609	16,4

³⁰. Xitoy milliy statistika byurosining. ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Xitoy avtomobil korxonalarida 2006 yilda avtomobil ishlab chiqarish holati³¹

Korxonalar	Ishlab chiqarildi (10 ming dona)	O'tgan yilga nisbatan (% da)
1."Shanxay Folksvagen"	70,2	28
2. Xitoy 1-avtomobil "Folksvagen" birlashmasi	34,8	36
3. "Djeneral motors" Shanxay kompaniyasi	18,5	42
4. Tyanszin 1-avtomobil kompaniyasi	19,8	24
5. Guanchjou "Xonda avtomobil kompaniyasi"	16,0	31
6. "Shandun" avtomobil kompaniyasi	12,1	22
7. "Chanan" avtomobil kompaniyasi	11	12

Ekspertlar tomonidan olib borilgan taxlil natijalariga ko'ra, suv xo'jaligi sohasidagi, transport kommunikatsiyasi va shaharlar qurilishidagi yirik ob'ektlarni qurish ishlarini amalga oshirish Xitoy og'ir sanoatining keyingi barqaror rivojlanishi uchun zamin bo'ladi. 2005 yilda o'zi yuk tashuvchi vazifali mashinalarga, buldozerlarga, yuk ko'taruvchi kranlarga bo'lgan talab 160 mingtani tashkil etdi.

Xitoy og'ir sanoati ishlab chiqarish sur'atlari 2005 yilning may oyi ma'lumotiga ko'ra 17,4% ni tashkil etdi, ushbu vaqt mobaynida butun sanoat mahsulotlari qiymati 570,2% mlrd. yuanga teng bo'lib, (68,9mlrd.) ushbu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 16,6% ga o'sgan. Aytish lozimki, Xitoy og'ir sanoati, uning yengil sanoatiga qaraganda tezroq rivojlanib, uning miqyosli kundan-kunga kengaymoqda. U dunyoda po'lat, ko'mir, sement ishlab chiqarishda yirik ishlab chiqaruvchiga aylandi.

7.6.Xitoy sanoatidagi zamonaviy tarkibiy o'zgarishlar

Sekin – asta og'ir sanoatning an'anaviy tarmoqlari o'rnini yangi texnika va texnologiyalarga asoslangan tarmoqlar, ilg'or qayta ishlab chiqarish tarmoqlari egallamoqda. Keyingi 10-yillikda o'rta va kichik yangi ilmiy sig'imi katta bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar ahamiyatli tarzda rivojlanishi ko'zda tutildi.

³¹ Xitoy milliy statistika byurosining ma'lumotlari asosida tuzilgan

Taniqli nemis olimi Gofmanning nazariyasiga ko'ra, agar mamlakat og'ir sanoatining yalpi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmidagi salmog'i 50% ni tashkil etsa, mamlakat o'rtacha industriallashtirish bosqichiga yetganligini va agar, ushbu salmoq 2/3 ni tashkil etsa, mamlakatda industriallashtirish jarayoni asosan, tugatilganligini anglatadi. Gofman koeffisienti bo'yicha, yengil va og'ir sanoatdagi foydalanish nisbati 0,5 ga teng bo'lsa, koeffisient -1 ga teng bo'ladi, agar tarmoq salmog'i 2/3 ga teng bo'lsa – koeffisient – 2 ga teng bo'ladi va 100% ni qoplaganda – koeffisient 3 ga teng bo'ladi.

1975 yillarda Yaponiyada Gofman koeffisienti 3 ga teng bo'lgan, 1985 yillarda esa, "Osiyodagi kichik to'rtlik" davlatlarida ushbu koeffisient 2 ga teng bo'lgan va bu davlatlarda industriallashtirish jarayoni tugatilgan. Xitoyda esa, ushbu industriallashtirish jarayoni 2010 yilda tugatilishi ko'zda tutilgan. Hozirgi kunda Xitoyda Gofman koeffisienti 1,25% ga yetgan bo'lib, industriallashtirish jaraeni o'zining o'rta fazasiga yetdi.

Mana shu maqsadlarga erishish uchun, kelajakda Xitoy sanoatiga katta hajmda yoqilg'i-energetik resurslar kerak bo'ladi, ya'ni masalan neft, uning importi hozirgi kunda 45 mln. tonnani tashkil etib, o'zida ishlab chiqarilgan neft 200 mln. tonnaga yetkazish imkoniyatiga ega.

Agar, rivojlangan davlatlardagi neft iste'molini aholi jon boshiga yiliga 1 tonna to'g'ri kelishini e'tiborga olsak, kelajakda Xitoyga yana 1,2 mlrd. tonna neftni import qilishga to'g'ri keladi, bu esa dunyo neft savdosi hajmiga tengdir.

Garchi, umumiy ishlab chiqarish miqyosi katta bo'lsa ham, mamlakat sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga iste'moli ko'rsatkichi hali ham rivojlangan davlatlarga qaraganda sezilarli darajada orqadadir. Masalan, energiya iste'moli bo'yicha – 1 t. shartli yoqilg'ini iste'moli bo'yicha Xitoy Amerika darajasidan 10%, Yaponiya darajasidan 25% orqada qolgandir. Metall prokati iste'moli bo'yicha – 83 kg. ni tashkil etib, u Amerika iste'molidan 21%.ga, Yaponiya iste'molidan 11,2% ga pastdir.³²

³² Xitoy milliy statistika byurosining ma'lumotlari, 2008 y.

Buning asosiy sababi, o'sha davrdagi korxonalarning tarqoqlik darajasini yuqoriligi, mayda korxonalarning ko'pligi va eng asosiy sabab esa, bu ishlab chiqarish samaradorligining pastligi edi.

Hozirgi paytda Xitoyda metallurgiya sanoati bo'yicha 1700 ta korxona mavjud bo'lib, ulardan faqat 60% gina 200 ming tonna po'lat eritish quvvatiga egadir. Avtomobil ishlab chiqarish esa, 122 ta ob'ektlarga bo'lingandir.

Umuman olganda, xitoy sanoatining rivojlanishida o'sishning ekstensiv tipi bo'yicha omillarni ustunligini qisqartirish muammosi bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda va bu hukumat tomonidan sanoatlashtirish siyosatining quyidagi yo'nalishlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi:

- Industriallashtirish jarayonida «sifat» bosqichiga o'tish va ishlab chiqarishni axborot bilan ta'minlash;
- Mavjud tarmoqlarni texnik jihatdan qayta qurish va yangi ilm-fan sig'imi katta tarmoqlarni yaratish;
- o'z ilmiy va texnik ishlanmalariga e'tiborni qaratish va ular asosida yangi texnikalar yaratish;
- Xom ashyo balansidan rasional foydalanish asosida yirik va mayda qayta ishlash korxonalarini qayta qurish;
- Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi «zamonaviy korxonalar tizimi»ni shakllantirishdan iboratdir.

Xullas, Xitoy sanoati va ayniqsa, uning og'ir sanoatining rivojlanish kelajagi oldida ko'plab muammolar mavjud bo'lib, ularni qay tarzda hal qilish ko'p jihatdan yangi izlanishlar olib borish, kapital, kishilik va energetik resurslaridan oqilona foydalanishni talab qiladi. Xitoy sanoatlashtirish siyosatining hamma yutuqlarini e'tiborga olish bilan birga, shuni ta'kidlash joizki, mamlakatdagi industriallashtirish jarayoni hali ham tugallanganicha yo'qdir. Xitoy iqtisodchilarining fikricha, bu jarayon «oraliq bosqichida» qolmoqda, ya'ni u «miqdoriy» o'sishdan «sifat» bosqichiga o'tish arafasidadir. Bu holatni biz mamlakatning bandlik strukturasi bilan ko'rishimiz mumkindir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Sanoatni yangilashning "To'rtlik modernizatsiyasi" dasturini qabul qilinishining mohiyati nimadan iborat?
2. Xitoy sanoatini tarkibiy tuzilishi va rivojlanishini tushintirib bering?
3. Xitoy korxonalarida xo'jalik tizimi islohotlari qanday amalga oshirilmoqda?
4. Xitoy qayta ishlash sanoatining islohotlargacha bo'lgan holatiga tasnif bering?
5. Xitoyning yoqilgi energetika kompleksini rivojlanishi qanday kechgan?
6. XXRda mashinasozlik sanoatini rivojlanish xususiyatlari to'g'risida nima bilasiz?
7. Xitoyda qazib olish sanoatining tarkibiy tuzilishi nimalardan iborat?
8. Xitoy elektronika sanoatining rivojlanish muammolari nimalardan iborat?
9. Xitoyda sanoat rivojlanishining yangi strategiyasi nimalardan tashkil topgan?

Mustaqil ish vazifalari:

1. Xitoy og'ir sanoatining etakchi tarmoqlarini zamonaviy rivojlanish xususiyatlari.
2. Xitoy aviakosmik sanoatidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlang.
3. Xitoy saniatidagi zamonaviy o'zgarishlarni tahlil eting.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Активизация групп предприятий Китая», Пекин, «Это КНР», 2000.
2. Китайская Народная Республика в 2007 г.: политика, экономика, культура., под ред. Титоренко М.Л., Москва, 2008.
3. Ломакин В.П.. «Мировая экономика», М., 2005 г.

4. Авдокушин А.В. «Международные экономические отношения», М., 2005 г.
5. Китай: Цифры и факты: 2008, Пекин, 2009 г.
6. «China» jurnal 2002, №11.

Internet saytlari

1. [http: || europa. Eu. Int.](http://europa.eu.int)
2. [http: || tw.jahoo.com.](http://tw.yahoo.com)
3. [www. xinhua.org.](http://www.xinhua.org)
4. <http://www.rian.ru>

8- Mavzu.: Xitoyda sotsialistik bozor iqtisodi va xususiylashtirish jarayonining asosiy yonalishlari

- 8.1. Xitoy Xalq Respublikasida sotsialistik bozor iqtisodining barpo etilishi hamda undagi yirik va mayda xususiylashtirish jarayoni.
- 8.2. Xitoyning yirik sanoat korxonalarini sanatsiya qilish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va uni xususiylashtirish jarayonlari.
- 8.3. Xitoyda xususiylashtirish jarayonining yutuq va kamchiliklari.

Tayanch iboralar: sotsialistik bozor iqtisodi, xususiylashtirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, sanatsiya, trans milliy korporatsiyalar, moliya-sanoat guruhlari, bank–moliya, sug‘urta, telekommunikatsiya, ulgurji savdo, ekstensiv omillar, yuk tashish va turizm sohalari, intensiv yonalish.

Darsning maqsadi: Xitoyda sotsialistik sprintsifikaki bozor iqtisodiga o‘tish va xususiylashtirish jarayonining asosiy yonalishlari xaqida muayyan bilimga ega bo‘lish.

8.1. Xitoy Xalq Respublikasida sotsialistik bozor iqtisodining barpo etilishi hamda undagi yirik va mayda xususiylashtirish jarayoni.

Bozor munosabatlariga o‘tishning asosiy sharti ko‘p ukkladli iqtisodiyotni va raqobatlashish muhitini shakllantirishning xuquqiy hamda tashkiliy shart – sharoitlarini vujudga keltirishdan iboratdir.

Mulkchilik masalalarini hal qilish erkin bozorni shakllantirishga qaratilgan butun chora-tadbirlar tizimining tamal toshi bo'lib xizmat qiladi. Bu masala sobiq sotsialistik tizimidan keyin bozor munosabatlariga o'tish yo'lini tanlagan mamlakatlarda katta ahamiyat kasb etgan dolzarb masalalardan biridir. Xuddi shu masalani hal qilish bilan birga, yangi jamiyat, yangi iqtisodiy munosabatlar poydevoriga birinch g'isht qo'yildi. Rejalashtirishga asoslangan markazlashtirilgan iqtisodiyotni bozor iqtisodiyotiga aylantirishning yangi mustaqil davlatlar tanlab olgan turlicha yondashuvlari va modellari ko'p jihatdan, aynan mulkchilik masalasini hal etish xususiyatlari bilan farqlanadi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va uni xususiylashtirish jarayoni hozirgi kunda, iqtisodiy jihatdan rivojlangan va rivojlanayotgan Buyuk Britaniya, Fransiya, Yaponiya, XXR, Hindiston, Filippin, Malayziya, Indoneziya, Singapur mamlakatlarida ham amalga oshirilmoqda. Bu hol, ayniqsa, iqtisodiyotda davlat sektorining salmog'i ancha yuqori bo'lgan mamlakatlarda, bozor munosabatlarini rivojlantirishga xos bo'lgan tabiiy jarayondir. Davlat iqtisodiyotning ko'pincha iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lgan, biroq butun mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydigan ayrim sektorlarini, ayrim korxonalarni qo'llab – quvvatlashi hamda ularni saqlab turish va mablag' bilan ta'minlash vazifalarini o'z zimmasiga olishi lozimdir. Ular iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, barqaror ishlay boshlagach, xususiy mulk turida sotilishi mumkin bo'ladi.

1992 yilda Xitoyda «sotsialistik bozor iktisodiyoti» dasturi tuzilib, uni amalga oshirish esa, 15-20 yillarga mo'ljallandi. Unda bozor iqtisodiyoti mavjud umumiy resurslarni taqsimlashda asosiy rolni, davlat makronazorati ostida amalga oshirilishi ko'zda tutildi.

Mamlakatning bozorga qarab butunlay burilishi 1992-1997 yillarda Xitoyni ochiqlik va tashqi iqtisodiy faoliyatini kengayishiga hamda xorijiy investisiyalarni mamlakatga jalb etish hajmini ortib borishiga olib keldi. Shu davrdagi Xitoyga kiritilgan sarmoyalarning umumiy hajmi 196,8 mlrd.dollarni tashkil etdi. Bu esa, 1979 yildan beri, Xitoyga jalb etilgan umumiy xorijiy kapitalning 89,4 % ni tashkil etdi . (220,1 mlrd. AQSh dollari).

Mana shu davrga kelib, mamlakatda ikki sektorli model tashkil topdi. U yirik va mayda ishlab chiqarishga asoslangandir. Sanoat sohasini qayta yozish ma'lumotiga ko'ra (1995 y.), sanoat korxonalarini 0,3 %i, ya'ni 23,007 tasi "yirik va o'rta" korxonalar kategoriyasiga kiritilgan bo'lib, ulardan 6201 ta ob'ekt "yirik" va 215 ta ob'ektlar esa, "juda ham yirik" ob'ektlar hisoblanadi. Bu sektorda 25% ishchi va xizmatchilar band bo'lib, unda 60% dan ortiqroq sanoatning asosiy fondlari joylashgandir.³³ U davlat byudjetiga 60% sanoat solig'ini beradi. Mayda ishlab chiqarish asosan, qishloq korxonalarida amalga oshirilib, ular iqtisodiy islohotlar mobaynida ancha o'sdi. Biroq, ushbu ob'ektlar soni mana shu davrda ancha kamayib, ularning faoliyatlari qishloq xo'jalik ehtiyojini qondirish va aholiga xizmat ko'rsatishga moslashgan edi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirayotgan sobiq sotsialistik mamlakatlarda esa, ahvol umuman boshqachadir. Xususiy mulkchilik kapitalistik ishlab chiqarish usulini sotsialistik usuldan farqlovchi, uning birinchi belgisi edi. Shu sababli xususiy mulkchilik ham yuridik jihatdan, ham ayniqsa amaliyotda batamom istisno etilar edi. Bir necha 10 yillar mobaynida, iqtisodiyotda umumxalq mulki deb atalgan, aslida esa, davlat byurokratik tizimining ixtiyorida bo'lgan, davlat sektori to'liq hukmronlik qilib keldi. Mulkchilikning xilma-xil shakllari faqat ikki turdan: davlat mulki va kolxoz-kooperativ mulkidan iborat qilib qo'yildi. Buning ustiga kolxoz-kooperativ mulki ham, amalda butunlay davlat ixtiyorida bo'ldi. Shunday qilib, barcha ishlab chiqarish vositalari davlatning tanho mulkiga aylangan edi. Bu holat real ishlab chiqarish qatnashchilarining ishlab chiqarish vositalaridan maxrum bo'lishiga, egalik hissining yo'qola borishiga, iqtisodiy manfaatdorlik va mehnatdan rag'batlanishning pasayishiga olib keldi.

Bugungi kunda xususiylashtirish jarayonini amalga oshirayotgan ko'pgina mamlakatlar mulkchilik shakllarini o'zgartirish bo'yicha muayyan tajribaga egadirlar, ular o'z navbatida o'ziga xos yondashuvlarni ishlab chiqdilar. Bu yondashuvlar xususiylashtirishdan ko'zlanayotgan maqsadga, bu jarayonni amalga oshirish

³³ Чжунго тунцзи нуанцзуан. 1998.с.432.

dinamikasi va mexanizmiga, xususiylashtirish jarayonida aholining qanchalik keng qatnashishiga ko'ra, bir–biridan tubdan farq qiladi.

Xususiylashtirish jarayoni - iqtisodiy tushuncha bo'lib, mulkka egalik huquqining davlatdan firmalar va alohida shaxslarga berilishi, xususiy sektorga davlat xizmatlari ko'rsatilishini cheklashni yoki xususiy tashabbuskorlik uchun keng imkoniyatlar yaratib berish maqsadlarida, davlatning faoliyat sohasini toraytirishni bildiradi. Bu jarayon yangi mulkdorlar sinfining vujudga kelishiga ko'maklashadi, zero, usiz bozor iqtisodiyotini shakllantirish mumkin emas.

Xususiylashtirish - bozor munosabatlari shakllanishining negizi, xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni oyoqqa turg'azishning chinakkam asosini tashkil etadi.

Xususiylashtirish dasturini amalga oshirishga kirishayotgan, har qanday davlat, eng kamida, ikki asosiy maqsadni: korxonalarga ajratilayotgan mablag'lar kamayishi va davlat boyliklarini sotishdan tushuvchi mablag'lar hisobiga byudjetni to'ldirishni ko'zlaydi. Korxonalarning xo'jalik faoliyati ustidan hukumatning ma'muriy–moliyaviy nazoratining cheklanishi esa, kuch – g'ayratni va mablag'larni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlariga jamlash imkonini beradi

Xususiylashtirishning asosiy yettita usulini alohida ajratib ko'rsatish mumkindir, ular :

- davlat korxonalari aksiyalarini ochiq sotuvga chiqarish;
- aksiyalarni kimoshdi savdosi yo'li bilan sotish ;
- davlat korxonalarini xususiy tarzda sarmoyalash, ya'ni ayrim shaxslardan ixtiyoriy ravishda mablag' yig'ish yo'li bilan ta'minlash;
- korxonalarning mulkini sotish va keyinchalik mavjud qarzlarni to'lash yo'li bilan davlat korxonasini tugatish ;
- davlat korxonasini alohida bo'linmalarga ajratish yoki bo'lish va qayta qurish yo'li bilan, ularni qismlarga ajratib sotish;
- korxonalarning rahbarlar va mehnat jamoasi a'zolari tomonidan sotib olinishi;

- davlat korxonasining xususiy shaxs tomonidan ijaraga olinishi yoki davlat va xususiy korxonalar o'rtasida korxonani boshqarish to'g'risida bitim tuzishdan iboratdir.

Xususiylashtirish jarayoni natijasida, hech bo'lmaganda, ikki asosiy vazifa hal etilishi lozimdir:

1.Mulk o'zining xaqiqiy egasini topadi. 2.Xususiylashtirish ko'p ukldli iqtisodiyotni va rag'batlantiruvchi raqobatni, turli mahsulot ishlab chiqaruvchi muhitni vujudga keltiradi.

Ammo, xususiylashtirish bu - har bir kasalga davo va jamiyatdagi barcha muammolarni yechishning yagona kaliti deyish ham noto'g'ri bo'ladi. O'tish davri sharoitlarida xususiylashtirishning o'zi qachon, qaerda va qay tarzda o'tkazilishi o'zbilarmonlikka tashlab qo'yilmasdan, davlat tomonidan yagona reja asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Xususiylashtirish -o'tish davri iqtisodiyotida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalash taxlili uchun mantiqan natijaviy jarayon hisoblanib, unga keng ma'noda qarash lozimdir. Ya'ni, unga nafaqat, davlat sektoridan xususiy sektorga aktivlarni sotishning texnik muolajasi deb emas, balki, unga xususiy mulkchilikni va mulkchilik muhitini shakllanishning fundamental jarayoni deb qarash lozimdir.

Avvalambor, zamonaviy xususiylashtirish jarayonining rivojlanishi 1970 yillarning II – yarmida rivojlangan g'arb davlatlarida boshlangan iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va takror ishlab chiqarish mexanizmidagi siljizlar bilan bog'liq bo'ldi. Uning natijasida, amalda barcha g'arb davlatlarida davlat mulki va iqtisodiyotda davlat tadbirkorligini roli va o'rni xususida jiddiy qayta qarashlar ro'y berdi. Ular, keyinchalik, «1980–1990 yillardagi xususiylashtirish jarayonlarida o'zini aksini topdi. Bu voqealar nafaqat, G'arbiy Yevropa davlatlariga, balki, davlat sektori salmog'i uncha katta bo'lmagan AQSh, Yaponiya, Shveysariya davlatlariga ham xos bo'ldi.

Bunday mulkiy munosabatlar sohasidagi tizimli transformatsiyaning asosiy bosqichlarini quyidagi chizma 8.1.1.da ko'rib o'tamiz.

Chizma 8.1.1

O'tish iqtisodiyotida mulkchilik munosabatlari sohasidagi tizimli transformatsiya bosqichlari³⁴

Bosqichlar	Boshlanish mezon	Asosiy mazmuni	Yakunlanish mezon
Birinchi (qisqa muddatli)	(1) tartibsiz xususiylashtirish (2) davlat hokimiyatining rasmiy xususiylashtirish dasturini "boshlash" haqidagi siyosiy qarori	(1) iqtisodiy bo'lmagan ixtiyoriy harakat – "texnik xususiylashtirish"; (2) xususi va kvazixususi korxonalarining "kritik massasi"ning hosil bo'lishi va yangi institutlarning miqdor jihatdan jadal shakllanishi.	(1) miqdoriy o'zgarishlar jarayonining sekinlashuvi; (2) qaror topib bo'lgan institutlar va iqtisodiy mexanizmlarda sifat o'zgarishlarining ilk belgilarining paydo bo'lishi.
Ikkinchi (o'rta muddatli)	Birinchi bosqichning tugashi (birinchi va ikkinchi bosqich o'rtasidagi o'tish davri uzoq davom etishi mumkin)	(1) birlamchi texnik xususiylashtirishdan so'ng mulkchilik huquqlarining qayta taqsimlanishi; (2) bu jarayonga davlatning betartib aralashuvining tartibga solinishi va uni asta-sekin mulkchilik sub'ekti sifatida chetlashishi.	(1) yangi mulkchilik huquqlari (mulkiy munosabatlar) tizimining barqarorlashuvi; (2) iqtisodiy mexanizmlar va institusional tuzilmalar yangi tizimining sifatli va miqdoriy barqarorlashuvi.
Uchinchi (uzoq muddatli)	(1) ikkinchi bosqichning yakunlanishi; (2) tizimli o'zgarishlardagi boshqa elementlarning to'liq tugallangan kompleksi	(1) yangi mulkchilik munosabatlarining to'liq iqtisodiy amalga oshirilishi; (2) ushbu munosabatlarning yangi xo'jalik tizimi va yangi institusional-huquqiy muhit orqali barqaror qayta ishlab chiqarilishi; (3) mikro- va markodarajalardagi iqtisodiy samaradorlik.	

1980–90 yillarda saksondan ortiq sanoati rivojlangan G'arb davlatlari va rivojlanayotgan Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi davlatlari ham davlat mulkini xususiylashtirish bo'yicha turli dasturlarni amalga oshirdilar.

³⁴ O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot. Toshkent-konsauditinform-nashr-2006, O'ZR.FA Iqtisodiyot instituti., 263 b.

Turli davlatlarda amalga oshirilayotgan xususiylashtirish jarayonini taxlili bizga quyidagi asosiy xususiylashtirishni amalga oshirish uslublarini. ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

8.2. Xitoyning yirik sanoat korxonalarini sanatsiya qilish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va uni xususiylashtirish jarayonlari.

Xitoy Xalq Respublikasida ham davlat mulkini xususiylashtirish va unda ko'p qirrali iqtisodiyotni tashkil etish ishlari 1970 yillar oxirida qabul qilingan "Ochiq eshiklar siyosati" va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish dasturlarida o'z aksini topdi.

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish siyosatini ham tubdan o'zgartirdi. Bozor munosabatlarini xalq xo'jaligiga joriy etish kursi avtarkizmni rivojlanish konsepsiyasi bilan mutlaqo mos tushmas edi, chunki unda yopiq mintaqaviy iqtisodiy tizim mavjud edi. Bunday urushga tayyorlanish strategiyasidan yuz o'girish mamlakatni hududiy ixtisoslashuviga olib keldi. Keng yoyilgan joylardagi o'zaro munosabatlarni mikro darajada boshqarish tizimini zinapoyali bo'lishiga, moliya, rejalashtirish, moddiy ta'minot, kapital quyilmalari bo'yicha provinsiyalarga bir muncha erkinliklar berishga qaratilgan edi.

Ishlab chiqarishni "rasional hududiy tashkil etilishi"ni Yangi konsepsiyali dengiz oldi, daryo oldi, shahar va chegara oldi rayonlari salohiyatini hamda eski sanoat bazalarini yuqori iqtisodiy sur'atda o'sishini o'z ichiga oladi. Shular qatorida u, mamlakat markaziy va g'arbiy zonalarida joylashgan yangi sanoatlashgan hududlarini o'zlashtirishni ko'zlaydi.

Xorijiy kapital sanoatning asosiy fondlarida muhim o'rinni egalladi. Umumiy quyilmalardagi xorijiy sarmoyalar hozirda 13% ni, sanoatda yaratilgan yangi mahsulotida esa, - 14% ni tashkil etadi.

1997 yilda xorij qatnashuvida 520,4 mlrd. AQSh dollarilik 300 dan ortiq turli bitimlar tuzildi. Ulardan, amalda - 220,1 mlrd. AQSh dollari foydalanildi. 1980-1995 yillar mobaynida 1960 ta aralash, nosavdo sohali korxonalar qurilishi uchun

lisenziyalar berildi. Xitoy metallurgiya sohasida 380 ta, ximiya sohasida 6800 ta xorijiy kapital qatnashuvidagi aralash korxonalar ro'yxatdan o'tkazildi.

Hozirgi kunda xitoy sanoati bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida ishlamoqda, 300 mingta markaziy rejalashtirish tizimidagi davlat korxonalaridan atigi 10 mingtagina korxona qoldi. 1995 yilga kelib, direktiv ko'rsatkichlar soni 1980 yildagi 120 tadan 33 tagacha qisqartirildi. Direktiv rejalashtirish chegarasida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot ulushi 40% dan 4,5% gacha qisqardi. Agar, islohotlar boshida markaziy taqsimlanishga 256 ta mahsulot turi qaratilgan bo'lsa, hozirda ularning turi 11 tadir ³⁵.

14 mingdan ortiqroq yoki yirik va o'rta davlat korxonalarini 1/3 qismi korporativ xo'jalik tizimiga o'tkazildi. Mayda korxonalarning 50-70% i isloh qilindi.³⁶ 1990-yillarda narxlar sekin-asta erkinlashtirildi, ulardan istimol predmetlari narxi 95% ga erkinlashtirildi. Shu iste'mol predmetlaridan osh tuziga va ba'zi bir dori-darmonlarga narxlar davlat nazoratida qoldi

Islohotlar mobaynida mamlakatda keng miqyosda sanoatning texnik rekonstruksiya o'tkazildi. 1995 yilda sanoatni qayta ro'yxatdan o'tqazish asosida, undagi umumiy sanoat uskunalarining 1980 yildan so'ng ishlab chiqarilganligi ma'lum bo'ldi. Yirik va o'rta korxonalarda 26% uskunalar ilg'or, xalqaro standartlar darajasiga yetdi. 3200 ta turdagi tekshirilgan sanoat uskunalaridan xorijiy (import) - 47,1% ni tashkil etdi. Xitoyning yirik va o'rta korxonalarini 53%i o'zida ishlab chiqarishni texnik rekonstruksiya qilish sohasida ilmiy ish olib boruvchi bo'limlariga egadir.

Xitoy eksportining deyarli yarmi xorijiy kapital qatnashuvidagi korxonalarga to'g'ri keladi (47%). ³⁷

Ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorlik katta muammolarni keltirib chiqardi. 30% gina davlat korxonalarini mustahkam rentabelli korxonalar deyish mumkin. 40% korxonalar esa, zarar keltiruvchi hisoblanadi.

³⁵Гокесо .Гуне чженчжан уанцзуу (исследование качества промышленного роста) Пекин. 1998.с.143

³⁶Чжунго щичан цзинцзибас. 09.02.1998.

³⁷ Чжунго тунци нуанцзуан. 1998.с.432.

Sanoatlashtirish siyosatini hamma yutuqlarini e'tiborga olish bilan birga, shuni ta'kidlash muhimki, Xitoydagi industrialashtirish jarayoni ham tugallanganicha yo'qdir va Xitoy iqtisodchilarining fikricha, u «oraliq bosqichi»da qolmoqda, ya'ni, u «miqdoriy» o'sishdan «sifat» bosqichiga o'tishdadir.

Garchi, umumiy ishlab chiqarish miqyosi katta bo'lsa ham, sanoat mahsulotlarini aholi jon boshiga iste'mol qilish ko'rsatkichi hali ham rivojlangan davlatlardan sezilarni darajada orqadadir. Masalan, energiya iste'moli bo'yicha, yani, 1tonna shartli yoqilg'ini iste'moli bo'yicha u amerika darajasidan 10%, yaponiya darajasidan 25% orqada qolgandir. Elektroenergiya bo'yicha - 890 kvt.s.ni taghkil etib, u amerikadan - 7,4% ga va yaponiya darajasidan 12% ga pastdir.

Sanoatni asosiy mahsulot turlari bo'yicha kamomadi (defisiti) muammosini hal etish bilan birga, Xitoy ishlab chiqarish quvvatini norasional ortiqchaligi muammosiga yuz tutdi, ya'ni, metallurgiya sohasida 1/3 qismni, tekstil mahsulotlarida 40% ni, avtomobillar bo'yicha - 50% dan ko'proqni, rangli televizorlar bo'yicha - 60% ni tashkil etadi. Kir yuvish mashinalari bo'yicha ishlab chiqarish quvvati 43,4% ga, velosipedlar - 54,5% ga , konditsionerlar -33,5%ga foydalanilmoqda. Davlat korxonalari omborlaridagi tovarlar – 400 mlrd.yu.ni tashkil etdi.

1990 yillar oxiriga kelib mamlakatda – 12 mln.dona soatlar, 23 mln .dona velosipedlar va 128 mingta avtomobillar sotilmay qoldi.³⁸

Ularning sababi, korxonalarning tarqoqlik darajasini juda ham yuqorligi, mayda korxonalarning ko'pligi va eng asosiy sabab - bu ishlab chiqarish samaradorligi sohasida 1700 ta korxonalarning mavjudligidir, ulardan faqat 60% gina 200 ming tonna po'lat eritish quvvatiga egadir. Avtomobillar ishlab chiqarish esa, 122 ta ob'ektlarga bo'lingandir

1980–yillardagi korxonalarga berilgan o'zini – o'zi boshqarish tizimi, korxonalarda qoldirilgan foyda hisobiga kengaydi. 1992 yilda korxonalarga 14 turdagi xo'jalik xuquqi berildi. 1995 yillarda jahon banki tomonidan olib borilgan

³⁸ Основные тенденции развития китайской экономики в XXI в Шенян, 2004, с 86, Под ред.Ли Цзинцзи..

izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, ushbu berilgan vakolatli xuquqlardan, ya'ni, ishlab chiqarish vositalarini sotib olish va o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni o'zi sotish xuquqi 94-98 % ga amal qilingan.

Xitoy davlatida iqtisodiy islohotlarning asosiy davri - bu 1950 yillarda mavjud bo'lgan ko'p ukladli iqtisodiyotga qaytish bo'lib, unda individual, kooperativ va hattoki, xususiy xo'jaliklar yuritish ustuvor holatga ega bo'lgan umumiy mulkchilik shakli chegarasida qo'llab - quvvatlandi. Umuman olganda, Xitoy rasmiy hukumati qaror va farmoyishlari ham nodavlat sektorni, xorijiy va aralash kapitalni XXR iqtisodiyotida yordamchi o'ringa va rolga ega bo'lgan mulkchilik turi deb, umumiy mulkchilikni esa, asosiy ustuvor mulkchilik shakli deb belgiladi.

Biroq, Sharqiy Yevropada sotsializmning parchalanishi va Sobiq SSSR ni barbod bo'lishi, Xitoy davlati oldiga va jamiyat siyosiy tizimiga muayyan o'zgartirishlar kiritish masalasini ko'ndalang qo'ydi.

Xitoyda iqtisodiy islohotlarning boshlanishi 1978 yilning dekabr oyida bo'lib o'tgan XKP MK sining III Plenumi 11- chaqirig'ida yuz berib, unda islohotlarni quyi qatlamdan boshlash lozimligi ta'kidlandi. Ushbu plenumdan so'ng, tezlikda, mamlakatdagi ishlab chiqarish munosabatlarini jadallashtirish lozimligi ta'kidlanib, mavjud ishlab chiqarish kuchlarini ham yanada takomillashtirishga kirishildi. Xitoydagi iqtisodiy islohotlar jarayonini uch bosqichga bo'lish mumkin:

1-bosqich - 1978 yilning dekabr oyidan to -1984 yil sentyabr oylarini o'z ichiga olib, unda asosiy e'tibor mamlakat qishloq xo'jaligiga va xaq to'lash asosida uy xo'jaligini, pudrat javobgarchiligining turli shakllarini rivojlantirishga qaratildi. Bu esa, mamlakatdagi 100 mln. lab fermerlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirishdan manfaatdorligini oshirdi. Shaharlarda iqtisodiy hududlar eksperiment tariqasida isloh etishga o'tqazila boshlandi. Ular natijasida 14 ta erkin port shaharlari ochildi. Mamlakatda ko'p bosqichli bank tizimi yaratildi. Uning asosini markaziy bank – Xitoy banki, ishtirokchilarini esa, boshqa davlat va tijorat banklari hamda maqsadli moliyalash banklari, nobank moliya institutlari tashkil etdi.

2- bosqich - 1984 yilning oktyabr oyidan to 1991 yilning dekabr oyigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, unda iqtisodiy islohotlar markazi mamlakat

shaharlariga ko‘chdi. Unda asosiy e’tibor, korxonalarning ish faoliyatlarini oshirishga qaratildi. Makroboshqaruv tizimi isloh qilindi va mamlakatni tashqi dunyo uchun ochishga yo‘naltirilgan xarakatlari davom ettirildi.

3-bosqich - 1992 yilning yanvar oyidan to 2000 yilgacha davom etib, unda e’tibor mamlakatda “sotsialistik spesifikali bozor iqtisodiyoti”ni qurishga qaratildi.

Xitoyda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayoni va mamlakatni tashqi dunyo uchun ochish, ya’ni yuqorida qayd etib o‘tilganidek, 1978 yilning dekabr oyida Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy Qo‘mitasining 11- chaqiriq 3-Plenumida ko‘rib chiqildi hamda unda mamlakatda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan iqtisodiy qurilishlarning bosh yo‘nalishlari tasdiqlandi. Uning maqsadi - mamlakatda mavjud bo‘lgan rejali iqtisodiyotdan qadam-baqadam bozor iqtisodiyotiga o‘tish bo‘lib, unda quyidagi tamoyillarga tayanildi:

Iqtisodiy islohotlarning boshida quyidagi asosiy vazifalarni hal etish belgilab olindi:

- mamlakatdagi o‘sha davrda mavjud bo‘lgan oziq-ovqat muammosini hal etish;
- mamlakat aholisini ish bilan to‘liqroq ta’minlash;
- Xitoyda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishdan iborat edi.

Yuqorida belgilab olinan vazifalarni hal etish uchun mamlakatda 1980 yilda ishlab chiqilgan “To‘rtlik modernizatsiyasi” dasturi amaliyotga tadbqiq qilindi. Ushbu dasturga asosan, birinchi navbatda, qaysi sohalarni modernizatsiyalash lozimligi aniqlandi va ular quyidagi sohalar deb belgilandi:

- mamlakat qishloq xo‘jaligini rivojlantirish;
- sanoatni (ayniqsa, qayta ishlash sohasini) rivojlantirish;
- fan va texnika yutuqlaridan samarali foydalangan holda, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish;
- mamlakat harbiy kuchlarini yanada mustahkamlashdan iboratdir.

Shular qatorida plenumda yana, Xitoydagi mulkchilik tarkibi asosan, bir xilligi, undagi hukumat boshqaruvining haddan tashqari markazlashganligi to‘g‘risida ham xulosalar qilindi. Ushbu hulosalar 1987 yil oktyabr oyida bo‘lib o‘tgan XKP MKning

XIII s'ezdida muhokama qilinib, ularga qarshi XXI asr o'rtasigacha bo'lgan davrga mo'ljallangan III bosqichdan iborat bo'lgan chora-tadbirlarning belgilangan rejasi qabul qilindi. Bu reja esa, o'z navbatida, quyidagi III bosqichni o'z ichiga oladi:

I – bosqich - 1990 yilgacha Xitoy mamlakati yalpi sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini ikki marotabagacha oshirish va Xitoy aholisini oziq-ovqat va kiyim - bosh bilan ta'minlash;

II -bosqichda, ya'ni, 1991-2000 yillarda mamlakat yalpi milliy mahsulotini uch marotabaga ko'paytirish va uning natijasida XXR da «o'rtacha» darajali jamiyat qurish;

III—bosqich - (2050 yillargacha) mamlakat milliy mahsuloti ko'rsatkichlarini o'rtacha rivojlangan davlatlar darajasiga yetqazish va Xitoy xalq xo'jaligini modernizatsiyalashni tugatishdan iboratdir.

Mana shu maqsadlarga erishish uchun esa, mamlakatda albatta iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish lozim edi..

XXR dagi olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning nazariy asosi, Xitoy jamiyatining sotsialistik rejali tovar iqtisodiyotiga o'tishdan iboratdir. Bunda albatta, bozor iqtisodiyoti elementlaridan foydalanish ham inkor etilmadi. Mamlakat xo'jalik tizimini isloh etishda Xitoy hukumatining birinchi darajaligina xo'jalik masalalarini hal etishni o'z qo'lida qoldiradi, ya'ni, davlat ahamiyatiga molik bo'lgan strategik masalalarni hal etish vazifalarini qo'yadi.

Tovar ishlab chiqaruvchilar bilan davlat orasidagi munosabatlarda davlatning rolini aniqlash va belgilashda, Xitoy hukumati korxonalar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishga qaratilgan uslublarni ishlab chiqdi. Bunda, davlat korxonalar faoliyatini reja orqali tartibga solish masalasini afzal ko'rib, bozor orqali iqtisodiyotni tartibga solinishi esa, aynan, birinchisidan kelib chiqishini ko'rsatdi. 1985 yilga kelib, Xitoy iqtisodchi-olimlari, jumladan, U.Szinlyan xalq xo'jaligini direktiv rejalashtirishdan batamom voz kechish lozimligini isbot qildi va direktiv rejalashtirishdan faqatgina ekstremal sharoitlardagina foydalanish o'z samarasini berishini ta'kidladi. Xususan, yirik keng miqyosli tabiiy ofatlar yuz berganda, harbiy holat sharoitlarida, ushbu uslubdan foydalanish zarurligini ta'kidladi. Ammo,

birdaniga rejali iqtisodiyotdan yuz o'girib bo'lmasligi va buning uchun ancha vaqt kerak bo'lishi, hamda bu ishni bosqichma-bosqich amalga oshirish zarurligini aytdilar

1980–yillardagi korxonalarga berilgan xo'jaliklarni o'zini–o'zi boshqarish tizimi, korxonalarda qoldirilgan foyda hisobiga kengaydi. 1992 yilda korxonalarga 14 turdagi xo'jalik xuquqi berildi.

XKP MKning III Plenum 11 – chaqirig'idan so'ng, mamlakatda qishloq xo'jaligi islohotlari bir maromda amalga oshirila boshlandi. 1984 yil oxiriga kelib, 99% ishlab chiqarish brigadalari va 99,6% dexqon xo'jaliklari (oilaviy va hovli pudratlari) ishlab chiqarishda to'liq ma'suliyat tizimidan foydalandilar. Ular davlat bitimlari va buyurtmalaridan ortib qolgan mahsulotlardan erkin foydalanish huquqiga ega bo'la boshladilar. Bu tizim tezda dexqon xo'jaliklaridagi ishlab chiqarish unumdorligini oshirdi, chunki u, ishlab chiqaruvchilar xususiy manfaatdorligini oshirishga qaratilgan choralar edi. Xitoy qishloqlarida olib borilgan iqtisodiy islohotlarga qaraganda, shaharlardagi amalga oshirilayotgan islohotlar Xitoy sanoati bilan uzviy bogliq bo'lib, Xitoy sanoati korxonalari asosan, uning yirik shaharlariga joylashgandir.

Umuman olganda, xitoy sanoatini rivojlanishida o'sishning ekstensiv omillarini ustunligini qisqartirish va intensiv usullardan foydalanish muammosi bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lib qolayotganligi tan olindi.

1990 yillar boshlarida, Xitoyning sanoat korxonalari duch kelayotgan qiyinchiliklar, mamlakat iqtisodiyotidagi makroiqtisodiy jarayonlarda salbiy tomondan o'z ta'sirini ko'rsata boshladi, ya'ni, tarkibiy disproporsiyalar (buzilishlar) va inflyatsiya jarayoni kuchaya bordi hamda bank - kredit sohasida muammolarning yig'ilib qolishiga sabab bo'ldi. Davlat sanoat korxonalaridagi mana shunga o'xshash muammolarning ko'payib ketishi, Xitoy hukumati rahbarlarini ushbu korxonalarni isloh etish choralarini jonlantirishga majbur etdi.

1994 yilda sanoat korxonalari islohotlarida “chuqurlashuv” fazasi boshlandi. U bir qator ilgari qabul qilingan qarorlar asisida tayyorlandi. 1992 yildagi “Umumxalq mulki bo'lgan sanoat korxonalarida xo'jalik mexanizmini almashtirish holati”,

ularning keng masalalar doirasidagi avtonomiyasini mustahkamladi, jumladan: investisiyalash, narx-navo, ishchi kuchini yollash, eksport-import operatsiyalari kabi. 1993 yildagi “Sotsialistik bozor iqtisodiyoti tizimidagi ba’zi masalalarni tashkil etish” qarori zamonaviy korxonalar tizimini tashkil etishga qaratilgandir. 1994 yilning 1 yanvaridan boshlab, yangi soliqqa tortish tizimi rasman ishga tushirildi. Unda daromad solig‘i stavkasi pasaytirildi va qo‘shimcha qiymat solig‘i unifikatsiyalandi.

Xitoycha xususiylashtirish jarayonini amalga oshirish varianti 4ta ko‘rsatmani o‘z ichiga oladi, ya’ni:

1. mol-mulk huquqini aniq fiksatsiyalash (hisobga olish);
2. quyi xo‘jalik bo‘g‘inlarining huquq va majburiyatlari;
3. korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish;
4. ishlab chiqarishni tashkil etishni ilmiy uslublarini joriy etish.

Ushbu iqtisodiy islohotlar dasturiga ko‘ra, yaqin kelajakda davlat mulkida eng muhim infratuzilma ob’ektlari qolishi mo‘ljallandi. (temir yo‘llar, telefon va telegraf aloqasi, elektr energiya va suv ta’minoti va boshqalar).

Xitoyda ko‘pukladli iqtisodiyotni shakllantirish va uni rivojlantirish kursi xususiy mulk formasidagi korxonalarning ko‘payishi natijasida, davlat sektorini siqib chiqara boshladi. Garchi, davlat sektori yalpi mahsulotni ishlab chiqarishdagi o‘zining ustuvorligini asta-sekin yo‘qotayotgan bo‘lsada, u boshqa ko‘rsatkichlar bo‘yicha, baribir o‘zining ilg‘or pozitsiyalarini saqlab kelmoqda, ya’ni, asosiy fondlar, kapital quyilmalarini umumiy hajmi bo‘yicha (1998 yilda hamma sanoat investisiyalarini – 54,3% ni tashkil etdi) va davlat hazinasiga mablag keltirish bo‘yicha ham o‘z ustunligini saqlab qoldi.

Sanoat sektori o‘zining miqdor jihatdan maksimal miqyosiga 1994 yilga kelib erishdi va shu davrda sanoat ob’ektlarining soni 10 mln.ga yetdi, keyinchalik, 1997 yilga kelib, ular 7,2 mln.ga qisqardi. Ulardan 98,6 mingtasi – davlat korxonalari, 1,77 mln.i – kollektiv korxonalar, 631 mingtasi qishloq korxonalari, 5,97 mlni – individual korxonalarni, 77,3 mingtasi – boshqa turdagi korxonalarga aylantirildi. Buni biz jadval 8.2.1.dan ko‘rishimiz mumkin.

Jadval 8.2.1.

Xitoyni sanoatining tarkibidagi mulkchilik turlarining 1985-1998 yillardagi o'zgarishi (% da)³⁹

Mulkchilik turlari	Asosiy fondlar		Bandlar soni		Yalpi mahsulot	
	1985 y.	1998 y.	1985 y.	1998 y.	1985 y.	1998 y.
davlat	74,5	53,7	41,1	31,6	64,9	34,0
kollektiv	24,0	23,8	49,5	39,8	32,1	36,0
xususiy	-	1,0	-	3,3	-	2,6
individual	0,5	1,9	8,9	17,3	1,8	10,5
hissadorlik	-	5,0	-	1,7	-	3,5
boshqalar	0,9	14,6	0,5	6,1	1,2	12,8
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Poselka volost	12,0	20,3	32,9	49,7	17,7	42,5
aralash korxonalar	0,2	16,2	-	6,1	0,3	13,1

8.3. Xitoyda xususiylashtirish jarayonining yutuq va kamchiliklari.

Xitoyda xususiylashtirish jarayoni boshqa davlatlarga qaraganda ancha kech boshlandi, chunki bu jarayonning boshlanishiga xalaqit beruvchi omillar mavjud bulib, ular quyidagilardan iborat edi:

1. Mamlakatdagi olib borilgan agrar islohotlar qishloqlarda ortiqcha ishsizlar sonining yanayam ortishiga olib keldi, natijada, 90-yillarda ishsizlar soni mamlakatda 130 mln kishini tashkil yetdi. Shahar sanoati, xizmat ko'rsatish va transport sohasi bunday katta miqyosdagi ishchilar oqimini yangi ish joylari bilan ta'minlashga tayyor emas edi;

2. Mamlakat qishloq xo'jaligidagi mavjud bo'lgan «xalq kommunalari» hamma qishloq aholisini ish bilan ta'minlay olmas edi, garchi, qishloqlarda oila pudratiga asoslangan xo'jalik yuritilsada, ulardan olingan daromad sezilarli darajada dexqonlar moddiy turmush tarzini o'zgartirishga qodir emas edi. Ushbu muammoni XKP quyidagi chora-tadbirlar orqali hal yetishga harakat qildi, ya'ni: qishloqlardagi «xalq

³⁹ Чжунго тунци нуанцзуан.1998.Пекин, 431 б. Манба: Го кесо. Качество промышленного роста., Пекин, 1998

kommunalari» tarqatib yuborilib, ular o'rniga alohida volost va davlatga qarashli jamoa korxonalari hamda xorijiy kapitalga asoslangan korxonalar tashkil etdi; mamlakatda yollanma ishchilarni jalb etishga mo'ljallangan xususiy korxonalar tashkil etila boshladi. 1995 yillarda payga asoslangan korxonalar tuzilib, ular intensiv tarzda rivojlana boshladilar. Ularning tijoratlari va yirik ko'zlagan manfaatlari posyolka - volost chegarasidan chiqdi. 1997 yilga kelib, mana shunday korxonalarga YaIM ning 25%i, sanoat mahsulotlari qo'shimcha qiymatining 50% i, eksportdan tushgan valyuta daromadlarining 30% i va dexqonlar daromadining 30%i unga to'g'ri keldi.⁴⁰

Sotsialistik rejali tovar xo'jaligini qurish masalasini yechish uchun mamlakatda bir necha tamoyillar shakllandi. Ulardan eng asosiysi bu mulk huquqini uning xo'jalik huquqidan ajratib olish asosida davlat korxonalarini jonlantirishdir. Davlat korxonalari alohida pudrat jamoalariga va alohida shaxslarga xo'jalik yuritish huquqini berdi, undan tashqari, korxonalarning aksiyalari erkin savdoga qo'yildi. Shu bilan birga, bozorlar tizimiga va ularning tuzilishiga ham katta e'tibor qaratilib, unda nafaqat ishlab chiqarish vositalari, oziq-ovqat va iste'mol tovarlari bozorlari, balki fond va xizmat ko'rsatish, axborot, texnika va texnologiyalar bozorlarini tashkil etishga ham katta e'tibor berildi.

Mamlakatda radikal tarzda soliq tizimi, valyutani tartibga solish va bank tizimlari islohotlari olib borilib, qimmatbaho qog'ozlar bozorini, ko'chmas mulk va ishchi kuchi bozorlarini tashkil etish faollashdi.

Islohotlar jarayonida davlat sanoat korxonalarining eng yaxshi ishlayotganlarini hisobga olinib, ularning mahsulotlarini xorijga olib chiqish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. 1995 yili 592 ming sanoat korxonalaridan 5049 tasi sanoat hissadorlik korxonasi bo'lib, unda davlat aksiyalari 19,9 % ni, yuridik shaxs aksiyalari 46,1 %ni, jismoniy shaxslar aksiyalari esa 29,9 % ni va chet el kompaniyalariga tegishlisi 5,1% ni tashkil qildi. Ushbu holatni biz quyidagi jadval 8.3.1. dan ko'rishimiz mumkin.

(по данным третьей промышленной переписи)

⁴⁰ Круглов А. Роль и место сельской промышленности в экономике КНР. Автореферат на соискание учёной степени д.э.н. М., 1998г. с.12, 15,22.

Xitoy xalq xo'jaligi tarkibi 1979-97 yillar mobaynida mulk shakli bo'yicha kardinal tarzda o'zgardi va mamlakatda mavjud bo'lgan davlat uklad (monouklad) hukmronligi o'rniga ko'p ukladli mulkchilik munosabatlari vujudga keldi. 1997 yilga kelib, sanoat yalpi mahsulotini ishlab chiqarishda individual va xususiy sektorning salmog'i 16% ga yetdi

Ma'lumki, Xitoyda sanoat korxonalari 1978 yilgacha davlat korxonalari hisoblanib, ularning ko'pchiligi yaroqsiz holatda edi. Islohotlar boshlangandan so'ng, mamlakatdagi sanoat korxonalari sekin-asta oyoqqa tura boshladi va davlat korxonalari bilan birga, kichik xususiy korxonalar ham ochila boshladi.

Jadval 8.3.1.

Xitoy 1995 yildagi sanoat korxonalarining tarkibiy tuzilishi⁴¹

Korxonalarining mulk shakli	1995 y	%da
Sanoat xissadorlik aksiyadorlik korxonasi	5049	100
Ulardan:: 1. Davlat aksiyalari	1004,8	19,9
2. Yuridik shaxs aksiyalari	2277,6	46,1
3. Jismoniy shaxs aksiyalari	1509,6	29,9
4. Chet el kompaniyalari aksiyalari	257,5	5,1

1995 yillarda jahon banki tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, ushbu berilgan vakolatli huquqlardan, ya'ni, ishlab chiqarish vositalarni sotib olish va o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni o'zlari sotish huquqiga 94-98 % ga amal qilingan.

jadval 8.3.2.

Xitoy YaIM ning tarkibiy tuzilishi (davlat va nodavlat sektorlari, foizda)⁴²

	1993 y.	1995 y.	1997 y.	2000 y.	2003 y.	2007 y.
Davlat sektori, jami	44,32	45,1	43,1	38,7	31,8	32,0

⁴¹ Манба: Чжунго тунци нуанцзуан. 1998. Пекин, 433 б

⁴² Чжунго цзинци ди « жуан чжаолу» -Shanхай 2004, с. 256, asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Jumladan: I-soha buyicha	0,67	0,58	0,59	0,56	0,51	0,59
II-soha buyicha	23,3	24,9	19,6	16,8	14,4	14,1
III-soha bo'yicha	20,3	19,8	22,9	21,9	16,9	17,3
Nodavlat ukladli, jami	55,68	54,9	56,9	61,3	68,2	68,0
Jumladan: I-soha bo'yicha	23,2	20,6	20,5	19,9	18,7	18,1
II-sohada	24,8	26,8	27,6	32,2	34,3	29,5
III-sohada	7,6	7,5	8,8	9,2	15,2	20,4

Islahotlar davrida Xitoyda 675 ta davlat korxonalari bankrot holatdan chiqishga erishdilar, 1022 ta korxonalar esa, o'z yo'nalishini o'zgartirib, bozor talablariga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarishga qaratildi. Ularning 1998 yildagi mahsulot ishlab chiqarish qiymati 3125,2 mlrd. yuanni tashkil qildi. Bu ko'rsatkich 1996 yilga qaraganda 11,1% ga ortiq bo'ldi. Quyida hozirgi kundagi mamlakatdagi aralash iqtisodiyotning tarkibi berilgan bo'lib, unga asosan Xitoyda hali ham davlat mulki bo'lgan korxonalar salmog'i sezilarli darajada ekanligini ko'rishimiz mumkin

Xitoyda asosan, davlat mulki uning og'ir sanoati tarmoqlarida saqlanib qolmoqda. 1990 yillar oxiriga kelib, mamlakat og'ir sanoatning ishlab chiqarish qiymati 1,106 trln. yuanga yetdi, bu esa, Xitoyda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar o'z salohiyatini kengaytirib borayotganligidan dalolat beradi.

jadval 8.3.3.

Xitoyda aralash iqtisodiyotning 2007 yildagi tarkibi, % da⁴³

Mulk shakli	2007 yil, % da
1. Turli mulk shakllaridagi jami korxonalar	100
Jumladan: Davlat mulki	32
Jamoa mulki	30
Xususiy mulk	38

⁴³ Китай: факты и цифры, 2008, Пекин, 2009. .

Islohotlarning dastlabki bosqichida Xitoydagi katta korxonalarda g'arb davlatlari texnologiyalari tajriba sifatida qo'llanilib ko'rildi. Bu tajriba o'z samarasini bergandan so'ng, uni keng ko'lamda qo'llashga kirishildi.

Katta korxonalar hissadorlik jamiyatlariga aylantirilib, uning natijasida korxonalar 1998 yildagi "XXRning sanoat korxonalari to'g'risidagi" qonunga muvofiq, o'z egalariga ega bo'ldilar. Ular o'z mahsulotlarini ishlab chiqarish, unga erkin narx qo'yish va ulardan kelgan foydani o'z hohishlariga ko'ra ishlatish hamda xom ashyo sotib olishda vujudga keladigan to'siqlarni yengish huquqiga ega bo'ldilar. 1992 yilga kelib, sanoat korxonalarini modernizatsiyalash bo'yicha qonun qabul qilingandan so'ng, endilikda, korxonalar olingan foydaning 10% gina soliq sifatida davlat hisobiga to'lay boshladilar. 1993 yilda bo'lib o'tgan Umum Xitoy Xalq qurultoyida sanoat korxonalari to'g'risidagi qonunga o'zgartirishlar kiritildi. Unga muvofiq, davlat monopoliyasidagi korxonalar davlat tasarrufida qoldirildi, boshqalari esa, xususiylashtirildi.

Sanoatdagi olib borilayotgan ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilgandan so'ng, zamonaviy makroboshqaruv tizimiga amal qilindi. Unga ko'ra, soliq, sarmoya, ijtimoiy himoya tizimlari davlatni qo'lida qoldi. 1994 yili moliya, soliq, bank, valyuta, narxlar tizimi ishlab chiqildi hamda zamonaviy sanoat korxonalari uchun yangi tizim qo'llanila boshlandi.

Yangi tizim bo'yicha, yalpi foydadan 33%i soliqqa tortildi. Bundan tashqari, ayrim korxonalarga imtiyozlar ham yaratib berildi. Davlat sanoat korxonalarini isloh qilishdan asosiy maqsad, - zamonaviy korxonalar tizimini yaratish hisoblandi. Unda asosiy diqqat-e'tibor mahsulotning sifatiga qaratildi. Olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, sanoat korxonalaridagi bajarilgan ishlar faqatgina xo'jalik ob'ektlarida emas, balki xususiy korxonalarda ham amalga oshirilib borildi.

Islohotlar xo'jalik sub'ektlaridan, ya'ni sarmoyadorlar va mulk egalari o'z mulklariga bo'lgan huquqlarini bilishlarini talab qildirdi. 1993 yilda XXR da «Kompaniyalar to'g'risida»gi qonunni ishlab chiqarildi. Keyinchalik esa, ushbu qonun amalda tadbiq qilindi. Sanoat korxonalarini ochiq turdagi hissadorlik jamiyatlariga aylantirish investorlar uchun juda qulay kechdi.

Shunday qilib, davlat o'z ishini korxonalarga xom ashyo yetkazib berishdan boshladi. Ayrim korxonalar esa, yuridik shaxslar qo'liga o'tib, bu shaxslar kompaniya foydasi uchun javob beradigan bo'ldi.

Shu bilan birga, agar, korxona sug'urta qilingan bo'lsa, uning uchun ham foydadan bir foiz ajratilishi mo'ljallandi. Agarda, korxona soliq to'lay olmaydigan ahvolga tushib qolsa, bunda unga quyidagi imkoniyatlar yaratiladi: Butun mol – mulk garovga qo'uyilib, korxona aksiyalari birjada sotiladi, undan so'ng, korxona bankrot deb e'lon qilinadi. Shu davrda korporatsiya boshqaruvi aksionerlar shtatlari orqali faoliyat ko'rsatib, ular tomonidan aksiya narxlari ham belgilandi

Davlat xususiy mulklarni tashkil etishda fondlarning rolini oshirishga harakat qildi. XXRning davlat hujjatlarida, davlat fondlari ustidan nazorat qilish, davlat mulkini tartibga solishda yillik nazorat ishlarini amalga oshirish aniq belgilab olingan.

Ushbu davlatning nazorat qiluvchi organning markazi Pekinda joylashgan bo'lib, u davlat mulklarini va davlat fondlarini qay tarzda ishlayotganligini nazorat qiladi.

Mamlakatda sekin–asta katta sanoat korxonalarida xoldinglar tashkil qilinib, ular davlat mulklari va aksiyalarini nazorat qilib turadi. Masalan, Xitoyning aviatsiya kompaniyasi, neft–kimyo sanoati va rangli metallar sohalari aksiyalari davlatga qarashlidir.

XXRda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar shuni ko'rsatadiki, markazlashgan rejali iqtisodiyot bo'la turib, bozor elementlarini ishga solib, mavjud ichki imkoniyatlardan foydalanish orqali, yuqori ko'rsatkichlarga erishish mumkinligini ko'rish mumkindir.

Endilikda, Xitoyda bozorlarga raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan kirib borildi va milliy mahsulotlarni ko'paytirishga alohida e'tibor qaratildi.

1995 yilda davlat sektoriga qarashli sanoat ishlab chiqarishi 53,7% ni tashkil etgan bo'lsa, uning natijasida davlat byudjetiga 50% dan ortiqroq soliq tushumi kirib keldi. Davlat korxonalarini saqlab qolish bilan birga, ishlab chiqarishni faollashtirish jadal sur'atlarda olib borildi

Ya'ni, sanoat ishlab chiqarishda yangi tarmoqlar paydo bo'la boshladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarishda ilmiy texnikaviy salohiyatning yetarli bo'lishiga e'tibor kuchaytirildi va mudofaa sanoatini fuqorolar uchun mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirildi. Bu ishlarga ko'proq yetuk kadrlar jalb qilinib, ishlab chiqarishda yangi mahsulotlarning turlari ko'paytirildi. Bundan nafaqat, sanoat korxonalari, balki butun xitoy jamiyati foyda topdi. Ularning natijasida esa, mamlakat miqyosida ijtimoiy hayotni yaxshilashga fundament yaratildi.

Agar Xitoyning sohalar bo'yicha, uning tarkibidagi o'zgarishlarga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, unda 1-sohaning qisqarib borayotganligini, ya'ni, 2003 yilgacha pasayib borganiligini guvohi bo'lamiz. Xitoyning 2-sohasida esa, ahvol butunlay uning teskarisini, ya'ni, ushbu qayta ishlash sanoatida 2003 yilgacha o'sish kuzatilganligini, 2007 yilga kelib esa, bu sohada yana o'zgarishlar yuz berganligini guvohi bo'laviz. (52% dan u 48 % ga pasaydi.).

Jadval 8.3.4.

Xitoyda sohalar tarkibidagi o'zgarishlar ⁴⁴
(1989-2007 yy.)

Yil	I-soha mlrd.yu.	II-soha mlrd.yu.	III-soha. mdrd.yu.	I-soha % da	II-soha., % da	III-soha % da
1989	4228	7278	5403	25,0	43,0	32,0
1997	14211	37223	23029	19,1	50,0	30,9
2003	17092	61131	38675	14,6	52,3	33,1
2007	18989	51090	39090	17,0	48,8	34,2

Xitoy iqtisodiyotiga jalb qilingan xorijiy kapital uning sanoat asosiy fondlarida muhim o'rinni egalladi. Umumiy quyilmalardagi xorijiy sarmoyalarning ulushi 1990 yillar oxiriga kelib, 13% ni, sanoatdagi yangi mahsulotida esa -14%ni tashkil etdi.

Hozirgi kunda xitoy sanoati bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida ishlamoqda, 300 mingta markaziy rejalashtirish tizimidagi davlat korxonalaridan atigi 10 mingtagina korxona qoldi. Agar, islohotlar boshida markaziy taqsimlanishga 256 ta

⁴⁴ Манба : Экономика Китая . Ван Менкуй и др. феврал ,2005г. asosida hisoblangan.

mahsulot turi qaratilgan bo'lsa, hozirda ularni turi 11 tadir ⁴⁵. Mamlakatda 14 mingdan ortiqroq yoki yirik va o'rta davlat korxonalarini 1/3 qismi korporativ xo'jalik tizimiga o'tkazildi. Mayda korxonalarning 50-70% i isloh qilindi ⁴⁶.

Islohotlar mobaynida mamlakatda keng miqyosda sanoatni texnik rekonstruksiya qilish tadbirlari o'tkazildi. Sanoatni qayta ro'yxatdan o'tkazish asosida, 3200 turdagi tekshirilgan sanoat uskunalaridan xorijiy (import) 47,1%.ni tashkil etdi va 52,9% korxonalari esa, Xitoyning yirik va o'rta korxonalari bo'lib, ular o'zida ishlab chiqarishni texnik rekonstruksiya qilish sohasida ilmiy ish olib boruvchi bo'limlariga egadir.

Jadval 8.3.5.

Xitoy sanoat tarmoqlarida hukmronlik pozitsiyalarini egallagan aralash korxonalar uushlari (2007) % da⁴⁷

Tarmoqlar	Barcha korxonalar sonidagi ulushi	Barcha xorijiy sarmoyalar xajmidagi ulushi	Qo'shimcha qiymatdagi ulushi	Savdodagi ulushi	Soliq to'lash gacha daromaddagi ulushi
Elektrotexnik va telekommunikatsiy uskunolari	36,3	44,5	58,8	60,8	68,4
Kiyim va mato	29,8	47,9	50,0	50,8	56,7
Kimyo tolasi	27,2	15,1	10,0	13,6	
Teri, jun, sherst	24	46,4	50	54,1	32,0
Kogoz	21,3	42,9	40,6	50,7	25,4
Uskunasozlik korxona uskunolari	17,7	21,4	6,9	38,8	10,1
Tekstil	16,4	18,8	20,3	17,9	
Farmasevtika	16,1	19,5	25,6	18,3	40,3
Plastmassa ishlab chiqarish	15,8	37,1	31,1	33,0	
Ozik-ovkat mahsulotlari	11,8	32,2	32,4	30,5	70,6
Yogochga kayta ishlov berish	8,2	31,4	24,6	27,3	

Metall mahsulotlari	7,7	29,3	23,6	26,6	39,4
---------------------	-----	------	------	------	------

Hozirda Xitoy sanoati mahsulotlarini jahon bozoriga chiqishiga keng yo'l ochildi. Islohotlar davrida eksportning o'sishi va uning savdodagi sanoat daromadining ulushi 3,1% dan 2003 yilga kelib, 34,4% ga ko'tarildi.⁴⁸ Eksportda xom ashyoviy tovarlar ulushi 1990 yildagi 25,6% dan, 2003 yilga kelib, - 9,4% ga qisqardi. Mashina va transport uskunolari importida 1990 yildagi 31,6% dan, 2003 yilga kelib, - 44,6%ga ko'paydi.

Xitoy eksportining kattagina qismi xorijiy kapital qatnashuvidagi korxonalarga to'g'ri keldi (47%).⁴⁹

Ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorlik katta muammolarni keltirib chiqardi. 1990 yillar oxirida 30% gina davlat korxonalarini mustahkam rentabelli korxonalar deyish mumkin edi va 40% korxonalar esa, zarar keltiruvchi hisoblanar edi.

Sanoatlashtirish siyosatini hamma yutuqlarini e'tiborga olish bilan birga, shuni ta'kidlash muhimki, Xitoydagi industrialashtirish jarayoni hali ham tugallangani yo'qdir va Xitoy iqtisodchilarini fikricha, u «oraliq bosqichi» da qolmoqda, ya'ni, u «miqdoriy» o'sishdan «sifat» bosqichiga o'tishdadir.

Garchi umumiy ishlab chiqarish miqyosi katta bo'lsa ham, sanoat mahsulotlarini aholi jon boshiga iste'mol qilish ko'rsatkichi hali ham rivojlangan davlatlardan sezilarni darajada orqadadir. Masalan, energiya iste'moli bo'yicha 1 tonna shartli yoqilg'ining iste'moli, 10% amerika darajasidan, 25% yaponiya darajasidan orqada qolgandir. Elektroenergiya bo'yicha Xitoy ko'rsatkichi - 890 kvт.s.ni tashkil etib, bu 7,4%ga amerika va 12%ga esa - yaponiya darajasidan pastdir⁵⁰

Sanoatning asosiy mahsulot turlari bo'yicha defisit bo'lish muammosini hal etish bilan birga, Xitoy ishlab chiqarish quvvatini noratsional ortiqchaligi muammosiga yuz tutdi, ya'ni metallurgiya sohasida u - 1/3 qismni, tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarishda 40% ni, avtomobillar bo'yicha - 50% dan ko'proqni, rangni televizorlar bo'yicha - 60% ni tashkil etadi. Kir yuvish mashinalari

⁴⁸ Чжунго цзипцзи нуанцзуан. 1997.с.891

⁴⁹ Чжунго тунцзи нуанцзуан. 1998.с.432.

⁵⁰ Основные тенденции развития Китайской экономикм в XXI веке .Шенян. 2004. с. 86.

bo'yicha ishlab chiqarish quvvati 43,4%, velosipedlar - 54,5%ga, konditsionerlar - 33,5%ga egadir.

Hozirgi kunda mamlakatda kichik va o'rta korxonalarining tarkibi xilma-xil bo'lib, asosan eng ko'p miqdorni xususiy korxonalar egallagandir. Ular asosan, savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat ko'rsatish sohalarida va nisbatan, kamroq hajmda ishlab chiqarish sohalarida faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Jadval 8.3.6.

XXRsi kichik va o'rta korxonalarining tarkibiy tuzilishi 2007 yil, %da⁵¹

Davlat korxonalari	0,1
Xorijiy qo'shma korxonalar	5,4
Qo'shma korxonalar	17,5
Xususiy korxonalar	37,6
Hissadorlik jamiyatlari	33,4
Boshqa nodavlat korxonalar	8,0
Jami korxonalar	100,0

Hozirgi kunning asosiy iqtisodiy rivojlanish strategiyasi – Xitoy davlati uchun quyidagilardan iborat bo'lmoqda:

- xitoy iqtisodiyotini globalizatsiya kursiga qaratish;
- xususiy mulkdorning xuquqini himoya qilish va qadam-baqadam siyosiy, ammo, xitoy kompartiyasi monopoliyasi chegarasidan chiqmaydigan hukumatni erkinlashtirishga o'tish;
- mamlakat iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ijtimoiylashtirish ("sotsializatsiya"), ya'ni mamlakatdagi amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijalaridan xitoyning kamroq rivojlangan hududlariga, aholining ijtimoiy jihatdan kam ta'minlangan qatlamlariga, adolatliroq ravishda taqsimlashga urinishdan iboratdir.

Xitoy o'zining 10-besh yillik rejasini (2001-2005 gg.) ortig'i bilan bajardi, uning o'sha davrdagi YaIM ning o'rtacha yillik o'sishi rejadagi 7-8% o'rniga, 9,5% ga to'g'ri keldi. Mana shu yillardagi mamlakat iqtisodiy o'sishining asosiy omillaridan

⁵¹ Xitoy Davlat Statistika qo'mitasining 2007 y. ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

biri uning eksporti bo'lib, u YaIM ning va ichki kapital jamg'armasining 40% ni berdi. Shu eksportning 50% i chet el qatnashuvidagi korxonalarga to'g'ri keldi. 2005 yilda bevosita xorijiy kapital quyilmalarining yig'indisi 600 mlrd. AQSh doll. ni tashkil etib, ular xitoy iqtisodiyotiga yangi texnologiyalar va biznesni yurgazish uslublarini olib kirdilar. Xitoy aholisining xususiy banklardagi jamg'armasi o'sha davrda mamlakat YaIMning 80% ni tashkil etdi.

Hozirgi kunda mamlakatda 10 ta rasmiy “dollarli milliarderlar” (ular qurilish va informatsion-kommunikatsion texnologiyalar sohasida), 1000 ta rasmiy “yuanli hisobdagi milliarderlar” va o'rtahol sinf vakillari (oyiga 1000 AQSh doll. daromadiga hamda 3 kishilik oilaga – 100000 doll.dan ko'p mulkka ega bo'lganlar) soni 80 mln.kishidan ortgandir.⁵²

Xususiy kapitalning yiriklashuvi hisobiga xitoy iqtisodiyotining gurkirab rivojlanishi, undagi mavjud mulk munosabatlari muammosini kuchaytirib yubormoqda. 2004 yilda XXRsi konstitutsiyasining mulkdorlar xuquqini himoyalash qismiga o'zgartirishlar kiritildi. Undagi 1988 yilda qayta ko'rib chiqilgan iqtisodiyotning nodavlat sektori – uni davlat sektoriga qo'shimcha sektor deb tan olingan qismi o'zgartirildi.

Xitoy sanoat korxonalarini isloh qilishning yana bir mohiyati shundan iboratki, ular ustidan markaz tomonidan o'rnatilgan nazoratning susayishi bo'lib, islohotlar davrida mahalliy hukumatlararo raqobat bozori shakllandi va mahalliy hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanuvchi korxonalarning jahon bozorlariga chiqish jarayoni tezlashdi. Uning natijasida, tezlikda mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan kichik korxonalar safi kengayib, ular mustahkamlanib bordilar va ular orqali noformal va nodavlat sektorlarining qatori kundan-kunga kengayib bordi Mamlakat volost-poselka korxonalari va davlat korxonalarini qiyosiy samaradorligini taxlil qiladigan bo'lsak, ular orasidagi farqlanish 2005 yilda mahsulot ishlab chiqish bo'yicha 4:1 nisbatni, kapital va mehnat bo'yicha 2,2: 1ni; va 3:1 nisbatni hamda boshqa omillarning mehnat unumdorligi 3:1 nisbatni keltirib chiqardi.

⁵² Manba: j.Китай, 2008.с.23.

Xitoy iqtisodiyotida bugungi kunda, ikki muhim jarayonlar deflyatsiya va inflyatsiya jarayonlari yuz bermoqda, ular esa, o'z navbatida, mamlakatning makroiqtisodiy boshqaruvida murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Mamlakatdagi deflyatsiya bir tomondan, davlat korxonalaridagi eski nomenklaturali tovarlarni ortiqcha ishlab chiqarish bilan kechayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, so'nib qolgan xususiy iste'mol va endigina o'zgarib borayotgan faol jamg'arish psixologiyasi orqali yuz bermoqda.

Mamlakatdagi inflyatsiya jarayoni iqtisodiyotning "qizib ketish" nuqtalarida, ya'ni, uy-joy qurilishi, yerning "narxi", avtomobilsozlikda, ya'ni "o'zlashtirish zonalarida" – qaysiki, davlatning kapital quyilmalari qo'yilayotgan sohalarida ko'rinmoqda. Ushbu muammoning ikki yoqlama xarakterli bo'lishi, birinchidan, deflyatsiyaga qarshi kurashda ehtiyotkorlik bilan ish ko'rishni, ya'ni davlat xarajatlarini ko'paytirish, faol monetar siyosatni amalga oshirish va soliqlarni kamaytirishni ko'zda tutsa, ikkinchidan, iqtisodiyotni qayta qurish mexanizmidan foydalanish va xususiylashtirish hamda xorijiy tadbirkorlik sohasini kengaytirish hisobiga ichki raqobatni rivojlantirishdan iboratdir.

Undan tashqari, mamlakatning moliyaviy erkinligini oshirish borasida uning valyuta zahirasini hajmini ko'paytirish asosida xitoy va chet el investorlarini xitoy qimmatli qog'ozlariga bo'lgan ishonchini oshirishdan iboratdir. Xitoy hukumati bank sohasini xususiylashtirish va "yomon" kreditlar muammosini hal etishi lozimdir.

Mamlakat iqtisodiyoti uchun milliy korporativ va individual investisiyalar (1) orasidagi, bevosita xorijiy (2) va portfel (3) quyilmalari orasidagi samarali nisbatni xususiylashtirish va moliyaviy sohani erkinlashtirish sharoitida saqlash muhimdir.

Mamlakatdagi davlat korxonalarini xususiylashtirish natijasida, undagi ishsizlar sonining ko'payish muammosi, xitoy hukumatidan davlat sektorini isloh etishni tezlashtirishni talab qilmoqdadir. Ushbu jarayon oqibatida mamlakatda ijtimoiy ahvol kuchayib ketmasligi uchun hukumat o'zining bo'sh qolgan ishchilarini davlat dasturlaridagi qayta o'qitish orqali va ularni xususiy sektordagi mehnat resurslariga bo'lgan ehtiyojini ortib borishiga qarab ishlarga joylamoqdadir.

Bu o'rinda eng asosiy rolni mamlakatdagi uning yangi trans milliy korporatsiyalari va moliya-sanoat guruhleri o'ynamoqda. Ular xususiylashtirilgan davlat korxonalari va banklarini, xususiyl hamda davlat kapitali orqali qayta tashkil etmoqdalar.

Umuman olganda, Xitoy iqtisodiyotining rivojlanishida o'sishning ekstensiv omillarining ustunligini qisqartirish va uning intensiv usullaridan foydalanishni kengaytirish muammosi bugungi kunning eng dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda va bu yo'nalishda mamlakatda katta o'zgarishlar yuz bermoqda⁵³

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarishda korxona rahbarlarining manfaatdorligi oshib, ular tezlik bilan amalga oshirilayotgan jarayondan o'zlari uchun foydalanishga kirisha boshladilar. Bu haqda Gonkong professori Syao Jen shunday deydi: «Ushbu jarayon daromadlarni xususiylashtirish va zararlarni umumiyashtirish» ni anglatadi.

1997 yilda Xitoyda davlat tarixida ikkinchi marotaba sanoatni isloh etishga kirishildi. Unda, 305 mingta korxonalar davlat tasarrufidan chiqarilib, hissadorlik jamiyatiga aylantirilishi e'lon qilindi. Ular asosida, Yapon va Koreya korporatsiyalari tajribasiga tayangan holda, 1 mingga yaqin tijorat tuzilmalarini qurish lozimligi ta'kidlandi, ularning asosiy yo'nalishlari: telekommunikatsiya, elektronika va neft-kimyoalar deb belgilandi.

Mamlakat sanoati va xizmat ko'rsatish sohasidagi institutsional islohotlarni amalga oshirishdagi qiyinchiliklar quyidagilardan iborat bo'lib, ular Xitoyni turli hududlaridagi mavjud notekisliklarni, mamlakat yagona ichki bozor bo'shlig'ining va huquqiy maydonning mavjud emasligidadir. Bu borada Avstraliya olimi K. Djayasuriyaning g'arb va sharq huquqiy tizimi orasidagi farq to'g'risidagi fikrini eslab o'tish o'rinlidir. Ya'ni: «G'arbda qonun hukmronligi mavjud bo'lib, Sharqiy Osiyoda qonun yordamida hukumat boshqariladi»⁵⁴

Umuman olganda, Xitoyda xususiylashtirish jarayoni, iqtisodiyot uchun keng miqyosda vayronagarchilik tusini olgani yo'q. Hozirgi kunda, mamlakatda aralash iqtisodiyot mavjud bo'lib, unda davlat mulkining salmog'i 32% ni, jamoa mulki 30% ni va xususiyl mulk 38% ni tashkil etmoqda. Xitoy iqtisodchilarining fikricha, davlat

⁵³ Манба : Го Кесо.Указ. соч.2000, с.9.,

korxonalari xususiy korxonalarga qaraganda ancha past samaradorlikka egadir. Aynan shuning uchun ham, mamlakatda iqtisodiyotni sog'lomlashtirish - daromadli va zarar keltiruvchi korxonalarni birlashtirish orqali amalga oshirilmoqda. Unda mulk shakli davlat va jamoa, hattoki, xususiy korxonalarni birlashtirishda to'sqinlikning yoqligi hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotning ochiqlik jarayoni, mamlakatda o'zining Xitoyni o'zigz xos (spesifikali) belgilariga ega bo'lmoqda. Xitoy Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishi bilan birgalikda, o'z ichki hududlariga xorijiy investisiyalarni kirg'izishni yana besh yilga uzaytirib, bank-moliya, sug'urta, telekommunikatsiya, ulgurji savdo, yuk tashish va turizm sohalarida, u Gonkong kapitaliga asoslangan holda afzal pozisiyalarni egallab kelmoqda.

Shunday qilib, Xitoy 21 asr boshida fundamental o'zgarishlar girdobiga kirib bordi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, Xitoy YaIM ning 1% ga qisqarishi, mamlakatda 5 mln. ishsizlarni paydo bo'lishiga olib keladi⁵⁵

2001-2007 yillarda bankrotlikka uchragan Xitoydagi davlat korxonalarining ko'payishi va ular bilan bog'liq bo'lgan davlat korxonalaridagi bandlar sonining qisqarishi, mamlakatdagi ijtimoiy va siyosiy nobarqarorlikka olib kelish xavfini tug'diradi. O'z navbatida, bugungi kunda, Xitoy hukumati ushbu muammolarning oldini olishga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqmoqda, xususan, xorijiy investorlar uchun korxonalarining kontrol paket aksiyalarini sotish ko'zda tutilmoqda. Bundan davlat ahamiyatiga molik strategik sohalar istisnodir.

Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar:

- 1.Xitoyda xususiylashtirish jarayoni qachon boshlandi?
- 2 Xitoyning sanoat korxonalarida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish qay tarzda amalga oshirildi?
- 3.Mamlakatda yirik xususiylashtirish jarayoni qachon boshlandi va ushbu jarayonning amalga oshirilish xususiyatlari nimalardan iborat?
- 4.Xitoyda xususiylashtirish jarayoning yonalishlari qaysi sohalarni qamrab olgan?
5. Ushbu jarayonning uytuq va kamchiliklari nimalardan iborat?

⁵⁴ Jayasurya K. The Rule of law and Capitalism in East Asia. 2001

Mustaqil ish vazifalari:

- 1.Xitoyni xususiylashtirish jarayonini O'zbekistonning xususiylashtirish jarayonini bilan taqqoslang.
2. Xitoy xususiylashtirish jarayonining qaysi tomonlarini rivojlanayotgan mamlakatlarda qo'llash mumkinligini misollar yordamida asoslab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Мировая экономика: прогнозы до 2020 г. Под.ред.академика А.А.Динкина, М., «Магистр», 2007.429 с..
2. Основные тенденции развития Китайской экономикм в XXI веке,Шенян, 2004. с. 86.
3. Экономика Китая . Ван Менкуй и др. феврал ,2005 г.
- 4.Parayil Govindan. From “Silicon Island” to “Biopolis of Asia”. Innovation policy and shifting competitive strategy in Singapore. Calif. Manag. Rev.2005. 57. №2, p.50-73
- 5.UNCTAD.Yandbook of Statistics.-N.Y. and Geneva, 2004.- 446p.

Internet saytlari

1. [www. CER.uz](http://www.CER.uz).
2. www. Caapr.kz.
3. www. Iias. Nl.
4. www. World –bank. org.
5. [http: || europa. Eu. Int](http:// europa. Eu. Int).
6. [http: || tw.jahoo.com](http:// tw.jahoo.com).
7. www. xinhua.org.

9-Mavzu: XXR da byudjet jaryonining qonuniy boshqarilishi

Reja:

- 9.1 Xitoyning byudjet tizimi va byudjetni boshqarish xuquqi .
- 9.2. Xitoy davlat byudjetining tarkibi.
- 9.3. Byudjetni ko'rib chiqish va tasdiqlash jarayoni.
- 9.4.Xitoy moliyaviy siyosatining xususiyatlari va mamlakat byudjet daromadlarini kopaytirish chora tadbirlari.

⁵⁵ The Economist. 24.10.1998 p.23

Tayanch iboralar: davlat byudjeti, byudjet taqchilligi, moliyaviy barqarorlik, byudjetdan tashqari fondlar, daromadlar va xarajatlar, markaziy va mahalliy byudjet, qo'shimcha to'lovlar, korxonalarning maxsus daromadlari, soliq tushumlari.

Darsning maqsadi: davlat byudjetining mohiyati, uning tarkibi va XXR da byudjet jaryonining qonuniy boshqarilish xususiyatlarini o'rganib chiqish.

9.1 Xitoyning byudjet tizimi va byudjetni boshqarish xuquqi .

Byudjet jarayoni – bu davlat hukumat organlarining xarajatlar va daromadlarini moliyaviy tomondan tuzish rejasi bo'lib (binchji), uni ko'rib chiqish va tasdiqlash (shencha xa pichjun), ularni amalga oshirish (chjisin) va nazorat qilish (szyandu) dagi uning protsessual chegaralangan xuquqiy faoliyatidir.

Xitoyda daromad va xarajatlar smetasini tuzish tarixi 16- asrga kelib taqaladi. Unda davlat xazinasini, asosan, turli xil yig'implardan iborat bo'lib, ular oddiy xalqning cho'ntagidan kelib tushar edi.

1949 yilda, XXR si tashkil topgandan so'ng, byudjet jarayonini chegaralash masalasi bo'yicha, 1-normativ xuquqiy akti tuzilib, u “XXR sini byudjet va byudjetni bajarish xisoboti to'g'risidagi vaqtinchalik holatini” o'zida aks ettirib, u XXR si davlat ma'muriyati kengashi tomonidan 20 iyul 1952 yilda tasdiqlandi.

Xitoy Xalq Respublikasida birinchi marotaba davlat byudjeti 1950 yilda ishlab chiqilgan bo'lib, uning daromadlar qismi 6,5 mlrd.yuanga, xarajatlar qismi esa, 6,8 mlrd.yuanga teng bo'lgan. O'sha paytlarda Xitoyning moliyaviy ahvoli uncha barqaror emas edi. Shunga qaramay, davlatning bu borada amalga oshirgan qator chora-tadbirlari natijasida u tez sur'atlarda barqarorlashtirildi.

1976 yilda mamlakatning umumiy byudjet daromadlari qismi 77,7 mlrd.yu.ni, uning xarajatlar qismi esa, 80,6 mlrd.yu.ni tashkil etib, ushbu ko'rsatkichlarning har ikkalasi ham 12 marotabaga o'sdi.

1985 yilga kelib esa, ushbu nisbatlar, ya'ni byudjetning daromadlar qismi 186,64 mlrd.yu.ni, ya'ni 1950 yilga nisbatan- 27,6 baravarga, xarajatlar qismi esa, 184, 48 mlrd..yu.ni tashkil etib, u 1950 yilga nisbatan 26,1 baravarga oshdi.

9.2. Xitoy davlat byudjetining tarkibi.

XXR ning “Byudjet to‘g‘risidagi qonuni” Umum Xitoy Xalq Vakillari Kengashi majlisini 2-sessiyasida 1981 yilda qabul qilindi. Uning yangi varianti 1995 yilning 1 yanvaridan boshlab kuchga kirdi va u quyidagichadir:⁵⁶


Xitoyda davlat moliya sohasining rivojlanishi uning aholisi sonining ko‘payishi bilan emas, balki uning sotsialistik spesifikali bozor iqtisodiyoti modeliga o‘tishi bilan bevosita bog‘liqdir. 1950-1985 yillar mobaynida mamlakat YaIM ning o‘shish sur‘atlari o‘rtacha 9,5% ni, uning milliy daromadining o‘shish sur‘atlari esa, 7,6% ni tashkil etgan edi.


1951-1985 yillarda aholi daromadining o‘rtacha yillik o‘shish sur‘atlari 10,1% ni tashkil etdi. Undagi davlat va kollektiv sektorlaridan olingan soliqlar va foydalar davlat daromadining asosiy qismini tashkil etgan bo‘lib, ulardan davlat sektoriga 84% va kollektiv sektoriga 13% hamda qolgan sektorlarga 3% to‘g‘ri keldi.

9.3. Byudjetni ko‘rib chiqish va tasdiqlash jarayoni.

Xitoy davlat byudjetining xarajatlar qismi xalq xo‘jaligini rivojlantirish uchun assignatsiyalar berishga va aholi farovonligini oshirish uchun mo‘ljallangandir. Bunda, xarajatlar qismining nisbatan o‘shishini ko‘rishimiz mumkin, chunki ularning asosiy qismi mamlakatni iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga, sog‘liqni saqlashga, fan va ta‘lim hamda madaniyatni rivojlantirishga ajratildi. Agar, 1953 yilda mazkur sohalarni rivojlantirish uchun hamma xarajatlarning 45% ketgan bo‘lsa, 1962 yildagi 1-besh yillikda, 3-besh yillikda va 5-besh yillik davrlarida, ularga davlatning hamma xarajatlaridan 68,4% i to‘g‘ri kelgandir.

9.2.1-Chizma Xitoy byudjetining tarkibiy tuzilishi.





O'tgan 30 yildan ortiqroq vaqt mobaynida, Xitoyni davlat daromadlari uning milliy iqtisodiyotining rivojlanishi bilan aniqlanib kelindi. 1950-1984 yillar davomida olingan 2 trln.yuan daromadning 98% i uning ichki manbalariga to'g'ri keladi.

Xitoy o'zining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash uchun xorijiy zayomlarni (qarz) oldi, ular, asosan, mamlakatga ilg'or texnologiyalarni va uskunalarni kiritish uchun olindi. 1979-1985 yillardagi Xitoyni chet el transmilliy banklaridan, xalqaro konsortsiumlaridan olingan xorijiy zayomlarining amaldagi umumiy hajmi 15,13 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi.

Xitoy davlati o'zining byudjet siyosatini amalga oshirishda, uning kamomadsiz byudjet siyosatini qo'llaydi va uning davlat byudjetidagi daromadlar qismi har doim uning xarajatlar qismidan ortiq bo'lib kelgan. Xitoy davlat byudjetining daromadlar qismi, uning real iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga tayanishi zarurdir. Shunga ko'ra, mamlakatning jamg'arma fondlarini hajmi, uning iste'mol fondlariga mos bo'lishi darkor.

Shuni ta'kidlash lozimki, mana shu 30 yildan ortiqroq vaqt mobaynida, Xitoyning iqtisodiy rivojlanishida ayrim buzilishlar va nomutanosibliklar ham bo'lgandir, ya'ni, uning byudjet taqchilligi ham sodir bo'lgan bo'lib, ular davlat tomonidan o'z vaqtida hal yetilib borildi.

1979 yildan boshlab, Xitoy hukumati o'zining davlat byudjetidagi xarajatlar qismini ko'paytirish chora-tadbirlarini amalga oshira boshladi. Uning maqsadi esa, xalq xo'jaligidagi turli tarmoqlardagi mavjud disbalansni yo'qotish va tartibga solishdan iborat edi.

Misol tariqasida, bunga Xitoy hukumati tomonidan qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan dehqonlarga, ularning mehnatini qadrini oshirish uchun, ular

tomonidan yetishtirilgan asosiy qishloq xo‘jalik mahsulotlarini davlat tomonidan sotib olish narxlarini oshirdi va bir vaqtning o‘zida, dehqonlar to‘laydigan ayrim soliqlar stavkasini pasaytirdi.

Hukumat shaharlardagi ishchi va xizmatchilarning daromadlarini ko‘tarish uchun, ularning oylik ish haqilarini oshirib, yana ularga rag‘batlantiruvchi tizimni kiritdi. Undan tashqari, milliy iqtisodiyotni va mamlakat xo‘jalik faoliyatini natijalarini yaxshilash va ularni mustahkamlash uchun, Xitoy hukumati tomonidan, mahalliy hukumat organlarini moliyaviy holatini mustahkamlovchi bir qator tadbirlar amalga oshirildi.

Natijada, davlat byudjetining xarajatlar qismi sezilarli darajada oshdi, ularning daromad qismi esa, qisqardi, undan so‘ng, 1979 va 1980 yillarda, mamlakat byudjetida taqchillik paydo bo‘ldi. Davlat byudjetini muvozanatini qo‘llash va byudjet kamomadlarini qisqartirish uchun, hukumat 1981 yilda bir qator choralarni qo‘lladi. Xususan, mamlakat qishloq xo‘jaligi va uning yengil sanoatini rivojlantirdi hamda iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarishni ko‘paytirdi, oqibatda daromadlar ko‘payib, xarajatlar qisqartirildi.

1982 yildan boshlab, mamlakat byudjetini daromadlar qismi o‘sa boshladi va 1983 yilda u sezilarli o‘tdi. 1985 yilda davlat byudjetidagi daromadlar qismi uning xarajatlar qismidan ko‘payishiga mutlaq erishildi.

Xitoyda har bir hukumat organlari o‘z byudjetiga egadir. Mamlakat Konstitutsiyasida ta’kidlanganidek, uning davlat organlari 4 ta darajaga (qismga) bo‘linadi. Ular quyidagilardan ibora i:

- markaziy byudjet - u markaziy hukumat darajasidadir;
- provinsiya byudjeti – u provinsial darajada (markazga bo‘ysunuvchi shaharlar) va avtonom rayonlar darajasidadir;
- shahar byudjeti (okrug) shahar darajasida, okruglar, avtonom okruglar darajasidadir;
- uezd byudjeti – uezd darajasida, shahar hududlari darajasidadir.

Odatda bu moliyaviy byudjetlar markaziy va mahalliy byudjetlarga bo‘linadi.

Hukumatning markaziy byudjeti mamlakat moliyaviy tizimida asosiy o'rinni egallab, u o'zida davlat byudjet mablag'larining katta qismini jamlagan bo'lib, u quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- umumdavlat ahamiyatiga molik bo'lgan madaniy qurilish, fan va ta'lim, harbiy soha hamda xo'jalik ehtiyojlarini qondiradi;
- byudjetdagi daromadlar va xarajatlar qismining muvozanatli bo'lishi uchun, mahalliy hukumat organlarining byudjet mablag'larini qayta taqsimlaydi, mana shu hududlarda yashaydigan kam millatli aholiga va iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan rayonlarga yordam ko'rsatadi.

Mamlakat markaziy byudjetining daromadlar qismi mahalliy moliyaviy organlar tushumlaridan, korxonalar soliqlari va foydalari hisobidan shakllanadi. Uning xarajatlar qismi esa, markaziy byudjetning kapital jamg'armasini moliyalaydi va korxonalarning bevosita vazirliklarga qarashli aylanma fondlarini va ularni qayta texnik jihozlash uchun ketadigan mablag'lar bilan ta'minlaydi.

Undan tashqari, davlat byudjetidan vaqtinchalik va doimiy ravishda ko'rsatiladigan maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan assignatsiyalar ham mavjud bo'lib, ulardan vaqtinchalik assignatsiyalarga - mamlakatda yuz beradigan favqulodda holatlar uchun, suv toshqinlari uchun ajratiladi. Doimiy assignatsiyalarga esa, - mamlakatning qoloq rayonlarini rivojlantirish uchun kerakli mablag'lar ajratilishi kiradi.

Mamlakat davlat byudjeti daromadining 8% i mahalliy mablag'lardan shakllanadi va xarajatlarning 50% i mahalliy byudjetlar orqali taqsimlanadi. O'z navbatida, mahalliy hukumat byudjet organlari o'z byudjetlari mablag'larini o'zining qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun, mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish, fan va ta'lim hamda madaniyatni rivojlantirish uchun sarf etadilar.

9.4.Xitoy moliyaviy siyosatining xususiyatlari va mamlakat byudjet daromadlarini kopaytirish chora tadbirlari.

Xitoy ko'p millatli davlat bo'lib, uning mahalliy byudjetlari mamlakatning milliy moliyaviy siyosatini amalga oshirishdagi muhim dastaklar hisoblanadi.

Mahalliy byudjetlar, ularning byudjet va nobyudjet pul mablag‘laridan tashkil topib, ularning daromadlar qismi mahalliy soliqlar va mahalliy korxonalarning foydadan tushumlari evaziga va markaziy byudjet orqali qayta taqsimlanadigan mablag‘lardar hamda turli subsidiyalardan shakllanadi. Quyidagi 8.4.1.jadvaldagi Xitoy davlat byudjetining 1978-2007 yillardagi taqsimlanishini ko‘rib chiqamiz.

Mahalliy byudjetning xarajatlar qismi esa, mahalliy kapital jamg‘armalarini, mahalliy korxonalar aylanma fondlarini moliyalash uchun, mazkur korxonalarni texnik qayta jihozlash va yangi ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun, mahalliy darajada fan va ta’limga, madaniyatga, sog‘liqni saqlashga yrdam ko‘rsatadi hamda shaharlar ehtiyojini qondirish uchun, nogironlarga nafaqa to‘lash, ijtimoiy fondlarni qo‘llab-quvvatlash uchun sarflanadi. Ularning byudjetdan tashqari mablag‘lari, asosan, kichik va katta sanoat-savdo korxonalarining qo‘shimcha daromad solig‘idan tashkil topadi.

9.4.1.-jadval

Xitoy davlat byudjetining 1978-2007 yillardagi taqsimlanishi⁵⁷

(mlrd.yuanda)

	1978y.	1985y.	1990y	1995y.	2000y	2005y.	2007y.
Daromd lar	113,2	200,5	293,7	624,2	1339,5	2007,1	2452,1
xarajatlar	112,2	200,4	308,4	682,4	1588,6	2189,5	2597,9
Saldo qoldig‘i	+1,0	+0,1	-14,7	-58,2	-149,1	-182,4	-145,8

Mahalliy byudjetdan tashqari mablag‘lar, alohida maqsadlar uchun mo‘ljallanadi. Masalan, sanoat va savdo korxonalarini qo‘shimcha daromad solig‘i va foydadan olingan solig‘i hamda shahar kommunal xizmatlariga to‘lovlar, mahalliy byudjetning doimiy moliyaviy xarajatlari manbaiga kiradi va u, shahar kommunal xo‘jalik ehtiyojlari bilan bog‘liqdir. Qishloq xo‘jaligi solig‘idan tushadigan

57.Xitoy Bosh Davlat statistika boshqarmasi, 2007 y. ma’lumotlari

qo'shimcha mablag'lar asosan, qishloq joylaridagi suv havzalarini qo'riqlash uchun va ular uchun maishiy qulayliklarni yaratish uchun sarflanadi.

Barcha davlatlardagi kabi, Xitoyda ham byudjet taqchilligi mavjud bo'lib, uni yo'qotish bo'yicha hukumat tomonidan turli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelmoqda. Agar, 1979 yilda YaIM dagi ko'rsatkichi 5,1% ni tashkil etgan bo'lsa, 1981 yilga kelib, uning salmog'ini 1,2 % ga kamaytirishga erishildi. Keyinchalik esa, ya'ni, 1990 yillardan boshlab, byudjet taqchilligi yana ko'paya bordi va bu tendensiya haligacha saqlanib kelmoqda.

Xitoy hukumati jahon iqtisodiyoti tajribasidan kelib chiqib, soliqlarni keskin ravishda kamaytirish bo'yicha qator choralarni ishlab chiqdi. Agarda, 1979 yilda soliqlarni YaIM dagi salmog'i 30,4 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 1996 yilga kelib, bu ko'rsatkich -10,4% ga qisqardi. Mana shu soliqlar salmog'ining pasayishi oqibatida, barcha davlat daromadlarini pasayishi ham kuzatildi. Ular 1979.yilda YaIM ni 31,3 % ini tashkil etgan bo'lsa, 1996 yilga kelib, bu ko'rsatkich 11,5% ni tashkil etdi.⁵⁸

Davlat daromadlarida bunday keskin tarzdagi kamayishlar yuz bergan bo'lsada, davlatning asosiy makroiqtisodiy uo'rsatkichlarini muvozanatidan chiqara olmadi, uning sababi, mana shunday tadbirlar o'tqazilishi bilan bir vaqtda davlat byudjetining xarajatlar qismi ham keskin qisqartirila boshlandi. Agar, ushbu xarajatlarning YaIM dagi salmog'i 1979 yilda 36,4% ni tashkil etgan bo'lsa, 1996 yilga kelib, u 13,1% ga qisqartirildi. Shunga o'xshagan qisqartirishlar byudjetning deyarli barcha qismlarini qamrab oldi, ya'ni, investisiya, subsidiyalar, dotatsiyalar, mudofaa, xalq xo'jaligi, ijtimoiy ta'minot sohalari va boshqalarni.

Umumiy davlat xarajatlari tarkibidagi eng keskin kamayish – markaziy byudjet xarajatlarida yuz berdi. Ya'ni, ushbu ko'rsatkichning YaIM dagi salmog'i 1979 yilda 20% bo'lgan bo'lsa, 1996 yilga kelib, mazkur ko'rsatkich 3,8% ga tushdi. Mahalliy byudjetning xarajatlar qismida esa, qisqartirishlar nisbatan kamroq bo'lsa ham, ular ancha sezilardi bo'ldi, 1979 yilda ularning YaIM dagi salmog'i 15,7% dan 1996 yilga kelib 8,3% ga qisqardi.

58 .Xitoy Bosh Davlat statistika boshqarmasi, 2007 y. ma'lumotlari.

Hozirgi davrda Xitoyning davlat byudjeti taqchilligini kamaytirish va ularni muvozanatda ushlab turish uchun kerakli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2006 yilni ko'rsatkichlari bo'yicha, davlat byudjeti taqchilligi mamlakat YaIM ning 1,5% ini tashkil qildi.

XXR ning Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, Xitoyda 2007 yilda davlat byudjeti taqchilligi o'tgan 2006 yilga nisbatan, 50 mlrd. yuanga ya'ni, 6,46 mlrd. AQSh dollariga kamaytirildi, bu 1,1% ga qisqartirishni ko'zda tutar edi. Bu esa, amalda 245 mlrd.yuanni, yoki 31,66 mlrd.AQSh dollarini tashkil etdi. Markaziy byudjetning umumiy daromalari esa, 2 trln.442 mlrd.yuanni yoki 315,518 mlrd.AQSh dollarini tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich 2006 yilga nisbatan 15% ga ko'proqdir.

Ma'lumki, oxirgi yillarda Xitoyda davlat byudjetining xarajatlar qismining ayrim sohalarida ko'payish tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, 2006 yilda Xitoyda harbiy sohaga markaziy byudjetdan ajratilgan mablag'lar – 35 mlrd.AQSh dollarini tashkil etdi. Agar, uni 2005 yilga nisbatan qiyoslasak, u 14,7% ga ko'proq ekanligini va byudjetning umumiy xarajatlarini 7,4% ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Shunday bo'lsada, mazkur ko'rsatkich, boshqa rivojlangan mamlakatlar bilan solishtirganda, unchalik katta emasligini ko'rishimiz mumkin, ya'ni Yaponiyada ushbu sohaga yiliga taxminan 45 mlrd.AQSh doll., Amerikada esa, yiliga 300 mlrd. doll. atrofida mablag' sarflanadi.

Oxirgi yillarda Xitoyning savdo balansidagi aktiv saldosi (qoldig'i) uzluksiz o'smoqda, ya'ni u, 2004 yilda 69 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, (bu esa mamlakat YaIM ning 3,6% ni ko'rsatadi) 2005 yilga kelib, savdo balansining aktiv saldosi 101,8 mlrd. AQSh dollarini, 2006 yilda esa, bu ko'rsatkich 177,6 mlrd.doll.ni tashkil etdi. XXR sining tijorat vazirligi statistik ma'lumotlariga ko'ra, ushbu ko'rsatkich 2007 yilda 238 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi.⁵⁹

Xitoy davlatining valyuta zahiralar, uning ijobiy savdo saldosi hisobiga ko'payib bordi. Agar u, 2000 yilda 200 mlrd. AQSh doll.dan iborat bo'lgan bo'lsa, 2007 yilga kelib, u – 1,4 trln. AQSh doll.ga yetdi, bu esa dunyo valyuta zahirasining 1/4 qismini tashkil etadi.

59 XXR sining Tijorat vazirligi 2007 y. statistik ma'lumotlari.

Ushbu holatlarning barchasi milliy valyutaning o'sishiga yordam berdi. Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash uchun, Xitoy Markaziy banki valyuta bozori faoliyatiga o'z ta'sirini kuchaytirishi lozim bo'lib, ya'ni u, amerika dollarini sotib olishi va o'z jenminbi – xitoy yuanini muomalaga chiqarishi lozimdir. Yangi jenminbining qo'shimcha chiqarilishi, o'z navbatida qo'shimcha aylanma mablag'larni talab qiladi. Milliy valyuta yuanning o'sishi, iqtisodiyotning o'sishiga mos kelishi uchun va pul muomalasi tezligini sekinlashishi uchun, Xitoy Markaziy banki, o'zining veksellarini sotuvga qo'ydi. Shunga qaramay Xitoy moliya tizimida hanuzgacha ortiqcha aylanma mablag'lar uchrab turadi. Ushbu "ortiqcha pullar" esa, ahamiyatli tarzda iste'mol tovarlariga, ko'chmas mulkka va aksiyalarga narxlarni o'sishini rag'batlantiradi.

2006 yildan boshlab, mamlakatdagi xitoy korxonalarining aksiyalari 2 baravarga oshdi. 2005 yilda ularning bozor narxlari yalpi ichki mahsulotning yarmiga teng bo'ldi, bugungi kunda esa, u mamlakat yalpi ichki mahsulotining umumiy hajmidan ham oshib ketdi.

15 oktyabr 2007 yildagi XKP ning 17 s'ezdida XXR si raisi Xu Szintauning ta'kidlaganidek, Xitoy 2020 yilga kelib, o'zining YaIM ni aholi jon boshiga to'g'ri kelishini 2000 yilga nisbatan, 4 baravarga oshirishga qaror qilgan bo'lib, 2020 yilga kelib, mazkur ko'rsatkich 3,5 ming AQSh dollarini tashkil qilishi kutilmoqda. 2006 yilning natijasiga ko'ra, mamlakat YaIM ning aholi jon boshiga to'g'ri kelishi 2 ming AQSh dollaridan oshgandir.⁶⁰

Mana shu maqsadlarga erishish uchun esa, mamlakatdagi YaIM ning yillik iqtisodiy o'sish sur'atlarini o'rtacha 5% atrofida ushlab turish kifoyadir.

2007 yilning dekabr oyida Pekin shahrida iqtisodiyot bo'yicha Xitoy Kommunistik Partiyasining Markaziy Kengashi bo'lib o'tdi, unda mamlakatdagi inflyatsiya jarayoniga va iqtisodiyotning "qizib ketishiga" qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Unga ko'ra, hukumat 2008 yilda o'zining moliyaviy siyosatini yanayam takomillashtirishga qaror qildi. Bu esa, ushbu yo'nalishda davlatning iqtisodiyotga aralashuvini davom ettirishga majburligini anglatib, u ijtimoiy

60 Мировая экономика: тенденции развития до 2020 г., под ред. А.А.Дыткина, М..2007 г.

xarajatlarda umumiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlashini va milliy valyutani haddan tashqari ko'p chiqarishini cheklab turadi.

2007 yilda Xitoy Markaziy banki rezerv depozit stavkasini yana 1% ga oshirishga qaror qildi, bu esa, stavkaning o'ninchi marta oshirilishi bo'lib, shu yil bank 400 mlrd.yuan hajmdagi kapitalni qotirib qo'ydi. Bugungi kunda rezerv depozitining stavkasi milliy valyutada – 14,5% ni tashkil etadi, bu esa, oxirgi 20 yil ichidagi eng yuqori rekord stavka hisoblanadi.

Garchi, Xitoy davlati 2007 yilda iqtisodiy sohada katta yutuqlarni qo'lga kiritgan bo'lsada, mamlakatdagi mavjud ichki talabning yetishmasligi mamlakat uchun jiddiy muammoga aylandi.

2008 yil boshida Xitoyda iqtisodiyot bo'yicha, Markaziy Kengash bo'lib o'tib, unda mazkur yilning eng asosiy vazifalaridan biri - ichki monetar siyosatning o'zgartirilishi bo'lib topildi. Mazkur yilda mamlakatdagi pul massasi ustidan qattiq nazorat o'rnatilishi zarurligi to'g'risida kelishilib olindi va ushbu nazorat davlatning bank va moliya tizimlari orqali amalga oshiriladigan bo'ldi. Uning eng asosiy masalasi, mamlakatdagi zarur va mavjud pullarning nisbatini tenglashtirishdan iboratdir.

So'zsiz, yaqin kelajakda Xitoy iqtisodiyotining yuqori o'sish sur'atlari davom etadi, ammo, lekin, davlatning eng asosiy vazifasi mamlakatda "iqtisodiyotning qizib ketish" iga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir. Undan tashqari, kapital va energiya sig'imi yuqori bo'lgan korxonalarni va eksport qilish bog'liqligini kamaytirish lozimdir. Shu bilan birga, yuqori darajada ichki talabni kengaytirishga tayanish lozimdir.

Hukumat shaharlardagi ishchi va xizmatchilarning daromadlarini ko'tarish uchun, ularning oylik ish haqilarini oshirib, yana ularga rag'batlantiruvchi tizimni kiritdi. Undan tashqari, milliy iqtisodiyotni va mamlakat xo'jalik faoliyatini natijalarini yaxshilash va ularni mustahkamlash uchun, hukumat tomonidan mahalliy hukumat organlarining moliyaviy holatini mustahkamlovchi qator tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Mavzuni mustaxkalmash uchun savollar:

1. Xitoy davlat byudjetiga qachon asos solingan?

2. Mamlakat davlat byudjetining tarkibi nimalarni o'z ichiga oladi?
3. Xitoy davlat byudjetidagi uning xarajatlar qismining ortib borishiga nimalar sabab bo'lmoqda?
4. Xitoy hukumati byudjet taqchilligini qanday hal qilmoqda?
5. Mamlakat davlat byudjetining xarajatlar qismi nimalarga sarflanadi?
6. Byudjetdan tashqari fondlarga nimalar kiradi?.

Mustaqil ish vazifalari:

1. 2008 yildagi Xitoy davlat byudjetining bajarilishi.
2. XXR va O'zbekiston davlat byudjetlarini bajarilishini 2009 yil bo'yicha taqqoslang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Круглов А.М. Сельские (поселко-волостные) предприятия в КНР М., 2000. Ч.1. 126 с.,
2. Шевель И.В. Реформа налоговой системы КНР., М., 2002. 158с..
3. Мировая экономика: тенденции развития до 2020 г. Под ред. акад. А.А. Дынкина Москва, Магистр, 2007. 429 с..
4. Ш.Сабитов Экономика Китая: вчера и сегодня. /Рынок, деньги и кредит, 2001, № 10/11, с. 40-41.
5. Hands across the Strait. Shameen Assif. Bus. Week. Eur. Ed. 2004, №6 -13 Sept., p.41.
6. International Monetary Fund: International Financial Statistics. - 2005. August.- 106p.

Internet saytlari

1. www. World -bank. org.
2. www. xinhua.org.

10-Mavzu: Xitoy bank tizimi va undagi islohotlar.

Reja:

- 10.1. XXR bank tizimining tarkibiy tuzilishi.

10.2.Xitoy bank tizimidagi islohotlar.

10.3.Xitoydagi xorijiy moliyaviy tashkilotlar

Tayanch iboralar:bank tizimi, markaziy bank, tijorat banki,bank operatsiyalari, mablag‘, pul-kredit, valyuta, jenmenbi, zayom, proteksionizm.

Darsning maqsadi: Xitoy bank tizimining tarkibiy tuzilishi va uning rivojlanish xususiyatlari, undagi islohotlar jarayonini chuqurroq o‘rganib chiqish hamda Xitoydagi xorijiy moliyaviy tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotga ega bo‘lish.

10.1.XXR bank tizimining tarkibiy tuzilishi.

Hozirgi kunda, Xitoy Xalq Respublikasi bank tizimi o‘z tarkibiy tuzilishiga ko‘ra, quyidagilardan iboratdir:

1. Xitoy Xalq banki
2. Xitoy Sanoat-savdo banki:
3. Xitoy qurilish banki
4. Xitoy Investision banki
5. Xitoy qishloq xo‘jalik banki
6. Xitoy banki
7. Xitoy Kommunikatsiya banki
8. Xitoy Xalqaro kredit-investision korporatsiyasi.
9. Xitoy qishloq kredit kooperativlari
10. Shahar kredit kooperativlari.

Xitoyda **Xitoy Xalq banki** - markaziy bank vazifasini o‘taydi, uning asosiy vazifalari quyidagilardan iboratdir: boshqarish; muvofiqlashtirish; nazorat qilish; maxsus banklar va moliyaviy tashkilotlarni reviziya qilish.

Xitoyning Sanoat-savdo banki - maxsus davlat banki hisoblanib, shahar va qishloqda sanoat - savdo zayomlari va jamg‘armalari bilan shug‘ullanadi.

Xitoy banki esa, davlat valyuta va tashqi savdo banki hisoblanadi. U Xitoy Xalq banki bilan birgalikda, davlat bank operatsiyalarini va makroboshqarishdagi moliyaviy xolatlarni amalga oshiradi. Shu bilan birga, u yana, valyuta mablag‘larini jamg‘arish va undan foydalanish ishlarini ham amalga oshiradi hamda turli valyutalar va jenminbi (Xitoy milliy valyutasi) bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarni olib boradi.

Xitoy qurilish banki - davlatning asosiy kapital jamg‘armalari va investision fondlarini boshqaradi. U bir vaqtning o‘zida 2 ta vazifani bajaradi, ya’ni, kapital qurilishni mablag‘ bilan ta’minlaydi va unga kredit beradi.

Xitoy qishloq xo‘jalik banki - qishloq va shahar tipidagi qishloq poselkalarida hamma moliyaviy-bank operatsiyalarini olib boradi.

Xitoy Kommunikatsiya banki - universal bank bo‘lib, u to‘la xo‘jalik hisobi va mustaqil xo‘jalik yuritish tamoyili asosida, o‘zining moliyaviy balansini mustaqil ta’minlaydi.

Xitoy Xalqaro kredit-investision korporatsiyasi faoliyati xitoy-xorijiy qo‘shma korxonalarini tashkil etishdir. U esa, o‘z navbatida, aralash kapital, tashqi va ichki kapital quyilmalari orqali, xorijiy davlatlar va xususan, Xitoyga texnik tomondan yordam ko‘rsatish, tashqi va ichki bank operatsiyalarini o‘tkazish, konsultativ xizmat ko‘rsatish ishlarini olib boradi.

Xitoyning qishloq kredit kooperativlari, qishloqlardagi hisob-kitob, kredit va aholining jamg‘armalari bilan shug‘ullanadi. Undan tashqari, mazkur kooperativlar davlat mablag‘larini qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirish bilan ham shug‘ullanadi.

Shahar kredit kooperativlari faoliyati esa, xususiy sanoat-savdo sektorini va korxona jamoa mulk egalariga kreditlar va jamg‘arlar berish bilan shug‘ullanadi.

1995 yildan boshlab, kredit kooperativlari, bir qator o‘rta va yirik shaharlarda, banklarga aylana boshladi. Shu bilan birga, yuqorida

ta'kidlangan bank tashkilotlaridan tashqari, Xitoyning fond bozorlari mamlakatning rivojlanish ehtiyojlariga qarab, oxirgi yillarda yangi shakllardagi ko'pgina fond kompaniyalari va fond birjalari tashkil etilmoqda.

10.2.Xitoy bank tizimidagi islohotlar.

1980 yillardan boshlab, mamlakatda, moliya-kredit tizimi islohotlari amalga oshirilmoqda. Bu jarayon bank tashkilotlari sonini, ularning yo'nalishlari va vazifalarini ko'payishi va ularning mustaqil tijorat tashkilotlariga aylanishi bilan uzviy bog'liqdir.

XXR da kundan-kunga, bank kreditlarini qo'llash ko'lamini kengaytmoqda. Qisqa muddatli (200 mlrd. yuan) kreditlarni berish bilan bir qatorda, mamlakatda, o'rta muddatli sanoat-savdo tashkilotlarini kreditlash keng tarqalmoqda. Mamlakatdagi kapital qurilishlari, davlat byudjeti tomonidan moliyalashtirish bilan birga, bank orqali kreditlash yo'li bilan ham amalga oshirilmoqda. Undan tashqari, Xitoyda boshqa moliyaviy tashkilotlar ham ko'payib bormoqda. Masalan, sug'urtalash, investision-kreditlash, ijara kompaniyalari shular qatoriga kiradi. Mamlakatda sekin-asta fond bozori ham shakllanib bordi. (veksellarni hisobga olish, aksiyalarni sotish va boshqa qimmatbaho qog'ozlari). Bu yo'nalish bo'yicha, Xitoyning bir qator shaharlarida fond birjalari ochildi. Aksiya va obligatsiyalarni chiqarish xajmi 100 mlrd. yuandan ham oshib ketdi. Ular asosan, bo'sh mablag'larni yig'ish uchun foydalaniladi. Davlat mulki korxonalarida aksiyalar chiqarish hajmi chegaralangan bo'lib, ularning chiqargan aksiyalari yoki obligatsiyalari korxona mulki qiymatidan oshmasligi lozim bo'lib, obligatsiyalar bo'yicha fond foyizi, ular qo'yiladigan jamg'armasidan ham oshmasligi lozimdir. Aksiyalar va obligatsiyalarni chiqarish tartib-qoidasini Xitoy banki boshqaradi. Bank tizimiga doir qonunchilik bazasining yaratilishi va bu yo'nalishda bir qancha «Xitoy Xalq banki to'g'risida qonun» va «XXR tijorat banklari to'g'risida qonun»larni qabul qilinishi, ushbu

sohadagi amalga oshirilayotgan islohotlarning tabiiy davomi bo'ldi. Ishlab chiqilgan qonunlarning birinchisi, 1995 yil 18 martda qabul qilindi va shu kundan boshlab, kuchga kirdi. Ushbu qonunda 51 ta modda bo'lib, ular sakkiz bo'limga ajratilgandir. Bu xolat esa, XXRga asos solingan vaqtdan beri, Markaziy bank to'g'risida qabul qilingan birinchi qonun ekanligini bildiradi. Xitoy iqtisodiyotini qayta qurishda, Markaziy bank mavqeini kuchaytiradigan, ushbu qonun, rivojlangan mamlakatlar markaziy banklarining tajribasini hisobga olgan holda, XVF yordamida va shu bilan birga, ayni vaqtda, mamlakatdagi real voqelikni hisobga olgan holda, ishlab chiqilgandir.

Ko'p yillar mobaynida, turli idoralar va mahalliy hokimiyat organlari kreditlash siyosati masalalarida, XXBga taz'yiqlik o'tqazib keldilar. Chunki, ba'zan, ular mamlakat markaziy bankiga qaraganda, ko'proq ta'sirga ega edilar. 1998 yil oxiri, 1999 yil boshlarida, XXB mamlakatdagi tanglik ahvolini bartaraf etish choralaridan biri sifatida, Markaziy bankning viloyat filiallarini qayta tashkil etdi. Xitoy Xalq bankining mavjud 31 ta (XXR viloyatlari soniga qarab) mintaqaviy filiali o'rniga, 9 ta yangi filiali tuzildi. Bunday chora-tadbirlar, mamlakat Markaziy banki ishiga mahalliy hukumatlarning aralashuvini kamaytirishga olib kelishi kerak edi.

Hozirgi vaqtda (2008 y.), Xitoy bank tizimi uch bosqichga ega bo'lib, ular:

1. Markaziy bank - Xitoy Xalq banki (2008 yil dekabrda o'zining 60 yilligini nishonladi);

2. 29 ta milliy davlat banki, shuningdek, xorijiy banklarning 179 ta operatsiya olib boruvchi filiallari;

3. 88 ta shahar tijorat banki, 3200 ta shahar va 44 mingta qishloq kredit kooperativlaridan iboratdir.

1980 yil o'rtalariga qadar, XXRda bank muassasalarida davlat monopoliyasi saqlanib keldi. Butun kredit faoliyatini (qishloqdagi kredit

kooperatsiyasini hisoblamaganda) bir qancha ixtisoslashtirilgan banklar (Sanoat-qurilish banki, qishloq xo'jalik banki, Xitoy Banki, Temir yo'llar banki va boshqalar) va ularning joylardagi filiallari hamda bo'limlari amalga oshirib keldi. Aslini olganda, tijorat banklari tizimi mavjud emas edi. Xorijiy banklar esa, Xitoy bozorini endigina o'zlashtira boshlagan edilar.

Xitoyda ko'p bosqichli kredit tizimi 1983 yil sentyabrida qurila boshlagan, deb hisoblanadi. O'sha davrda, XXR Davlat Kengashi moliya tizimini isloh qilish maqsadida, Xitoy Xalq banki maqomini o'zgartirish xaqida qaror qabul qildi. Mana shu qarorga muvofiq, Xitoy Xalq Banki (XXB) Markaziy bank vazifalarini bajara boshladi va u, savdo hamda sanoat korxonalarini kreditlash faoliyatini to'xtatdi. Shu o'rinda, 1970 yilda, XXB, aslida mustaqil muassasa sifatida tugatilganligini hamda u, XXR Moliya vazirligi tizimiga kiritilganligini aytib o'tish lozimdir. XXB tiklanganidan keyin, u xuddi avvalgidek, bevosita XXR Davlat Kengashiga bo'ysundirildi.

Hozirgi vaqtda, XXB ga mamlakatdagi banklar faoliyatini, pul-kredit siyosatini shakllantirish, ixtisoslashtirilgan banklar va boshqa moliya muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda taftish qilish vakolati berilgandir. XXR Davlat Kengashi yana unga, qonun asoslarida xujjatlar chiqarish, milliy oltin-valyuta zahiralarining holatini kuzatib turish, qimmatli qog'ozlar bozorini boshqarish xuquqini ham bergan. Endilikda, pul emissiyasining yillik hajmi rejasi, banklarning bazaviy foiz stavkalari va yuanning almashuv kursi o'zgartirilgan taqdirdagina Davlat Kengashi tomonidan tasdiqlanishi kerak bo'ladi. Kreditlash siyosatining turli vositalari esa, bankning o'ziga bo'ysunadi.

Xitoy va boshqa mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, davlat tomonidan iqtisodiyotning o'zi zarar ko'rib, davlat sektorini kreditlash uchun qarz berishi va bu qarzning muddatida qaytarib berilmasligi, mamlakatda yangi tashkil etilgan tijorat banklarining

asosiy muammolaridan biriga aylandi. Aynan, mana shu muammoni hal etish uchun, 1994 yilda XXRda, uchta «siyosiy» banklar tashkil etildi.

XXRda «siyosiy» banklar, davlatning siyosiy yo‘nalishini amalga oshirish va uni mustahkamlash vazifasini, tijorat maqsadlariga kreditlarni ajratish uchun, ta’sis etilgan edi. Ana shu maqsadda, 1994 yilda Xitoyda deyarli bir vaqtda uchta bank ochilib, ular quyidagilardir:

- Davlat rivojlanish banki:
- Xitoy Eksport-import banki:
- Xitoy qishloq xo‘jaligini rivojlantirish banki (Bu bank Xitoy qishloq xo‘jalik bankidan ajralib chiqqan bankdir).

Ushbu «siyosiy» banklarning ustavda belgilangan hamma mablag‘i, hukumat tomonidan ta‘minlanadi. Ulardan tashqari, Xitoyda, davlat sarmoyasi qismangina ishtirok etadigan banklar ham mavjuddir. O‘z navbatida, Xitoydagi «Siyosiy» banklarga odatda, aholi mablag‘lari jalb etilmaydi.

Xitoyning «siyosiy» banklaridan biri – uning Davlat rivojlanish bankidir (DRB). Ushbu bank tomonidan kreditlanadigan ob’ektlarni tanlashda u, XXR Davlat reja qo‘mitasi bilan baravar, hal qiluvchi xuquqqa egadir. Bankning har bir masala bo‘yicha bildirilgan fikri esa, kreditlash shartlari masalasini belgilash chog‘ida hisobga olinadi. 1997 yilning oxirida, Davlat rivojlanish banki mablag‘larining umumiy hajmi 381,148 mlrd yuan deb baholangan edi. Garchi, bank uchun foyda olish asosiy maqsad bo‘lmasada, shunga qaramay, 1997 yilning o‘zidagina, bankning sof foydasi 816 mln. yuanni tashkil qildi.

Xitoy Eksport-Import banki (XEIB) bevosita XXR Davlat Kengashiga bo‘ysunadi. U davlat tashqi iqtisodiy faoliyat banki hisoblanadi. Bankning asosiy vazifasi - XXR eksportini, ayniqsa, mashina va elektrotexnika uskunalarini eksport qilishni kengaytirishdan iboratdir. XEIB mablag‘larining asosiy manbai aksiya va obligatsiyalarni emissiya qilish orqali hamda ularni Xitoyda ham, chet

elda ham, joylashtirishdan iboratdir. XEIBanki yana, aralash kreditlashni ham amalga oshiradi. Shuningdek, u eksport kreditlarini sug'urtalaydi va ularga kafolatlar beradi.

Xitoy qishloq xo'jaligini rivojlantirish banki. Xitoy qishloq xo'jalik bankidan, mustaqil bank sifatida, ajralib chiqarildi. Bu holat esa, o'z navbatida, qishloq xo'jalik bankini, davlat tijorat bankiga aylantirish uchun sharoit yaratib berdi. 1997 yil oxirida, bankning umumiy sarmoyasi 923,3 mlrd. yuanni tashkil qildi (taqqoslash uchun: o'sha davrda, XXR davlat byudjeti 900 mlrd. yuanga yaqin edi).

Ushbu bank mablag'larining asosiy manbai, Xitoy Xalq banki kreditlaridan, shuningdek, aksiyalar va obligatsiyalar chiqarishdan (uncha katta bulmagan xajmda) kelib chiqadi. Mazkur bankning asosiy operatsiyalari qishloq xo'jaligini kreditlashdan, qishloq xo'jalik mahsulotini davlat tomonidan xarid qilish uchun kreditlar berish va maxsus davlat fondlarini tashkil etishdan iboratdir. Bankning, har bir viloyatda, o'zining bo'limlari mavjud bo'lib, shuningdek, ular shaharlarda 294 ta bo'limga va uezdlarda 1617 bo'limga egadirlar. Ularda ishlovchi xodimlarning umumiy soni -50 ming kishidan ortadi.

XXR bank tizimini isloh qilishda, qayta tiklangan mavjud to'rtta ixtisoslashtirilgan davlat banklarini (Xitoy Sanoat-savdo banki, Xitoy qurilish banki, Xitoy qishloq xo'jalik banki va Xitoy banki) tijorat banklariga aylantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur banklarning tashkiliy va boshqa bajaradigan ishlari jihatidan, jahon amaliyotiga yaqinlashtirishni nazarda tutilgan edi, lekin, amalda mazkur banklar davlat banklari bo'lib qolaverdi. Ular faoliyati ustidan hukumat nazorati bevosita emas, balki bilvosita (masalan, kuzatuvchilar kengashi orqali) amalga oshiriladi.

Xitoy Sanoat-savdo bankiga kelsak, bu bank bir muncha o'ziga xos tarzda tuzilgandir. XXR Davlat Kengashi 1983 yilning sentyabr oyida qabul qilgan qarori bilan, Xitoy Markaziy banki - Xitoy Xalq banki

bo'limlarining umumdavlat tarmog'i, yangi Xitoy Sanoat-savdo bankiga aylantirildi. Bankning Pekindagi asosiy idorasi xuquqlari ham ancha kengaytirildi. Yangi tashkil etilgan Xitoy sanoat-savdo banki, davlat sanoati, kooperativ sanoati hamda savdo bilan operatsiyalar o'tqazish bo'yicha, ixtisoslashtirilgan bankga aylandi. Ilgari, Xitoy Xalq banki tomonidan bajarib kelingan kreditlash, hisob-kitob va nazorat vazifalarini, Markaziy bank o'z zimmasiga oldi. 1997 yilning oxirida, bankning depozit hisob varaqlaridagi mablag'lari qoldig'i - 2251,1 mlrd. yuanni tashkil qildi. Bank chet elda 5 ta bo'limga va 3 ta vakolatxonalariga egadir.

Xitoyning ikkinchi davlat banki, bu- Xitoy Xalq qurilish bankidir. U davlatning asosiy fondlarini moliyaviy - investision tomondan ta'minlaydi. Shu bilan birga, u yana davlat byudjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilishni moliyalashga, kapital qurilish ob'ektlarini kreditlashga ixtisoslashgan hamdir. U bevosita XXR Moliya Vazirligiga va Xitoy Xalq bankiga bo'ysunadi. Shu sababli, moliyalash va kreditlar berish sohasida, ikki tomonlama vazifalarni bajaradi. Uning operatsiyalari, asosan, pul bilan ta'minlashdan va kapital qurilish uchun qarzlarni to'lab borishdan iboratdir. 1997 yil oxirida, bankning mol-mulki 2343,5 mlrd. yuan deb baholangan.

Mamlakat bank tizimida, Xitoy qishloq xo'jalik banki (XQXB) muhim o'rin tutadi. Bu bank 1951 yilda tashkil etilgan bo'lib, u qishloq xo'jalik kooperativ banki o'rnida paydo bo'lgan. Kooperativ bank zimmasiga qishloq xo'jaligini kreditlar bilan ta'minlash vazifalari yuklatilgan edi. Ushbu bank tashkil etilgan vaqtdan beri, 4 marta yopilib, har gal yana qayta tuzilganligi diqqatga sazovordir.

1979 yilning fevral oyida, Xitoy qishloq xo'jalik banki navbatdagi tiklanishdan keyin, qishloq xo'jaligi uchun davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'larni tasarruf eta boshladi. U mamlakat qishloq joylaridagi hamma omonatlar, qarzar va hisob-kitoblarni yuritib,

qishloq xo'jaligiga yordam ko'rsatishga mo'ljallangan, davlat fondlarini boshqaradigan bo'ldi.

XXR qishloq xo'jalik bankidan, XXR qishloq xo'jaligini rivojlantirish banki ajratib chiqarilganidan keyin, XXR qishloq xo'jalik banki davlat siyosatini amalga oshirish bilan bog'liq operatsiyalardan ozod qilindi va tijorat bankiga aylantirildi (qishloq joylardagi mijozlarga tijorat asosida kredit beradi). 1997 yilning oxirida, Xitoy qishloq xo'jalik bankining depozit mablag'lari 1109,6 mlrd. yuanni tashkil etdi.

Xitoy banki 1908 yilda ta'sis etilgan bo'lib, u 1921 yilga qadar, chet elda 21 ta bo'limga ega bo'lgan. U doimo xorijiy valyutada operatsiyalarni amalga oshirishda monopol mavqega ega bo'lib kelgan. Mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyati kuchayishi munosabati bilan, Xitoy bankining ahvoli ancha o'zgardi. 1980 yilda, uning ustavi qayta ko'rib chiqildi va bank davlat korxonasi deb e'lon qilindi. Xitoy Bankining ustav fondi 400 mln. yuandan, 1987 yilga kelib, 500 mlrd. yuangacha oshirilib, uning vazifalari ancha kengaytirildi. Hozirgi kunda, u mamlakat ichida 50 taga yaqin bo'limga, shuningdek, Gonkong, London, Lyuksemburg, NyuYork va Singapurda ham o'z bo'limlarga egadir. Uning, Tokio va Parij shaharlarida vakolatxonalari bor. 1998 yil oxirigacha, ushbu bankning 554 ta yangi bo'limlari ochildi. Xitoy banki mamlakatning barcha yirik shaharlari va savdo portlaridagi filiallardan tashqari hozirgi vaqtda Gonkong va Makaoda ham 261 ta bo'limga egadir.

Matbuot xabarlariga qaraganda, Xitoy banki 1997 yilda ikkinchi marta dunyoning 500 ta eng yirik korxonalari jumlasiga kirib, u 173-o'rinni egallagan. 1997 yil oxirida, ushbu bank aktivlari 2 trln. 231 mlrd. 700 mln. yuanni (268 mlrd. 879,5 mln. AQSh dollarini) tashkil etdi.

Kredit tashkilotlarini qayta tiklash, ayni vaqtda, Xitoy bank tizimining yanada rivojlanishini ham anglatar edi. XXRda eski

aksiyadorlik tijorat banklari tiklana boshladi va yangilari ham sekin-asta tuzila boshladi. 1999 yilni boshida, XXRda jami 20 ga yaqin, a'lo darajali aksiyadorlik tijorat banki mavjud edi. Mana shu guruh banklarning vakillaridan biri, 1986 yilda qayta tiklangan, Xitoy Kommunikatsiya banki bo'lib, u mamlakatning eng keksa banklaridan biri hisoblanadi. Unga ham, 1908 yilda asos solingan. Ushbu bank operatsiyalari 1958 yilda to'xtatilib, birozdan so'ng yana qayta tiklandi. Bank o'z maqomiga ko'ra, ko'p funksiyalarni bajaruvchi Umumxitoy aksiyadorlik banki hisoblanadi.

Bu bank mamlakatdagi aksiyadorlik tizimiga asoslangan, birinchi moliyaviy muassasa bo'ldi. Xitoy Kommunikatsiya bankining ustaviga muvofiq, bank XXR Davlat Kengashi boshqaruvi doirasida ish olib boradi. Hozirgi vaqtda, bank Xalqaro moliya bozorlarini faol o'zlashtirib, Xitoyning beshta eng yirik banki safidan o'rin oldi. U Xitoy iqtisodiyoti uchun xorijiy mablag'larni yetqazib beruvchi asosiy banklardan biridir. 1999 yil boshlarida, bank aktivlari 483,9 mlrd. yuan da baholangan edi. 1998 yil yakunlariga ko'ra, bank foydasi 2,55 mlrd. yuanni tashkil qildi. Bankning markaziy boshqaruv xizmati, Xitoyning moliya markazi bo'lgan, Shanxayda joylashgandir.

«The Vankeg» jurnali ma'lumotlariga qaraganda, 1998 yilda, Xitoy Kommunikatsiya banki, jahonning 1000 ta eng yirik banklari orasida 130 - o'rinda turgan, «Yeigoreu» jurnalining 1998 yildagi iyul sonida esa, unga «Xitoyning eng yaxshi banki» deb ta'rif berilgan.

Xitoy aksiyadorlik tijorat banklarining mana shu guruhga kiruvchi va kattaligi jihatidan ikkinchi o'rinda turuvchi yana bir vakili, Xitoy Xalqaro korporatsiyasining sanoat bankidir. Rasman, bank 1987 yil 20 aprelda 800 mln. yuan ustav sarmoyasi bilan ta'sis etilgan edi.

Xitoyning yirik kompaniyasi bo'lgan, C1T1C xoldingiga, hammasi bo'lib, 15 dan ortiq kompaniya hamda ularning (energetika, savdo, texnologiya kompaniyalari) Gonkong, Kanada va Avstraliyadagi sho'ba

kompaniyalari hamda uning Yaponiya, Nyu-York va Parijdagi vakolatxonalari kiradi. Bank samolyotlar lizingi bo'yicha operatsiyalarni ham amalga oshiradi. Bundan tashqari, C1T1C xoldingi Gonkongdagi «Ka Vax Banki» ga ham xomiylik qilmoqda.

Ushbu bank, yuqorida nomi tilga olingan korporatsiyaga bevosita va tamomila bo'ysunadigan, xilma-xil vazifalarni bajaruvchi muassasadir. U asosiy Xalqaro operatsiyalarni amalga oshirish xuquqini beradigan lisenziyaga ham ega bo'lib, dunyodagi 500 ta eng yirik banklar jumlasiga kiradi. 2000 yillar ma'lumotlariga ko'ra, bankning mulki 125,8 mlrd. yuanni tashkil qilgan. 2004 yil oxirida, bu bank, jami 179 ta bo'lim hamda vakolatxonalarga ega bo'lib, unda 5279 kishi ishlagan.

10.3.Xitoydagi xorijiy moliyaviy tashkilotlar

Yuqorida keltirilgan aksiyadorlik tijorat banklaridan tashqari, XXRda shu guruhga kiruvchi quyidagi banklar ham ishlab turibdi: «Xua TSyao Bank»; «Minshen Bank»; «Guandun viloyatini rivojlantirish banki»; «Fuszyan viloyatini rivojlantirish banki; «Pudun zonasini rivojlantirish Shanxay banki». Ularning mablag'lari 10 mlrd. yuandan 100 mlrd. yuangacha boradi.

XXR bank tizimida, hozirgi vaqtda, xorijiy moliya tuzilmalarining vakolatxonalari ko'zga ko'rinarli o'rinni egallab turibdi. Ular, XXR hududida moliyaviy operatsiyalar o'tkazish borasida muayyan xuquqlardan foydalanadilar. Lekin, umuman olganda, ularning faoliyati qat'iy chegaralangandir.

Shunisi diqqatga sazovorki, 1949 yilda, XXRsi tashkil etilganidan keyin, xorijiy banklarning Shanxayda joylashgan to'rtta bo'limiga, Xitoy matbuoti ta'rifiga ko'ra, muayyan, «tarixiy sabablar tufayli», oshkora tarzda "ochiqlik" maqomi berildi. Ushbu maqom, ularning mamlakatdagi nufuzini saqlab qolishlariga imkoniyat yaratib berdi. 1984 yildagina, Valyutani nazorat qilish Davlat boshqarmasi va Xitoy Xalq banki,

ularning xuquq doirasini kengaytirishga va chet el valyutasida moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga ruxsat berdi.

Xorijiy banklarning bo'limlari, mijozlarga yaxshiroq hizmat ko'rsatilishini, ayniqsa, savdo sohasidagi hisob-kitoblar bo'yicha, pul oqimlarini, nisbatan tezroq harakatlanishini ta'minlamoqdalar. Biroq, xorijiy banklar bo'limlarining faoliyati uchun, Xitoyda mavjud bo'lgan bunday cheklovlar, ya'ni, yuanda operatsiyalar yuritishni taqiqlash, ular faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xitoy hukumati mamlakat banklariga nisbatan proteksionizm siyosatini olib bormoqda. Chunki, bu banklar, chet el banklari ega bo'lgan, texnikaviy ustunlik va tajribaga ega emasdir. Shu tariqa, proteksionizm siyosati mamlakatda milliy bank tuzilmalari qaror topishiga yordam bermoqda. Xitoy Milliy banklari hozirgi vaqtda, chet el banklari bilan muvaffaqiyatli raqobatlashishga qodirdir. Chunki, ular keng tarqalgan bo'limlar hamda jamg'arma banklari tarmoqlariga egadirlar.

Xitoy bozorining katta hajmdagi imkoniyatlari, o'ziga Xorijiy banklarni tortadi. Bu bozor XXI asrda, chet el taxlilchilarining taxminlariga qaraganda, dunyoning eng yirik moliya bozoriga aylanadi. Hozirgi kunda, chet el banklari, Xitoydagi savdo operatsiyalarida qatnashib, foyda ko'rayotganliklarini va o'zlari ham, yuanda operatsiyalar olib borish imkoniyatlarining katta ekanligini tan olmoqdalar. Hozirgi vaqtda, chet el banklari orasida, ayniqsa, Yaponiya, Germaniya va AQSh banklari, Xitoyda keng faoliyat olib bormoqdalar. Banklarning vakolatxonalari, asosan, Xitoy moliya sektori, chet el banklari uchun yanada ko'proq erkinlashtirilishini ko'zlab, yaxshi mavqeni egallash maqsadida tashkil etilmoqda.

Chet el banklari operatsiyalarining nisbatan, kichik hajmga ega bo'layotganligiga asosiy sabab shuki, ularda, yaqin vaqtgacha, xorijiy banklar Xitoy milliy valyutasi «jenmenbi»da operatsiyalar olib borish

xuquqiga ega emas edilar. Hozirgi vaqtda, 25 ta chet el bankiga, «jenmenbi»da, ya'ni, yuanda hisob-kitob yuritishga ruxsat berildi.

Xitoy matbuotining axborotlariga ko'ra, agar, odatda, xorijiy banklar bo'limlari o'z faoliyatlarining oltinchi yilidan boshlab foyda keltira boshlasalar, Shanxayda, qoida tariqasida, bank bo'limi uchinchi yildayoq, Guanchjouda esa, hatto ikkinchi yildayoq, foyda keltirishi mumkindir. Chet el banklarining Xitoydagi bo'limlari oladigan foyda, ulardan xo'jalik faoliyati solig'ining (5 foiz) undirilayotganligi sababli kamayib bormoqda. Odatda, jahon amaliyotida bunday soliqlar qo'llanilmaydi.

Tijorat banklari bilan bir qatorda, 1992 yil oxiridan boshlab, Xitoyda yirik investitsiya banklari va bank guruhlar o'z vakolatxonalari va bo'limlarini tashkil eta boshladilar. Ularning maqsadi - Xitoyda yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashdan iboratdir.

1998 yil iyun oyiga kelib, chet el moliya institutlari Kontinental Xitoyda, turli xil operatsiyalar olib boruvchi 178 ta moliya tashkilotini tavsiya etdilar. Shu jumladan, xorijiy banklarning 146 ta filiali, mahalliy idoralarda ro'yxatdan o'tgan 13ta bank (6ta. mustaqil-bank, 7ta Xitoy va chet el qo'shma banki); 7ta chet el moliya kompaniyasi, 11ta xorijiy sug'urta kompaniyasi va 1ta qo'shma investitsiya kompaniyasi ta'sis etildi.

2000 yil o'rtalariga kelib, chet el banklarining Xitoydagi umumiy sarmoyasi 99,39 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Bu esa, mintaqaviy Xitoy moliya institutlari valyuta sarmoyasining 26,4 foiziga tengdir. Chet el banklari o'zi bilan birga faqat sarmoyagina emas, balki yanada muhimroq bo'lgan, ilg'or texnologiyalar va moliyaviy mablag'larni hamda boshqaruv tajribasini ham olib keldilar. Mamlakatning jahon iqtisodiyoti bilan chuqurlashib borayotgan integratsiyasi, Xitoy moliya sektorini chet el moliya va kredit tashkilotlari uchun, yanada kengroq ochib qo'yishni zarurat qilib qo'ymoqda.

Xitoyda banklardan tashqari, ko‘p sonli boshqa moliya muassasalari, shu jumladan, kredit-investisiya kompaniyalari ham ish olib bormoqda. Bulardan eng yirigi, 1979 yilda tashkil etilgan e’timodli operatsiyalar va investitsiyalar bo‘yicha, Xitoy Xalqaro korporatsiyasidir. U bevosita Davlat Kengashiga bo‘ysunadi, uning markaziy boshqaruvi esa, Pekinda joylashgandir. Korporatsiya chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxona hisoblanadi. U chet el kreditlarini jalb etish maqsadida, chet elda xorijiy firmalar bilan birgalikda, moliyaviy va boshqa tashkilotlarni ta’sis etish xuquqiga egadir.

1998 yil boshida XXRda jami 244 ta investisiya kompaniyasi mavjud edi. Shulardan, 22 tasi Umumdavlat kompaniyasi, 222 tasi esa, mahalliy kompaniyalar edi. Shuni aytib o‘tish kerakki, avvalgi yillarda bunday kompaniyalar soni 745 taga yetgan bo‘lib, lekin, ularni qayta ro‘yxatdan o‘tkazish va qo‘shib yuborish natijasida, ularning soni ancha qisqardi.

2004 yil oxirida, Xitoy investitsiya kompaniyalari mablag‘larining Xitoy milliy valyutasi, jenmenbidagi umumiy hajmi 634,0 mlrd. yuan deb baholandi. Shulardan 62,2 foizi kreditlar shaklida berildi va 14,0 foizi bevosita korxonalarga investisiya qilindi. Undan tashqari, 2005 yilda ushbu kompaniyalar 23,97 mlrd.AQSh dollari miqdorida kredit berdilar va korxonalarga investitsiyalar qo‘ydilar.

Xitoyning qishloq kredit kooperativlari, shahar kredit kooperativlari hamda shahar kooperativ banklari ham, XXR bank tizimining tarkibiy qismidir. 1998 yil sentyabrda, 44 mingta qishloq kredit kooperativlarining mol- mulki 1550 mlrd. yuan deb baholandi. Bu esa, mamlakat bo‘yicha depozitlar umumiy miqdorining 14 foizidan ko‘prog‘ini tashkil etadi. Qishloq kredit kooperatsiyasida rasman band bo‘lgan ishchi va xizmatchilar soni esa, 650 ming kishiga yetdi. Xitoy qishloq xo‘jaligini kreditlash umumiy hajmining 60 foizga yaqini, qishloq kredit kooperativlariga to‘g‘ri keladi.

1979 yilning iyun oyidan boshlab, XXRda uncha katta bo'lmagan shahar kredit kooperativlari ham shakllana boshladi. Hozirda, ular 3200 taga yetdi. Shu bilan birga, shahar kredit kooperativlarining hisob varaqalaridagi depozit mablag'lari hajmi - 388,3 mlrd. yuanni (depozitlar umumiy xajmining 3 foiziga yaqin) tashkil etadi. Ba'zi shahar kredit kooperativlari asta-sekin kichik shahar tijorat banklariga aylantirila boshlandilar. 1999 yil boshida, XXRda 609,1 mlrd. yuan (mamlakatdagi depozitlar umumiy hajmining 6 foiziga yaqin) sarmoyaga ega bo'lgan 88 ta shahar kooperativ banki bor edi.

Shahar kooperativ banklariga davlat monopoliyasi chek qo'ygan bo'lsada, biroq, shahar kredit kooperativlarining sarmoyasi oz, ularning ko'lamini arziyas darajada bo'lib, omonatlari ham sekin o'smoqda. Ularning mamlakatda mavjud xatarga qarshilik ko'rsatish qobiliyati kuchli emas, tashkil etish va ish olib borish uchun esa, ularda, me'yoriy baza yo'q bo'lib, kadrlar tayyorlash darajasi ancha past va demokratik boshqaruv hamda ichki audit mavjud emas edi.

Hozirgi kunda XXRning bank tizimi, to'la shakllanib bo'lgan, deb hisoblash mumkin emas, chunki uning bank infratuzilmasi bozor iqtisodiyoti ehtiyojlaridan orqada qolmoqda. XXR kredit tizimi hozir ham davlat tomonidan qattiq nazorat qilinishi bilan ajralib turadi. Biroq, buxol asosiy makroiqtisodiy maqsadlarga erishishga halaqit bermaydi. Shunday bo'lsada, yaqin vaqt ichida, Xitoy oldida moliya- kredit sohasida muddati o'tgan kreditlarning nisbatan yuqori ulushi, pul mablag'lari aylanishining, nisbatan past sur'atlari, past iqtisodiy samaradorlik kabi muammolarni hal qilish vazifasi turadi. Bu muammolar banklarning o'z zahiralarini hisobiga rivojlanish imkoniyatlarini kamaytirmoqda va bank operatsiyalarining xavf-hatarini oshirmoqda.

Xitoyning Markaziy byudjetiga, markazga bo'ysunuvchi xo'jalik organlari daromadlari, bojxona bojlari, tashqi zayomlar kiradi. Uning

mablag'lari davlat ahamiyatiga molik dasturlarni moliyalashga ketadi. Undan tashqari, byudjet mablag'lari, yana yirik xalq xo'jaligi ob'ektlarini qurishga, ilm-fan, madaniyat, sog'liqni saqlashga, harbiy kuchlarni, markaziy boshqaruv apparatini ta'minlashga ketadi. Markaziy byudjet hamma byudjet daromadlarining 2/3 qismini yig'adi va hamma xarajatlarni 50 foizini qoplaydi.

Mahalliy byudjetga, mahalliy korxona va tashkilotlar daromadlari hamda bir qator soliqlar kiradi. Davlat byudjeti daromad qismining 92,5%i turli soliqlar kirimidani tashkil topadi, jumladan, sanoat-savdo solig'i 53% soliqlardan, 23%-i davlat korxonalari daromad solig'ini tashkil etadi.

Xitoyda xorijiy banklarni boshqarish bo'yicha, bir qator farmonlar ishlab chiqarilgandir. XXRda hozirda, 180 dan ortiq xorijiy banklar, moliya tashkilotlari va sug'urta kompaniyalarining vakolatxonalari faoliyatlari 1985 yilda Xitoydagi erkin iqtisodiy zonalarida, Xitoy-xorijiy aralash kapital banklari va xorijiy banklar faoliyatini boshqarish bo'yicha qonunlar ishlab chiqildi. Xitoyda, asosan, Yaponiya, AQSh, Fransiya, Angliya, Gollandiya banklari faoliyat ko'rsatmoqda. Masalan, Yaponiyaning - Sumimoto banki, Syamen Xalqaro banki, Shveysariya banki, Cheyz Manxeten banki (AQSh), Parij milliy banklari muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

- 1.XXR bank tizimining tarkibiy tuzilishi qanday?
- 2.Xitoy bank tizimidagi islohotlarning xususiyatlari?
- 3.Xitoy Xalq Banki funksiyalari nimalardan iborat?
- 4.Xitoydagi xorijiy moliyaviy tashkilotlarning faoliyati qanday?
- 5.Xitoydagi eksport-import banklari faoliyatlari?
- 6.Xitoy Investitsiya banklari to'g'risida ma'lumot bering.
- 7.Xitoy Kredit investitsion Bankining faoliyati qanday?
- 8.Kredit kooperativlari qanday faoliyat bilan shug'ullanadi?

Mustaqil ish vazifalari:

1. Xitoy bank tizimidagi muammolar to'grisida ma'ruza tayyorlang.
2. Syangan, Makao, Tayvan bank tizimlarini tahlil qiling va ularning bir-biridan farqini aniqlang?

Foydalanilgan adabiyotlar royxati.

1. Китай: Факты и цифры, 2005 г. Ежегодник. Изд. Синьсинь, Пекин, 2005г.
2. Китайская Народная Республика 2007 г.: политика, экономика, культура, Под ред. Титоренко, Москва, 2008 г.
3. Jin Min Ji Bao. 17.07.05
4. «Zhong Guo 2004 », 04.11.05
5. International Monetary Fund: International Financial Statistics.-2005. August.-157p.

Internet saytlari

1. www. World -bank. org.
2. http: || tw. jahoo. com.
3. www. xinhua. org.

11-Mavzu: Xitoy pul-kredit siyosatining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari.

Reja:

- 11.1. Xitoyning pul-kredit siyosati va undagi o'zgarishlar.
- 11.2. Xitoyning milliy valyutasi yuanni mustahkamlash chora tadbirlari
- 11.3. Xitoy davlat nazorati boshqarmasini tashkil topishi.
- 11.4. Valyuta ayirboshlash va boshqarish markazlarini shakllanishi
- 11.5. Valyuta ayirboshlash va boshqarish markazlarining maqsad va vazifalari.

Tayanch iboralar: rezerv valyuta, aksiya, obligatsiya, ayirboshlash, konvertatsiya, suzib yuruvchi valyuta kursi, bitim, eksport, investitsion iqlim, valyuta balansi.

Darsning maqsadi: Xitoyning pul-kredit siyosati va undagi o'zgarishlar, uning milliy valyutasi-yuanni mustahkamlash chora tadbirlari, davlat nazorati boshqarmasini tashkil etilish masalalarini organib chiqish.

11.1.Xitoyning pul-kredit siyosati va undagi o'zgarishlar.

Pul-bu xo'jalikda uzluksiz paydo bo'layotgan va davom etadigan ayirboshlash jarayonlarini ta'minlab beruvchi eng qulay va sodda vositadir. Pulning harakati esa, bozor iqtisodiyotining moliyaviy asoslaridan biri bo'lib, uning barqarorligi pul tizimi, daromadlar va xarajatlar aylanishiga xayotiy tus bag'ishlaydi., butun iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlab beradi, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanishga imkon tug'diradi va to'la bandlikka erishishni ta'minlaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul mablag'lari to'xtovsiz harakatda bo'ladi, tovarlar va xizmatlar ayirbosh qilish jarayonida resurslar uchun to'lovlarni amalga oshirishda, ish haqi hamda boshqa majburiyatlarni to'lashda pul qo'ldan-qo'lga o'tib, aylanib turadi. Pulning o'z vazifalarini bajarish jarayonidagi bu to'xtovsiz harakati pul muomalasi deyiladi.

Jahonda tarixan shakllangan hamda har bir mamlakat tomonidan qonuniy ravishda mustahkamlab qo'yilgan pul muomalasining turli tizimlari amal qiladi. Mamlakat pul tizimining muhim tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- 1) milliy pul birligi
- 2) naqd pul muomalasida qonuniy to'lov vositasi sifatida amal qiluvchi qog'oz, tanga va kredit pullar tizimi;
- 3) pul emmissiyasi, ya'ni belgilangan qonuniy tartibda pulni muomalaga chiqarish tizimi;
- 4) pul muomalasini tartibga soluvchi davlat idoralari.

Pul muomalasi naqd va kredit pullar yordamida amalga oshiriladi. Naqd pul muomalasiga bank biletlari va metall tangalar (pul belgilari) xizmat qiladi. Naqd pulsiz hisoblar, cheklar, kredit kartochokalari, veksellar, akkreditivlar, to'lov talabnomalari kabilar yordamida amalga oshiriladi. Ularning hammasi pul agregati

deb yuritiladi. Muomalada mavjud bo'lgan pul massasi ularni (naqd va kredit pullarni) qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Markaziy bankning valyuta siyosatini asosiy shakllariga quyidagilar kiradi:

1. Diskont siyosati;
2. Deviz siyosati:
 - a) valyuta intervensiyasi;
 - b) devalvatsiya;
 - c) revalvatsiya;
 - d) valyuta rezervlarini diversifikatsiyalash.

Pul-kredit siyosati bevosita va bilvositalar orqali amalga oshiriladi. Bevosita vositalar-moliyaviy institutlardagi moliyaviy aktivlar narxлари (foiz stavkalari)ni yoki ular hajmini to'g'ridan-to'g'ri boshqarish orqali olib boriladi. Markaziy bank tomonidan tijorat banklaridagi mavjud depozit ko'rinishidagi pullarni hamda ular tomonidan beriladigan kreditlar narxлари va hajmi nazorat qilinadi. Bilvosita vositalar - Markaziy bank tomonidan moliyaviy institutlar resurslariga bozor mexanizmlari (majburiy zaxira talablari, ochiq bozordagi operatsiyalar, tijorat banklarini qayta moliyalash va Markaziy bankning hisob stavkasi, tijorat banklaridan depozitlarni qabul qilish) orqali iqtisodiyotdagi pul massasiga ta'sir etiladi.

Markaziy bank foydalanadigan vositalarning har biri foiz stavkalarining o'sishiga, kreditlash va qarz olish hajmini kamaytirishga, lozim bo'lganda foiz stavkalarini oshirishga yoki, aksincha, tushirishga xizmat qiladi. Ochiq bozordagi operatsiyalar, majburiy eng kam zaxiralarning bo'linishi, hisobga olish siyosati, valyuta siyosati pul-kredit siyosatining asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Bugungi kunda, jahon iqtisodiy rivojlanishining muammoli qirralaridan biri — bu pul tizimining evolyusiyasi va uning milliy iqtisodiyotlar munosabatlaridagi rivojlanishiga bevosita ta'siri hisoblanadi.

Iqtisodiy o'sish darajalarini ta'minlash uchun har bir milliy iqtisodiyotda, to'g'ri tanlangan monetar siyosatni amalga oshirish belgilangandir.

XXR si monetar siyosati kamchiliklari, ya'ni bu bir tarafdin, davlat tomonidan mamlakatning pul tizimi ustidan kuchli nazorati bo'lsa, ikkinchi tarafdin, pulni

tartibga soluvchi dastaklarning yaxshi rivojlamaganligi hisoblanadi. Xitoyning XX asrgacha bo'lgan monetar siyosatining asosiy vazifasi, davlat byudjet xarajatlarini moliyalashtirish va narxlarni barqarorlashtirishdan, davlatning pul-kredit institutlari faoliyatlariga kuchli aralashuvini kamaytirish bo'ldi.

Davlat siyosatini asosiy vazifalari: birinchidan, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va iqtisodiyotni barqarorlashtirish bo'lsa, ikkinchidan, davlat byudjetini to'ldirishdan iborat. Turli xil ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda, monetar siyosatni amalga oshirishdan maqsad:

- * pul muomalasining barqarorligini saqlash;
- * barqaror narxlar darajasini ta'minlash;
- * kreditni rag'batlantirish va investisiyani jalb qilish;
- * yumshoq soliq siyosatini olib borish;
- * ichki jamg'armalar hajmini oshirishni ta'minlash;;
- * iqtisodiy o'sish darajasini ta'minlash va aholi turli qatlamining turmush darajasini oshirishni ta'minlash;

XX asr o'rtalarida monetar siyosatdagi asosiy muammolar quyidagilarni o'z ichiga oldi:

- 1) *ichki pul bozorini barqarorlashtirish;*
- 2) *yuqori sur'atdagi inflyatsiya darajasini bartaraf etish;*
- 3) *real iqtisodiy sektor o'sish davrida-deflyatsiya bilan kurash.*

Hozirgi kunda pul-kredit siyosatida asosiy muammolar quyidagilardan iborat: "Yomon" qarzlarning ko'payib borishi; fond bozorlarini kengaytirish va takomillashtirish; bosqichma-bosqich erkinlashtirishga o'tish; valyuta-pul tizimini ochiqlik darajasini oshirish; yuqori darajadagi inflyatsiyani bartaraf etish va naqd pullar massasini kamaytirish.

11.2.Xitoyning milliy valyutasi yuanni mustahkamlash chora tadbirlari

Xitoyda markazlashgan pul siyosatidan pul taklifini rag'batlantirish siyosatiga o'tilmoqda, qo'shimcha pul massasini yo'qotish; qat'iy pul siyosatidan moslashuvchan pul siyosatiga o'tish.

1950-60 yillarda Xitoyda sibiqlik sovet modelidan andiza olinib, markazlashgan pul siyosati olib borildi. 1977 yilda mamlakatda bozor taklifini rag'batlantirish siyosati amalga oshirilib, u qo'shimcha pul massasini yo'qotishga qaratilgan edi. 26 yil davomida Xitoydagi mavjud bo'lgan rejali iqtisodiyotda yuanning qiymati barqaror bo'lib, muomalada naqd pullar massasi 1952 yilda 2,75 mlrd. yuandan, to 1978 yilda 21,2 mlrd. yuangacha ko'paydi, ya'ni 6,71 marta.¹

Xitoydagi yangi asosiy monetar siyosatidagi asosiy yo'nalishlar 1983 yilda Umumxitoy banklar boshqaruvchilarining konferensiyasida belgilangan edi. 1979 yildan to 1996 yillargacha Markaziy bank pul sistemasiga ta'sirini o'tkazish uchun ikkita asosiy dastakalardan foydalangan: kreditni tartibga solish va naqd pullar emissiyasi.

2004-05 yillarda Xitoyda sotib olish qobiliyati yuqoriligi bo'iz, tez sur'atlarda naqd pullar massasining muomalada ko'payishi namoyon bo'ldi. 2005 yilda Xitoy tomonidan, qayta moliyalashtirish stavkalarining shakllanishi bilan, uzoq vaqt davomida bozor omillarini kuchaytirish siyosati e'lon qilindi. 2006 yil mart oyining oxirida, pul massasidagi M2 agregatining umumiy pul hajmining taklifi 31000 mlrd. yuanni, M0 agregatining pul taklifi 6300 mlrd. yuanni; kredit pullarning umumiy hajmi 1260 mlrd. yuanni² tashkil etdi. Mamlakat valyuta zaxirasi 875,1 mlrd. doll.³ gacha o'sdi. Asta-sekinlik bilan, yuanning kursi dollar kursiga nisbatan o'sib (kuniga o'rtacha 0,01%ga). 2005 yilning iyul oyidan, Xitoy rasmiy tarzda valyuta savatchasi asosida shakllanadigan mo'jadil valyuta kursiga o'tishni boshladi.

Xitoy Xalq Respublikasining pul birligi - yuan (jenminbi) hisoblanib, u 10 tzyao va 100 fenga bo'linadi. Hozirgi kunda (2009y.noyabr holatiga ko'ra) 1 dol. - 6,8 yuanga teng bo'lib, 2000 y. da mamlakat pul massasining muomaladagi hajmi 200 mlrd.yuandan ko'p bo'lgan.

11.3.Xitoy davlat nazorati boshqarmasini tashkil topishi.

Davlatning valyuta bozori – uning moliya bozorini asosiy qismidir. XXR da valyuta bozori asosiy iqtisodiy islohotlar tizimining keng yoyilishi bilan boshlanadi. 1970-yillarning oxirida, iqtisodiy islohotlar

boshlanishi bilan, mamlakatdagi xo‘jalik mexanizmini qayta qurish sohasida - asosiy strategik qurol sifatida, reja va bozor mexanizimlaridan foydalanish maqsad qilib qo‘yildi. Bunda, iqtisodiyotni rejali boshqarish, asos qilib olinib, bozor usuli esa, unga qo‘shimcha qilib belgilandi. 1980-yillarning II- yarmiga kelib, bu shior bir qadar o‘zgardi, ya’ni, bozor mexanizmlaridan foydalanish bir muncha oshdi. Lekin, baribir, mamlakatdagi direktiv rejalashtirishning ahamiyatli roli hamon saqlanib qoldi.

1979 yilda XXR da, davlat valyuta nazorati boshqarmasi tuzildi, 1980 yilning 18 dekabrda esa, XXR Davlat Kengashi tomonidan, XXR da valyuta nazorati bo‘yicha vaqtinchalik holat o‘rnatildi, 1982 yilga kelib, XXR da Davlat Kengashining qarori bilan, bu boshqarma, Xitoy Bankiga, davlat va kollektiv korxonalarga valyuta borasida bitimlar tuzishni topshirdi. Ammo lekin, Xitoydagi qo‘shma korxonalarga esa, bunday xuquq berilmadi.

11.4.Valyuta ayirboshlash va boshqarish markazlarini shakllanishi

1985 yilda, Shenchjendagi Xitoy Xalq banki bo‘limida, mamlakatda birinchi valyuta ayirboshlash va boshqarish markazi tashkil etildi. Uning faoliyati, avval juda chegaralangan edi, ya’ni valyuta almashuvi kursi davlat tomonidan belgilab qo‘ygan chegaradan oshmasligi lozim edi, sotuvchi va xaridorlar esa, bir-birlari bilan bevosita aloqa qilish xuquqlaridan maxrum edilar, 1986 yil iyul oyidan boshlab, bu chegaralar olib tashlandi. 1986 yilning noyabrda, Shanxay shahrida shunga o‘xshash ikkinchi markaz tashkil etildi. 1990 yil boshiga kelib, XXR da o‘ziga xos valyuta bozori tiklandi va u, 40ta markazni, 60 ta ayirboshlash shahobchalarini birlashtirdi. Bu muassasalar mamlakatning barcha regionlarida faoliyat ko‘rsata boshladilar. jumladan, maxsus iqtisodiy zonalar va Tibetda ham).

Valyuta ayirboshlash va boshqarish markazini tashkil etishning sabablari va maqsadi quyidagilar bilan belgilanadi:

- 1.U iqtisodiy islohotlar yo‘nalishi bilan, jumladan: tashqi savdo tizimi islohoti va davlat moliya tizimi bilan belgilanadi;
- 2.Korxonalarni xo‘jalik mustaqilligini kengaytirish, ularni qayta qurishga, ya‘ni texnologiya asosida qayta qurishga intilishlari bilan;
- 3.Eksportga yo‘naltirilgan mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalar sonining ko‘payishi bilan;
- 4.Ularning tashqi bozorda raqobatbardosh mahsulot ishlab-chiqarishini ta‘minlash, ilmiy-izlanish tashkilotlarining sonini ko‘payishi bilan bog‘liqdir; bularning hammasi chet el valyutasiga (extiyoj) bo‘lgan talabni orttiradi.

Har qanday davlat ham, o‘zida katta xajmlarda valyuta zahiralariga ega bo‘lishiga xarakat qiladi. (XXR sida, 1990y oxiriga kelib, uning valyuta zahirasi - 28,6 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2004 yilda, bu ko‘rsatgich -458 mlrd.d.ga, 2008 yilda esa 1,9 trln. AQSH dol.ga yetdi). Bu valyutadan samarali foydalanish niyatida, davlat valyutani to‘g‘ri taqsimlashni (monopol markazlashgan ravishda taqsimlashni) o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yib, u davlat va xususiy tijorat korxona va tashkilotlariga valyutani (aniq bir qismini) belgilangan miqdorda ajrata boshladi. Mamlakatda qo‘shma korxonalarni tuzish jarayonining rivojlanishi bilan, ularning sonini oshishi natijasida, davlat bu jarayonni qo‘llab- quvvatlashga harakat qildi. Bu davrda, Xitoyda 19,86 mln.AQSh doll. miqdorida valyuta bitimlari tuzildi. U davrda valyutaga bo‘lgan talab, uning taklifiga qaraganda, ancha yuqori bo‘ldi. Ya‘ni, ulardan, 19,4 mln. dollar sotib olingan va atigi 460 ming AQSh dollari sotilgan. Hozirgi paytda, mamlakatdagi 52ta punkt xorijiy valyutani hususiy shaxslardan sotib oladi. Uni sotib olish uchun shaxsiy xujjatlar va deklaratsiyalarni to‘ldiradilar. (xorijiy valyuta manbai to‘g‘risidagi deklaratsiya).

1991 yilda, yakka valyuta qo‘yuvchilarning valyuta jamg‘armalari, XXR bo‘yicha - 4 mlrd.AQSh d.ga yetdi. Ulardan, Shanxay bo‘limida u,

600 mln. AQSh d.ni tashkil etdi. Bu markaz hozirgi vaqtda, olib borayotgan operatsiyalarning hajmi va qiymatiga qarab, Shanxayda eng yirik moliyaviy tashkilot hisoblanadi. Shanxay, Shenchjen, Fuchjou va Syamen markazlarida tuzilgan bitimlarning hajmi 90-yil boshlarida 4 mlrd.AQSh dollarini tashkil etdi.

Bu markaz 1986 yilda tuzilib, uning vazifasi valyuta bitimlarini o'zgarmas kursda ro'yxatdan o'tkazishdan iborat bo'lib qolgan edi. 1987 yil oxiriga kelib, bu markazda valyuta oldi-sotdi operatsiyalarida, uning bozori suzib yuruvchi kursga o'tdi. Oldiniga, markaz, faqat chet el kapitali orqali tuzilgan korxona va tashkilotlarga xizmat ko'rsatar edi. 1988 yilda, bu operatsiyalarda qatnashish xuquqi xitoy korxona va tashkilotlariga ham berildi. Shunday qilib, Shanxayda 1-bo'lib, keng miqyosda valyuta bozori vujudga keldi. Shanxay VA va BM valyuta bitimlarining bir kunlik hajmi - 5-6 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

11.5.Valyuta ayirboshlash va boshqarish markazlarining maqsad va vazifalari.

Shanxay VA va BM ning tashkiliy asosi. Bu markaz valyuta ayirboshlash va boshqarish bo'yicha ochiq jamiyat tashkiloti hisoblanadi. Uning faoliyati Xalq bankining Shanxay bo'limi nazoratida amalga oshiriladi. U mamlakatda investitsion muhitni tashkil qilishga harakat qildi. Shu o'rinda, qo'shma korxonalarni ichki valyuta bozoriga kiritish extiyoji tug'ildi. 1986 yilda 1-marotaba VA va BM tomonidan QK ga valyuta bitimlariga qatnashishga ruxsat berildi. Ammo, bitimlar chegarasi, faqatgina qo'shma korxonalararo valyutaning oldi-sotdi operatsiyalaridan iborat edi. 1988 yilga kelib, QK ga davlat korxonalari bilan ham valyuta oldi-sotdi tizimiga kirishga ruxsat berildi. (qo'shma korxonalar -QK).

1990 yilda umumiy bitimlar hajmining VA va B markazi tomonidan ilg'or texnika eksporti uchun 949 mln. AQSh d. (7,2%) (ajratildi) sarflandi, ilmiy-tekshirish maqsadlari, o'quv anjomlari uchun esa - 294

mln.d. (2,23%) ajratildi. Ushbu VA va BM ni valyuta sotib olish hajmi 7,46 mlrd. d.ni tashkil etib, (56,7%) u yordamchi material sotib olishga ajratildi.

XXR si valyuta bozoriga qo'shma korxonalarning qo'shilishi, ularga valyuta balansi muammolarini yechishga yordam beradi, hamda yumshoq investitsion iqlimni yaratadi. 1990 yilda, XXR da QKlarning 1/3 qismi yaxshi natijalarga erishdi, ya'ni valyuta balansida ijobiy saldoni yuzaga keltirdi. Ular qatoriga mexmonxonalar bo'yicha QKlarni kiritish mumkin. 1990 yilda QK lar tomonidan 2,24 mlrd. AQSh d.lik valyuta bitimlari amalga oshirildi, hozir XXR dagi QK lar mustaxkam valyuta rezerviga egadirlar. Shanxay VA va BM markazi o'z faoliyatida QK ga sotish uchun 338 mln. AQSh d.ni ajratdi, ulardan esa, o'z navbatida - 265 mln. AQSh d.ni sotib oldi.

Valyuta ayirboshlash va boshqarish markazining maqsadlaridan biri - bu qora bozor (valyutani) ning faoliyatini toraytirish va yo'qotishdan iboratdir. Buning uchun esa, bir qancha VA va B markazlari ishga tushirildi. Ularda (Shanxay, jumladan Pudun, Syamen, Chunsin, Chankin, Uxan zonalariga) hususiy shaxslarga ham valyuta bitimlar tuzish xuquqi berilgan.

Umuman, Shanxay VA va BM bir yil ichida, Shanxay markaziy xo'jalik hisobida ish yuritadigan tashkilot bo'lib, uning hamma xarajatlari (personalga oylik ish haqi, joylarni ijarasi va uni ta'minlab turish, hamda kundalik xo'jalik extiyoji, bularning hammasi markaz tomonidan ko'rsatilgan xizmati uchun 0,15% stavkasida), unga a'zo bo'lganlardan keladigan tushum orqali qoplanadi. Tashkilotlardan keladigan to'lovlarning hammasi Xitoy milliy valyutasida (yuanda) bajariladi. Markazning o'z xorijiy valyutasi yo'qdir.

Hozirgi kunda, Xitoy valyuta bozorida, qimmatbaxo qog'ozlar: aksiyalar, veksellar, obligatsiyalar va boshqalarni oldi-sotdi

operatsiyalari olib borilmoqda. 1985 yildan so'ng, Xitoyda suzib yuruvchi foiz stavkali kredit bozori va fond bozorlari paydo bo'ldi.

1990-91 yillarda, Shanxay va Shenchjenda fond bozorlari tashkil etildi. Ularda erkin tarzda aksiyalar sotila boshladi. Hozirda bu bozorlarda 109 ta A seriyali aksiyalar kotirovkasi bo'lib o'tdi, unda 44 mlrd.yuan yig'ildi. Xitoydagi qimmatbaho qog'ozlar bilan savdo operatsiyalarini olib boruvchi yetakchi kompaniyalar soni hozirda, 851 tani tashkil etdi.

V va N seriyalari aksiyalarni joylashtirish orqali mamlakatga 770 mln.AQSh doll. jalb qilindi. 1990 yillar oxirida, 389,1 mlrd.yuanlik davlat zayomlari chiqarildi va aynan shu narsa, Xitoy kompaniyalari moliyaviy ahvolini yaxshilashga, hamda ular orqali (qimmatbaho qog'ozlar) davlat korxonalarini texnik rekonstruksiya (qayta qurish) uchun mablag'lar hajmini ko'paytirishga yo'naltirildi.

1994 yilda Xitoyda valyuta boshqarishda islohotlar boshlanib, uning natijasida, mamlakatda yagona asosiy valyuta kursi - Jenmenbi o'rnatildi. Unda yagona valyuta hisoblash tizimi, valyuta savdosi va uni ayiriboshlashi tashkil etilib, uning asosida yagona banklararo valyuta bozori tuzildi. Bu esa, Xitoy iqtisodiy rivojlanishiga va ochiqlik hamda islohotlar jarayonini chuqurlashtirishni amalga oshirishga yordam berdi. 1996 yil 1 dekabrda boshlab, Xalqaro Valyuta fondi kelishuvining 8 bandiga binoan, Xitoy o'z valyutasini konvertatsiyalashni ochdi. Oxirgi 17 yil ichida jenmenbi kursi barqarorlashtirildi. Ammo hozirgi paytda, jahon moliyaviy inqirozi sharoitida va ma'lum sabablarga ko'ra, xitoy milliy valyutasining kursi o'zgarib, u 1 AQSh doll.- 6,8 yuanga teng bo'lmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

- 1.Xitoy valyuta bozorining xususiyatlarini aytib bering?
- 2.Xitoy davlat valyuta nazorati boshqarmasini tashkil qilish sabablari?
3. VA va B markazlarining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

- 4, Xitoyda fond bozori qachon shakllandi?
5. Xitoy fond bozorlarining vazifalari nimalarni o'z ichiga oladi?
6. Valyuta ayirboshlash va boshqarish markazlarini shakllanishi qachon tugatildi?
7. Valyuta ayirboshlashning mexanizmlari nimalardan iborat?
8. Xitoyning konvertatsiya sohasidagi muammolari nimalar?

Mustaqil ish vazifalari:

1. Xitoy qo'shma korxonalarining fond bozorlaridagi ishtiroki nimalar orqali belgilanishini aniqlang?
2. Xitoy fond bozorlaridagi holatni taxlil qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati.

- 1.Китай: Факты и цифры, 2006 г. Ежегодник. Изд.Синьсинь, Пекин, 2006г
- 2, Китайская Народная Республика 2007 г.: политика, экономика, культура, Под ред. Титоренко, Москва, 2008 г.
3. Jin Min Ji Bao.12.01.06
- 4.International Monetary Fund: International Financial Statistics. - 2005. August.- 107 p.

Internet saytlari

- 1.www. World -bank. org.
- 2.http: || europa. Eu. Int.
- 3.http: || tw.jahoo.com.
- 4.www. xinhua.org.
- 5.http://www.rian.ru

12.Mavzu. Xitoyda qimmatbaho qog'ozlar bozorining shakllanish va rivojlanish xususiyatlari

Reja

- 12.1.Xitoyning moliyaviy bozorining shakllanishi.

12.2.Xitoy fond bozorlarining rivojlanish bosqichlari va ularning xususiyatlari :

- a). birlamchi aksiyalar bozori;
- b). ikkilamchi aksiyalar bozori.

12.3. Xitoy fond bozorining zamonaviy rivojlanishi va uning xalqaro fond bozorlari bilan integratsiyalashuvi.

Tayanch iboralar: fond bozori, birlamchi va ikkilamchi fond bozorlari, indeks, kotirovka, aksiya, obligasiya, opsiya, varrant, chek, tavakkalchilik, investisiya.

Darsning maqsadi: Xitoyda qimmatbaho qog'ozlar bozorining shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini o'rganib chiqish.

12.1.Xitoyning moliyaviy bozorining shakllanishi.

Rivojlanayotgan davlatlarda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, qimmatli qog'ozlar bozoriga bo'lgan munosabatning qayta ko'rib chiqilishini talab qilayotgan bugungi kunda, ushbu kategoriyaning dolzarbligi oshib bormoqda. Chunki, aynan qimmatli qog'ozlar, ko'p jihatdan, mulkchilik shaklining o'zgarishi, uni xususiy egalikka topshirish muammolarini yechishning kaliti hisoblanadi.

Mamlakatda to'la qonli qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish o'z navbatida har bir davlatning bozorga o'tishidagi muhim tarkibiy qismini tashkil etadi, chunki u bevosita bozorning infratuzilmasi hisoblanadi.

Mamlakat fond bozorining yana bir muhim yutug'i - bu fond boyliklarini tayyorlash va ularning muomalada bo'lishi bo'yicha davlatga amaldagi qonunchilikka rioya etilishini oldindan va undan keyin ham nazorat qilish imkonini beruvchi qimmatli qog'ozlarni saqlash va ular hisobini yuritishning umumdavlat depozitar tizimining barpo etilishidir.

Mamlakatning moliya bozori uning ilmiy-texnikaviy jarayoni, ishlab chiqarishning progressiv shakllarini tashkil qilish asosida, uning milliy

xo'jalikni samarali o'sishi uchun kerakli resurslar bilan ta'minlay olishi asosida rivojlanishi darkor.

Moliyaviy bozor - bu mamlakatning yalpi pul resurslari hisoblanib, unda ushbu pul resurslari talab va taklif nisbatini iqtisodiyotning turli sub'ektlari tomonidan o'zgaruvchanligi ta'sirida doimiy xarakatda, taqsimlanishda va qayta taqsimlanishda bo'ladi. Hozirgi kunda dunyo miqyosida eng ko'p resurslarga AQSh, Yevropa ittifoqi davlatlari, Yaponiya va Xitoy davlatlarining moliya bozorlari egadir.

O'zining tarkibiy tuzilishiga ko'ra, moliyaviy bozor uch o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldirib turuvchi, ammo lekin, alohida faoliyat ko'rsatuvchi quyidagi bozorlardan iboratdir:

1. Muomaladagi naqd pullar bozori va shunga o'xshash qisqa muddatli to'lov vositalari vazifalarini bajaruvchi bozor (veksellar, cheklar va b.);
2. ssuda kapitali bozori, ya'ni qisqa va uzoq muddatli bank kreditlari;
3. Qimmatli qog'ozlar bozori. U iqtisodiyotning barcha sub'ektlariga ularga zarur bo'lgan pul resurslarini olish yo'llarini kengaytiradi va yengillashtiradi. O'z navbatida, aksiyalarni chiqarish orqali ushbu pul resurslarini muddatsiz vaqtga olishga yordam beradi, ya'ni korxonalar faoliyati davrida, ushbu aksiyalarni chiqarish orqali banklarga, nisbatan yengilroq shartlarda kreditlarni olishni ta'minlaydi.

Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va ularni sotish muntazam ravishda faoliyat ko'rsatadigan qimmatli qog'ozlar bozorini vujudga keltiradi. Hozirgi paytda qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilarini quyidagi asosiy guruhlariga bo'lish mumkindir:

1. Qimmatli qog'ozlar bozorining eng asosiy qatnashchisi - bu davlat, joylardagi hokimiyatlar, yirik milliy va xalqaro kompaniyalar hisoblanadi;
2. Institutsional investorlar, ya'ni qimmatli qog'ozlar orqali operatsiyalar olib boruvchi turli moliya-kredit institutlari (tijorat va investision banklar, sug'urta jamiyatlari va nafaqa fondlari va boshqalar);

3. Individual investorlar - turli xususiy shaxslar, jumladan, venchur biznes bilan shug'ullanuvchi uncha katta bo'lmagan korxonalar egalari;

4. Qimmatli qog'ozlar bozorining mutaxassislari - brokerlar (bitimlar tuzishni tashkil etuvchi vositachilar), dilerlar (ushbu bitimlarda o'zining kapitali bilan qatnashuvchi vositachi) va djobberlar, ya'ni bozor kon'yunkturasi bo'yicha mutaxassislardan iboratdir.

Shular bilan bir qatorda, qimmatli qog'ozlarning bir necha turlari mavjud bo'lib, ular o'z navbatida: birinchidan, oladigan daromadiga qarab; ikkinchidan, emitentning xususiyatiga qarab; uchinchidan, muddatiga va joyidagi vazifalariga qarab quyidagilarga bo'linadi:

1. Qarzli va investisiyali qimmatli qog'ozlar (dolgovie). Qarzli - obligatsiyalarning hamma turlari; veksellar, zakotlar. Investisiyali - aksiyalarning barcha turlari;

2. G'aznali, ya'ni Moliya vazirligi tomonidan markaziy hukumat nomidan chiqariladigan qimmatli qog'ozlar o'z navbatida quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Munisipal va kommunal - mahalliy hokimiyat organlari va munisipal mulkka qarashli bo'lgan korxonalarning qimmatli qog'ozlari;

- Korporatsiyalar va moliya institutlarining qimmatli qog'ozlari. Bunda, ochiq turdagi hissadorlik jamiyati maqomiga ega bo'lgan yuridik shaxsning qimmatli qog'ozlari. Ularga aksiyalar va obligatsiyalar, imzo chekish huquqiga egalik, opsionlar, varrantlar kiradi;

- banklarning qimmatli qog'ozlari: depozit sertifikatlar, cheklar, zakot varaqlari va boshqalar;

- tadbirkorlarning qimmatli qog'ozlari - tijorat vekselleri, fyuchers kontraktlari va boshqalar hisoblanadi.

3. Pul bozori va kapital bozorining qimmatli qog'ozlari. Pul bozori qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarni (1 kundan to 1 yilgacha muddatdagi) sotish va sotib olishni amalga oshiradi. kapital bozori - uzoq muddatli

qimmatli qog'ozlar (1 yildan ortiq muddatdan boshlab) bilan shug'ullanadi.

Shular bilan bir qatorda hozirgi kunda fond birjalarining roli ortib bormoqda. Ular orqali qimmatli qog'ozlar professional tarzda sotiladi va sotib olinadi. Aksiylarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi muomalasi, uning ko'p marotaba qo'ldan-qo'lga o'tishini ko'zda tutadi. Unda aksiylarning birlamchi joylashtirilishi, ya'ni, aksiya chiqaruvchining (emitent) o'z aksiylarini nominal narxda sotishi yuz beradi.

Aksiylarning keyinchalik erkin sotib olinishi va sotilishiga kelsak, ular aksiya kursi bo'yicha sotiladi. Aksiyaning kursi - bu uning bozor narxi hisoblanadi. U o'z navbatida, aniq aksiylarning talab va taklifi bilan aniqlanadi va u ko'pgina omillarga bog'liqdir. Yani, u hissadorlik jamiyatining xo'jalik yutuqlari va uning kelajagiga, uning daromadlarining kafolatlanganligiga va uning dividendi miqdoriga, bankka qo'yilgan jamg'arma foiziga ham bog'liqdir.

Yetakchi kompaniyalar aksiylari kursining o'zgarishi, mamlakat va hattoki, dunyodagi iqtisodiy kon'yunkturasiga sezilarli tarzda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Aynan shuning uchun ham, ko'pchilik davlatlarda, har kuni maxsus indekslar hisob-kitobi olib borilib, ular nashr qilinadi. Ulardan eng taniqlisi - bu Dou - Djons indeksi, ya'ni AQSh yetakchi kompaniyalari aksiylari kursining o'rtacha ko'rsatkichi hisoblanadi

Avval boshdan, Xitoyda yetuk moliyaviy bozorni tashkil etish kursi mo'ljallanib, u kapital va ssuda pul vositalari aylanishining turli shakllari va kreditlash tizimining barcha turlarini o'z ichiga olishni ko'zda tutdi. Bunday bozor esa, o'z navbatida bir qator aniq sifatiy xarakteristikalarini o'z ichiga olib, ular orasida: pul mablag'larining tovar xususiyatiga ega bo'lishi; pul-kredit institutlarining o'zini-o'zi pul bilan qoplashi; kapital aylanishini foyda olishga yo'naltirish; kapitalga bo'lgan talab va taklifni shakllantirish erkinligi va ssudaga bo'lgan foiz stavkasining o'zgarishlari mavjuddir.

Tarkiban moliyaviy bozor, oxir oqibatda, organik, o'zaro bog'liqlikda bo'lgan tizimlar majmuasidan iborat bo'ladi. Ular qatoriga - o'zida mulkchilikning turli shakllaridagi bank va nobank pul-kredit tashkilotlarini jamlagan, muomala mablag'lari bozoriga kiruvchi (sub'ektlar) institutlar tizimi; asosli tijorat krediti turidagi kredit tizimi (davlat, bank, iste'mol, "fuqorolik", ya'ni norasmiy, xalqaro); o'zida aksiyalar, oligatsiyalarni, chet el valyutasi, oltin, turli veksellarni jamlagan pul mablag'lari muomalasi tizimi; moliyaviy bozordagi operatsiyalar tizimi, jumladan, qisqa muddatli banklararo kreditlash, veksellar bilan operatsiyalar, qimmatli qog'ozlarning sotilishi va sotib olinishi kabilar kiradi.

Bugungi kunda moliyaviy bozor aylanma yoki investitsion mablag'larni davlat byudjeti tomonidan moliyalash orqali olish imkoniyatlari umuman bo'lmagan (ba'zi bir hollarda esa, yagona bo'lgan) qo'shimcha manba bo'lib, chet eldan kreditlar yoki bevosita investitsiyalarni jalb qilish orqali keladigan oddiy kreditlash bo'lib xizmat qiladi. Kapital va pullarning moliyaviy bozordagi "narxi" ularga bo'lgan talab va taklifga bevosita bog'liqdir. Xitoyda bank kreditlari o'zining miqyosiga, ob'ektiga, hisob stavkasiga qarab, reja va umumdavlat iqtisodiy siyosati talablari orqali qattiq reglamentlangandir. Moliyaviy bozorning muhim yutuqlaridan biri - turli taraflarga sochilib ketgan pul mablag'larini bir yerga jamlab olish qobiliyati, iste'mol fondining bir qismini ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlariga yo'naltirishdan iboratdir.

O'z vazifalariga ko'ra, Xitoyda moliyaviy bozor - qisqa va uzoq muddatliga bo'linadi. Ba'zi hollarda, qisqa muddatli moliyaviy bozorni - pul bozori va uzoq muddatlini esa, kapital bozori deb atashadi. Mustaqil element sifatida, valyutani tartibga solish bozori ajratiladi.

Xitoy Xalq Respublikasini qisqa muddatli moliyaviy bozorning muhim bo'g'ini bo'lib - banklararo yoki filiallararo qisqa muddatli kredit

hisoblanadi. Maxsus banklar orasida 1984 yilda vujudga kelgan o'zaro ssuda shaklidagi kreditlar, tez orada ommaviylashdi. Sekin-astalik bilan, avval shahar (Shanxayda va Guanchjouda) va ichki tizimiy (masalan, savdo-sanoat tizimida), keyinchalik esa, mintaqalararo va tizimlararo qisqa muddatli o'zaro kreditlash bozorlari shakllandi.

Qisqa muddatli moliyaviy bozorlarning boshqa muhim turi - bu veksellarni hisobga olish bozoridir. Savdo vekselleridan aksep va diskont bo'yicha o'tqazilgan eksperimentlar, birinchi marotaba 1980 yilda Shanxayda, 1982 yilda - Chunsin, Shenyang va Xebey provinsiyalarida, 1985 yilda esa butun mamlakat bo'ylab amalga oshirildi.

Shanxayda 1987 yildan boshlab, muomaladagi katta nominalli depozit sertifikatlari bilan operatsiyalar amalga oshirilmoqda. Ular minimal 10 ming yuandan - maksimal 1 mln. yuangacha bo'lgan tezkor operatsiyalar hisoblanadi. Depozit sertifikatlar emissiyasi va ular bilan shartnomalar, Xitoy xalq bankining Shanxay bo'limining maxsus holatlari bilan tartibga solinib turiladi.

Korxonalarning qisqa muddatli obligatsiyalarini sotuvga chiqarish va ularni sotib olish, ularning aylanma mablag'larini to'ldirish maqsadida 1987 yildan boshlab, avval 27 ta shaharda tajriba sifatida, keyinchalik esa, yuqori samarali korxonalar uchun, Xitoy xalq banki tomonidan ruxsat etildi.

Va nihoyat, qisqa muddatli moliyaviy bozorlarning yana bir turi fuqaro krediti hisoblanadi, ya'ni rivojlanayotgan mamlakatlardagi norasmiy moliyalash elementiga o'xshash kredit-oilaviy, qo'shnichilik, "yashirin" kabi juda yuqori foizli kreditdardir. Ushbu kreditlar xitoyning xususiy tadbirkorlik va individual tadbirkorlik faol rivojlangan rayonlarida, xususan, Chjeszyan provinsiyasidagi Venchjou rayonida keng tarqalgandir.

Xitoy o'zining uzoq muddatli moliyaviy bozorida turli davlat qarzlari, obligatsiyalari, davlat g'azna majburiyatlari, narxlar indeksiga bog'liq foizli kafolatlangan obligatsiyalar, moliyaviy qarz obligatsiyalari, qurilish obligatsiyalari ustunlik qiladi. Mavjud obligatsiyalarning yarmi aholi va yarmi tadbirkorlar hamda tashkilotlar tomonidan sotib olinmoqda. Bir oz vaqt mobaynida, obligatsiyalarni tarqatish majburiy xarakterga ham ega bo'lgan.

1987 yilda Xitoyda moliyaviy bozorni tartibga soluvchi "Aksiya va obligatsiyalarni boshqarishni kuchaytirish to'g'risidagi Davlat Kengashining bildirishnomasi"- umumdavlat hujjati chiqdi. Ammo, lekin, amalda mamlakatdagi qimmatli qog'ozlar bozori 1991 yilgacha juda ham cheklangan holda rivojlandi

1988 yilning oxiriga kelib, Xitoyning aksiya va obligatsiyalar emissiyasining yig'indisi (101,44 mlrd.yu.) mamlakat YaMM ning 7% ini tashkil etdi. Bu esa, nafaqat, AQSh (188%) va Yaponiya (96%) davlatlarining ko'rsatkichlaridan, hattoki, Braziliya (12%ga) va Hindistonning (9%) ko'rsatkichlaridan ham orqada edi.

1991 yil oxiriga kelib, umumiy aksiyalar emissiyasi maksimal 7,54 mlrd.yuan deb baholandi. Bunday holatning sababi, nafaqat, uning tabiiy o'sishdagi qiyinchiliklaridan emas, balki, 1989-1991 yillardagi iqtisodiyotni tartibga solish davrida, mamlakatdagi pul-kredit siyosatining, haddan tashqari qattiqligi, Xitoy hukumatining siyosiy, yirik qadamlar qo'yishiga tayyor emasligi, qimmatli qog'ozlar bozorining normal faoliyat ko'rsatishi uchun kerakli imkoniyatlarning mavjud emasligi bo'ldi.

12.2.Xitoy fond bozorlarining rivojlanish bosqichlari va ularning xususiyatlari.

1992 yilda mamlakatdagi tubdan o'zgarishlarning yuz berishi, hukumat rahbari Den Syaopinning ko'rsatmalariga binoan, mamlakat iqtisodiyotining bozor tipidagi o'zgarishlarga yuz tutishiga olib keldi.

Mamlakatdagi qimmatli qog'ozlar bozorining institutsional jihatdan shakllanishida yetarlicha rag'batlantiruvchi rolni Shanxay (1990y.) va Shenchjendagi (1991y.) qimmatli qog'ozlar birjasining rasmiy tarzda ochilishi o'ynadi.

Ulardan tashqari, mamlakatdagi mavjud moddiy ishlab chiqarish sohasiga qaraganda, moliyaviy sektorning ustunroq rivojlanishi, payli iqtisodiyotning miqdoran o'sishi, 1990 yillarda mamlakat iqtisodiyotining bozor yo'nalishiga o'tishi uchun qonuniy bazaga to'ldirilishlar kiritilishi va mustahkamlanishi ham, yetarli darajada katta ahamiyat kasb etdi.

Bor-yo'g'i uch yil ichida, ya'ni 1992-1994 yillarda, Xitoy qimmatli qog'ozlar emissiyasining yig'indisi 400 mlrd.yuandan oshib ketdi va u 1981- 1991 yillardagi 261 mlrd.yu. dan - 663,7 mlrd.yu. ga yetdi hamda mamlakat YaMM ning 14,78% ni tashkil etdi.⁶¹

Xitoy qimmatli qog'ozlar bozorining shakllanishi qanchalik murakkab va uzoq muddatli bo'lmasin, avvalo u, mamlakatdagi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi va ayniqsa, uning pul-kredit va investitsion dastaklarini o'zgartirish hamda xo'jalikni xususiy shaklini rivojlantirishda o'z vazifasini oqladi.

Undan tashqari, mamlakatdagi yetarlicha, yirik miqyosli moliyaviy bozor, bevosita yoki bilvosita iqtisodiyotdagi ijobiy jarayonlarni keltirib chiqarishga ta'sir qildi:

- a) aholining va korxonalarning vaqtinchalik bo'sh mablag'larini jalb qilishda tadbirkorlarning o'zaro raqobatlari orqali ularni demonopolizatsiyalash, qimmatli qog'ozlar bozoriga mablag'lar qo'yishda turli "musobaqali" loyihalarni ishlab chiqish;
- b) iqtisodiyotni "desiyosiylashtirish";
- c) iqtisodiyot samaradorligidan, pul mablag'laridan unumliroq foydalanish va birja hamda korxonalarning qimmatli qog'ozlar kursi

61 Xitoy Markaziy bankining 1994 y. ma'lumotlari

kotirovkasi orqali, ularning iqtisodiy faoliyatlarini natijaviy o'sishi orqali oshirish;

d) joriy iste'mol talabni ushlab turish, ularni uzoqroq vaqtga cho'zish, ichki davlat qarzini xalqaro amaliyotda qabul qilingan shakliga o'tqazish.

Xitoy Xalq Respublikasiga va rivojlanayotgan mamlakatlarga xos bo'lgan sharoitda, ya'ni mavjud "investitsion ochlikda" to'la qonli moliyaviy bozorni shakllantirish ob'ektiv tarzda qiyinlashgan bo'lib, uning tiklanish jarayoni, unga kerakli kadrlarning, axborot-texnikaviy va institutsional bazaning yetarli emasligi bilan beqaror sekinlashishiga olib keladi.

Xitoyda birinchi norasmiy fond bozori - 1914 yilda Shanxayda vujudga kelgan. 1920 yilda u, Shanxay fond birjasiga o'zgartirildi., Ushbu birjada asosan, davlatning qimmatli qog'ozlari aylanar edi. Keyinchalik, Xitoyning yana, ikki shahrida fond birjalari ochildi. 1949 yilda esa, mamlakatdagi barcha birjalar yopilib, ulardagi qimmatli qog'ozlar esa, yo'q qilindi. Mamlakatda iqtisodiy islohotlar boshlanishi natijasida, 1980 yilda Xitoyning qimmatli qog'ozlar bozori yana qaytadan tiklana boshladi.

a) Birlamchi aksiyalar bozori.

Xitoyda qimmatli qog'ozlarni chiqarishga urinishlar mamlakatdagi iqtisodiy islohotlarning boshlanishi bilan, 1980 yillar boshida boshlandi. 1986 yildan boshlab esa, aksiyalarni bozor savdosi bo'yicha, eksperimentlar boshlandi. Aksiyalar emissiyasi, birinchi kunlardan boshlab, mustaxkam, yuridik asosga qo'yildi.

Mamlakatda 1990 yillar o'rtalarigacha bo'lgan vaqt mobaynida, xususiylashtirish bo'yicha ma'lumotlar bir-biriga qarama-qarshi va notizimiy xarakterga ega bo'lgan.

1992 yilgacha korxonalarni xususiylashtirish eksperimental xarakterga ega bo'lib, u Shanxay, Shenchjen, Pekin, Shenyang shaharlari,

undan tashqari, Xitoy provinsiyalaridan Guandun, Xaynan, Fuszuanlar bilan cheklanib qoldi. 1992 yilning avgust oyidagi, Shenchjendagi sodir bo'lgan noxush holatdan so'ng, ya'ni u yerda xususiylashtirilgan mahalliy korxonalari aksiyalarini sotib olishni istagan chetdan kelgan kishilarning ko'payib ketishi natijasida, mamlakatning boshqa provinsiyalarida ham ochiq sotuvga qo'yish uchun, aksiyalarni chiqarishga ruxsat berildi Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun, 1993 yilda har bir provinsiyadan 1-2 tadan korxona ajratib olindi.

Xitoyda korxonalarini xususiylashtirishni cheklovchi quyidagi qator hujjatlar qabul qilindi:

- 1."Pay kompaniyalari bilan eksperiment o'tqazish uslubi to'g'risidagi holat" 15 may 1992 y.;
- 2."Ma'suliyati cheklangan hissadorlik kompaniyalari to'g'risidagi namunaviy holat ", 15 may 1992 y.;
- 3."Aksiyalar emissiyasi va ularni sotishini nazorat qilish bo'yicha vaqtinchalik holat", 22 aprel 1993 y.;
- 4."XXR ning kompaniyalar to'g'risidagi qonuni", aprel 1993 y.

Xitoyning yillik statistik ma'lumotlariga ko'ra, 1994 yilda Xitoyda 4580 ta sanoat pay va hissadorlik kompaniyalari faoliyat ko'rsatib, ular sanoat yalpi mahsulotining 5,5% ni ishlab chiqardilar. Shular bilan birga, yana, 9606ta savdo kompaniyalari ham faoliyat ko'rsatdilar.

1995 yilga kelib, xitoy statistikasi birinchi marotaba, pay va hissadorlik kompaniyalari bo'yicha, o'zining rasmiy ma'lumotlarini e'lon qildi, unga ko'ra, sanoatdagi ushbu shakldagi kompaniyalar soni 5873 taga, savdoda esa, 11937 taga yetdi.

Aksiyalarning uncha katta bo'lmagan qismigina Shanxay va Shenchjen birjalarida kotirovka qilinar edi. Xususan, 1991 yilda - ularning 14 ta turi, 1992 yilda – 72ta, 1993 yilda -200 tadan ortiq va 1994 yil oxirida - 345 ta turi kotirovka qilindi.

Mahalliy investorlarga mo'ljallangan, A - turidagi aksiyalar tarkibida qayta ishlash korxonalarining, jumladan, asosan, elektron, tekstil, mashinasozlik va savdo korxonalarining aksiyalari (4/3) ustunlik qildi. Shenchjen qimmatli qog'ozlar bozorida 31 dekabr 1994 yilda o'zlarining aksiyalarini kotirovkadan o'tqazgan 120 ta kompaniyalardan, 67 tasi sanoat sohasini, 3 tasi moliya sohasini, 9 tasi savdoni, 16 tasi ko'chmas mulk sohasini, 12 tasi umumiy infratuzilmani va 13 tasi aralash turdagi korxanalarni tashkil etdi.

Yuqori texnologik harbiy ahamiyatga ega sohalarda va strategik ahamiyatga ega bo'lgan kamyob metallarni qazib olish sohasidagi korxonalarda, yaqin vaqt mobaynida, ularni xususiyalashtirish man etilgan edi. Shular bilan bir vaqtda, mamlakatdagi yuqori modernizatsiyalashgan tarmoqlarda, ya'ni, elektrenergetika, transport va aloqada, hissadorlik jamiyatlarini tashkil etishda, davlatning kontrol paketi saqlanib qolish lozimligi ko'rsatib o'tilgandir.

Paylarning standart varianti - davlat payini, yuridik shaxs payi va individual payni mavjudligini ko'rsatadi, ularning bir qismi (ko'pincha u 20%, ba'zi hollarda esa, 5 yoki 10% lardan iborat) korxona ishchi va xizmatchilari ulushiga to'g'ri keladi. Bir qator kompaniyalarda emitent payi va xorijiy kapital payi ajratib ko'rsatilgan. Xorijiy kapitalli qo'shma korxonalar yuridik shaxs emitenti sifatida chiqishi mumkin va mamlakatning Markaziy banki ruxsati bilan, xorijiy investorlar uchun, chet el valyutasida sotiladigan V turidagi maxsus aksiyalarni chiqarishi mumkin.

Gonkong qimmatli qog'ozlar birjasida, ko'p sonli bo'lmagan korxonalar, o'z aksiyalarini kotirovka qilish uchun chiqardilar. Ushbu aksiyalar-N turidagi ("ash", "eych") aksiyalar nomini oldi.

1996-1997 yillarda, Xitoy hukumatining davlat sektorini isloh etish bo'yicha xatti-xarakatlarini faollashishi bilan, birlamchi aksiyalar bozori miqyoslarining sezilarli o'sishi yuz berdi.

1996 yil oxiriga kelib, mamlakat sanoatidagi umumiy aksionerlarning va pay korxonalarining soni to 7760 tagacha, savdodagilarning soni 22364 tagacha o'shishida ularning yillik aksiyalar emissiyasi yig'indisi 1996 yilda 15 mlrd. yuanni va 1997 yilda esa ular, 30 mlrd. yuanni tashkil etdi, bu esa, aksiyalarning hamma oldingi yillardagi yig'indisidan ham oshib ketganligini ko'rsatadi.

Mamlakatdagi ushbu yirik miqyosli aksiyalar emissiyasining asosiy maqsadi, uning qator yirik korxonalar va birlashmalarga adresli moliyaviy yordami bo'ldi: 1997 yil avgust oyi oxirining holatiga ko'ra, Xitoy va Gonkong birjalarida o'zlarining aksiyalarini kotirovka qilgan korxonalar, o'z aksiyalarini sotishdan 256 mlrd. yuanlik foyda oldilar. 1997 yilda qimmatli qog'ozlar bozoriga chiqqan yirik va o'rta korxonalar, yangi kompaniyalarning 70% ni tashkil etdi. A turidagi aksiyalar kotirovkasini amalga oshirayotgan kompaniyalar soni - 1996 yilda 520 taga, (ulardan Shanxayda 293 tasi va Shenchjenda 237 tasi faoliyat ko'rsatdi) 1997 yil oxirida esa, 720 taga (371 tasi Shanxayda va 349 tasi Shenchjenda) yetdi

Xitoy qimmatli qog'ozlar birjasida muomalaga mo'ljallangan aksiyalar emissiyasining dinamikasi quyidagilarni o'z ichiga oladi va buni biz quyidagi jadval 12.2.1. dan yaqqol ko'rishimiz mumkin

Gonkong birjasida kotirovka qilish uchun "N" ("Ash") turidagi aksiyalarni emitatsiya qiladigan kompaniyalar soni - 38 tagacha ko'paydi.

Jadval 12.2.1.

Xitoy qimmatli qog'ozlar bozorida muomalaga mo'ljallangan

Ko'rsatkichlar	O'lchov birliklari	1987-1991yy.	1992 y.	1993 y.	1994 y.	1987-1994y y.
Aksiyalar emissiyasi	mln.dona	5090	2075	9579	6706	23450
A turdagi aksiyalar	mln.dona	5090	1000	4259	1097	11446

H turdagi aksiyalar	mln.dona			4041	4569	8610
B turdagi aksiyalar	mln.dona		1075	1279	1040	3394
Ulardan:						
Shanxayda	mln.dona		855	853	952	2660
Shenchjenda	mln.dona		220	426	88	734
A turdagi aksiyalar	mln.yuan	5090	5000	19483	4962	34525
H turidagi aksiyalar	mln.gon k.doll.			8125	9878	18002
B turidagi aksiyalar						
Shanxayda	mln.AQ Sh doll.		654,?	384,8	407,0	1445,7
Shenchjenda	mln.gon k.doll.		869	2114	352	3225

aksiyalar emissiyasining dinamikasi, 1987-1994 yy.) ⁶²

b).ikkilamchi aksiyalar bozori.

1990 yillar o'rtalariga kelib, mamlakat qimmatli qog'ozlar ikkilamchi bozorida operatsiyalarni amalga oshirish uchun yetarlicha keng shoxsimon tarmoqlar faoliyat ko'rsatdi. Tashkiliy tomondan u, Shanxay va Shenchjendagi qimmatli qog'ozlar birjasini, 30 ga yaqin qimmatli qog'ozlar bilan savdo qiluvchi mintaqaviy markazlarni, 100 ga yaqin qimmatli qog'ozlar kompaniyalari (ularga uchta umumxitoy kompaniyalari - Pekindagi-Xuasya; Shanzaydagi Gotay va Guanchjoudagi - Nanfanlar kiradi); 2400 tadan ortiq turli pul-kredit institutlaridagi qimmatli qog'ozlar bo'limi, jumladan, 700 ga yaqini qimmatli qog'ozlar kompaniyalari qoshidagi va bir qator yuridik masalalar, buxgalter hisobi hamda audit bilan shug'ullanuvchi kompaniyalardan iboratdir.

Bu ishlarga 1992 yil oxirida tashkil etilgan XXR Davlat Kengashining qimmatli qog'ozlar bo'yicha qo'mitasi rahbarlik qiladi va uning ijroiya organi bo'lib, 1994 yilning 5 yanvaridan boshlab, XXR

⁶² Чжунго чженцуан тунци нуанбао 1995 (Ежегодник статистика ценних бумаг Китая, 1995).Пекин, 1996.с.50 асосида тузилган.

Davlat Kengashining bevosita qo'l ostiga o'tgan bo'lib, u qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar o'tqazishni nazorat qiladigan va uni boshqaradigan qo'mitadir.

Ushbu qo'mitaning qimmatli qog'ozlar bo'yicha vazifalariga - qimmatli qog'ozlar bozori bo'yicha qonungarchilikni va unga tegishli siyosiy ko'rsatmalarni ishlab chiqish; uning rivojlanishi bo'yicha takliflar tayyorlash; ularning ishlarini muvofiqlashtirish va rahbarlik qilish va h.k.

12.3. Xitoy fond bozorining zamonaviy rivojlanishi va uning xalqaro fond bozorlari bilan integratsiyalashuvi

Qimmatli qog'ozlar bozorini nazorat qilish qo'mitasi vazifalariga, qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini tartibga solib turuvchi normativ hujjatlarni ishlab chiqish; qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning faoliyatini nazorat qilish; qimmatli qog'ozlar emissiyasini amalga oshiruvchi kompaniyalarni nazorat qilish ishlari kiradi.

1997 yilning yozida, XXR Davlat Kengashining qarori bilan, Shanxay va Shenchjendagi qimmatli qog'ozlar birjalari Nazorat qo'mitasining bevosita boshqaruviga berildi.

Shanxay va Shenchjendagi fond birjalari nafaqat, mamlakatdagi eng muhim va eng taniqli birjalar bo'lib, balki, xorijda ham, Xitoyning institutsional tarkibidagi qimmatli qog'ozlar bozori hisoblanadi. Boshlang'ich bosqichda birjalar faoliyati individual hujjatlar bilan tartibga solinib turildi, 1993 yilning iyul oyidan boshlab esa, ular "Qimmatli qog'ozlar birjasini boshqarishning vaqtinchalik uslublari" deb atalgan hujjat orqali tartibga solina boshladi. Ushbu hujjat birjalarni o'z faoliyatlari qoidalarini va tartiblarini o'zlari mustaqil hal etishga yo'naltirilgan edi.

Shenchjendagi birja avval boshdan, aksiyalar birjasi deb yurgizilgan bo'lib, u hozirgi kunga qadar shu yo'nalishda o'z

ustuvorligini yo'qotganicha yo'q va shundayligicha qolmoqda. Hattoki, 1994 yildagi davlat g'azna majburiyatlarini fyuchers shartnomalari bilan bo'lgan qizg'in pallada ham, Shenchjendagi ular bilan savdo qilish hajmi qimmatli qog'ozlar bilan bitimlar tuzishni umumiy hajmining atigi 11,4% ni tashkil etdi.

Shanxay birjasidagi qimmatli qog'ozlar savdosining tarkibiy tuzilishi, yildan-yilga tubdan o'zgarib bordi. Avval boshda, unda obligatsiyalar bilan bitimlar ustunlik qilgan bo'lsa, 1992 yildan boshlab, Xitoyda "aksiyalar kasali" yili bo'lib, undagi aksiyalar savdosi 30 marotabaga oshdi va uning umumiy bitimlardagi hajmi esa, ularning yarmiga yetdi.

Umuman olganda, 1991-1994 yillar mobaynida XXR dagi aksiyalar bozori, ayniqsa, A turidagi aksiyalar, ular bilan savdo hajmining dinamik o'sishini o'z boshidan o'tqazmoqda edi. A turidagi aksiyalar bo'yicha bitimlar, 1991 yildagi-4,34 mlrd.yu.dan, 1994 yilga kelib, 800 mlrd.yu.ga ko'tarildi.

Xitoyning aksiyalar bozorlari kon'yunkturasi, dunyo bozorlaridagi kon'yunkturalari omillarini aniqlaydi va ular o'z navbatida quyidagilardan iboratdir:

- 1.mamlakatdagi siyosiy barqarorlik yoki davlatda qandaydir xavfning vujudga kelishi;
- 2.mamlakat pul-kredit siyosatining umumiy xususiyatlari;
- 3.mamlakatning qimmatli qog'ozlar bozorini jonlantirish bo'yicha yoki uning teskarisi bo'lgan, qimmatli qog'ozlar bozoridagi qizg'in holatni to'g'rilash bo'yicha maxsus chora-tadbirlarning mavjudligi;
- 4.pul bozoridagi (obligatsiyalar, depozitlar) boshqa dastaklarga qaraganda, investorlar uchun mutlaq va nisbatan, aksiyalar bilan operatsiyalarni amalga oshirishning daromadliligi.

Boshqa rivojlanayotgan davlatlardagi kabi, mamlakatning qimmatli qog'ozlar bozorida, aholining aksiyalarga qo'ygan quyilmalarining

nisbatan, daromadliligiga ishonchning haddan tashqari yuqoriligi mavjuddir. Aksiyalarni sotib olishda aholi o'z haq-huquqlarini oxirigacha bilmasligi va aksiyalar tavakkalchiligi bo'yicha kerakli ma'lumotlarning yo'qligi bilan birga, hukumat tomonidan bu jarayonga vaqt- bevaqt to'g'ridan-to'g'ri mavjud "o'yin qoidalariga" aralashuvi undagi o'zgarishlarning orasidagi farqni anomal darajada kattalashtirib yuboradi.

Den Syaopin tomonidan 1992 yildagi ishlab chiqilgan iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va islohotlarni dinamik tarzda amalga oshirish siyosati, mamlakatdagi ikki birjadagi aksiyalarning bozor qiymati solishtirma indeksining tezkor o'sishida o'zining aksini topdi. Agar, 1992 yilning aprel-may oylarida, ushbu indeks Shanxayda 400 ga, Shenchjenda 100-110 ga teng bo'lgan bo'lsa, 1993 yil fevral oyiga kelib, u o'zining yuqori cho'qqisiga yetdi, ya'ni Shanxayda u, - 1537 punktga, Shenchjenda esa, u - 359 punktga teng bo'ldi.

Aksiyalar bozor qiymatining pasayishiga, birjalarga boshqa mintaqa korxonalarining mahalliy aholiga kam tanilgan va ularning yangi turlarining kelib tushishi sabab bo'ldi. 1993 yilning iyun-iyul oylarida Xitoy mamlakat iqtisodiyotining "qizib ketishi" ni yo'qotish uchun, o'zining pul-kredit siyosatini ahamiyatli tarzda qattiqlashtirishga majbur bo'ldi, bu esa, birjalardagi aksiyalar indeksining pasayish tendensiyasiga, uning qisman o'zgarishlariga qaramay, favqulodda barqaror bo'ldi va u 26 oyga, 1996 yilning may oyigacha saqlanib keldi.

1994 yilda aksiya kursining pasayishi davom etib, Shanxay birjasida solishtirma indeksi shu yilning 4 yanvarida - 834 punktni, fevral oyi boshida - 755 punktni, aprelda - 699 punktni, mayda - 605 punktni, 1 iyunda - 545 ni, va nihoyat iyulda - 333 punktni tashkil etdi. Shenchjenda esa, ushbu muddatlarda ular: 230, 203, 174, 161, 139 va 96 punktlarni tashkil etdi.

Aksiyalar qiymatining pasayishiga asosiy sabab - mamlakatdagi inflyatsiya darajasining yuqoriligi va markaziy hukumat pul-kredit siyosatining qattiqligi bo'ldi. Bu vaziyatda, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiya olib borishni boshqarish va nazorat qilish Qo'mitasi boshqa tashkilotlar bilann hamkorlikda, aksiya bozorini barqarorlashtirish va keyinchalik, uni rivojlantirish bo'yicha qator maxsus tadbirlarni ishlab chiqdilar. 1994 yilning ikkinchi yarmida A turidagi yangi aksiyalarni ikkilamchi bozorlarga chiqarmaslikka qaror qilindi. Shular bilan birgalikda, yaqin yillarga mo'ljallangan - V turidagi 1mlrd.yuanlik aksiyalar emissiyasini yangilashga kelishib olindi. Yaxshi ishlayotgan korxonalar uchun, aksiyalarini sotib olish uchun, bank kreditlarini olishga ruxsat berildi.

Shular bilan bir qatorda, 1996 yilning oxirgi oylarida, Xitoy aksiyalar bozorida savdogarlik tendensiyasining ko'payishi kuzatildi. Shanxaydagi aksiyalarning solishtirma indeks kotirovkasi, dekabr oyining birinchi dekadasida -1200 punktdan, Shenchjenda esa, 4000 punktdan oshib ketdi. Bunda bir kunlik aksiyalarning sotilish hajmi o'zining yuqori cho'qqisiga, ya'ni, Shanxayda 19 mlrd.yuan, va Shenchjenda 17 mlrd.yu.ga yetdi.

Birjalardagi "qizg'in holat" yana uning aksiyalarining solishtirma indeks kotirovkasining qiymati - Shanxayda - 1800 punktga, Shencheenda - 6000 punktga ko'tariladi degan mish-mishlar bilan qizdirilib borildi. Buning oqibati birjalarning barbod bo'lishiga olib kelishini tushungan Xitoy hukumati, shu yilning 15 dekabrda bir savdo kunida aksiyalar qiymatining maksimal o'zgarishiga 10% dan iborat cheklovlar qo'ydi va aholi orasida bu yo'nalishda tushuntirish ishlarini boshlab yubordi. Bu esa, birjalardagi "qizg'in holat" ni bir oz yumshatishga yordam berdi. Qilingan ishlar natijasida, Shanxaydagi aksiyalarning solishtirma indeks kotirovkalari 865 punktgacha va

Shenchjenda esa, - 2916 punktgacha tushdi, aksiyalar savdosi esa, Shanxayda -2,9 mlrd.yu., Shenchjenda 4,8 mlrd. yu.ni tashkil etdi.

Bu bilan, Xitoy hukumati mamlakatda yuz beradigan favqulotdagi vaziyatlarda qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyatiga o'zining bevosita ma'muriy aralashuv uslubi bilan qatnashishdan bosh tortmasligini ko'rsatdi.

Umuman olganda, aksiyalar savdosining hajmi 1995 yilga qaraganda, 1996 yilda, 5 marotabaga ortdi va 2133 mlrd.yuanni tashkil etdi.

3.Xitoy fond bozorining zamonaviy rivojlanishi va uning xalqaro fond bozorlari bilan integratsiyalashuviga kelsak, jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuvi va globallasuvi bilan, xalqaro kapital xarakatini hajmi va xorijiy qimmatli qog'ozlar emissiyasi hajmi ham barqaror ravishda o'smoqda. Bu jarayonda rivojlanayotgan mamlakatlar rolining o'sish tendensiyasi mavjuddir. Xitoy davlati ham, o'z navbatida, xorijiy qimmatli qog'ozlar emissiyasiga katta ahamiyat bermoqda. Xorijiy investorlarni jalb qilishda xalqaro fond bozorlariga o'z aksiyalarini joylashtirishning ahamiyati kundan- kunga ortib borib, unda XXR fond bozori va emitent kompaniyalarning xalqaro andozalarga yaqinlashayotganligini ko'rsatadi.

Ta'kidlash lozimki, Xitoy korxonalari o'z aksiyalarini bevosita va bilvosita Gonkong fond birjasi va Xitoydan tashqarida ham joylashtirishi mumkin.

Aksiyalarni bevosita joylashtirish paytida, xitoy korxonalari valyutali aksiyalarni chiqarib, xitoy yuridik shaxsi sifatida, Gonkong yoki xorijiy birjalarda, ularni kotirovka qilishini bildiradi. Aksiyalarni bevosita joylashtirishga misol tariqasida Gonkong fond birjasidagi N turidagi aksiyalarni, Nyu-York fond birjasidagi N turidagi aksiyalarni, Singapur fond birjasidagi S turidagi aksiyalarni va London fond birjasidagi L turidagi aksiyalarni keltirish mumkin. Ushbu aksiyalarning

nominal qiymati yuanda belgilanadi, ularning kotirovkasi va qolgan barcha operatsiyalar unga mos holda, xorijiy valyutalarda amalga oshiriladi.

Xitoyda aksiyalarning bilvosita joylashtirilishi, rasman aniqlanmagandir. Gonkong yoki xorijda, mahalliy kompaniyaning Gonkong yoki xorijiy yuridik shaxs tomonidan chiqarilgan aksiyalari yoki xitoy korxonalari tomonidan Gonkong yoki xorijiy kompaniyalar aksiyalarini sotib olishi deb tushuniladi.

Agar, aksiyalarning bilvosita joylashtirilishi stixiyali xarakterga ega bo'lsa, u davlat tomonidan chegaralanadi, ularning bevosita joylashtirilishi rasmiy ravishda amalga oshiriladi va u davlat tomonidan bevosita qo'llab-quvvatlanadi. Aksiyalarning bevosita joylashtirish yutuqlaridan yana biri shundan iboratki, u bevosita xitoy korxonalari nomidan amalga oshirilishi bo'lib, shunday qilib, u xalqaro tan olinishidir. Shular bilan birgalikda, uning qator kamchiliklari ham yo'q emas. Aksiyalarni bevosita joylashtirish huquqi kuchli raqobat kurashida egallanishi (unga xitoyning XXR qimmatli qog'ozlarni nazorat qilish qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan va belgilangan kvota chegarasidagi eng yaxshi korxonalari kiradi). Hattoki ushbu qo'mitaning sanksiyasi bo'lsa ham, aksiyalarni joylashtirishning qiyinligi va ularni rasmiylashtirish muolajasining uzoq davom etishi natijasida, vaqtni boy berib qo'yish mumkin.

Aksiyalarni bilvosita joylashtirishning klassik misoli sifatida Gonkong fond birjasidagi "qizil fishkalar"ni keltirish mumkin. "Qizil fishka"lar Gonkongda ro'yxatga olingan va kotirovka qilingan aksioner kompaniyalar bo'lib, ularning 30% aksiyalariga bevosita yoki bilvosita xitoy korxonalari yoki davlat muassasalari egalik qiladi.

Xitoy korxonalarini aksiyalarini xorijda joylashtirish tarixi 1980 yillar o'rtalaridan boshlangan bo'lib, u paytda aksiyalar faqat bilvosita joylashtirilardi. Ularning emitentlari bo'lib, Gonkongda o'zining asosiy

biznesiga ega bo'lgan va ro'yxatdan o'tgan xitoy kompaniyalari chiqar edilar.1984 yilda birinchilardan bo'lib,xitoy birlashmalaridan "Chjun'in" va "Xuajun" lar tomonidan Gonkongning hissadorlik kompaniyasini sotib olinishi bo'ldi. 1984-1989 yillarda ulardan xitoyning boshqa kompaniyalari ham namuna oldilar.

1992 yil bu yo'nalishdagi keskin burilish yili bo'ldi. Aynan o'sha yildan boshlab, ichki xitoy korxonalarining aksiyalari xorijga joylashtirila boshlandi.

Birinchilardan, xitoyning "Shoudu"metallurgiya kombinati bo'lib, u Den Syaopin tashrifidan so'ng, gonkong metallurgiya kombinatining 51% paket aksiyasini sotib olib, katta mustaqillikni qo'lga kiritdi. Uning ortidan ko'pgina boshqa xitoy kompaniyalari ham ergashdi, jumladan, rangli metallarni eksport va importi bilan shug'ullanuvchi kompaniya, aviasozlik sanoatining bosh kompaniyasi va bosh neftgaz kompaniyasi shular qatoriga kiradi.

1992 yildan boshlab xitoy korxonalari aksiyalarini AQSh fond birjalarida "qobiq qurish" uslubida joylashtirildi. 1993 yil o'rtalaridan boshlab, Gonkong ma'muriyati birjalarda avtomatik tarzda aksiyalarni kotirovka qilish huquqini bekor qildi. Undan so'ng Xitoy davlat kengashi tomonidan ham xitoy korxonalari va davlat tizimidagi korxonalarga aksiyalarni bilvosita joylashtirishni taqiqladi.

Shu choralar bilan bir vaqtda mamlakatda xitoy kompaniyalarining aksiyalarini xorij fond birjalarida bevosita joylashtirishga kirishildi. 1992 yildayoq, Gonkong fond birjasi o'zining ushbu sohani rivojlantirish strategiyasini qabul qilgan bo'lib, unda u xitoy qimmatli qog'ozlar emitentlari va xalqaro investorlar orasidagi vositachilik rolini o'ynadi.

Bir vaqtda XXR va Gonkong aksiyalarni joylashtirishga tegishli qonungarchilik, nazorat qilish va buxgalter hisobi sohalarida hamkorlik qilish bo'yicha o'zlarining kelishilgan siyosatini olib bordilar.

1993 yilda xitoy korxonalari aksiyalarini bevosita Gonkongda joylashtirish boshlandi. Unda birinchilardan bo'lib, xitoyning "Sindao" pivo kompaniyasi chiqdi. Ularning aksiyalariga bo'lgan talab taklifdan 110 marotabaga ortib ketdi.

Bu yo'nalishlardagi eksperimentning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bilan 1994 yilda uning chegarasi yana ham kengaytirilib, unda 22 ta korxona qatnashdi.

1990 yillarning ikkinchi yarmida ham yangi kompaniyalarning tasdiqlangan ro'yxatlari kengayib bordi. H turidagi aksiyalarni chiqrishning eng muqobil payti 1997 yilga to'g'ri kelib, o'sha paytda 16 ta kompaniyalar aksiyalarining joylashtirilishi natijasida 28 mlrd. gonkong doll. jalb qilindi.

1997 yilda Gonkong birlamchi fond bozorida hammasi bo'lib 80 mlrd. gonkong doll. aksiyalar joylashtirildi, ularning 90% i N turidagi va "qizil fishka" aksiyalariga to'g'ri keldi.

1998 yildan boshlab, osiyo moliyaviy inqirozi oqibatlarini natijasida xitoy kompaniyalarining aksiyalarini xorij fond birjalariga joylashtirishi tezligi ancha pasaydi

Oxirgi yillarda H turidagi aksiyalarni ikkilamchi bozorda joylashtirish bo'yicha noqulay tendensiya yuzaga kelgan. Ushbu turdagi aksiyalar osiyo moliyaviy inqirozidan eng ko'p talofot ko'rdi.

Ulardan farqli o'laroq, "qizil fishka" aksiyalari moliyaviy inqirozga qaramay, investorlarda hoh birlamchi, hoh ikkilamchi aksiyalar bozorida muvaffaqiyat qozonmoqda.

1999 yil oxiriga kelib N turidagi aksiyalarni joylashtirish evaziga mamlakatga 11,5 mlrd. AQSh doll. hajmdagi xorijiy investisiyalarni jalb qilishga muvaffaq bo'lindi.

Ta'kidlash joizki, 2003 yilda Hitoyda investision fondlar to'g'risida qogug qabul qilingan bo'lib, u 2004 yilning 1 iyunidan kuchga kirdi.

Ushbu qonunning qabul qilinishi o'zaro investisiyalash tizimi quriladigan fundamentni mustahkamladi.

Xitoy ichki bozorida eng keng tarqalgan aksiyalar - bu "A" kategoriyali aksiyalardir. Bu aksiyalar nafaqat xitoy fuqarolari , balki xorijiy investorlar ham sotib olish huquqiga ega edilar. 2003 yilda malakali xorijiy institusional investorlar tizimi ishga tushishi bilan ularni xorijiy investorlar sotib olish huquqiga ega bo'ldilar. Hozirgi kunga qadar "A" kategoriyali aksiyalar xitoy fond bozorida ustun pozisiyani egallamoqda. Xitoy fond bozorining asosiy indeksleri quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Shanxay fond birjasi indeksi tarkibi:

SSE Composite birjada listing qilinuvchi barcha aksiyalar

SSE 180-180 "zangori fishkalar"

SSE A Share "A " kategoriyali aksiyalar

SSE B Share "B" kategoriyali aksiyalar

SSE Funds birjada sotiladigan, yopiq fondlar aksiyasi

Shenchjen fond birjasi indeksi tarkibi

SZE Composite birjada listing qilinuvchi barcha aksiyalar

SZE A Share "A " kategoriyali aksiyalar

SZE B Share "B" kategoriyali aksiyalar

SZE Funds birjada sotiladigan, yopiq fondlar aksiyasi

"B" kategoriyali aksiyalar 1992 yildan beri, Shanxay fond birjasida AQSh dollarida va Gonkong dollarida Shenchjen birjasida joylashtirilib kelingan bo'lib, avval ular faqat xorijiy investorlar uchun va 2001 yildan boshlab mahalliy investorlar uchun ham sotila boshlandi.

China Securities Regulatory Commission CSRC ma'lumotiga ko'ra 2003 yilning oxiriga kelib, xitoy birjalaridagi listingga 1287 ta xitoy kompaniyalari ega bo'ldilar, ulardan 783 tasi Shanxay fond birjasida va 504 tasi Shenchjen fond birjasida savdo qildilar. Umuman, bir yil ichida xitoyning ichki bozorida birlamchi aksiyalarning joylashuvini 63

kompaniya amalga oshirdi va ularning umumiy kapitalizatsiyasi 4245,77 mlrd. yuanni (512,77 mlrd. doll.) tashkil etdi. Shuni ta'kidlash joizki, xitoy kompaniyalarining 70% aksiyalari davlatning qo'lida bo'lib, ular amalda birjada aylanmaydilar.

2004 yilning 21 yanvariga ko'ra, Gonkong fond birjasida 93 ta xitoy kompaniyalarining N turidagi aksiyalari savdo qilindi va ularning umumiy kapitalizatsiyasi 433 mlrd.yuanni tashkil etdi.

Xitoy fond birjalari tarkibi quyidagilardan iboratdir:

- 1."A" kategoriyali aksiyalar - 71%;
- 2."B" kategoriyali aksiyalar - 4%;
- 3."H " kategoriyali aksiyalar - 22%;
- 4.konvertlangan obligatsiyalar - 2% dan iboratdir .

"H" - kategoriyali aksiyalarning kamchiligi uning jahon moliya bozorlaridagi vaziyatga va jahon iqtisodiy kon'yunkturasining o'zgarishiga bog'liqligidadir. Gonkong qimmatli qog'ozlar bozori xitoy bozoridan o'zining sifatli va jahon andozalariga javob beruvchi infratuzilmasining mavjudligi bilan farq qiladi. Shu bilan birga, ular o'zlarining kam tavakkalchiligi bilan xalqaro fond boshqaruvchilarining e'tiborini o'ziga jalb qiladi.

Bugungi kunda "A" kategoriyali aksiyalarni investisiyalashning tavakkalchiligi yuqori bo'lib, ushbu bozor segmenti korporativ moliyaviy hisobotning past darajada ochiqligi, ularga bo'lgan narxning juda ham yuqoriligidan aziyat chekmoqdadir.

Davlat tomonidan fond bozorlarini erkinlashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlariga qaramay, uning resurslarni qayta taqsimlashdagi roli chegaralangandir. Ekspertlarning fikricha, Xitoyni ichki jamg'armalarining hajmi mamlakat YaIM ning 40% ni tashkil qilib, ularni taqsimlash markazlashgan holda davlat banklari tizimi orqali amalga oshiriladi va u samarali emasdir. BNP Paribas ma'lumotiga ko'ra, Xitoy aholisining shaxsiy jamg'armalarining 70% i bank depozitlarida,

ularning 10% i naqd pullar va ularning atigi 20% igina qimmatli qog'ozlarga qo'yilgandir.

Oxirgi yillardagi Xitoy iqtisodiyotining yuqori ko'rsatkichlar bilan rivojlanishi natijasida, uning fond bozorlaridagi "A" turidagi aksiyalari kotirovkasining o'sishiga olib keldi. Oqibatda ularning umumiy bozor kapitalizatsiyasi 500 mlrd. AQSh doll. dan oshib ketdi.

Hozirgi kunda (2008 y.) xitoy fond bozorlari mamlakatda inflyatsiya bosimining kuchayishi ehtimoli mavjudligi bilan va ular ortidan foiz stavkalarining oshishi bilan, hamda amaldagi ko'p yillardan buyon berilib kelinayotgan arzon kreditlar va ishonchsiz qarzlarning yig'ilib qolishi bir qator defolt sodir bo'lishi xavfi bilan bog'liq investisiyalar tavakkalchiligini ortib borishini ko'rsatmoqda.

Kapitalni qayta taqsimlashda davlat faol qatnashmoqda, fond bozorlari esa, bu vazifalarni uncha yaxshi bajara olmadilar. Ularning eng asosiy muammolari kompaniyalarda davlat ulushining qisqarishi va "A" turidagi barcha aksiyalarning erkin muomalasini ta'minlash bo'lib qolmoqda. Biroq, ushbu muammoni hal qilish uchun markazlashgan iqtisodiy rejalashtirishdan va XKP tomonidan ishlab chiqilgan "xitoy ko'rinishidagi sotsializm" siyosiy konsepsiyasidan voz kechish lozimdir. Undan tashqari, qimmatli qog'ozlar muomala mexanizmini tubdan isloh etish moliya vositachilari tizimini yuqori darajada rivojlanishini talab qiladi. Ular esa, o'z navbatida bozorga bank depozitlarining bir qismini jalb qilishi va erkinlashtirish oqibatlarini yumshatishi mumkin. Ushbu ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish esa, xitoy fond bozorlarini dunyodagi yirik bozorlardan biriga aylantiradi. Hozircha, u investisiyalarni jalb qilish uchun yuqori darajada tavakkalga ega bo'lgan joy hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining raqobatbardoshligini oshirish istiqboli har bir davlat uchun uning me'eri - huquqiy bazasini yanada mustahkamlash va takomillashtirishda, ikkilamchi fond birjasining jadal

rivojlanishida, yangi moliyaviy vositalarini o'zlashtirishda, mahalliy fond bozorining xorijiy kapital bozorlariga integratsiyasida, xatolarni o'z vaqtida tuzatishda va vujudga keladigan qiyinchiliklarni yengishda ko'riladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorini o'rganish ushbu bozorning quyidagi o'ziga xos belgilari va xususiyatlariga egadir:

- Qimmatli qog'ozlar bozorini juda murakkab, keng qamrovli, tez o'zgaruvchan, raqobat juda yuqori bo'lgan bozordir. Bu bozordagi faoliyatlar o'ta keskin moliyaviy nobarqarorlikni keltirib chivarmasligi uchun yuksak ijtimoiy ma'suliyatga ega bo'lishi lozimdir

- Qimmatli qog'ozlar bozori - tovarlarni bir-birining o'rnini bosa olish qobiliyati juda yuqori bo'lgan, rivojlangan infratuzilmaga, murakkab axborot texnologiyalariga, g'oyat qimmat ishchi kuchiga va serxarajat texnologik vositalariga asoslangan ko'p tovarli bozordir.

- Qimmatli qog'ozlar bozori - xalqaro operatsiyalar chegaralari tobora kengayib borayotgan ochiq bozor, mijozlarning moliyaviy mohirligi juda kuchli tabaqalangan ommaviy iste'molga ega bo'lgan bozordir.

Xitoy Davlat kengashining bosh vaziri Ven Szyabao ta'kidlaganidek: "Dunyodagi iqtisodiy holatning o'zgaruvchanligi xitoy iqtisodiyoti uchun ham uni tavakkalchilikka yuz tutishga va oldindan aniqlab bo'lmslik omillarining ko'payib ketishiga olib kelishi mumkindir. Iqtisodiy globalizatsiyaning chuqurroq rivojlanishi bilan, xitoy iqtisodiyotining jahon iqtisodiyoti bilan aloqasi yanada yaqinlashadi. Shu bilan birga jahon iqtisodiyotidagi disbalansning chuqurlashuvi, undagi iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashuvi, raqobatning kuchayishi va AQSh iqtisodiyotidagi ipoteka inqirozining o'sib borayotgan ta'siri xitoy iqtisodiyoti rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkindir".

2008 yilning yanvar oyidagi xitoy fond bozoridagi bo'lib o'tgan jiddiy inqiroz, aynan jahon moliya bozorlaridagi nobarqaror holatdan kelib chiqqanligini ko'rsatadi. Ulardagi savdo natijasida Shanxay fnd birjasidagi indeks 7,22% ga, Shenchjen fond birjasidagi indeks esa, 7,6% ga pasaydi. Bu esa, xitoy fond bozori tarixidagi eng past darajani anglatadi.

Shu yilning mart oyi yakuniga ko'ra Shanxay va Shenchjen fond birjalaridagi bozor kapitalizatsiyasi 25 trln. 826,4 mlrd.yuanni tashkil etdi Ekspertlarning fikricha, xitoy fond bozorlaridagi bozor kapitalizatsiyasining sezilarli darajada pasayishiga sabab, ulardagi va qo'shni rayonlardagi qimmatli qog'ozlar kursining pasayishi hisoblanadi. Investorlar esa, Xitoy hukumati tomonidan iste'mol narxlari indeksining haddan tashqari tez sur'atlarda o'sishiga qarshi va ular narxini suniy ravishda ushlab turish chora-tadbirlarini amalga oshirishdan xavotirdadir.

Shanxay fond birjasidagi qimmatli qog'ozlar kursi 1 kvartal yakuniga ko'ra, 3962, 67 punktni tashkil etdi, bu esa, uning bir hafta ichida 8,53% ga pasayganligini bildirdi. Shencheen fond bozoridagi qimmatli qog'ozlar kursi 13817,65 punktni tashkil etib, bir haftada u ham 12,62% ga pasaydi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, hozirgi kunda xitoy fond bozorlari mamlakatda inflyatsiya bosimining kuchayishi ehtimoli mavjudligi bilan va ular ortidan foiz stavkalarining oshishi bilan, hamda amaldagi ko'p yillardan buyon berilib kelinayotgan arzon kreditlar va ishonchsiz qarzlarning yig'ilib qolishi bilan, bir qator defolt sodir bo'lishi xavfi bilan bog'liq investisiyalar tavakkalchiligini ortib borishini ko'rsatmoqda

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qimmatbaho qog'ozlar bozoriga tasnif bering?
2. Xitoyda fond bozori qachon shakllangan?

3. Xitoydagi qaysi fond birjalarini bilasiz?
4. Xitoyda qimmatbaho qog'ozlar bozorini raqobatbardoshligini oshirish uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
5. Jahon moliyaviy inqirozining Xitoy qimmatbaho qog'ozlar bozoriga ta'siri?

Mustaqil ish vazifalari:

1. GonKong fond birjasining zamonaviy faoliyatini taxlil qiling/
2. Shanxay fond birjasining Jahon fond bozorlaridagi mavqeini aniqlang.
3. Xitoy yirik kompaniyalari indekslarining kotirovkasi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Butikov I. Qimmatli qog'ozlar bozori, Konsalt inform, T., 2001. 496 b.
2. Мировая экономика: прогноз до 2020 г. Под ред. Акад. А.А. Дынкина, 2007, 429 с.
3. Наимов И.Н. Стратегия экономического развития КНР в. 1996-2020 гг. и проблемы ее реализации /РАН Институт ДВ -2001,. 200.с.
4. Zhao Simon X.B., Zhang L. Economic growth and income inequality in Hong Kong: trends and explanations. China. 2005. 3, №1, p. 74-10

Internet saytlari:

1. [www. World -bank. org](http://www.world-bank.org).
2. [http: || europa. Eu. Int](http://europa.eu.int).
3. [http: || tw.jahoo.com](http://tw.jahoo.com).
4. [www. xinhua.org](http://www.xinhua.org).
5. <http://www.rian.ru>

Glossariy

Pudrat - Bu uslub hozirgi kunda yirik sanoati rivojlangan davlatlarda eng ommaviy tus olgan uslub bo'lib, uning yordamida mahalliy boshqaruv organlariga quyidagi xizmatlar ko'rsatilmoqda, ya'ni, axlatni yig'ishtirib olish, ko'chalarni tozalash, o'z xonadonlaridagi qariyalarga xizmatlar ko'rsatish va davlat tashkilotlarini tozalash.

Qayta tartibga solish (deregulirovanie) – bu ikki masalani hal etishga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, birinchidan, xususiy sektorga davlat monopol korxonalari bilan raqobat qilishga yo'l qo'ymaslikni oldini olish bo'lsa, ikkinchidan esa, raqobatni rag'batlantiruvchi va bir vaqtning o'zida iste'molchilarning manfaatlarini himoya qilish uchun yangi normativ chegaralar ishlab chiqishdan iboratdir.

Mulkni sotuvga qo'yish – bu og'ir moliyaviy sharoitda qolgan, nisbatan kichik va o'rta davlat korxonalarini xususiylashtirish uchun keng qo'llaniladigan uslubdir. Bunda ushbu korxonalarning sotilishi va sotib olinishi bo'yicha tuzilgan kontraktlarni joylashtirish auksionlar yoki tanlov savdolari orqali amalga oshiriladi.

Korxona rahbariyati va xizmatchilari tomonidan uni sotib olish. Korxona rahbariyati va xizmatchilari uning aksiyalarini kontrol paketini sotib oladi. Agar, shu maqsad uchun ular tashqaridan mablag'larni jalb etsalar, unda bu uslub kreditga korxonani sotib olish deb atalib, unda sotilayotgan korxonaning aktivlari kredit olish uchun garov rolini o'ynaydi.

Qo'shma korxona – bu keng miqyosda amalga oshiriladigan xususiylashtirishning oraliq uslubi bo'lib, unda korxona rahbariyati va xizmatchilari tomonidan uni sotib olishdan tashqari, uni qo'shma korxonaga aylantirishdan iboratdir. Y'ani, bu uslub orqali mamlakatning tashqi kapital jamg'armalariga, texnologiyalariga, "nau-xau" va infratuzilmalarni mustahkamlashga bo'lgan talabi qondirilishi mumkin.

Aksiyalarga yozilish – Ushbu aksiyalarga ommaviy yozilish uslubi yirik kapital mablag'ini mulkni sotib olishga yo'naltirilishini bildiradi va uning asosiy maqsadi mulkni xususiylashtirish to'g'risida axborotni keng aholi qatlami uchun tarqatishdan iboratdir. Uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlatda yuqori darajada rivojlangan moliyaviy bozorning mavjud bo'lishi, unga yarasha qulay investitsion imkoniyatlarning mavjudligi darkordir.

Kredit — bu haq to‘lash va qaytarib berish shartlari asosida ma’lum muddatga ixtisoslashgan kredit tashkilotlari (kreditorlar) tomonidan vaqtincha bo‘sh bo‘lgan mablag‘larni unga ehtiyoji bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxsilarga qarzga berish munosabatidir.

Inflyatsiya — bu pulning qadrsizlanishi-tovar-pul muvozanatining buzilishi natijasida muomalada xo‘jalik aylanmasi ehtiyojlaridan ortiq darajada qog‘oz pullar miqdorining ko‘payib ketishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta‘minlanmagan pullarning paydo bo‘lishi. Inflyatsiya birinchi galda sifati yaxshilanmagan holda tovarlar va xizmatlar narxning ko‘tarilishi ko‘rinishida, shuningdek, oltin va chet el valyutasining milliy valyutaga nisbatan qimmatlashishi shaklida yuz beradi. Tovar ishlab chiqarishning to‘lov qobiliyatiga ega talab o‘shidan ortda qolishi, bozorga talabga javob bermaydigan tovarlarning ko‘payib ketishi, byudjet kamomadlarini qoplash uchun qo‘shimcha pul emissiyasi, investisiyalarni emissiya hisobidan moliyalashtirish, monopol narxning mavjudligi, narxni oshib ketishidan hadiksirab tovarlarni keragidan ortiq xarid etish, mamlakatga qadrsizlangan chet el valyutasining ko‘plab kirib kelishi va boshqa omillar inflyatsiyani yuzaga keltiradi. Inflyatsiya jarayoni narxlarning o‘shishi, yalpi talabning yalpi taklifdan oshib ketishi, makroiqtisodiy beqarorlik natijasidir.

Valyuta siyosati — davlatning mamlakat ichida va undan tashqarida valyutaga, valyuta kursiga, valyuta operatsiyalariga ta‘sir ko‘rsatish chora-tadbirlari; davlat iqtisodiy siyosatning va tashqi iqtisodiy faoliyatning tarkibiy qismi. Valyuta siyosatning asosiy dastaklari — valyuta intervensiyasi, valyuta cheklashlari, valyuta subsidiyalari, valyuta pariteti, valyuta rezervlari, devalvatsiya, revalvatsiya va boshqalardan tashkil topadi. Mamlakatda valyuta siyosatni hukumat, markaziy bank, markaziy moliya muassasalari amalga oshiradi. Jahon miqyosida valyuta siyosatni xalqaro valyuta — moliya tashkilotlari (Xalqaro valyuta fondi, xalqaro banklar) olib boradi. Uni amalga oshirish davriga ko‘ra, joriy valyuta siyosat va uzoq muddatli valyuta siyosat kabi ko‘rinishlari bor.

Diskont siyosat — bu Markaziy bankning hisob stavkasini o'zgartirish yo'li bilan milliy valyuta kursiga va to'lov balansining holatiga ta'sir etish maqsadida amalga oshiriladigan valyuta siyosatidir.

Valyuta intervensiyasi — bu Markaziy bankning milliy valyuta kursiga ta'sir etish natijasida valyuta bozorida chet el valyutalarini sotib olish va sotish tushuniladi.

Pul-kredit siyosati — hukumatning pul muomalasi va kredit sohasida olib boradigan bosh yo'li va mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini va uning samarali faoliyatini ta'minlashga, pul tizimini lozim darajada mustahkam saqlab turishga qaratilgan chora-tadbirlari. Pul-kredit siyosati davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, odatda, uni Markaziy bank amalga oshiradi. Pul-kredit siyosati orqali muomaladagi ortiqcha pul massasi qisqartiriladi yoki ko'paytiriladi, inflyatsiyani pasaytirish chora-tadbirlari ko'riladi. Markaziy bank pul-kredit siyosatini olib borishda pul bozoriga to'g'ridan-to'g'ri o'zining boshqaruv vakolatlari yordamida va pul emissiyasi orqali ta'sir o'tkazishi mumkin¹.

Resurslarni taqsimlash. Bunda nomutanosiblik bozorning takomillashmagan omilini ishga solib, masalan, mamlakatning yirik shaharlarida miqyos ustunliklarini o'sishi uning teskari holatiga aylanadi va resurslarning kam harajatli mintaqalariga quyilishi ularni o'zlashtirishda samara bermaydi.

Mehnat taqsimoti va savdoning samarasi. Ushbu mehnat taqsimoti va savdo iqtisodiyotning sog'lom o'sishiga yoki uning tushkunlikka yuz tutishiga o'zining jiddiy ta'sirini ko'rsatuvchi muhim rag'batlanish hisoblanadi. Mahalliy hukumatning moddiy resurslar harakatiga, ishchi kuchiga, tovarlar va pul vositalariga mintaqalararo to'siqlarni qo'yish siyosati juda xato siyosat hisoblanadi va bunday siyosat mintaqalarning ustuvorlik hamda mehnat taqsimoti salohiyatini pasaytiradi.

Narxlar nisbati va bozor bo'shlig'i. Narxlar tizimi — bu bozor iqtisodiyotining yuragi hisoblanib, u qiymat qonuni va raqobatbardoshlik mexanizmi faoliyatini ta'minlaydi. Narh — bu bozor ishlab chiqarish elementlarini shakllantirish uchun foydalanadigan dastakdir. Bu tizimning barbod bo'lishi iqtisodiy faollikning barcha jihatlariga umumiy tarzda ta'sir etadi. Narhlarning nisbatan ratsionalligidan davlatdagi strategik maqsadlarga yetish va uning sanoat siyosatini qay tarzda amalga

o'shinishi bog'liq bo'lib, uning oqibatlari jamiyatdagi barqarorlik va ijtimoiy adolatda ko'rinadi

Bandlikni ta'minlash. Ortiqcha ishchi kuchi bandlikka bo'lgan bosimni yengillashtirmaydi va mintaqalardagi nomutanosiblikning bog'lanib ketishiga ham yordam bermaydi.

Barqaror rivojlanish strategiyasi. Mintaqaviy iqtisodiyotning haddan tashqari yuqori darajadagi nomutanosibligi mamlakatda qoloq rayonlarning paydo bo'lishini ko'rsatadi, ayniqsa, boy tabiiy resurslarni ekspluatatsiya qilish hisobiga sog' bo'lmagan alohida uzoq o'sishga tayangan rayonlarning. Shunga qaramay, barqaror o'sish strategiyasi mamlakatning asosiy davlat siyosati hisoblanadi va jahon rivojlanish tendensiyalari oqimidadir.

Mintaqalararo o'zaro yordam va kooperatsiya (birlashish) asosida tarmoqlararo dinamika. Bunday dinamikaning mavjudligi o'zaro bir-birini to'ldiruvchi sanoat va jamg'arishdagi o'sish manbai bo'lib xizmat qiladi. Biroq, u ayrim rayonlarda tarmoqlarning buzilib, tushkunlikka tushishiga olib kelishi ham mumkin. Agar, mintaqaviy rivojlanish Pareto optimalligi tamoyilini buzsa, nomutanosiblikni to'g'rilash imkoniyatini ko'rib chiqish mumkindir.